I.V. Robert esa virtual texnologiyalarning ta’limda samaradorligidan tashqari salbiy jihatlarini yoritib, bunday ta’lim insonlarni texnikaga bog‘lab qo‘yishi mumkinligini aytib o‘tadi[3].

R.I. Zolotaryov kasb ta’limi sohasida innovatsion kompyuter didaktikasining virtual laboratoriya ilmiy tadqiqot ishida innovatsion pedagogika faoliyatida kompyuter yordamida muammolarni hal qilish va innovatsion kompyuter didaktikasining fanlararo virtual laboratoriyalar modeli hamda innovatsion kompyuter didaktikasi virtual laboratoriyalari tajriba-sinov ishlarini joriy qilish va ularning natijalarini baholash kabi tadqiqot ishlari olib borilgan [4].

I.V. Lapshina tomonidan talabalarni kasbiy tayyorlashda virtual axborot-ta’lim laboratoriyasi ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha kasbiy ta’limda virtual axborot-ta’lim laboratoriyalari konsepsiyasi shakllantirilgan hamda axborot-ta’lim laboratoriyalari modeli imkoniyatlarini amalga oshirishda amaliy savollar kabi tadqiqot ishlari olib borilgan[5].

“Virtual laboratoriya” nima? V.V. Truxin ta’rifiga ko‘ra, virtual laboratoriya - bu haqiqiy o‘rnatish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan yoki ular mavjud bo‘lmaganda tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparatlar jamlanmasidir. Birinchi holda, biz masofadan kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan laboratoriya sozlamalari bilan shug‘ullanamiz, u haqiqiy laboratoriyani, sozlashni boshqarish va olingan ma’lumotlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

raqamlashtirish uchun dasturiy ta’minot va apparat vositalarini, shuningdek, aloqa vositalarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi holda, barcha jarayonlar komputer yordamida modellashtiriladi”[6].

Shuningdek ta’lim tizimini takomillashtirishda ko‘plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan S.A.Usmanov “Imitatsion model qurilmalari vositasida muhandis-pedagoglarni tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari” hamda F.R.Murodova “Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual laboratoriyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish” mavzusida ilmiy tadqiqot ishini olib borgan.

S.A.Usmanov tomonidan imitatsion model qurilmalarini ishlab chiqish metodikasi, model qurilmalarini tayyorlash va o‘quv materialini aniqlash, uni ratsional konstruksiyalash, mazmunini ochib berish metodlarini tanlash, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishning vosita va metodlarini tanlash, konstruksiyasini aniqlash va imitatsion model qurilmalari sifatini ekspert baholash kabi imkoniyatlar yaratilgan[7].

F.R.Murodova tomonidan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual laboratoriyalardan foydalanishga doir o‘quv materiallarini idrok etishning audial, vizual, kinestetik tizimlarini integratsiyalash, maxsus, texnologik, kommunikativ, refleksiv kompetensiyalarni yaxlit tarzda shakllantirish kabi metodik shart-sharoitlari jarayon monitoringini adaptiv, reproduktiv, evristik, kreativ darajalar bo‘yicha korrelyatsiyasini ta’minlash orqali takomillashtirilgan[8].

Q.K. Tagayev tomonidan virtual texnologiyalar yaratish va ulardan foydalanish metodikasi ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun virtual texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv materiallari hamda ularning metodikasi ishlab chiqildi[9].

K.M. Xalikov, Z.R.Mamadaliyevalarning “Internet tarmog‘ida virtual laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatini beruvchi konstruktorlari” ilmiy tadqiqot ishida virtual laboratoriya-ta’limda axborot kommunikatsiya tizimining o‘ziga xos omili ekanligi hamda virtual laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borilgan[10].

“Physics Education Technology” (PhET) platformasi tabiiy fanlar yo‘nalishida 2001-yildagi Nobel mukofotining sovrindori K. Viman tomonidan yaratilgan. PhET platformasida turli xil mavzularga oid modellar mavjud bo‘lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan. PhET platformasida taqdim etilayotgan modellar Open Sourse bo‘lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin[7].

Xuddi shunga o‘xshash Phet.colorado.edu, vascak.cz va olabs.edu.in kabi saytlarda fizika, kimyo, matematika va biologiya fanlariga oid virtual laboratoriya ishlarini bajarish mumkin.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan Vlab dasturi yordamida fizikaning “Mexanika” va “Molekulyar fizika” bo‘limlari uchun virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

“Transport vositalari muhandisligi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun asosiy bazaviy fan hisoblangan “Avtomobil nazariyasi” fanidan “Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash” laboratoriya mashg‘uloti olib boriladi. Ushbu laboratoriya mashg‘ulotini olib borish uchun zarur jihozlar va asbob-uskunalar kerak bo‘ladi. Bularni sotib olish uchun esa mablag‘ kerak bo‘ladi. Bu bir nechta noqulaylik va muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sabab ushbu laboratoriyani virtual holatda bajarish yuqorida keltirib o‘tilgan noqulaylik va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

“Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash” laboratoriya mashg‘ulotini olib borish uchun TechVlab dasturi ishlab chiqilgan. Bo‘lajak muhandis talaba ushbu dastur yordamida laboratoriya mashg‘ulotini virtual holatda amalga oshiradi va shu asosda kerakli laboratoriya natijalarini olishi mumkin.

“Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash” laboratoriya ishini o‘tkazish jarayonini bajarilishini va metodik ta’minotini keltirib o‘tamiz:

Laboratoriya ishi: Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash

Ishning maqsadi: TechVlab dasturi yordamida avtomobilning sun’iy yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligining geometrik va tayanch tishlashish o‘lchamlarini laboratoriya sharoitida aniqlash.

Avtomobil o‘tuvchanligining geometrik o‘lchamlari quyidagilardan iborat: avtomobilning eng pastki nuqtasi bilan yo‘l sathi orasidagi masofa-h; o‘tuvchanlikning oldingi va keyingi burchaklari-$\gamma_{o'}$, $\theta_{o'}$; yo‘l to‘siqlarining bo‘ylama va ko‘ndalang radiuslari-ρ_b ρ_k; o‘tiladigan to‘siqning balandligi-h_t.

Yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanlikning tayanch-tishlashish o‘lchamlariga quyidagilar kiradi: tortish va tishlashish shartlari bo‘yicha maksimal dinamik faktorlar; avtomobilning orqa ilmog‘idagi solishtirma tortish kuchi; shinaning yo‘l sthiga solishtirma bosim kuchi; oldingi va orqa g‘ildiraklar izining mos kelish koeffitsienti.


Ma’lum bo‘lishicha yetaklanuvchi g‘ildiraklarning to‘siqlardan oshib o‘tish xususiyati yetakchi g‘ildiraklarga nisbatan yomonroqdir. Chunki yetaklanuvchi g‘ildiraklar ko‘proq to‘siqlarga tiralib qolsa, yetakchi g‘ildiraklar esa uni burovchi moment hisobiga yengib o‘tadi. Yetaklanuvchi va yetakchi g‘ildiraklarning tik to‘siqlarga urilishi paytida hosil bo‘lgan reaksiya kuchlarining taqsimlanishini qarab chiqamiz (1-rasm).

1-rasm. Avtomobil g‘ildiragining tik to‘siqlarni yengib o‘ta olish sxemasi. yetaklanuvchi g‘ildirak; b) yetakchi g‘ildirak. T-to‘siqni yengib o‘tish uchun zarur bo‘lgan kuch, N; R-to‘siqning reaksiyasi, N; X va Z-reaksiya kuchining gorizontal va vertikal tashkil etuvchilari. Yetaklanuvchi g‘ildirakning h balandlikka ega to‘siqdan oshib o‘tishi uchun zarur bo‘lgan T kuchning miqdori quyidagicha topiladi (1-rasm, a).

$$T_{и} = \frac{G_k}{tg\alpha_1} = G_k \frac{\sqrt{2r_k \cdot h - h^2}}{r_k - h}$$

Agar g‘ildirakka M_k burovchi moment ta’sir etayotgan bo‘lsa, T kuchning miqdori R_k tortish kuchi hisobiga kamayadi (1-rasm, b).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)



$$T_{и} = G_k \frac{\sqrt{2r_k \cdot h - h^2}}{r_k - h} - P_k \frac{r_k}{r_k - h}$$

Har ikkala formuladan ko‘rinadiki h =r_k bo‘lsa, T kuchning miqdori cheksiz oshib ketadi va g‘ildiraklarga keltirilgan burovchi momentning qiymati har qancha katta bo‘lmasin, avtomobil yo‘l to‘siqlaridan oshib o‘tish xususiyatini butkul yo‘qotadi.

Avtomobilning to‘siqlardan o‘tuvchanligini laboratoriya sharoitida kuzatish va aniqlashga mo‘ljallangan tajriba qurilmasi qo‘zg‘almas, tekis va gorizontal joylashgan taglik, yo‘l xususiyatlariga ega nov, yig‘ib teriladigan sun’iy to‘siq, avtomobil modeli, chig‘iriq va tarozi toshlaridan tashkil topgan TechVLab dasturi yordamida amalga oshirish mumkin. Quyidagi keltirilgan jadvaldagi avtomobil parametrlari kiritiladi (1-jadval).

1-jadval


№	Modellashtirilgan kattaliklar	Belgilanishi	Avtomobil modeli	
			Yengil	Yuk
1	Avtomobilning oldingi g‘ildiraklaridagi massasi, N	$G_к$	14500	53955
2	Bazasi, m	L	2,52	3,35
3	Koleyasi, m	B	1,4	1,475
4	G‘ildirak radiusi, m	r_k	0,27	1,7
5	To‘siq balandligi, m	h_t	0,12	0,12
6	Tortish kuchi, N	P_k	0	0
7	Yo‘l prosveti, m	H_1	0,23	1,3
8	Orqa ko‘prik prosveti, m	H_2	0,23	1,25
9	O‘tuvchanlik burchaklari, grad.:			
	- oldingi	$г_ў$	36	41
	- keyingi	$и_ў$	17	25

TechVLab dasturi yordamida “Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash” laboratoriya mashg‘ulotini olib borishda talaba tomonidan avtmobil parametrlari (umumiy og‘irligi, bazasi, koleyasi, g‘ildirak radiusi, to‘siq balandligi, yo‘l prosveti, tortish kuchi, avtomobil turi, harakatlanish holati kabilar) kiritiladi. Ushbu tajriba yordamida avtomobilning tegishli balandlikka ega yo‘l to‘sig‘ini yengib o‘tish uchun kerak bo‘ladigan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tayanch tortish kuchi hamda avtomobilning yo‘l to‘sig‘ini yengib o‘ta oladigan ko‘ndalang va bo‘ylama radiuslari aniqlanadi. (2-rasm)



2-rasm. Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash.

Sun’iy to‘siq avtomobilning harakat yo‘nalishiga tik holda joylashgan bo‘lib, bir nechta mustaqil, qalin metall plastinkalardan iborat bo‘ladi. Zarur balandlikdagi g‘ov hosil bo‘lishiga mo‘ljallangan plastinkalar bir-biriga ustma-ust joylashtirilib, qo‘zg‘almas taglikga yashirin vintli birikmalar yordamida bikr qilib mahkamlanadi.

Tajribani amalga oshirish uchun avtomobil modeli ma’lum yo‘l sharoiti ta’minlangan va sun’iy to‘siq bilan jihozlangan gorizontal novga erkin o‘rnatilib, oldingi uchi bilan tros-ip yordamida chig‘iriq orqali tarozi bilan tutashtiriladi. So‘ngra avtomobilning oldingi g‘ildiraklari talab qilingan balandlikka teng sun’iy to‘siqga tirab qo‘yiladi va tarozi sekin-asta bir me’yorda oshib boruvchi toshlar bilan yuklanib boriladi. Toshlarning vazni avtomobil g‘ildiraklari sun’iy to‘siqni yengib o‘tguncha qadar oshirib boriladi va bu miqdor tayanch-tortish o‘lchami – T itaruvchi kuchning qiymatiga mos keladi. Har gal sun’iy to‘siq balandligi plastinkalar qalinligi hisobiga oshirib boriladi va har bir tajriba kamida uch marta yuqorida bayon qilingan tartibda takrorlanadi.

Ushbu tajribani avtomobil modelining oldingi g‘ildiraklari yetaklanuvchi yoki yetakchi bo‘lgan hollarda, hamda yo‘l to‘siqlarining rusumi va xarakterini o‘zgartirgan holda davom ettirish mumkin (3-rasm).

kiritiladi.

Tajriba va o‘lchov natijalari:

/p	To‘siq balandligi	O‘tuvchanlik ko‘rsatkichi		
	h_t, m	$\rho_б$	$\rho_к$	$T_{taj.}$
	120	0,183	1,180	15048

Nazorat savollari

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)


1.O‘tuvchanlikning geometrik va tayanch-tishlashish o‘lchamlari orasida qanday farq bor?

2. Avtomobilning o‘tuvchanligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

3. O‘tuvchanlikni oshirishning qanday usullari mavjud?

4. Avtomobilning konstruktiv xususiyatlarining o‘tuvchanlikka ta’siri qanday?

Ushbu virtual laboratoriya ishini talaba mustaqil bajarsa, qolgan mavzulariga doir laboratoriya ishlarni ham TechVlab dasturida oson, tushunarli va qulay tarzda bajara oladi.



3-rasm. Avtomobilning yo‘l to‘siqlaridan o‘tuvchanligini aniqlash.

Mazkur tajriba orqali aniqlab olingan barcha kattaliklar natijalari quyidagi jadvalga

Transport vositalari muhandisligi ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun laboratoriya jihozlarining yetishmasligi yoki ularning eskirganligidan kelib chiqib, bo‘lajak muhandislarni hozirgi zamon texnologiyasidan foydalangan holda, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, smart aloqa vositalariga qiziqishi va ularda texnika vositalarining mavjudligini inobotga olsak, virtual laboratoriya ishlarni qiyinchiliksiz bajarishga imkon beradi. Talabalar zamonaviy vositalar orqali laboratoriya ishlarini bajarsa, ularning muhandislik sohasiga bo‘lgan qiziqishlari, kashfiyotchilikka bo‘lgan intilishlarini rivojlantiradi, Bu esa o‘qituvchining ham mas’uliyatini yanada oshiradi.

Hozirgi zamon talabi laboratoriya ishlarini bajarishda eski usullardan qochish, yangi g‘oya va modellarga o‘tish o‘qitishning samaradorligi oshiradi. Albatta talaba faqatgina virtual laboratoriya ishlarini bajarib yetarli miqdorda kasbiy mahoratini shakllantirib bo‘lmaydi, bunda real laboratoriya ishlarining roli alohida o‘rin tutadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Virtual laboratoriya ishlarini talaba mustaqil joy, vaqt tanlamasdan qo‘lidagi smart aloqa vositalari orqali ham bajara oladi, bu esa talabada ishtiyoqni oshiradi, fanga bo‘lgan qiziqish va ijodkorlikni shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda transport muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari laboratoriya ishini bajarishdan oldin talaba fan dasturidagi laboratoriya ishining mavzuga doir to‘liq yo‘riqnomani mustaqil o‘qib chiqishi va undagi o‘zi tushunmagan bilimlarni yoki asbob – uskunalarni, ularning ishlashini avval o‘qituvchidan so‘rashi, ishni bajarishiga doir ko‘rsatmalar bilan chuqur tanishib, shundan so‘ng ish yuzasidan talaba va o‘qituvchi orasida qisqa savol - javob shaklida yo‘riqnomadagi keltirilgan ma‘lumotlarni mustahkamlab olsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Laboratoriya ishini virtual shaklida tashkil etish orqali talabaning bilim saviyasi oshishiga hamda o‘quv jarayonining sifat va samaradorligi o‘sishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Каршибоев, Ш. 2023. Методика современной организации лабораторных занятий по физике. Общество и инновации. 4, 8/S (окт. 2023), 94–101. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp94-101.
2. Sh.Sh.Sayfiyev, U.E.Haydarov, U.O‘.To‘xtayev, M.N.Yusupov FIZIKA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARINI ISHLAB CHIQISH // SAI. 2024. №Special Issue 23. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/fizika-darslarida-virtual-laboratoriyalardan-foydalanishning-yangicha-usullarini-ishlab-chiqish (дата обращения: 25.07.2024).
3. Xalikov, Akbar & Egamov, Sulton & Normatov, Jahongir. (2022). Informatika fanida virtual ta’lim texnologiyalari. Общество и инновации. 3. 109-113. 10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp109-113.
4. Р.И.Золотарёв. «Виртуальная лаборатория инновационной компьютерной дидактики в системе профессионального образования» дис.. кан. пед. наук/ Кубанский государственный университет. Россия. 2008, стр. 217. https://disser.uz/virtualnaja-laboratorija-innovacionnoj-kompjuternoj-didaktiki-v-sisteme
5. И.В.Лапшина. «Виртуальная информационно-образовательная лаборатория в профессиональной подготовке студентов» дис.. кан. пед. наук/ Ставропольский государственный университет. Россия. 2002, стр. 161. https://disser.uz/virtualnaja-informacionno-obrazovatelnaja-laboratorija-v-professionalnoj
6. Xoliqov Q.T., Qarshiboyev Sh., Sulaymanov O.A., Egamberdiyev T.X. Fizika ta’limida online virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari. Fan va ta’lim integratsiyasi 2023-YIL 1-SON https://journals.uzfi.uz/.
7. S.A.Usmanov. “Imitatsion model qurilmalari vositasida muhandis-pedagoglarni tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari” dis.. ped. fan. nom./ O‘rta maxsus, kasb-hunar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ta’limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti. 2007-yil. 155 bet.
8. F.R.Muradova. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual laboratoriyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish” dis.. DSc./ Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. 2022-yil. 200 bet.
9. Q.K.Tagayev. “Virtual texnologiyalar yaratish va ulardan foydalanish metodikasi” mag. diss.. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2023-yil. 91 bet.
10. K.M.Xalikov, Z.R.Mamadaliyeva. “Internet tarmog‘ida virtual laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyatini beruvchi konstruktorlari” monografiya. Novateur Publication nashriyoti ISBN: 978-93-86253-36-2.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abduraxmanov Zoxidjon Baxtiyor o‘g‘li**, doktorant [**Абдурахманов Зохиджон Бахтиер угли**, докторант], [**Abduraxmanov B. Zoxidjon** doctoral student]; manzil: 130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shox ko'chasi, 259 uy, [адрес: 130100, Джизакская область, г. Джизак Улица Рашидова, д. 259], [address: Rashidov Street, 259, Jizzakh, 130100, Jizzakh region]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

FALSAFA TA’LIMIDA MEDIASAVODXONLIKNI O‘RGATISH METODOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

© N.A. Abduxolikova[1]✉

[1]Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada mediasavodxonlikning falsafa ta’limiga integratsiyalashuvi raqamli asrda axborotga tanqidiy yondashishni rivojlantirish uchun zarurligi ko‘rsatiladi. Falsafa kontekstida mediasavodxonlik manbalarni tanqidiy baholash, bilimning asosiy tamoyillarini tushunish va axborotning axloqiy jihatlarini anglash imkonini beradi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — mediasavodxonlikni falsafa ta’limiga integratsiya qilish orqali talabalarni raqamli ma’lumotlarga tanqidiy yondashishga tayyorlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va gnoseologik tamoyillar asosida axloqiy mas’uliyatni oshirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda mediasavodxonlikni o‘rgatish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, keys tadqiqotlar, tahliliy mashqlar va fanlararo loyihalar kabi metodologiyalardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, mediasavodxonlikni falsafa kurslariga integratsiyalash tanqidiy fikrlash va raqamli axloqiy mas’uliyatni sezilarli darajada oshiradi. Keys tadqiqotlar va munozaralarga asoslangan ta’lim talabalar bilim darajasini va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, mediasavodxonlikni o‘qitish falsafa kurslarining samaradorligini oshirishga va o‘quv jarayonini zamonaviy axborot muhitiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: media savodxonligi, falsafa ta'limi, tanqidiy fikrlash, axborot etikasi, raqamli savodxonlik, gnoseologiya, pedagogik metodologiyalar..

Iqtibos uchun: Abduholiqova N.A. Falsafa ta’limida mediasavodxonlikni o‘rgatish metodologiyalari: nazariya va amaliyot. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.26–31.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ В ФИЛОСОФСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

© Н.А. Абдухоликова[1]✉

[1]Наманганский государственный институт иностранных языков имени И. Ибрата, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются методологии обучения медиаграмотности в философском образовании и их роль в образовательном процессе. Особое внимание уделяется интеграции медиаграмотности в философские курсы как важного аспекта развития критического мышления и цифровой этики.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность преподавания философии посредством интеграции медиаграмотности, способствовать развитию у студентов навыков критического анализа информации и осознания этических аспектов взаимодействия с медиа в цифровую эпоху.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научной литературы по методологиям обучения медиаграмотности, а также использованы практические кейсы, междисциплинарные проекты и аналитические упражнения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что интеграция медиаграмотности в философское образование способствует значительному росту уровня критического мышления студентов, улучшению их аналитических способностей и пониманию этических аспектов работы с информацией.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что внедрение медиаграмотности в философское образование делает учебный процесс более эффективным и актуальным в условиях цифровой реальности. Практические методики, такие как кейс-стадии и междисциплинарные проекты, способствуют всестороннему развитию студентов.

Ключевые слова: медиаграмотность, философское образование, критическое мышление, информационная этика, цифровая грамотность, эпистемология, педагогические методологии.

Для цитирования: Абдухоликова Н.А. Методология преподавания медиаграмотности в философском образовании: теория и практика. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.26–31.

METHODOLOGIES OF TEACHING MEDIA LITERACY IN PHILOSOPHY EDUCATION: THEORY AND PRACTICE

© Nasiba A. Abdukholiqova[1]✉
[1] Namangan State Institute of Foreign Languages named after I.Ibrat, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the methodologies of teaching media literacy in philosophy education and their role in the educational process. Special attention is given to integrating media literacy into philosophy courses as a critical component of developing analytical thinking and digital ethics.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

AIM: the main objective of the study is to enhance the effectiveness of teaching philosophy through the integration of media literacy, fostering students' skills in critical analysis of information, and understanding ethical aspects of media interaction in the digital era.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on media literacy teaching methodologies, as well as applying practical case studies, interdisciplinary projects, and analytical exercises.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that integrating media literacy into philosophy education significantly improved students' critical thinking skills, analytical abilities, and understanding of the ethical dimensions of working with information.

CONCLUSION: the study results confirmed that incorporating media literacy into philosophy education makes the learning process more effective and relevant to the digital reality. Practical methodologies, such as case studies and interdisciplinary projects, contribute to the comprehensive development of students.

Keywords: media literacy, philosophy education, critical thinking, information ethics, digital literacy, epistemology, pedagogical methodologies.

For citation: Nasiba A. Abdukholiqova. (2024) 'Methodologies of teaching media literacy in philosophy education: theory and practice', Inter education & global study', (10(1)), pp. 26–31. (In Uzbek).

Media savodxonligini falsafa ta'limiga integratsiyalashuvi raqamli asrda axborotga tanqidiy yondashishni rivojlantirish uchun zarur. Falsafa fan sifatida an'anaviy ravishda analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga, tanqidiy fikrlash va gnoseologiyani tushunishga qaratilgan - bularning barchasi media savodxonligini izlashda bebahodir. Falsafa kontekstida mediasavodxonlikni o'rgatish o'quvchilarga nafaqat manbalar va tarkibni tanqidiy baholash, balki bilimning asosiy tamoyillari, haqiqat va axborot almashishning axloqiy jihatlarini tushunish imkonini beradi. Gnoseologiyaning asosi media savodxonligi uchun juda muhim, chunki u talabalarga turli xil bilimlar, e'tiqodlar va asoslarni tushunish uchun asos yaratadi.[1] Gnoseologik nazariyalarni qo'llash orqali talabalar manbalarni tanqidiy tekshirishlari, ma'lumotlarning ishonchliligiga shubha qilishlari va bilim va fikrni farqlashlari mumkin - media savodxonligining asosiy qobiliyatlari. Etika falsafaning yana bir asosiy jihati bo‘lib, mediasavodxonlikni to‘ldiradi. Haqiqat, maxfiylik va mas'uliyat bilan bog'liq axloqiy nazariyalarni o'rganish orqali talabalar ma'lumot almashish, ma'lumotlar maxfiyligi va noto'g'ri ma'lumotlarning potentsialining axloqiy oqibatlarini qadrlashni o'rganadilar.[2] Shunday qilib, falsafadagi mediasavodxonlik nafaqat ko'nikmalarni rivojlantirishga aylanadi; axborotni qayta ishlash va tarqatishda axloqiy mas'uliyatni oshirish vositasiga aylanadi. Tanqidiy fikrlash falsafada ham, media savodxonligida ham markaziy o‘rin tutadi. Falsafa talabalari argumentlarni qurish, baholash va dekonstruksiya qilishga o'rgatiladi - bu ko'nikmalar media tarkibini tahlil qilish uchun bevosita o'tkaziladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Talabalarga mantiqiy xatolarni aniqlash, noto'g'ri qarashlarni tan olish va manbalarni tanqidiy baholashga o'rgatish ularni raqamli media bilan o'ylangan va tahliliy ravishda shug'ullanishga tayyorlaydi.[3]

Falsafa ta’limida mediasavodxonlikni o‘rgatish metodologiyalari. Falsafa kurslarida mediasavodxonlikni samarali o'rgatish, nazariya va amaliyotni bog'lash va talabalarning tahliliy qobiliyatini oshirish uchun bir nechta metodologiyalardan foydalanish mumkin.

Case Studies va Real-Jahon ilovalari. Media savodxonligini o'rgatishning samarali usullaridan biri bu real misollarga asoslangan amaliy tadqiqotlardan foydalanishdir. Ushbu amaliy tadqiqotlar yangiliklar maqolalari, ijtimoiy media xabarlari yoki boshqa raqamli kontentni tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin. Talabalar falsafiy nazariyalarni noto'g'ri fikrlarni aniqlash, manbalarning to'g'riligini baholash va ma'lumotlarning axloqiy oqibatlarini muhokama qilish uchun qo'llaydilar. Keys tadqiqotlari nazariy bilimlarni amaliy qo'llashni taklif qiladi va talabalarni real dunyo kontekstida ommaviy axborot vositalari bilan tanqidiy munosabatda bo'lishga undaydi.[4]

Munozaraga asoslangan ta’lim. Falsafa darslari odatda munozaraga yo'naltirilgan bo'lib, ularni media savodxonligi mashqlari uchun ideal qiladi. O'qituvchilar noto'g'ri ma'lumotlar, raqamli maxfiylik va sun'iy intellekt etikasi kabi zamonaviy muammolar atrofida muhokamalarni osonlashtirishi mumkin. Bu metodika o‘quvchilarga o‘z qarashlarini ifodalash, boshqalarning fikrini so‘roq qilish va mediasavodxonligi bo‘yicha murakkab mavzular haqidagi tushunchalarini aniqlashtirish imkonini beradi. Tarafsizlik va manba ishonchliligiga qaratilgan tahliliy mashqlarNoto'g'rilikni aniqlash va manba ishonchliligini baholash uchun mo'ljallangan tahliliy mashqlar media savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar talabalarga ma'lum bir mavzu bo'yicha qarama-qarshi maqolalar bilan ta'minlashi mumkin, bu ularni har bir manbaning ishonchliligi, niyati va potentsial tarafkashligini baholashga undaydi. Ushbu mashq o'quvchilarni turli manbalar ortidagi motivlarni sinchkovlik bilan o'rganishga, tarafkashlikning turli shakllarini tan olishga va mazmun haqida asosli xulosalar chiqarishga undaydi.[5]

Raqamli vositalar va manbalarning integratsiyasi. Faktlarni tekshirish veb-saytlari, media tahlil platformalari va onlayn arxivlar kabi raqamli vositalardan foydalanish talabalarning ma'lumotni tekshirish va ishonchli manbalarni aniqlash qobiliyatini oshirishi mumkin. Ushbu vositalarni topshiriqlarga qo'shish orqali talabalar faktlarni o'zaro tekshirishni, raqamli vositalar yordamida ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishni va raqamli ma'lumotni yanada nozikroq tushunishni o'rganadilar.

Fanlararo loyihalar va hamkorlikda ta'lim. Fanlararo loyihalar talabalarni falsafiy nazariyalarni mediashunoslik, jurnalistika yoki ijtimoiy fanlar mavzularida qo‘llashga undaydi. Masalan, boshqa fanlar talabalari bilan hamkorlikdagi loyiha falsafiy tushunchalarning ommaviy axborot vositalaridagi tasvirlarini tahlil qilishni, ilmiy hisobotlarda ma'lumotlarning etikasini o'rganishni yoki raqamli ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik idrokiga ta'sirini o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

yondashuv o'quvchilarning turli nuqtai nazarlari va metodologiyalarini ochib berish orqali ularning bilimini boyitadi.

Muhokama. Kurs moduli gnoseologik tamoyillar va ularning media savodxonligiga tatbiq etilishi atrofida ishlab chiqilishi mumkin. Mavzular bilim nazariyalari, skeptitsizm va e'tiqodni oqlash, so'ngra o'quvchilardan media manbalarini tanqidiy tahlil qilish uchun ushbu tushunchalarni qo'llashni talab qiladigan tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin. Seminarlarda shaxsiy hayot, noto'g'ri ma'lumotlar va ma'lumotlar etikasi kabi axloqiy masalalarga e'tibor qaratilishi mumkin. Ushbu seminarlar talabalarga ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish va ishlab chiqarish bilan bog'liq axloqiy mas'uliyatni tushunishga yordam berish uchun o'qishlar, muhokamalar va amaliy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.[6] Topshiriqlar talabalardan yangiliklar manbalarini tahlil qilish, onlayn maqolalarning ishonchliligini baholash yoki ijtimoiy media kontentini tekshirish uchun raqamli vositalardan foydalanishni talab qilishi mumkin. Ushbu tadbirlar raqamli savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarni mustahkamlaydi, talabalarni falsafaga asoslangan analitik usullarni ommaviy axborot vositalarida qo'llashga undaydi. Media savodxonligini falsafa ta'limiga integratsiyalash ko'plab afzalliklarni taqdim etsa-da, e'tiborga olish kerak bo'lgan muammolar ham mavjud.

Falsafa o'quv dasturlari ko'pincha asosiy mavzular bilan to'la bo'lib, yangi mazmun uchun cheklangan joy qoldiradi. Buni hal qilishning bir yo'li - alohida mediasavodxonlik modullarini yaratish o'rniga, kirish axloqi yoki tanqidiy fikrlash darslari kabi mavjud kurslarga media savodxonligi elementlarini kiritishdir. Media savodxonligi bo'yicha ta'lim uchun zarur bo'lgan raqamli vositalar va resurslardan hamma ham muassasalar foydalanish imkoniyatiga ega emas.[7] O'qituvchilar talabalarga ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish uchun qulay vositalar bilan ta'minlash uchun bepul resurslar, ochiq kodli dasturiy ta'minot va onlayn ma'lumotlar bazalaridan foydalanishni ko'rib chiqishlari mumkin. Nazariy mazmun va amaliy ilovalar o'rtasidagi muvozanatni topish qiyin bo'lishi mumkin. Nazariy tushunish va amaliy faoliyatni o‘zida mujassam etgan aralash metodik yondashuv bu masalani hal qilishi mumkin. Falsafa o'qituvchilari o'zlarining metodologiyalarini tahliliy qat'iylik va amaliy ahamiyatga ega bo'lish uchun doimiy ravishda moslashtirishga da'vat etiladi.

Xulosa. Falsafa ta'limi doirasida mediasavodxonlikni o'rgatish nafaqat mumkin, balki juda foydali. Gnoseologiya, etika va tanqidiy fikrlashda falsafiy nazariyalardan foydalangan holda, falsafa o'qituvchilari talabalarni raqamli ma'lumotlar bilan tanqidiy munosabatda bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashlari mumkin. Keys tadqiqotlari, tahliliy mashqlar va fanlararo loyihalar kabi amaliy metodologiyalar talabalarga nazariya va amaliyotni bog‘lash imkonini beradi, mediasavodxonlikka har tomonlama yondashadi.[8] Raqamli media bizning madaniyatimiz va haqiqat tushunchamizni shakllantirishda davom etar ekan, falsafa ta'limi orqali media savodxonligini oshirish talabalarni ushbu murakkabliklarni tushunish va halollik bilan boshqarishga tayyorlaydi. Falsafa ta'limi doirasida mediasavodxonlik metodologiyalarini ishlab chiqish va baholash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Muayyan o'qitish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

strategiyalarining samaradorligini o'rganish, o'quvchilarning mediasavodxonlik ko'nikmalaridagi yutuqlarini baholash va fanlararo hamkorlikni o'rganish qimmatli fikrlarni berishi mumkin. Media savodxonligi sohasi rivojlanib borar ekan, davom etayotgan izlanishlar va o'qitish usullarini moslashtirish falsafa ta'limining raqamli dunyoda dolzarb va ta'sirli bo'lishini ta'minlash uchun muhim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdumadjid X. Talabalarda media savodxonlik va axborot madsaniyatini rivojlantirish omillari //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 287-290.
2. Yunusov I.Y. Talabalarda mediasavodxonlikni kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – T. 34. – №. 5. – C. 77-80.
3. Xakimovna A. G., Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o’rni: mediasavodxonlik //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 131-137.
4. Kitchenham, Barbara, Lesley Pickard, and Shari Lawrence Pfleeger. "Case studies for method and tool evaluation." IEEE software 12.4 (1995): 52-62.
5. Elmurodovna B.I. Innovasion ta’lim jarayonida muammoli mashg ‘ulotlarni tashkil etishning pedagogik jihatlari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 11. – C. 144-152.
6. Gaynazarova G. A. et al. Mediasavodxonlikning yosh avlod ma’naviyatiga ta’siri //World of science. – 2023. – T. 6. – №. 11. – C. 123-128.
7. Ro‘ziyev Y. Z. Mediasavodxonlikka oid bilimlar vositasida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish–metodikasi //Golden brain. – 2024. – T. 2. – №. 12. – C. 256-263.
8. Ilhomovna S. T. Media savodxonlik tushunchasi va uning ilmiy nazariy tahlili //International Global Conference. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 223-229.
9. Abduholiqova N. Axborotlashuv davrida jamiyat rivojiga ta’sir etuvchi omillar// Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 2023/12/9, b. 493.
10. Abduholiqova N. Yosh avlod tarbiyasida axloqiy ma’rifatni shaklantirish orqali yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarga tobeligini oldini olish // Ijtimoiy fanlarda innovasiya ilmiy jurnali, 2021/12/25, b. 116.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abduxolikova Nasiba Alijonovna**, dotsent, falsafa fanlari doktori PhD [**Абдухоликова Насиба Алиджоновна**, доцент, доктор философских наук, PhD], [**Nasiba A. Abdukholikova,** associate professor, doctor of philosophy, PhD]; manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 28-uy, [адрес: Наманганская область, Туракурганский район, МФЦ “Янгиабад”, ул. Саадат, 28], [address: 28, Saodat Street, “Yangiabad” MFY, Toraqurgan district, Namangan region].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT FANI O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

© M.B. Axmedov[1]✉

[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tasviriy san’at fan o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o‘rni, shuningdek, globallashuv sharoitida ta’lim sifatini oshirishga qo‘yilayotgan talablar tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda talabalarning mustaqil izlanish va kasbiy malakalarini rivojlantirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligini aniqlash uchun ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qitish jarayonida “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llashning natijalariga baho berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni o‘qituvchilar tomonidan qo‘llash talabalarning ijodkorlik qobiliyatlari va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, “Charxpalak” texnologiyasi yordamida talabalar mavzularni mustaqil o‘zlashtirishlari, fikrlarini erkin bayon qilishlari va ijodiy yondashuvni namoyon etishlari kuzatildi.

XULOSA: tadqiqot natijalari tasviriy san’at fan o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning dolzarbligini tasdiqladi. Innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: shaxs, tayyorgarlik, pedagog, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, innovatsion faoliyat, texnologiya, ta’lim samaradorligi.

Iqtibos uchun: Axmedov M.B. Bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.32–41.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© М.В. Ахмедов[1]✉

[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент,Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются ключевые аспекты подготовки преподавателей изобразительного искусства к инновационной профессиональной деятельности. Рассматривается роль глобализации в повышении требований к образовательному процессу и значимость внедрения инновационных педагогических технологий и интерактивных методов для развития творческих и аналитических способностей студентов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность подготовки будущих преподавателей изобразительного искусства к инновационной профессиональной деятельности, а также способствовать развитию их творческих способностей, критического мышления и навыков самостоятельного исследования с использованием современных технологий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научной литературы по использованию инновационных педагогических технологий и интерактивных методов в образовательном процессе. Рассматривалась эффективность технологии «Чархпалак» для развития профессиональных навыков и самостоятельного мышления у студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что внедрение инновационных технологий в учебный процесс способствует развитию у студентов изобразительного искусства критического мышления, самостоятельного подхода к решению задач и способности креативно анализировать учебный материал. Технология «Чархпалак» позволила значительно повысить уровень усвоения изучаемых тем, а также активизировать взаимодействие между студентами в ходе образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование инновационных педагогических технологий в образовательном процессе позволяет повысить его эффективность, способствуя развитию у студентов профессиональных навыков, творческого мышления и готовности к самостоятельной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: личность, подготовка, педагог, творческое мышление, критическое мышление, инновационная деятельность, технологии, эффективность обучения.

Для цитирования: Ахмедов М.Б. Подготовка будущих преподавателей изобразительного искусства к инновационной профессиональной деятельности // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.32–41.

PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES

© Mukhammad-Umar B. Akhmedov[1]✉
[1]Toshkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the key aspects of preparing fine arts teachers for innovative professional activities. It explores the role of globalization in increasing educational demands and highlights the importance of implementing innovative pedagogical technologies and interactive methods to enhance students' creative and analytical skills.

AIM: the main aim of the study is to improve the effectiveness of preparing future fine arts teachers for innovative professional activities and to foster the development of their creative abilities, critical thinking, and independent research skills using modern technologies.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on innovative pedagogical technologies and interactive methods in the educational process. The effectiveness of the "Charxpalak" technology in developing students' professional skills and independent thinking was assessed.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that integrating innovative technologies into the educational process fosters the development of critical thinking, independent problem-solving, and creative analysis of learning materials in fine arts students. The "Charxpalak" technology significantly enhanced students' comprehension of topics and promoted collaborative interaction among students during the educational process.

CONCLUSION: the study results confirmed that the use of innovative pedagogical technologies in the educational process improves its effectiveness, contributing to the development of professional skills, creative thinking, and readiness for independent professional activity among students.

Keywords: personality, preparation, pedagogue, creative thinking, critical thinking, innovative activities, technologies, educational effectiveness.

For citation: Mukhammad-Umar B. Akhmedov. (2024). 'Preparing future teachers of fine arts for innovative professional activities'. // Inter education & global study, (10(1)), pp. 32–41. (In Uzbek).

Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat shakllanib boradi. Yuksak badiiy-estetik komponentlik sifatlari va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lishi uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib o'rganishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning ajralmas atributi bo'lgan fan globallashuvda muhim o'rin egallab bormoqda. London iqtisod maktabi direktori E.Giddensning fikricha faqat o'zining xududida faoliyat olib borayotgan universitetlarning kelajagi tugaydi. Bu xodisa ularning o'rnini internet tipidagi universitetlar egallashi tufayli yuz bermaydi. Chunki, internet har qancha rivojlanmasin professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqa saqlanib qolayveradi. Shunday qilib globallashuv talablariga ko'ra

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

universitetlar global tarmoqning bir qismiga aylanib qoladi. Bunday universitetlarda ikki hil shakldagi ta'lim o'rtasidagi antogonizm o'rnini konvergensiya egallaydi. Hozirgi davrda dunyoning bir qator mashhur universitetlarda global tarmoq hamkorligida faoliyat yuritilmoqda. Universitet o'ziga xos konsorsiumga aylanib ular tomonidan internet orqali ta'lim dasturlari paketlari sotilmoqda, shuningdek iqtisodiy nochor mamlakatlarga berilmoqda. Oliy ta'lim global tarmoqning bir qismiga aylanib qolishi o'z navbatida o'zining hududida faoliyat yuritadigan va markaziy o'rinni tashkil etadigan an'anaviy universitetlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. [3]

Shu ma'noda bugungi pedagoglardan o'zining innovatsion kasbiy faoliyatini muntazzam takomillashtirib borish, innovatsion pedagogik texnologiyalar ustida ishlash va yangilarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish, ularni faoliyatlari davomida samarali qo'llashga layoqatli bo'lish talab etilmoqda. Fan o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi kasbiy mahoratining eng muhim va dolzarb ko'rsatkichiga aylandi.

Aslida, pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati ijodiy izlanishlari va kreativ fikrlashlari, ta'lim shakli va mazmunini takomillashtirish borasida ilg'or g'oyalarni ilgari surishi, yangiliklarni joriy etish salohiyatini namoyon qilashda ko'rinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad, o'quvchi-talabalarda ijodkorlik, yaratuvchanlik, individuallik, erkinlik, refleksivlik, kreativlik tamoyillari va mustaqil fikrlash talabalarda o'z izlanishlari, ongli ijodiy munosabat orqali erishish layoqatini tarkib toptirish nazarda tutiladi.

"Innovatsiya" inglizcha "innovationas" so'zidan olingin bo'lib, "kiritilgan yangilik", "ixtiro" ma'nolarini ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar hamda ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida ham "innovatsiya" ko'rinishida qo'llaniladi [16].

Zotan, "Innovatsiya" — innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonining shakli va mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalar yaratishni ko'zda tutadi. Ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsiyalar ta'lim tizimiga o'z-o'zidan joriy qilinmaydi. Bu o'qituvchining innovatsion kasbiy faoliyati va uning motivatsion hatti-xarakatlariga bog'liq jarayon hisoblanadi.

O'qituvchining innovatsion kasbiy faoliyatini, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta'limda oldinga bir odim ham siljib bo'lmaydi. «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti — faoliyat, ikkinchi sharti — tarbiyadir. — deb yozadi akademik A.N.Leontev o'zining "Nauka i chelovechestvo" nomli asarining 2 tomida va so'zini davom ettirib, shunday deb ta'kidlaydi —Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat — ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir» [14; 248].

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish natijasiga ko'ra, pedagogik innovatsiya yangi ta'lim amaliyotini joriy etish bilan bog'liq texnologiyalarni tadqiq etadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

pedagogik jarayonning borishi, o‘qituvchining kasbiy faoliyati va o‘quvchining o‘quv faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishni tushunib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, zamonaviy uslublardan foydalanilishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondashish mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadkikot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogga nisbatan xurmatini kuchaytiradi.

Shu kabi vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy uslublar, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar juda samarali ekanligini ta’lim muassasalarida tadqiqotchilar tomonidan tashkl etilayotgan pedagogik tajribalar natijalaridan bilib olishimiz mumkin. Bu esa ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar o‘z sohalari bo‘yicha mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llashni bilishlari talab etiladi. [4]


Pedagoglarga ta’lim va tarbiya berishda ko‘proq samaraga ega bo‘lish uchun o‘tmish allomalarimizning, ustozlarimizning g‘oya va qarashlaridan foydalangan holda innovatsion va axborot texnologiyalarni qo‘llash zarur. Quyida ulardan ba’zilari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni va ularni qo‘llash tartibi bilan o‘rtoqlashamiz. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy interfaol metodlar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga xizmat qiluvchi texnologik treninglar o‘quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

“Charxpalak” texnologiyasi. Texnologiyaning maqsadi. Mashg‘ulot jarayonida mantiqan fikr-mulohaza yuritish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, berilgan fikrlardan eng muhimlarini tanlab olish,boshqalar fikrini hurmat qilish va diqqat bilan tinglash, o‘z-o‘zini baholash.

Mashg‘ulotni o‘tkazish ketma ketligi: o‘quvchi yoki talabalarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtirish; guruhlarga ajratish; oldindan tayyorlangan tarqatma materiallarni guruh a’zolariga tarqatish; berilgan topshiriq avval yakka tartibda bajariladi; har bir guruh a’zosiga tarqatma materialning bir burchagiga biron-bir belgi qo‘yish taklif etiladi; tarqatma materialdagi topshiriqlarnihoyasiga yetgach boshqa guruhlarga “qarxpalak aylanmasi” yo‘nalishi bo‘yicha almashtiriladi; yangi guruh a’zolari tomonidan materiallar o‘rganiladi va unga o‘zgartirishlar kiritiladi; bu holat guruh a’zolarining soniga qarab amalga oshiriladi; tarqatma materiallarni oxirgi almashishidan so‘ng har bir guruh a’zosi qo‘ygan belgisi asosida o‘z materialini tanlab oladilar; qo‘yilgan belgilarni tahlil qilish lozim bo‘lsa, kerakli o‘zgartirishni kiritishlari mumkin bo‘ladi; o‘qituvchi tarqatma materiallarni yig‘ib oladiva baholarni guruh jurnaligi ko‘chirib qo‘yadi.



ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda talabalarda amaliy san’atga oid naqsh turlari haqidagi bilimlarini takomillashtirish uchun quyidagicha vazifa berish mumkin.

	AMALIY SAN’ATGA OID NAQSH TURLARI	Zanjira	Islimiy	Girih	Gulli girih	Pargori	Madohil	Ramziy	Turinj	Namoyon	Kundal
	2								0	1	2
											
	2								0	1	2
											
											

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

											
	2								0	1	2
											
											

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

											
	2								0	1	2
											
											
0											

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

6 – 7 ta to‘g‘ri javob – «QONIQARLI»
8 ta to‘g‘ri javob – «YAXSHI»
9 – 10 ta to‘g‘ri javob – «AЪLO»

“Charxpalak” texnologiyasi talabalarni o‘tgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha talabalarning egallagan bilimlarini baholashga yordam beradi. O‘quv jarayonini tashkil etishda yuqorida havola etilgan pedagogik texnologiyadan va uslubdan aynan shu tartibda tashkil etish shart emas. Har qaysi o‘qituvchi bu tavsiyalarning umumiy shaklini olgan holda o‘zlarining dars o‘tish usullardan kelib chiqib o‘z texnologiyalarini yaratishlari, berilgan pedagogik texnologiya va interaktiv metodlarning to‘liq yoki ularning ba’zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! -T.: TASVIR, 2021, 52 b.
3. Akramova M.T. Pedagogning innovatsion faoliyati – ta’lim sifati va samaradorligi omili. -T.: //Pedagogik mahorat, MS,2020.
4. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvshilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi: redagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD). ... diss. - Chirchiq: 2023, 186 b.
5. Axmedov M.B. va Xasanova M.Z. Qalamtasvir. -T.: IJOD-PRINT, 2021, 188 b.
6. Axmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, 220 b.
7. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyalari (monografiya). -T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020, 128 b.
8. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ARTS. Збірник наукових прац ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03
9. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових прац ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17
10. Jabbarov, R. (2021). A unique trend inspired by the work of Kamoliddin Bekhzod. A great artist of the Eastern Renaissance and a great miniature artist. Society and innovation, 2(5/S), 59-67. https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67
11. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285- 288. doi: http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424
12. Jumaniyozova M.T. O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. monografiya. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2023, 128 b.
13. Muratov, Kh. (2021). THE IMPORTANCE OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT INDEPENDENT EDUCATION IN THE LEARNING PROCESS. Збірник наукових прац ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.40
14. Леонтев А.Н. Наука и человечество (2 т.). -М.: Знания, 1963, -366 с.
15. Толипов Ў.Қ. ва Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. -Т.: Фан, 2006.
16. https://uz.wikipedia.org ›

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axmedov Muxomod-Umar Baxridinovich**, dotsent, falsafa fanlari doktori PhD [**Ахмедов Мухомод-Умар Бахридинович,** доцент, доктор философских наук], [**Mukhammad-Umar B. Akhmedov,** associate professor, doctor of philosophy PhD]; manzil: Yusuf xos Xo'jib ko'chasi, 103, Toshkent, [адрес: ул. Юсуфа Хос Ходжиба, 103, Ташкент], [address: 103 Yusuf Khos Khojib Street, Tashkent].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Original paper

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA SCAMPER TEXNIKASINI BOSQICHMA-BOSQICH O‘RGATISH METODIKASI

© A. Karimova[1]✉

[1]O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O ‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada scamper texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi tahlil qilinadi. Unda sahnalashtirish va badiiy adabiyotning ahamiyati, shuningdek, ushbu texnikaning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi natijasida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun scamper texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish orqali ularning kasbiy kompetentsiyalarini oshirish, ta’lim jarayonida sahnalashtirish va ijodiy yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda scamper texnikasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, sahnalashtirish va badiiy adabiyotlarni o‘quv materiallariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy-adabiy manbalar tahlil qilindi. Mazkur yondashuvni amalda qo‘llash uchun talabalar bilan o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar natijalari ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Natijalar SCAMPER texnikasini o‘rgatish jarayonida talabalarning bilim va ko‘nikmalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Sahnalashtirish usullarining qo‘llanilishi talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘z g‘oyalarini amalda qo‘llashga yordam berdi. SCAMPER texnikasi yordamida turli pedagogik muammolarga yangi va samarali yechimlar topilgan.

XULOSA: tadqiqot natijalari scamper texnikasini pedagogika yo‘nalishi talabalarga o‘rgatish ularning ijodiy va kasbiy kompetentsiyalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv talabalarning sahnalashtirish faoliyatida yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: SCAMPER texnikasi, pedagogika ta’limi, sahnalashtirish, ijodiy fikrlash, innovatsion o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy kompetentsiyalar.

Iqtibos uchun: Karimova A. SCAMPER texnikasini pedagogika yo‘nalishi talabalarga bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.42–49.

ПОШАГОВАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКЕ СКАМПЕРА СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА

© А. Каримова[1]✉

[1]Узбекско-Финский педагогический институт, Самарканд, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется методика пошагового обучения технике SCAMPER. Особое внимание уделено значению инсценировки и художественной литературы в образовательном процессе, а также рассмотрено, как использование этой техники способствует развитию творческого мышления студентов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – улучшить профессиональные компетенции студентов педагогического направления через обучение технике SCAMPER, а также выявить возможности эффективного применения инсценировки и творческих подходов в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были изучены подходы к внедрению техники SCAMPER в образовательный процесс, а также проведён анализ литературных источников и практических занятий со студентами. Рассмотрены примеры использования художественных и визуальных материалов для пояснения ключевых аспектов техники.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что применение техники SCAMPER значительно повышает уровень знаний и навыков студентов. Использование методов инсценировки способствует развитию их творческого мышления и умений применять полученные знания на практике. Техника SCAMPER позволила находить новые и эффективные решения различных педагогических задач.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что обучение студентов педагогического направления технике SCAMPER способствует развитию их творческих и профессиональных компетенций. Данный подход делает образовательный процесс более интересным и эффективным, создавая условия для внедрения новых педагогических подходов.

Ключевые слова: техника SCAMPER, педагогическое образование, инсценировка, творческое мышление, инновационное обучение, практические занятия, профессиональные компетенции.

Для цитирования: Каримова А. Пошаговая методика обучения технике скампера студентов педагогического вуза. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 42–49.

STEP-BY-STEP TEACHING METHODOLOGY OF THE SCAMPER TECHNIQUE TO PEDAGOGICAL STUDENTS

© Aziza Karimova[1]✉
[1] Uzbekistan-Finland pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the step-by-step methodology for teaching the scamper technique. Special attention is paid to the importance of staging and fiction in the educational process, as well as how this technique fosters the development of students' creative thinking.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

AIM: the main objective of the study is to enhance the professional competencies of pedagogical students through the SCAMPER technique and to identify the possibilities for effective application of staging and creative approaches in the educational process..

MATERIALS AND METHODS: the study explored approaches to integrating the SCAMPER technique into the educational process and analyzed literary sources and practical classes with students. Examples of using artistic and visual materials to illustrate key aspects of the technique were considered.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that applying the SCAMPER technique significantly improves students' knowledge and skills. Using staging methods contributes to developing their creative thinking and the ability to apply acquired knowledge in practice. The SCAMPER technique has allowed finding new and effective solutions to various pedagogical problems.

CONCLUSION: the study results confirm that teaching the SCAMPER technique to pedagogical students contributes to developing their creative and professional competencies. This approach makes the educational process more engaging and effective, creating conditions for implementing innovative pedagogical methods.

Keywords: SCAMPER technique, pedagogical education, staging, creative thinking, innovative teaching, practical activities, professional competencies.

For citation: Aziza Karimova. (2024) ‘Step-by-step methodology for teaching the SCAMPER technique to pedagogical students’, Inter education & global study, (10(1)), pp. 42–49. (In Uzbek).

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish va yangi g‘oyalar yaratish pedagogikada muhim o‘rin tutadi. Shu sababli pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun SCAMPER texnikasini o‘rganish ularning kasbiy kompetentsiyalarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. SCAMPER texnikasi o‘z ichiga qator strategiyalarni qamrab olgan holda, muammo yechimlari va yangiliklarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Talabalarga SCAMPER texnikasining asosiy tushunchalari va har bir harfning anglatgan ma'nolarini tushuntirish kerak. Bu bosqichda har bir harf uchun misollar keltirib o‘tiladi va talabalar texnikani yaxshiroq tushunishlari uchun vizual materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalar o‘zlarining bilimlarini amaliyotda qo‘llab ko‘rishlari uchun turli xil vaziyatlarni hal qilish yoki g‘oyalarni ishlab chiqish vazifalari beriladi. Masalan, maktab darslarini qanday qilib yanada qiziqarli qilish yoki o‘quv materiallarini qayta ishlash bo‘yicha vazifalar bajariladi. Talabalar o‘z ishlarini sinfda taqdim etishadi va ularni sinfdoshlari va o‘qituvchilar tomonidan baholanadi. Bu jarayon talabalarga o‘z fikrlarini ifoda etishda yordam beradi hamda ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng talabalar o‘z tajribalarini tahlil qilishlari va qanday qilib bu texnikani kelajakdagi faoliyatlarida qo‘llay olishlari mumkinligi haqida o‘ylashlari kerak. Bu bosqich talabalarga o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini oshirishda muhim hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

SCAMPER texnikasini pedagogika yo‘nalishi talabalariga o‘rgatish, ularning kasbiy mahoratini oshirishda katta yordam beradi. Bu texnika orqali talabalar turli pedagogik muammolarni hal etishda yangi va samarali yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shuningdek, bu texnika kelajakdagi o‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarida ijodkor bo‘lishga undaydi va o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati katta. Ushbu faoliyat orqali bolalar ijtimoiy, nutqiy va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Sahnalashtirish faoliyatida SCAMPER texnikasidan foydalanish, ushbu jarayonlarni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

SCAMPER texnikasi, maktabgacha ta’limda bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biridir. Bu texnika yordamida pedagoglar mavjud o‘yin va sahnalashtirishlarni qayta ko‘rib chiqish, yangilash va bolalarning qiziqishlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Avvalo, pedagoglar mavjud sahnalashtirish ssenariylarini tahlil qilishlari va SCAMPER texnikasining har bir harfi yordamida bu ssenariylarni qanday qilib o‘zgartirish mumkinligini o‘rganishlari kerak.

1.Substitute (almashtirish). Ssenariyda mavjud personajlar, dekoratsiyalar yoki mavzularni o‘zgartirish. Masalan, oddiy hayvonlar o‘rniga fantastik mavjudotlarni qo‘yish.

"Substitute" yoki almashtirish usuli, ijodiy fikrlashning muhim elementlaridan biri bo‘lib, bu usul orqali mavjud ob'ektlar, personajlar yoki mavzular yangi va original g‘oyalar bilan almashtiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish jarayonida bu texnika bolalarning tasavvur dunyosini kengaytirish va ularni yangi tajribalarga jalb qilishda katta ahamiyatga ega.

Ssenariyda mavjud personajlarni almashtirish, bolalarning tanqidiiy fikrlash qobiliyatini va tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, an'anaviy hayvonlar o‘rniga fantastik mavjudotlarni qo‘yish, bolalarni yangi va g‘aroyib voqealar bilan tanishtirish imkonini beradi. Bu o‘zgarishlar bolalarga mavhum tushunchalar haqida o‘ylashga va ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Dastlab mavjud sahnalashtirish ssenariylari tahlil qilinadi. Bu jarayon davomida qaysi elementlar almashtirilishi mumkinligi va bu o‘zgarishlar bolalarga qanday ta'sir qilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi.

Keyingi qadam sifatida fantastik mavjudotlar tanlanadi. Bu mavjudotlar bolalarning yoshiga va qiziqishlariga mos bo‘lishi kerak. Misol uchun, ertaklardagi maxluqlar yoki o‘ziga xos yangi mavjudotlar bolalarning diqqatini tortishi va ularning qiziqishini oshirishi mumkin.

Tanlangan fantastik mavjudotlar ssenariyga mos ravishda qo‘shiladi. Bu jarayon davomida mavjudotlarning roli va ularning sahnadagi interaktsiyalari aniq belgilanadi. Masalan, bir fantastik mavjudot yaxshi qahramon sifatida, boshqasi esa yomon qahramon sifatida taqdim etilishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Fantastik mavjudotlar sahnaga qo‘shilganda, dekoratsiyalar va rekvizitlar ham shunga mos ravishda yangilanadi. Bu elementlar sahna atmosferasini boyitadi va bolalarning sahnalashtirish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Yangilangan sahnalashtirish bolalar oldida ijro etiladi. Bu jarayon bolalarning reaktsiyasini kuzatish va ularning qanday elementlarni eng ko‘p qadrlashini tushunish uchun foydali bo‘ladi. Ijrodan keyin, bolalar bilan muhokama o‘tkaziladi, ularning fikrlari va his-tuyg‘ulari o‘rganiladi.

Sahnalashtirish faoliyatida "Substitute" texnikasidan foydalanish, bolalarning ijodiy va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul orqali bolalar yangi va g‘aroyib olam bilan tanishadilar va bu jarayon ularning o‘z-o‘zini ifoda etish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bu kabi yondashuvlar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

2.Combine (birlashtirish). Ikki yoki undan ko‘p sahnalashtirishni birlashtirish orqali yangi ssenariy yaratish. Masalan, "Qizil qalpoqcha" va " Zumrad va Qimmat" ertaklarini birlashtirish.

"Birlashtirish" yoki combine texnikasi, turli ssenariy yoki mavzularni yagona hikoyada birlashtirib, yangi va noyob kontent yaratish imkonini beradi. Bu texnika, ayniqsa, bolalarni turli madaniy hikoyalar bilan tanishtirish va ularning tasavvur qobiliyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. "Qizil qalpoqcha" va "Zumrad va Qimmat" ertaklarining elementlarini birlashtirish orqali yangi, qiziqarli va o‘quvchi diqqatini tortuvchi sahnalashtirish yaratish mumkin.

Bu ertakda asosiy qahramon - Qizil Qalpoqcha, uning buvisi va yovuz bo‘ri mavjud. Ertakning asosiy mavzusi - sodiqlik, yordam va ehtiyotkorlikdir. "Zumrad va Qimmat" ertagi esa, o‘zaro mehr-oqibat va sevgi haqida hikoya qiladi. Zumrad juda go‘zal va mehribon qiz bo‘lib, uning hayoti turli sinovlar bilan to‘la.

Har ikkala ertak ham insoniy fazilatlar va sinovlar haqida so‘z yuritadi. Yangi ssenariyda bu ikki hikoyani birlashtirish orqali, umumiy fazilatlarni ta'kidlash va yangi qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish mumkin.

Zumrad va uning sevgilisi Qimmat Qizil Qalpoqchaning buvisi bilan uchrashish uchun o‘rmon orqali yo‘l oladilar. Yo‘lda ular bo‘riga duch kelishadi. Bo‘ri Zumradning go‘zalligiga hayron qoladi va ularni o‘zining uyiga taklif qiladi, lekin aslida yomon niyatlari bor. Zumrad va Qimmat bo‘rining niyatini sezib, uni yengish rejasini tuzishadi. Qimmat va Qizil Qalpoqcha bo‘rini chalg‘itib, Zumrad esa bo‘rini hushidan ketkazuvchi dori tayyorlaydi. Ular buvisini xavfsizlikka olib chiqib, bo‘rini mag‘lub etishadi.

Ssenariyga yangi dialoglar, sahnalar va konfliktlar qo‘shiladi. Bu yangiliklar, bolalarning diqqatini saqlash va ularni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish uchun mo‘ljallangan.

Yangi ssenariy, bolalarga yaxshilik va yomonlik, qahramonlik va xiyonat kabi tushunchalarni o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, bu ssenariy orqali bolalar turli xil fazilatlarni, jumladan, zukkolik va do‘stlikni qadrlashni o‘rganishadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

3.Adapt (moslashtirish). Bolalarning yoshi va qiziqishlariga mos ravishda ssenariylarni o‘zgartirish.

"Moslashtirish" yoki adaptatsiya jarayoni, pedagogik sahnalashtirish faoliyatlarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon orqali o‘qituvchilar va pedagoglar turli yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv va tarbiyaviy materiallarni ularning ruhiy va jismoniy rivojlanish darajasiga moslashtiradilar. Bolalarning yoshiga va qiziqishlariga mos ssenariylarni ishlab chiqish, ularning ta'lim olish jarayonida qiziqishlarini oshiradi va o‘quv materiallarini yanada samarali o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Bolalarning yoshi kattalashgan sayin ularning qiziqishlari, tajriba darajalari va idrok etish qobiliyatlari o‘zgarib boradi. Shu sababli, sahnalashtiriladigan ssenariylar ham ularning yosh va qiziqishlariga mos ravishda tuzilishi zarur. Yoshga mos ssenariylar orqali bolalar yangi tushunchalarni osonroq qabul qiladilar va ularga ta'lim berish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

"Moslashtirish" texnikasi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning yosh va qiziqishlariga mos ssenariylarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Bu usul orqali bolalarning ijodiy va tasavvur qobiliyatlari rivojlantiriladi, ularning bilim olish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va ularning turli madaniy va ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini to‘g‘ri tutish qobiliyatlarini shakllantiradi.

4.Modify (o‘zgartirish). Ssenariyning asosiy elementlarini, masalan, qahramonlarning xarakterini yoki ularning vazifalarini o‘zgartirish.

"Modify" yoki o‘zgartirish usuli, mavjud ssenariylar yoki hikoyalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni yangilash imkonini beradi. Bu usul, asosan, qahramonlarning xarakterini, vazifalarini yoki voqealar rivojini o‘zgartirish orqali sahnalashtirishlarni yanada qiziqarli va ta'limiy jihatdan boyitishga qaratilgan. Ssenariy elementlarini o‘zgartirish, bolalarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ssenariy elementlarini o‘zgartirish, bolalar uchun tanish bo‘lgan hikoyalarga yangi nuqtai nazarlar qo‘shish imkonini yaratadi. Bu, ularning mavjud bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Shuningdek, bu usul orqali bolalar turli xil axloqiy va ijtimoiy muammolarga turli yechimlar topishni o‘rganishadi.

"Modify" texnikasi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan sahnalashtirish faoliyatlarini yanada samarali va ta'limiy jihatdan boyitish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali bolalar yangi tushunchalar bilan tanishadilar va ularning ijodiy va tanqidiiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bolalar uchun tanish bo‘lgan hikoyalarni qayta ko‘rib chiqish va yangilash, ularning ta'lim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

5.Put to another use (boshqa maqsadda qo‘llash). Ssenariy elementlarini boshqa kontekstda qo‘llash. Masalan, dekoratsiya elementlarini ta'limiy maqsadlar uchun ishlatish.

"Put to another use" yoki boshqa maqsadda qo‘llash usuli, mavjud resurslar va materiallarni yangi va noyob usullarda qayta ishlashga asoslanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, ta'lim sohasida, jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida juda qo‘l keladi. Ssenariy elementlarini, masalan dekoratsiyalar va rekvizitlarni, boshqa kontekstda qo‘llash orqali pedagoglar bolalar uchun ta'lim berish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

Dekoratsiya elementlarini ta'limiy maqsadlar uchun qo‘llash bolalarning ijodiy va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu usul orqali bolalar o‘zlarining atrofidagi olamni kengroq tushunishga va uni o‘rganishga undaladi. Shuningdek, bu yondashuv atrof-muhitni asrash va resurslardan oqilona foydalanish kabi muhim tushunchalarni singdirish imkonini beradi.

"Eliminate" yoki chiqarib tashlash usuli, sahnalashtirish yoki ta'limiy faoliyatlarda ortiqcha yoki chalg‘ituvchi elementlarni olib tashlashga qaratilgan. Bu usul orqali pedagoglar bolalarning diqqatini markazlashtirishni va ularning ta'lim olish jarayonini yanada samarali qilishni maqsad qiladilar. Ortig‘i bilan yuklangan sahnalashtirishlar bolalarning asosiy mavzudan chalg‘ishiga olib keladi, shuning uchun muhim bo‘lmagan elementlarni olib tashlash pedagogik jarayonni optimallashtirishga yordam beradi.

"Eliminate" usuli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish samarasini oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Ortiqcha yoki diqqatni chalg‘ituvchi elementlarni olib tashlash orqali bolalar o‘z diqqatlarini asosiy o‘quv materialiga qaratadilar va bu ularning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Bu yondashuv, shuningdek, bolalarning ta'lim olish jarayonida qo‘shimcha stresslardan qochishga yordam beradi va ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

7.Reverse (teskari qilish). Voqealar rivojini teskari tartibda sahnalashtirish yoki qahramonlarning rollarini almashtirish.

"Reverse" yoki teskari qilish usuli, mavjud ssenariy yoki hikoyalarni yangi bir perspektivdan qayta ko‘rib chiqishga imkon beruvchi ijodiy yondashuvdir. Bu usul, voqealar rivojini teskari tartibda ko‘rsatish yoki qahramonlarning rollarini almashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv, bolalarning tushunchalarini kengaytirish, ularga tanish mavzularni yangi va g‘aroyib tarzda qayta ko‘rsatish, shuningdek, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Voqealar rivojini teskari tartibda sahnalashtirish, hikoyaning oxiridan boshlab, uning boshlanishigacha bo‘lgan voqealarni ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Bu usul bolalarga voqealar orasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini chuqurroq tushunish imkonini beradi va ularni hikoyani kuzatishda yanada diqqatli bo‘lishga undaydi.

Bu yondashuv, bolalarni turli xil vaziyatlarni tahlil qilishga va voqealarning natijalarini oldindan aytib berish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

bu usul ularning hikoyalarni qayta qurish va yangi ssenariylar yaratish qobiliyatlarini ham oshiradi.

"Reverse" yoki teskari qilish usuli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o‘rganish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali bolalar mavjud bilimlarni chuqurroq tushunishga va yangi perspektivlardan fikrlashga undaladi. Shuningdek, bu yondashuv bolalarni turli ijtimoiy va axloqiy muammolarga o‘zlarining yechimlarini topishga tayyorlaydi va ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Yangi yaratilgan sahnalashtirish ssenariylari avval sinovdan o‘tkaziladi. Bolalar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar natijasida qanday o‘zgarishlar samarali yoki qiziqarli ekanligi baholanadi.

Pedagoglar tomonidan olingan feedback asosida sahnalashtirish ssenariylarini muntazam ravishda yangilab turish kerak. Bu jarayon ijodiy yondashuvni talab qiladi va bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida SCAMPER texnikasini qo‘llash orqali pedagoglar sahnalashtirish faoliyatini yanada samarali va ijodiy tarzda olib borishlari mumkin. Bu texnika yordamida bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga yangi bilimlar berish jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xasanova Sh.T. «Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. Tafakkur. T.: 2020
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur. T.: 2013y
3. Alex Osborn. "Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Thinking". Charles Scribner's Sons. 1993. 300 p.
4. Michael Michalko. "Thinkertoys: A Handbook of Creative-Thinking Techniques". Ten Speed Press. 1991. 416 p.
5. Roger Von Oech. "A Whack on the Side of the Head: How You Can Be More Creative". Warner Books. 1983. 224 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Karimova Aziza**, o'qituvchi [**Каримова Азиза,** преподаватель], [**Karimova Aziza,** teacher]; manzil: Samarqand sh, Spitamen shoh ko‘chasi, 166-uy, [адрес: Самарканд ш, пр. Спитамен, 166], [address: 166 Spitamen Royal Street, Samarkand sh].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI TARBIYALANUVCHILARNING TASVIRIY FAOLIYAT QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

© A.Yusupova[1]✉
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O ‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning tasviriy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirish omillari yoritilgan. Bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi tasviriy faoliyatning o‘rni, pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyat orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy adabiyotlar, tajribaviy o‘rganishlar, kuzatish va tahliliy metodlar yordamida tasviriy faoliyatni rivojlantirish usullari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari tasviriy faoliyatning bolalarda ijodiy tafakkur, xotira va diqqatni rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatdi. Bu yoshdagi bolalarda qo‘l motorikasini rivojlantirish orqali tafakkur jarayonlarini kuchaytirish mumkin.

XULOSA: tasviriy faoliyat maktabgacha ta’lim tizimida nafaqat badiiy qobiliyatlarni, balki bolalarning intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: tasviriy faoliyat, ijodiy tafakkur, xotira, motorika, pedagogik yondashuvlar.

Iqtibos uchun: Yusupova A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning tasviriy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirish omillari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.50–55.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАННИКОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

© А. Юсупова[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются факторы, способствующие развитию способностей детей дошкольного возраста к изобразительной деятельности. Анализируются методы и педагогические подходы, направленные на развитие творческого мышления, моторики и памяти у детей.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – разработка и анализ эффективных методов развития творческих способностей через изобразительную деятельность для детей дошкольного возраста.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на анализе научной литературы, практических наблюдений и эмпирических данных, направленных на изучение влияния изобразительной деятельности на развитие детей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что изобразительная деятельность способствует развитию у детей творческого мышления, воображения, моторных навыков и способности к концентрации. Кроме того, установлено, что через такую деятельность дети развивают когнитивные и эмоциональные навыки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: изобразительная деятельность – это ключевой инструмент в обучении и развитии детей дошкольного возраста, который не только формирует их художественные способности, но и способствует общему интеллектуальному развитию.

Ключевые слова: изобразительная деятельность, творческое мышление, моторика, педагогические подходы, память.

Для цитирования: Юсупова А. Факторы развития навыков изобразительной деятельности воспитанников в дошкольных образовательных организациях. // Inter education & global study. 2024. №10(1). В. 50–55.

FACTORS OF DEVELOPMENT OF SKILLS OF VISUAL ACTIVITY OF PUPILS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

© Aziza Yusupova[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the factors contributing to the development of preschool children's abilities in visual arts. It analyzes pedagogical and psychological approaches aimed at fostering creative thinking, motor skills, and memory in children.

PURPOSE: the main purpose of this study is to develop and analyze effective methods for enhancing preschool children's creative abilities through visual arts.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized analysis of scientific literature, practical observations, and empirical data to investigate the impact of visual arts on children's development.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings reveal that visual arts contribute to the development of creative thinking, imagination, motor skills, and concentration in children. Additionally, such activities foster cognitive and emotional growth.

CONCLUSION: visual arts serve as a key tool in preschool education, promoting not only artistic skills but also the intellectual and emotional development of children.

Keywords: visual arts, creative thinking, motor skills, pedagogical approaches, memory.

For citation: Aziza Yusupova (2024) 'Factors of development of skills of visual activity of pupils in preschool educational organizations', // Inter education & global study, (10), pp. 50–55. (In Uzbek)


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)


Bolalarning tasviriy ijodiyotining o‘ziga xos tomonlarini organish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan bulardan akademik VM. Bexterev (1857-1927) o‘zining “Первоначалная эволуция детского рисунка в объективном исследовании” nomli ilmiy risolasida qanday bo‘lmasin, insoniyat hayotida ibtidoi davrdan san’atning rivojlanish qonuniyatlari va bolalar rasmlari rivojlanishining umumiy xususiyatlari bir xil ekanligini, ular chizgan rasmlarni tahlil qilish asosidagi ko‘plab dalillarni keltirib, ularning rasmlarini bosqichma-bosqich evolyusiya qilish masalasini o‘rgangan. V.M. Bexterev bolaning qalamni to‘g‘ri ushlab turish va undan foydalanish qobiliyatiga katta ahamiyat bergan. Bolalar chizgan rasmni o‘rganishga bag‘ishlangan asarida, u shunday yozgan edi: «Bola chizgan rasmning dastlabki evolyusiyasini o‘rganish uchun, eng boshidanoq, bolaning qalamni to‘g‘ri ushlash qobiliyati paydo bo‘lishi bilanoq, unga uch barmoq o‘rtasida qalamni to‘g‘ri tutishga o‘rgatish kerak.

Italiyalik san’atshunos Richchi Korrado (Ricci Corrado, 1858-1934), “Дети художники” (1887) asarida bolalar rasmlarini psixologik tahlil qilgan muallif edi. Bolalarning ko‘plab rasmlarini o‘rganib, ular san’atining o‘ziga xosligini tavsiflaydi. U o‘z tadqiqotlariga asoslanib, bola rassomdek chizmaydi, degan xulosaga keladi, lekin uning xotirasida aniq nimaning yaratilaganini yetkazadi. Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o‘rgatish g‘oyasi birinchilardan bo‘lib italiyalik san’atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, ularsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyalari darajasida qolishi mumkinligini ta’kidlagan [1].

Bolalarda ijodiy tafakkurini rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etgan holda bunday mashg‘ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizir. Bolalar rasm, applikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg‘ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi: tasviriy san’at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi; qalam, mo‘yqalamni ushlash, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi; bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi; bola tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, bir joyda o‘tira olishni o‘rganadi; va oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishini o‘rganadilar. Maktabgacha 5-7 yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda tasviriy faoliyat o‘rni va samarali yo‘llari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati juda katta. Ushbu yosh davrida bolalar tafakkuri o‘ta faol rivojlanish bosqichida bo‘lib, tasviriy faoliyat ularga dunyoni anglash, tasavvur qilish, estetik didni shakllantirish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, 5-7 yoshdagi bolalar bilan ishlashda tasviriy faoliyatning samarali yo‘llarini izlash va amaliyotga joriy etish muhimdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)





Qo‘l barmoqchalari motorikasining rivojlanish holatlari.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Shunday ekan, bolalar tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biriga aylanadi. Buning uchun uning yirik va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish zarur. Chunki inson qo‘l va barmoqlarida nerv tolalari joylashgan. Barmoqlar orqali inson axborot oladi. Bolalarning mayda motorikasi uning nutqi, mantiqiy tafakkurini shakllantirishga ta'sir etadi. Bolalarning qo‘l va bilak motorikasi to‘g‘ri rivojlantirilsa, miya faoliyati ham shunchalik yaxshi taraqqiy etadi.

Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg‘ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri - bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli oyinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlantiradi. Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo‘lib, so‘z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a'lo darajada o‘zlashtirishda ko‘maklashadi [18].

Bolalar barmoqlarining uchlarida miya markaziga juda ko‘p signallarni uzatishga hissa qo‘shadigan asab tugunlari mavjud va bu umuman bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Qo‘llar va barmoqlar bilan kichik va aniq harakatlarni bajarish bo‘lgan nozik mahoratning rivojlanish darajasi maktabga intellektual tayyorgarlik ko‘rsatkichlardan biridir. Odatda, tasviriy qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan bola mantiqiy fikr yurita oladi, uning xotirasi, tafakkuri va diqqati, izchil nutqi yetarli darajada rivojlangan. Shunga qaramay, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabga 6-7 yoshda kelganida, birinchi sinf o‘quvchilarining 70-80 foizida ko‘rish qobiliyatining rivojlanishi va qo‘l harakatining rivojlanishi qoniqarsiz darajada bo‘ladi. Zaiflik, noqulaylik, qo‘lning rivojlanmaganligi va nozik tabaqalashtirilgan harakatlarni amalga oshira olmaslik bolaning yaxshi qo‘l yozuvini rivojlantirishga va yozish jarayonida uzoq vaqt qo‘l kuchlanishiga dosh berishga imkon bermaydi.

Tasviriy ko‘nikmalar rivojlanishining qoniqarsiz darajasi, shuningdek, namunali figuralarni chizishda, bosma harflarni chizishda yetarlicha aniq va to‘g‘ri chiziqlar chiza olmaslik, kontur bo‘ylab qog‘ozdan shakllarni aniq kesib ololmaslik va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Badiiy tarbiyaning samarali jarayoni, bolalar ijodiyoti, faolligi va tasavvurini rivojlantirishga bolalarga taqdim etilayotgan turli xil tasviriy materiallar, an'anaviy va tanish materiallardan voz kechish, yangi yechimlarni izlash yordam beradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati ularning fikrlashning aniqlik va tasvir kabi o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bolaning tasviriy faoliyati nafaqat individual funktsiyalar (idrok, xotira, tafakkur, fikrlash, tasavvur), balki umuman shaxsiyat bilan ham chambarchas bog‘liq.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolani yozishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan qo‘lda ko‘nikmalar va tasviriy-motor muvofiqlashtirish rivojlanadi. Bunga bolalar rasm chizishda bir kontur chizig‘idan foydalangan holda qismlarga emas, balki butun plastilin bo‘lagidan tasvirlarni yaratadigan mashg‘ulotlar yordam beradi. Agar bola qo‘li bilan ritmik, bir xil, silliq harakatlar qila olsa, yozishni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi. Bunday harakatning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

shakllanishiga o‘simliklarni chizish, kashtachilik asosidagi dekorativ rasm chizish, rasm va boshqalar yordam beradi. Har xil shakldagi, o‘lchamdagi va nisbatdagi buyumlarni chizish jarayonida ma’lum bir yo‘nalishni saqlab turish qobiliyati shakllanadi. Bolalarni tekis va uch o‘lchamli geometrik figuralarga yaqin bo‘lgan asosiy shakllar bilan tanishtirish, ularni atrofdagi voqelikdan ajratib olish, ularni o‘lcham, uzunlik, kenglik, balandlikda solishtirish, tasvirlangan obyekt qismlarining o‘lchamlarini o‘zaro bog‘lash va ularning fazoviy joylashuvi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘imi hisoblanadi, bu bo‘gim esa bolaning sog ‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya muhitini tashkil etishda sensor idrok etishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, tarbiyalanuvchilarning mustaqil bilish faolligini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi 5-7 yosh bolalarning tafakkurini rivojlantirishda tasviriy faoliyat muhim o‘rin tutadi. Ushbu yoshdagi bolalar uchun ijodiy tasviriy faoliyat nafaqat ularning badiiy estetik dunyoqarashini shakllantirishga, balki tafakkur, xotira, tasavvur va e’tibor kabi intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tasviriy faoliyat orqali bolalar atrof-muhitni anglash, hissiy kechinmalarni ifodalash va o‘z fikrlarini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Maxmudova O.A.T. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish. Birinchi nashr. - [Matn] / T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 308 bet.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. – 496 b.
3. Комарова Т.С. Обучение детей технике рисования. Изд. 3-еперераб. и допол. М.: АО Столетие, 1994. -152 с.
4. “Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi” M .Sh.Nurmatova, Sh.T.Hasanova. –Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2012 . 184-b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yusupova Aziza**, magistr [**Юсупова Азиза**, магистр], [**Aziza Yusupova** master's degree]; manzil: Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Город Чирчик, улица Амира Темура 104], [address: Chirchik city, 104 Amir Temur Street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

XALQ OG‘ZAKI IJODINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

© D. N. Badriddinova[1]✉
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi janrlarining ta’lim va tarbiyadagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mazkur mavzuning zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishdagi ahamiyati ochib beriladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – zamonaviy maktablarda xalq og‘zaki ijodi janrlarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilarning aqliy, axloqiy, nafosat va mehnat tarbiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashish imkoniyatlarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xalq og‘zaki ijodi janrlarining didaktik imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, pedagogik tajribalar va xalq maqollarining ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodi janrlarining zamonaviy o‘zbek maktablarida o‘quvchilarning hayotiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli darajada yordam berishini ko‘rsatdi. Xususan, xalq maqollari yordamida o‘quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, xalq og‘zaki ijodi janrlarining didaktik imkoniyatlarini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasini yanada samarali tashkil qilish mumkin. Bu esa milliy maktablarda o‘quv jarayonini boyitish va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, didaktik imkoniyatlar, milliy tarbiya, zamonaviy maktab, xalq maqollari, ta’lim samaradorligi, nafosat tarbiyasi.

Iqtibos uchun: Badriddinova D.N. Xalq og‘zaki ijodining didaktik imkoniyatlari // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 56–61.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА.

© Д.Н. Бадриддинова[1]✉
[1]Ташкентский Международный Университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются дидактические возможности народного устного творчества в образовательном и воспитательном процессах.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Рассматривается его влияние на духовно-нравственное развитие учащихся в современном образовательном контексте.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить возможности применения жанров народного устного творчества в образовательных и воспитательных процессах современных школ для развития интеллектуального, нравственного, эстетического и трудового воспитания учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научной литературы, педагогического опыта и примеров использования народных пословиц и поговорок в учебных процессах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что жанры народного устного творчества значительно способствуют развитию жизненных и практических навыков учащихся в современных узбекских школах. В частности, народные пословицы способствуют формированию патриотизма, трудолюбия и нравственных качеств.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование дидактических возможностей жанров народного устного творчества может сделать образовательный процесс более эффективным и богатым. Это также способствует внедрению инновационных подходов в национальные школы.

Ключевые слова: народное устное творчество, дидактические возможности, национальное воспитание, современная школа, народные пословицы, эффективность обучения, эстетическое воспитание.

Для цитирования: Бадриддинова Д.Н. Дидактические возможности народного устного творчества // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 56–61.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF FOLK ORAL CREATIVITY

© Dilnoza N. Badriddinova[1]✉
[1]Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the didactic possibilities of folk oral creativity in educational and upbringing processes. Its impact on the spiritual and moral development of students in the modern educational context is considered.

AIM: the main objective of the study is to determine the possibilities of applying genres of folk oral creativity in the educational and upbringing processes of modern schools to promote the development of intellectual, moral, aesthetic, and labor education of students.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature, pedagogical practices, and examples of using folk proverbs and sayings in educational processes.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the research results show that genres of folk oral creativity significantly contribute to the development of life and practical skills among students in modern uzbek schools. In particular, folk proverbs foster patriotism, diligence, and moral qualities in students.

CONCLUSION: the study results confirmed that incorporating the didactic possibilities of folk oral creativity into modern educational processes can make teaching more effective and enriching. It also facilitates the introduction of innovative approaches in national schools.

Keywords: folk oral creativity, didactic possibilities, national upbringing, modern school, folk proverbs, educational effectiveness, aesthetic education.

For citation: Dilnoza N. Badriddinova (2024) 'Didactic possibilities of folk oral creativity', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 56–61. (In Uzbek).

O'quv-tarbiyaviy jarayonida xalq og'zaki ijodi janirlarning didaktik imkoniyatlari foydalanish orqali o'vquvchilarni ma'naviy -axloqiy ruxda tarbiyalash amaliy pedagogik bilimlar va tajribani o'rganishdir. O'zbek milliy maktabini yaratishda ta'lim-tarbiya ishiga xalq og'zaki ijodi janirlarni joriy etish masalasi asosiy muammolardan biridir. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari tadqiqotmizga metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur", deydi [1].

Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi janirlarning zamonaviy maktab oldidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ularni mumkin qadar to'laroq amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash juda muhimdir. Yoki, xalq og'zaki ijodi janirlarning o'quvchilarni tarbiyalashdagi va ularga ta'lim berishdagi imkoniyatlarini qay darajada ekanligini bilish lozim . [2]

O'zbek xalqining har bir avlodi xalq ommasining bir necha asrlar mobaynida to'plagan tarbiya an'analarini bolani hayotga va mehnatga tayyorlashda qo'llab kelgan. Ya'ni, xalq og'zaki ijodi janirlarning imkoniyatlaridan amalda foydalangan. Bizning oldimizda esa zamonaviy o'zbek maktabi o'kuv-tarbiya jarayonida milliy tarbiya madaniyatini qo'llash uchun ularning imkoniyatlarini aniqlash masalasi turibdi [3].

Xalq og'zaki ijodi janirlarning tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi (qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi - har tomonlama yetuk insonni(shaxsni) shakllantirish. Uning tarkibiy qismlari esa rivojlanayotgan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. [3]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Maqollar esa, tarbiyaviy jarayonda shaxsni shakllantirishning sanab o‘tilgan tarkibiy qismlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit yarata oladi. Jumladan, xalq maqollaridan aqliy tarbiyaga oid, jismoniy tarbiyaga xos, axloqiy, mehnat va nafosat tarbiyalariga taalluqli o‘nlab namunalarni tanlab olish mumkin. Ular esa o‘qitishda, sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda va maktabdan tashqari tarbiya ishida yuqorida keltirilgan shaxsni shakllantirishning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan barcha yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan tadbirlarda keng qo‘llanilishi mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi janirlarning manbalari ma’lum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular eng avvalo maktabning (yoki oilaning) oldida turgan maqsad va vazifalaridan, so‘ngra esa aniq pedagogik jarayonda hal etiladigan masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, o‘quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin.

Masalan, boshlang‘ich siflarda, aniqrog‘i 3-sinfda o‘zbek xalq maqollari o‘rganiladi. Mazkur sinf uchun "O‘qish" darslaridan birida "O‘zbek xalq maqollari" mavzusi bor. Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi [4.131].

Maqollar	Didaktik imkoniyatlar	Hayotiy ko‘nikmalar
Vatani borning baxti bor, Mehnat boring taxti bor	Nutq, ijtimoiy ong, mulohoza, tushuntirish, o‘rgatish, tushunish.	Vatanga va mehnatga bo‘lgan ko‘nikmalar xosil bo‘ladi
Bilagi zo‘r birini yiqar, bilimi zo‘r mingni	Nutq, ijtimoiy ong, mulohoza, tushuntirish, o‘rgatish, tushunish.	Bilimga bo‘lgan xavas, bilim qadri haqidagi ko‘nikmalar
Yomondan qoch, yaxshiga yondosh	Nutq, qiyoslash, tushuntrish o‘rganish	Yaxshilik qilish odrb-axloq haqida ko‘nikmalar

O‘qituvchi xalq tarbiya an’analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e’tibor beradi. Ya’ni, "O‘zbek xalq maqollari" mavzusidagi darsning quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin: xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarnii o‘rgatish va ular haqida tasavvur hosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o‘quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo‘lishga, o‘zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarni hal etishga imkon beruvchi o‘zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bular xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashkil etadi. Shu o‘rnida didaktika termini tushunchasini izoxlab o‘tsak, Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — „o‘rgatuvchi“, „ta’lim beruvchi“) — pedagogikaning tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi [5].

Xalq og‘zaki ijodi janirlarning tushunchasini kiritishningg o‘zi xalq tarbiya an’analarini zamonaviy maktab va oila tajribasida qo‘llash doirasi ma’lum darajada chegaralanganligini anglatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari zamonaviy maktab oldida turgan vazifalar, uning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O‘quv-tarbiya jarayoni samarasini oshirishga to‘la imkon bergan taqdirdagina xalq tarbiya tajribasiga murojaat qilish mumkin. Keyingi vaqtlarda O‘zbekiston pedagogik davriy nashrlarida xalq pedagogikasiga keng o‘rin berilganligini mamnunlik bilan qayd etgan holda, uning mavjud imkoniyatlarini haddan tashqari bo‘rttirib ko‘rsatish, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo‘yish, ilmiy pedagogikaga bir yoqlama, ya’ni faqat tanqidiy ko‘z bilan qarash kuzatilayotganligini ta’kidlash lozim.

Bizningcha, xalq og‘zaki ijodi janirlarning maktab amaliyotiga tatbiq etishda uning tarbiyaviy imkoniyatlarini hozirgi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri baholash zarur.

Xalq og‘zaki ijodi janirlarning faqatgina ilmiy pedagogika bilan hamkorlikdagina chuqur o‘rganiladi. Tarbiya va o‘qitishning nazariyasi va uslubiyoti (metodikasi) xalq og‘zaki ijodi janirlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida ilmiy asosda foydalanish imkonini beradi. Milliy maktab yaratishda an’anaviylikni zamonaviylik bilan to‘g‘ri bog‘lay olish evazigagina har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish vazifalarini mumkin qadar to‘laroq hal qiluvchi talim-tarbiya sistemasini ishlab chiqarish mumkin. Yoki, so‘z xalq og‘zaki ijodi janirlarning ilmiy pedagogika va zamonaviy maktab ta’lim-tarbiya tajribasi bilan asosli ravishda bog‘lash haqida bormoqda. Bu o‘rinda biz Xalq og‘zaki ijodi janirlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va ulardan milliy maktab o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanishning «tarbiya madaniyatida an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro tasiri» prinsipini ilgari surdik. Bu ppinsipning mohiyati quyidagicha:

Milliy ta’lim-tarbiya uchun tarbiyada an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro ta’siri muammosi xosdir. Ya’ni, xalqning yetuk inson haqidagi ideallari, uni tarbiyalashga bo‘lgan qarashlarini shaxsni shakllantirishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar bilan taqqoslash va ular orasidagi munosabatni aniqlash lozim.

Xalq og‘zaki ijodi janirlarning didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o‘stirish va axloqiy nafosat g‘oyalarini egallashlarida qo‘llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktabda o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun qulayligi tushuniladi.

Masalan, milliy amaliy san’atga o‘rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin.

Xususan, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, zardo‘zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko‘plab amaliy can’at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o‘z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta’limi darslarida yoki to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berishda foydalanish mumkin.

Xulosa tariqasida o‘quv muassasalarida xalq og‘zaki ijodi janirlaridan foydalanish uchun uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlaridan o‘rnili foydalanish orqali o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sh. M. Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y
2. Xoshimov K. «O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi». Toshkent 1995 й
3. Mutalipova M. “Xalq pedagogikasi” T. “Bayoz”. 2013y
4. Bobomirzaev X. «Xalq og‘zaki ijodi va uning ta’lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O‘qituvchi». 1996 y. 173-bet
5. O‘qish kitobi [Matn]: 3- sinf uchun darslik/ M. Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. – Toshkent : „O‘qituvchi“ NMIU, 2019 й
6. Users/m.shirinov/Downloads/zbek-hal-ining-folklor-sanati-amda-folklor-etnografik-zhamoalarining-musi-a-sanati-rivozhida-tutgan-rni.pdf
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Didaktika

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Badriddinova Dilnoza Najmiddinova**, tadqiqotchi [**Бадриддинова Дилноза Наджмиддинова**, исследователь], [**Dilnoza N. Badriddinova** researcher]; manzil: 100121 Toshkent, Shota Rustaveli ko‘chasi, 156-uy, [адрес: ул. Шота Руставелли, 156, 100121 Ташкент], [address: Shota Rustaveli street, 156, 100121 Tashkent]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

FRANSUZ TILI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

© K. X. Baratova[1]✉

[1]Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. AKT vositalari til o‘qitish jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning lingvistik hamda madaniy kompetensiyasini rivojlantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda masofaviy ta’lim, multimedia texnologiyalari, mobil ilovalar, gamifikatsiya tamoyillari va virtual platformalardan foydalanish usullari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, AKT vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi. Ular madaniy muloqotni rivojlantirish va shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil qilishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA: fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy AKT vositalarini qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: fransuz tilini o‘qitish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta’lim, multimedia, mobil ilovalar, gamifikatsiya, virtual platformalar, madaniy muloqot, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish.

Iqtibos uchun: Baratova K.X. Fransuz tili o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. // Inter education & global study. 2024. № 10(1). B. 62-66.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ

© К.Х. Баратова[1]✉

[1]Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется роль и значение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении французскому

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

языку. Особое внимание уделено использованию мультимедийных средств, мобильных приложений, принципов геймификации и виртуальных платформ.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – внедрение современных ИКТ в процесс обучения французскому языку для повышения интереса студентов к изучению языка и развития их лингвистической и культурной компетенции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы мультимедийные средства, технологии геймификации, дистанционного обучения, мобильные приложения и персонализированные подходы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что использование ИКТ значительно улучшает процесс обучения, делает его более увлекательным и эффективным. Особое внимание уделяется развитию культурной коммуникации и индивидуализации образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: современные ИКТ повышают качество обучения французскому языку и играют важную роль в формировании коммуникативных навыков студентов.

Ключевые слова: преподавание французского языка, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное обучение, мультимедиа, мобильные приложения, геймификация, виртуальные платформы, культурное общение, персонализация образовательного процесса.

Для цитирования: Баратова К.Х. Использование современных информационно-коммуникационных технологий в обучении французскому языку. // Inter education & global study. 2024. №.10(1). С.62-66.

THE USE OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING FRENCH

© Klara X. Baratova[1]✉
[1]Karshi State University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the role and significance of modern information and communication technologies (ICT) in teaching French. Special attention is given to multimedia tools, mobile applications, gamification principles, and virtual platforms.

AIM: the main objective of the study is to implement modern ICT tools in teaching French to enhance students' interest in learning the language and to develop their linguistic and cultural competence.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed multimedia tools, gamification, distance learning technologies, mobile applications, and personalized approaches.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the findings show that applying ICT significantly facilitates the learning process, making it more engaging and effective. Emphasis is placed on cultural communication and the personalization of the educational process.

CONCLUSION: modern ICT tools enhance the quality of teaching French and play a vital role in developing students' communicative skills.

Keywords: French language teaching, information and communication technologies, distance learning, multimedia, mobile applications, gamification, virtual platforms, cultural communication, personalization of the educational process.

For citation: Klara X. Baratova (2024) 'Baratova The use of modern information and communication technologies in teaching French', // Inter education & global study. (10(1)). pp. 62-66. (In Uzbek).

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o‘rganish va o‘qitish jarayoni ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, fransuz tili xalqaro diplomatiya, san’at va madaniyat tillaridan biri sifatida dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi til o‘rgatish metodikasiga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish imkonini bermoqda. Mazkur maqolada fransuz tilini o‘qitishda AKT vositalaridan samarali foydalanish metodlari, ularning o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yaratadigan imkoniyatlari tahlil qilinadi

Fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi, shuningdek, ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini taqdim etadi. Ushbu bo‘limda masofaviy ta’lim, multimedia texnologiyalari, virtual platformalar, mobil ilovalar, gamifikatsiya tamoyillari, AKT yordamida til o‘rganishni shaxsiylashtirish va boshqa yo‘nalishlar batafsil yoritiladi.

Masofaviy ta’lim va interaktiv platformalar. Masofaviy ta’lim AKTdan foydalanishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi platformalar yordamida masofadan darslarni tashkil etish o‘qituvchilar uchun qulay, o‘quvchilar esa o‘zlariga mos vaqtda darslarga qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunda o‘quvchilar uchun video darslarni yozib olish va qayta ko‘rib chiqish imkoniyati yaratiladi. Masalan, fransuz tili o‘rganayotgan talabalarga bu jarayon murakkab grammatik mavzularni mustaqil o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim yordamida turli mintaqalarda yashovchi talabalar bilan birgalikda ishlash orqali tilni o‘rganish madaniy interaktivlikni rivojlantiradi. Darslarda AKTdan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini qulay qiladi, balki o‘quvchilarni tilni o‘rganishga undaydi va ularda doimiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Multimedia texnologiyalari va interaktiv vositalar. Multimedia texnologiyalari fransuz tilini o‘qitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tilni turli qirralaridan o‘rgatish imkonini beradi. Videodarslar va audiokitoblar talabalar uchun ko‘rgazmali va eshituv

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

vositalarini taqdim etadi. YouTube va boshqa platformalarda fransuz tiliga oid juda ko‘p bepul kontent mavjud bo‘lib, bu talabalar uchun juda foydali manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu resurslardan foydalanib, talabalar o‘z nutq eshitish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularning tilni yanada chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bunday vositalar fransuz madaniyatiga oid filmlar, musiqalar va boshqa materiallardan foydalanishni osonlashtiradi, bu esa o‘quvchilarni tilni o‘rganishga yanada qiziqtiradi

Mobil ilovalar va gamifikatsiya tamoyillari. Zamonaviy mobil ilovalar fransuz tilini o‘rgatishda katta rol o‘ynaydi. Duolingo, Babbel, Memrise kabi ilovalar o‘quvchilarga har kuni qisqa vaqt davomida tilni o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu ilovalar o‘yin elementlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular talabalarni o‘qitishda gamifikatsiya tamoyillarini qo‘llaydi. Bu esa tilni o‘rganish jarayonini qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qiladi. Masalan, talabalar darajalarni bosib o‘tgan sari ball yig‘ish, mukofotlar olish orqali o‘z mahoratlarini oshirishadi. Bundan tashqari, ilovalarda mavjud progress monitoring tizimi talabalarni o‘z yutuqlarini kuzatishga va natijalarni baholashga undaydi.

Virtual platformalar va masofaviy kurslar. Moodle, Blackboard va Canvas kabi platformalar fransuz tilini o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladi. Bu platformalar yordamida o‘quvchilar uchun testlar, topshiriqlar, o‘quv materiallari va forumlar kabi interaktiv imkoniyatlar taqdim etiladi. Shu bilan birga, platformalar o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini monitoring qilish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan materiallarni yaratish imkonini beradi. Masalan, fransuz tilidagi yozma nutqni rivojlantirish uchun talabalar matnli topshiriqlarni bajarishlari mumkin, va ularni platforma orqali avtomatik tekshirish va baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlaydi.

Shaxsiylashtirilgan o‘qitish va adaptiv tizimlar. Zamonaviy texnologiyalar shaxsiy yondashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tilni o‘rganuvchilar har xil bilim va ko‘nikma darajasiga ega bo‘lganligi sababli, AKT yordamida individual ta’lim yo‘nalishini ishlab chiqish muhimdir. Misol uchun, adaptiv o‘quv tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasini aniqlash va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bunday tizimlar til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi va o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlariga mos materiallar bilan ishlashlariga imkon beradi.

Madaniy muloqot va interaktiv darslar. Fransuz tili nafaqat til, balki madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli, madaniy aspektlarni o‘rgatishga ham e’tibor qaratish zarur. AKT yordamida talabalarni fransuz madaniyati bilan tanishtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, virtual sayohatlar, fransuz festivallari va madaniy tadbirlarga oid interaktiv kontent talabalar uchun darslarni qiziqarli qiladi. Bunday faoliyatlar talabalarni nafaqat til, balki madaniy o‘zaro muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

AKT imkoniyatlarini kengaytirish va cheklovlarni bartaraf etish. Biroq, fransuz tilini o‘rgatishda AKTdan foydalanish bilan bog‘liq ayrim cheklovlar ham mavjud. Texnologiyalarga kirish imkoniyati cheklangan talabalar uchun bu jarayon qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, o‘quv jarayonini rejalashtirishda texnologik resurslarning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

mavjudligi va ulardan samarali foydalanishni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, texnologiyalarga ortiqcha tayanish o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchilarni AKTdan samarali foydalanishga tayyorlash bo‘yicha treninglar tashkil etish talab etiladi.

Fransuz tilini o‘qitishda AKTning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari tomonidan kompleks yondashuv va texnologik infratuzilmani ta’minlash zarur. AKT yordamida talabalarni fransuz tilini samarali o‘rganishga yo‘naltirish mumkin, bu esa kelajakdagi ta’lim va professional faoliyatda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. AKT vositalari yordamida o‘qitish til o‘rganuvchilarning faolligini oshirish, ularga shaxsiy yondashuvni qo‘llash va dars jarayonini interaktiv qilish imkonini beradi. Biroq, AKTni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘quvchilarning texnologiyaga kirish imkoniyatlarini ta’minlash va o‘qituvchilarning ushbu vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Zamonaviy AKT vositalaridan foydalanishning afzalliklari ularning kelajakdagi ta’lim tizimida o‘rni yanada kuchayishini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bobonazarova, Z. (2019). Chet tillarni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (2020). Zamonaviy AKT va ta’lim. Navoiy: NDPInash.
3. Habibullayeva, N. I. (2021). Ta’limda multimedia texnologiyalari. Samarqand: SamDU nash.
4. Qosimov, B. (2018). Fransuz tilini o‘qitishda interaktiv usullar. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Ahmadaliyeva, G. T. (2021). Virtual platformalar ta’limda. Qarshi: QDU nashriyoti.
6. Yusupov, O. T. (2019). Masofaviy ta’lim texnologiyalari. Andijon: ADU nash.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2021). Chet tillarni o‘qitishni rivojlantirish to‘g‘risida.
8. Abdullayeva, M. A. (2020). AKT va madaniy muloqot. Buxoro: BDU nash.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Baratova Klara Xolmanovna,** o‘qituvchi [**Баратова Клара Холмановна**, преподаватель], [**Klara X. Baratova,** teacher]**;** manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy, [адрес: 180119, г. Карши, улица Кучабог, д. 17], [address: 17 Kuchabog Street, Karshi, 180119].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

WINDOWS FORMDA UI/UX FRAMEWORKLARNING AFZALLIKLARI

© I.K. Choriyev[1]✉
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada Windows Forms’da UI/UX dizayn yaratish texnologiyalari va ularning dasturiy ta’minot loyihalash jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – zamonaviy UI/UX freymvorklaridan foydalanib, Windows Forms platformasida dasturlarning dizayn sifatini oshirish va dasturchilarga o‘z ishlarini samarali tashkil qilish imkonini berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda guna framework, devexpress va materialskin kabi zamonaviy freymvorklarning imkoniyatlari tahlil qilindi hamda windows forms’da maxsus boshqaruv elementlarini yaratish tajribasi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar zamonaviy ui/ux freymvorklaridan foydalanish dasturiy ta’minot dizaynini loyihalash jarayonini soddalashtirishini, ishlab chiqish vaqtini qisqartirishini va dizayn sifati sezilarli darajada oshishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, ui/ux freymvorklaridan foydalanish windows forms platformasida yuqori sifatli va samarali dizaynni yaratishga yordam beradi, bu esa dasturlash jarayonini amaliyotga yaqinlashtiradi.

Kalit so‘zlar: Windows Forms, foydalanuvchi interfeysi, foydalanuvchi tajribasi, UI/UX freymvorklar, Guna Framework, DevExpress, dizayn samaradorligi, boshqaruv elementlari.

Iqtibos uchun: Choriyev I.K. Windows Forms platformasida UI/UX dizaynni yaratish texnologiyalari va ularning afzalliklari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.67–74.

ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ WINDOWS FORMS UI / UX FRAMEWORK

© И.К. Чориев[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются технологии проектирования пользовательского интерфейса и опыта в Windows Forms с акцентом на использование современных фреймворков, таких как Guna Framework, DevExpress и MaterialSkin.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность разработки пользовательских интерфейсов на платформе Windows Forms, демонстрируя

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

возможности UI/UX фреймворков для ускорения процесса разработки и улучшения качества дизайна приложений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование включает анализ существующих UI/UX фреймворков и их практического применения, а также создание кастомных компонентов для Windows Forms с использованием C# и .Net.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование UI/UX фреймворков, таких как Guna Framework, позволяет не только ускорить разработку, но и достичь значительных улучшений в дизайне приложений, включая гибкость настройки и визуальную привлекательность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что применение современных UI/UX технологий в Windows Forms способствует созданию более качественных и удобных приложений, оптимизируя процесс разработки и улучшая пользовательский опыт.

Ключевые слова: Windows Forms, пользовательский интерфейс, пользовательский опыт, UI/UX фреймворки, Guna Framework, DevExpress, кастомные компоненты, дизайн приложений.

Для цитирования: Чориев И.К. Преимущества Обучения Windows Forms UI / UX Framework. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 67–74.

ADVANTAGES OF LEARNING WINDOWS FORMS UI / UX FRAMEWORK

© I.K. Choriyev[1]✉
[1] Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the approaches to creating user interface and user experience designs in Windows Forms, focusing on the use of modern frameworks like Guna Framework, DevExpress, and MaterialSkin.

AIM: the main objective of the study is to enhance the efficiency of user interface development on the Windows Forms platform by leveraging UI/UX frameworks and to demonstrate their advantages in improving the quality and functionality of applications.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing existing ui/ux frameworks and their practical applications, as well as developing custom components in windows forms using c# and .net technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: the results indicated that using modern frameworks, such as Guna Framework, significantly reduces development time and improves the visual quality and flexibility of application design.

CONCLUSION: the study results confirmed that applying modern UI/UX frameworks in Windows Forms facilitates the creation of high-quality, user-friendly applications, optimizing development workflows and enhancing user experience.


Keywords: Windows Forms, user interface, user experience, UI/UX frameworks, Guna Framework, DevExpress, custom components, application design.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)


For citation: Choriyev. I.K. (2024) 'Advantages Of Learning Windows Forms UI / UX Framework', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 67–74. (In Uzbek).

C# dasturlash tili asosiga qurilgan .Net texnologiyalarida Windows Form ilovalarini yaratish orqali ko'plab sohalarda mavjud masalalarni yechuvchi dasturlar va web ilovalar ommalashib bormoqda. Bu texnologiyalar orqali ko'plab boshqarish tizimlari, hisob-kitob tizimlari, ilovalar yaratish imkoni mavjud. Bu esa o'z navbatida ilovalarning dizaynini yaratishga bir qancha shartlar qo'ymoqda. Dasturchilar Winform ilovalarning dizaynini yaratishda standart boshqaruv elementlaridan foydalanishi va ularga ishlov berishida ko'plab qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek bu vazifalar dasturchidan ko'plab vaqt talab qilishi mumkin. Masalan birgina rangi, shakli, border radiusi kabi ko'plab xususiyatlari o'zgaruvchan bo'lgan Button elementini yaratish uchun quyidagi birqancha amallar ketma- ketligini bajarish zarur hisoblanadi:

Ishni avvalo loyihaga yangi class qo'shishdan boshlashimiz zarur:



Bu yerda yaratmoqchi bo'lgan elementimizga nom beramiz, ya'ni yaratilgan sinf nomi va element nomi bir xil bo'ladi.



Yaratgan sinfimiz ichiga quyidagi kodlarni yozib chiqamiz:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

```
using System.Windows.Forms;
using System.Drawing;
using System.Drawing.Drawing2D;
using System.ComponentModel;
namespace WindowsFormsApp21
{
 internal class RJButton:Button
{
      private int borderSize = 0;
       private int borderRadius = 40;
       private Color borderColor = Color.PaleVioletRed;
       [Category("RJ Code Advance")]
       public int BorderSize { get => borderSize; set { borderSize = value;
this.Invalidate(); } }
       [Category("RJ Code Advance")]
       public int BorderRadius { get => borderRadius; set { borderRadius = value;
this.Invalidate(); } }
       [Category("RJ Code Advance")]
       public Color BorderColor { get => borderColor; set { borderColor = value;
this.Invalidate(); } }
       [Category("RJ Code Advance")]
       public                                                          Color
BackgroundColor{get=>this.BackColor;set{this.BackColor=value;}}
       [Category("RJ Code Advance")]
       public Color TextColor {get=>this.ForeColor;set{this.ForeColor = value; } }
       public RJButton()
       {
          this.FlatStyle = FlatStyle.Flat;
          this.FlatAppearance.BorderSize = 0;
          this.Size = new Size(150, 40);
          this.BackColor = Color.MediumSlateBlue;
          this.ForeColor = Color.White;
       }
       private GraphicsPath GetFigurePath( RectangleF rect, float radius)
       {
          GraphicsPath path = new GraphicsPath();
          path.StartFigure();
          path.AddArc(rect.X, rect.Y, radius, radius, 180, 90);
          path.AddArc(rect.Width-radius, rect.Y, radius, radius, 270, 90);
          path.AddArc(rect.Width-radius, rect.Height-radius,radius,radius, 0, 90);
          path.AddArc(rect.X, rect.Height-radius, radius, radius, 90, 90);
```


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

```
            path.CloseFigure();
            return path;
        }

        protected override void OnPaint(PaintEventArgs pevent)
        {
          base.OnPaint(pevent);
          pevent.Graphics.SmoothingMode = SmoothingMode.AntiAlias;

          RectangleF rectSurface = new RectangleF(0, 0, this.Width, this.Height);
          RectangleF rectBorder =new RectangleF(1,1,this.Width-0.8F,this.Height-
1);
          if(borderRadius > 2)
          {
           using(GraphicsPath pathSurface=GetFigurePath(rectSurface,
borderRadius))
           using(GraphicsPath pathBorder=GetFigurePath(rectBorder,borderRadius-
1F))
           using (Pen penSurfece = new Pen(this.Parent.BackColor,2))
           using (Pen penBorder = new Pen(borderColor, borderSize))
           {
              penBorder.Alignment = PenAlignment.Inset;
              this.Region = new Region(pathSurface);
              pevent.Graphics.DrawPath(penSurfece, pathSurface);
              if( borderSize >= 1)
                  pevent.Graphics.DrawPath(penBorder, pathBorder);
           }
          } else {
            this.Region = new Region(rectSurface);
            if (borderSize >= 1)
            {
              using ( Pen penBorder = new Pen(borderColor, borderSize))
              {
                penBorder.Alignment = PenAlignment.Inset;
                pevent.Graphics.DrawRectangle(penBorder, 0, 0, this.Width - 1,
this.Height - 1);
                 }
              }
            }
        }
        protected override void OnHandleCreated(EventArgs e)
```



CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

```
            {
                base.OnHandleCreated(e);
                this.Parent.BackColorChanged += new
EventHandler(Container_BackColorChanged);
            }
            private void Container_BackColorChanged(object sender, EventArgs e)
            {
                if(this.DesignMode)
                    this.Invalidate();
            }
        }
    }
```

Bu yerda yangi Button obyekti yaratib olinib, uning BorderSize, BorderRadius, BorderColor, BackgroundColor, TextColor xossalarini o‘zgaruvchan qilib yozib chiqilgan.

Shundan so‘ng loyihamizni build qilganimizda yangi elementimiz elementlar panelida paydo bo’ladi va biz undan foydalanishimiz mumkin.




Ammo zamonaviy .Net texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan va UI/UX dizayndagi muammolarni yechish imkoni sifatida ko’plab UI/UX dizayn freymvorklar yaratilgan. Bu dasturchiga qisqa vaqt sarflab, ajoyib dizayndagi ilovalar yaratish imkonini beradi. Bularga DevExpress, MetroFramework, Materialskin, Bunifu Framework, GUNA Framework kabilar misol bo’la oladi.

Guna Frameworkni ko’rib chiqadigan bo’lsak, bu frameworkni biz https://www.nuget.org/packages/Guna.UI2.WinForms/#versions-body-tab saytidan ustanovochniy paketini olamiz va C:\Program Files (x86)\Microsoft SDKs\NuGetPackages\nuget.frameworks\4.6.4 papkaga yuklangan paketimizni joylashtiramiz. Yangi winform loyihasini yaratamiz va u yerdan proyekt papkasi ustiga o’ng tugma orqali NuGet paketlarini boshqarish bo’limiga o’tamiz, ko’rsatish (browse) bo’limiga o’tamiz va qidiruv qismiga guna deb yozamiz. Paydo bo’lgan Guna.UI2.WinForms paketini o’rnatamiz (1-rasm).


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)



1-rasm.

O’rnatilgandan so’ng elementlar panelini tekshirsak yangi guna elementlari hosil bo’lgfanini ko’rishimiz mumkin.




2-rasm.

Hosil bo’lgan elementlardan foydalanishni boshlashimiz bilan bizga aktivatsiya oynasi ochiladi va bizdan litsenziya so’raydi. Biz bu freymvorkdan 14 kunlik sinov bersiyasi sifatida foydalanishimiz yoki to’lov qilib pulli versiyalarini sotib olishimiz mumkin. Bepul versiyani ustanovka qilish uchun trial tugmasini bosamiz va hosil bo’lgan oyna orqali ro’yxatdan o’tamiz. Guna paketi orqali o’zimizning dizaynimizni yaratish imkoniga egamiz. Masalan birgina tugma(button)ning 7 xil turi mavjud. Bular: Guna2Button, Guna2CircleButton, Guna2GradientButton, Guna2GradientCircleButton, Guna2GradientTileButton, Guna2ImageButton, Guna 2TileButton (3-rasm).



3-rasm.

Oddiy button va Guna2Buttonning farqini quyida ko’rishimiz mumkin:




CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

4-rasm.

Guna orqali joylashtirilgan tugmaning ko'plab parametrlarini elementning yuqorisida joylashgan tugmani bosish orqali o'zgartirish mumkin. Bu esa ishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Form oynasini ham o'z xohishingizga ko'ra qayta dizayn qilib chiqishingiz mumkin. Bunda boshqaruv oyna, menyular oynasi, asosiy oyna kabi o'zingizning dizayningizni loyihalashingiz mumkin:



4-rasm.

Shunday qilib biz ikki xil usul yordamida o'zimizning ilovalarimiz dizaynini ishlab chiqishni ko'rdik. Ikkinchi usulimiz freymvork texnologiyalari orqali ishimiz sifati, tezligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. https://www.nuget.org/
2. https://www.youtube.com/@gunaui4933
3. https://www.youtube.com/@amstudio5222
4. https://github.com/mulyawansentosa/Guna.UI-Framework-Lib

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Choriyev I.K.**, katta o'qituvchi [**Чориев И.К**, старший преподователь], [**Choriyev I.K.** senior lecturer]; manzil: Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy, [адрес: Город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43], [address: 43 Barkamol avlod Street, Termez city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

GERMENEVTIK TA’LIMOT ASOSIDA ONA TILI TA’LIM MAZMUNINI METODIK RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

© Sh. Sh. Djo‘rayeva[1]✉

[1]Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ona tili ta’lim mazmunini germenevtik ta’limot asosida metodik rivojlantirishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi. Ona tili o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuv va texnologiyalardan foydalanishning samarasi va o‘rni ko‘rsatiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ona tili ta’lim mazmunini samarali rivojlantirishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish va talabalarni mustaqil ta’lim jarayonida kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda germenevtik yondashuv asosida ona tili ta’lim mazmunining ilmiy-nazariy jihatlari va mahalliy hamda xorijiy tajribalarning tahlili amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, germenevtik yondashuv asosida ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirish talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirishda germenevtik ta’limotdan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali qilishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, germenevtik yondashuv, ta’lim mazmuni, lingvistik kompetensiya, mustaqil ta’lim, ilmiy dunyoqarash.

Iqtibos uchun: Djuraeva Sh.Sh. Germenevtik ta’limot asosida ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirish mexanizmi. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.75-81.

МЕХАНИЗМ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАЗРАБОТКИ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО УЧЕНИЯ

© Ш.Ш. Джураева[1]✉

[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются актуальные аспекты методического развития содержания преподавания узбекского языка на основе герменевтического подхода. Показана эффективность и роль инновационных подходов и технологий в процессе обучения.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработать методические механизмы эффективного развития содержания преподавания узбекского языка и направить студентов на формирование компетенций в процессе самостоятельного обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научно-теоретических аспектов содержания узбекского языка на основе герменевтического подхода, а также изучен опыт отечественных и зарубежных педагогов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что методическое развитие содержания узбекского языка на основе герменевтического подхода способствует формированию у студентов научного мировоззрения и совершенствованию их речевых навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование герменевтического подхода в развитии содержания преподавания узбекского языка делает образовательный процесс более эффективным.

Ключевые слова: преподавание узбекского языка, герменевтический подход, образовательное содержание, лингвистическая компетенция, самостоятельное обучение, научное мировоззрение.

Для цитирования: Джураева Ш.Ш. Механизм методической разработки содержания обучения родному языку на основе герменевтического учения // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.75-81.

MECHANISM OF METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE CONTENT OF NATIVE LANGUAGE EDUCATION ON THE BASIS OF HERMENEUTIC DOCTRINE

© Shakhnoza Sh. Dzhurayeva[1]✉
[1]Tashkent State Technical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the key aspects of methodological development of the Uzbek language educational content based on the hermeneutic approach. The role and effectiveness of innovative approaches and technologies in the teaching process are highlighted.

AIM: the main aim of the study is to develop methodological mechanisms for the effective advancement of the Uzbek language educational content and guide students in forming competencies during independent learning.

MATERIALS AND METHODS: the study involved an analysis of the scientific and theoretical aspects of Uzbek language content based on the hermeneutic approach and examined local and international pedagogical experiences.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that methodological development of Uzbek language educational content through the hermeneutic approach fosters students' scientific worldview and enhances their speech skills.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

CONCLUSION: the study confirmed that applying the hermeneutic approach in developing Uzbek language educational content makes the learning process more effective.

Keywords: uzbek language teaching, hermeneutic approach, educational content, linguistic competence, independent learning, scientific worldview.

For citation: Shakhnoza Sh. Djuraeva. (2024). 'Mechanism of methodological development of the content of native language education on the basis of hermeneutic doctrine, // Inter education & global study, (10(1)), pp. 75-81.(In Uzbek).

Ona tili ta'limining ilmiy-metodik asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay oladi. Bo'lajak ona tili o'qituvchilarga modul-kredit tizimini keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik va metosik shart-sharoit talabalarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili o'qitish metodikasiga oid kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni metodik rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. "Ona tili o'qitish metodikasi" fani metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. Ta'limda bo'lajak qorqalpoq tili o'qituvchilarining modul-kredit tizimidagi metodik tayyorgarligini jadallashtirish, didaktik-pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga tayyorlashning mustaqil hamda o'quv topshiriqlar tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" alohida ta'kidlangan. Zero modul-kredit ta'limida mustaqil ta'lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Respublikamizda bo'lajak ona tili o'qituvchilari uchun Ona tili o'qitish metodikasi fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida fan bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, amaliy ishlar talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari hamda hamda O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2019–yil 29–arreldagi "O'zbekiston Resrublikasi xalq ta'limi tizimini 2030–yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712–son va 2020–yil 27–fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora–tadbirlari to'g'risida"gi RQ–4623–son Qarorlari va O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60–sonli, O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2022–yil 11–maydagi “2022–2026–yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134–son Farmon va qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu borada metodist K.Mavlonovaning - Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn asosida integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishini alohida ta‘kidlash lozim. Olima tomonidan ona tili ta‘lim mazmunining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan matn ustida ishlash, uni o‘qiy olish, tushuna olish va matn yarata olish ko‘nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir izlanishlar I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov M.H.Mahmudov, A.G‘ulomov, M.Qodirov, B.R.Adizov, M.Mirtojiyev kabi tilshunos, metodist-pedagoglar tomonidan ta‘lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o‘rganilgan. Ayniqsa, professor R.R.Sayfullayeva ona tili ta‘limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor H.Ne‘matov g‘oyalariga tayanib, ona tili o‘qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, lug‘at va matn asosida milliy tilni, milliy ma‘naviyatni talaba ongiga singdirish, talabani turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo‘nalishini birinchilardan bo‘lib boshlab berdi. Pedagogika fanlari doktori, professor R.Safarovaning o‘quv-biluv ko‘nikmalarni rivojlantirish ona tili ta‘lim mazmunining asosiy vazifasi ekanligiga, xususan, mustaqil ta‘lim topshiriqlari, shuningdek, didaktik yondashish masalasi, o‘zbek tilining davlat tili sifatida o‘qitilishi bilan bog‘liq muhim masalalarni tadqiq etganini alohida ta‘kidlash lozim.

Tahlil va natijalar. Ona tili ta’lim mazmuninig ijtimoiy mohiyati uning aloqa vazifasini bajarishida ko‘rinadi. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniq tushunishga yordam berish uchun quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak:

o‘quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi o‘rnini talabalar o‘zlashtirishini ta’minlash zarur. Talabalar tilning aloqa vazifasini tilning asosiy birliklari (fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap)ning vazifasini tushunish jarayonida o‘rganadilar.

talabalarning tilning o‘zaro aloqa vositasi ekanligini tushunishlari «Til har bir kishi, umuman, jamiyat hayotida qanday o‘rinni egallaydi?» savoliga javob topishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ona tili ta’lim mazmunida kishilarning birgalikdagi mehnat faoliyatida, yangiliklarni maslahatlashib tushunishida, yangi mashinalar ixtiro qilishda zarurligi haqida misollar topib, o‘z fikrlarini tasdiqlaydilar. Yoshlari ulg‘aygan sari talabalar odamning odam bo‘lishida tilning ahamiyatini tushuna boradilar. Odam o‘zining fikrlash faoliyatini rivojlantirish va nutqini o‘stirish bilan o‘zini doimo takomillashtirib boradi. Olamni, koinotni o‘zgartira borib, kishi yanada kamol topa boradi, uning tili ham boyiydi. Kishilar bilan,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

jamiyat a’zolari bilan aloqa, munosabat har bir kishining o‘sishi, rivojlanishidagi zaruriy shartlardan hisoblanadi.

talabalarning tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishi, tilda yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi haqida ularning saviyasiga mos bo‘lgan “sir”ni yechish ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi talabalarga tilning bir kishi tomonidan maxsus o‘ylab chiqarilmaganini, u ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yaratilganini va asta-sekin rivojlanib borganini tushuntiradi: “Bizdan juda uzoq vaqtlar ilgari tilda faqat bir necha o‘ngina so‘z mavjud edi, kishilar atrofdagi tabiatni, narsalarni bilib, ish qurollari yaratib, nimadir ishlab chiqarganlari sari tilda yangi so‘zlar paydo bo‘la boshladi. Atrofimizda mavjud bo‘lgan shaxs va narsalarga, ularning belgilariga, jarayonga, juda ko‘p boshqa narsalarga kishilar nom qo‘yganlar. Shunday qilib, til yangi so‘zlar bilan boyidi va boyib bormoqda”. Ona tili ta’lim mazmuninig rivojlanishi, ayrim so‘zlarning ma’nolari haqidagi bilimni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, fe’lni o‘rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o‘rinda “So‘zning tarkibi” bo‘limi katta imkoniyatga ega. Talabalar bu bo‘lim materiallarini o‘rganish jarayonida tilimizning yangi so‘zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so‘z yasalishi bilan tanishadilar. Ma’lumki, ko‘pgina yangi so‘zlar tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: limon tipida limonzor, suvchi tipida bo‘zchi kabi. Tilda yangi so‘zning paydo bo‘lishi o‘zidan keyin bir xil o‘zakli so‘zlar guruhining hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi: ishli, ishsiz, ishchi kabi. Boshlang‘ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o‘rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo‘lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Ona tili ta’lim mazmunida tilni o‘zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, ona tiliga ilmiy qarash asoslarini germenevtik rivojlantirishning muhim bog‘lanishlarini bilishga ham yordam beradi. Xususan, talabalarning so‘zning tovush tomoni bilan uning leksik ma’nosi, so‘zning morfemik tarkibi bilan leksik ma’nosi, so‘zning grammatik ma’nosi bilan uning ma’lum so‘z turkumiga tegishliligi o‘rtasidagi bog‘lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog‘lanish tilning fonetik, leksik, so‘z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta’sir qilishini xarakterlaydigan umumiy bog‘lanishlarning xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarning xarakterli bog‘lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai nazaridangina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Tildan bilim berishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy-mavzuviy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

yo‘naltirilganligi, talabalarning individual tipologik xususiyatlariga mosligidir. Shunday qilib, ona tili ta’lim mazmunini o‘rganish jarayonida talabalarga ilmiy dunyoqarash asoslarini rivojlantirishga o‘qituvchining metodologik yondashuvi, talabalar o‘zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi ona tili haqidagi bilimlar majmuasi, talabalar o‘rganib oladigan bilish usuli, tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan ma¬terialning bilim berishdagi, g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan. Talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarini germenevtik ta’limot asosida rivojlantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u OTMda olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi. Talaba ilmiy-metodik xarakterdagi umumlashtirish zarur bo‘lgan daliliy materiallarni yig‘ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o‘rganish natijasida talabalar nutq faoliyatining sifati o‘zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o‘rganishni hayot bilan bog‘lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir paytda ona tili darslarining asosiy vazifalari-dan biri bo‘lmish talabalarda to‘g‘ri kuzatish va o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda aniq bayon etish ko‘nikmasini o‘stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o‘qituvchidan talabalarda dialektik fikrlash ko‘nikmasini rivojlabntirishga alohida e’tibor berish talab etiladi. Dialektik tafakkur keng ma’noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog‘liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig‘indisi bilan rivojlanishda ko‘rish ko‘nikmasini ta’riflaydi. Tafakkurning bunday sifati talabalarda asta-sekin rivojlana boradi va o‘z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o‘rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda talabalarning o‘quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo‘lmoqda. Ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirishda talabalar uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida talabalarning o‘zlari “topgan” yoki adabiy manbalardan tayyor olingan ona tili ta’lim mazmunini materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki ona tili ta’lim mazmunini o‘rganish jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarini rivojlantirish masalasini hal qilishda maktabdan to OTMgacha ona tili ta’lim mazmunini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi talabalarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga tasir etadi, atrof-muhit haqidagi bilim-larini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, talabalarning umumiy taraqqiyoti darajasini o‘stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi yillarda ona tili ta’lim mazmunini darsliklari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmuniga qo‘yilgan talablar anchagina ortdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

1. Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, Z.Rozmetova Ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirish T.: Respublika ta'lim markazi. O'quv-uslubiy qo'llanma.T:. 2022.-144 b.
2. Axmedova M.E. Rasulova G.K.Kredit-modul tizimida o'zbek tili ta'limda mustaqil o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. Uslubiy ko'rsatma, "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022
3. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida) Monografiya., Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022. 173 bet
4. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi// O'zMU XABARLARI, 2022, 1/2/1, 95-97 betlar
5. Axmedova M.E. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2 (86), Xorazm Ma'mun akademiyasi noshirlik bulimi, 2022, 470-472 betlar
6. Axmedova M.E. OTM filologik ta'limda o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari 22.Akulova, A. A. konstruirovanie situatsionnix zadach dlya otsenki kompetentnosti uchashixsya: uchebno-metodicheskoe posobie dlya pedagogov shkol. T.2008 g.153s.
7. Borovkov A., G'ulomov A., Ma'rupov Z., Shermuhammedov T. O'zbek tili grammatikasi. Yetti yillik va o'rta maktablarning 5-6-sinflari uchun darslik. I qism. Fonetika va morfologiya. –T:. O'zdavnashr, 1946. – 227 b.
8. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr 2020, 252 bet.
9. Ziyodova T., va boshqa O'zbek tili o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun. O'quv qollanma – T.: Bayoz, 2012. – 152 b.
10. Koziyeva T.T. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari. Monografiya. 2024 yil 180 bet

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna**, katta o'qituvchi [**Джураева Шахноза Шакирьяновна,** старший преподаватель], [**Shakhnoza Sh. Dzhurayeva,** senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: Г. Ташкент, Чиланзар, ул. Гавхара, д. 1], [address: Tashkent City, Chilonzor, Gavkhar Street, house No. 1].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

PEDAGOG IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA NOTIQLIK MAHORATINING O'RNI

© G. B. Doniyorova [1]✉

[1]Chirchiq davlat Pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining ahamiyati va uning ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Notiqlik san'atining pedagog faoliyatida ta'sirchan nutq, muloqot uslublari va obro'ni mustahkamlashdagi o'rni ko'rib chiqilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining ahamiyatini aniqlash va pedagoglarning nutq madaniyatini rivojlantirishga oid samarali usullarni taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, empirik kuzatishlar, so'rovnomalar va pedagoglarning nutq ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan tajribalar asosida tahlil metodi, eksperiment va kuzatish usullari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Pedagogning ta'sirchan va ravon nutqi o'quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, ularda ta'limga nisbatan motivatsiyani oshiradi va pedagogga nisbatan ishonchni kuchaytiradi.

XULOSA: pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahorati ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, pedagogning professional muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Notiqlik mahoratini rivojlantirish bo'yicha trening va seminarlar pedagoglarning ta'sirchan nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagog imiji, notiqlik mahorati, nutq madaniyati, ta'sirchan muloqot, o'quvchilar motivatsiyasi.

Iqtibos uchun: Doniyorova G.B. Pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining o'rni. // Inter education & global study. 2024. №.10(1). B. 82-86.

РОЛЬ НАВЫКОВ ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ

© Г.Б. Дониёрова[1]✉

[1] Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется роль навыков публичных выступлений в формировании имиджа учителя. Рассматриваются культура речи, коммуникативные навыки и их значение в профессиональной деятельности педагога.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить значение и роль навыков публичных выступлений в формировании имиджа учителя и определить эффективные методы развития речевой культуры у педагогов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались научная литература, анкеты, экспериментальные исследования и наблюдения за навыками публичных выступлений у педагогов. Использовались аналитические, эмпирические и статистические методы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выводы показывают, что умение говорить является важным фактором формирования имиджа учителя. Эффективная и чёткая речь помогает педагогам завоёвать доверие учеников, повышать мотивацию и обеспечивать успех образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: навыки публичных выступлений являются неотъемлемой частью образовательного процесса, повышая эффективность преподавания и способствуя формированию положительного имиджа педагога.

Ключевые слова: имидж педагога, навыки публичных выступлений, культура речи, мотивация учащихся, педагогическая эффективность.

Для цитирования: Дониёрова Г.Б. Роль навыков публичных выступлений в формировании имиджа учителя. // Inter education & global study. 2024. №.10(1). С 82-86.

THE ROLE OF SPEAKING SKILLS IN FORMING THE IMAGE OF THE TEACHER

© Gulbahor B. Doniyorova[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the importance of public speaking skills in shaping the teacher's image and its role in the educational process. It highlights the significance of eloquence, communication style, and speech culture in enhancing pedagogical effectiveness.

AIM: the primary goal of the study is to explore the role and significance of public speaking skills in shaping the teacher's image and to propose effective methods for developing teachers' speech culture.

MATERIALS AND METHODS: the study employed scientific literature, surveys, experimental observations, and test materials focusing on teachers' speaking skills. Analytical, empirical, experimental, and observational methods were used.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that public speaking skills significantly influence the teacher's image. Clear and effective speech fosters trust and motivation among students, enhancing the overall success of the educational process.

CONCLUSION: public speaking skills are an integral part of the educational process, improving teaching effectiveness and contributing to the formation of a positive teacher image.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Keywords: teacher's image, public speaking skills, speech culture, student motivation, pedagogical effectiveness.

For citation: Gulbahor B. Doniyorova. (22024) 'The role of speaking skills in forming the image of the teacher. // Inter education & global study',№(10(1)). pp. 82-86. (In Uzbek).

Pedagog imiji — bu nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki uning ma'naviy va professional sifatlarini aks ettiruvchi umumiy tasavvurdir. Pedagogning imiji ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omil bo'lib, uning o'quvchilar oldidagi obro'sini mustahkamlaydi. O'quvchilarga bilim beruvchi, ular bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lgan pedagog nafaqat bilimli, balki o'zini professional tarzda ifodalovchi shaxs bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, pedagogning o'quvchilarga bo'lgan ishonchini va ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Pedagogning nutqi uning imijini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biridir. Ta'lim jarayonida samarali muloqot o'rnatish, tushunarli va aniq nutq orqali ma'lumot yetkazish pedagogning o'quvchilarga bo'lgan ta'sirini oshiradi. Notiqlik mahorati pedagogning bilimini o'quvchilarga yetkazishda, shuningdek, ularni ilmiy fikrlarni qabul qilishga undashda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning pedagogga ishonchi, ularning qiziqish darajasi va ta'lim jarayoniga bo'lgan motivatsiyasi ham pedagogning nutq madaniyati va muloqot uslubiga bog'liq. Shuningdek, notiqlik mahorati o'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va uning professional imijini yaxshilaydi. O'qituvchining nutqi to'g'ri, aniq, mos, leksik boy, ifodali va toza bo'lishi kerak. Bu sifatlar pedagogning nutq madaniyatini belgilaydi va uning ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchining nutqi o'quvchilar bilan samarali muloqotni ta'minlash, bilimlarni to'liq yetkazish va o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Notiqlik mahoratini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'z nutqining texnik jihatlariga, jumladan, ovoz balandligi, intonatsiya, pauzalar va talaffuzga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, nutqning mazmuni, mantiqiyligi va tinglovchilarga mosligini ta'minlash ham muhimdir. Bu borada o'qituvchining kommunikativ kompetentligi, ya'ni samarali muloqot qila olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Notiqlik mahorati pedagog imijini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib, u o'qituvchining professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Pedagogning imiji nafaqat uning bilim darajasi va tajribasi, balki shaxsiy ko'nikmalari, jumladan, notiqlik mahorati bilan ham chambarchas bog'liq. O'qituvchi yoki pedagogning ta'sirchan va professional nutqi uning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Pedagogning nutqi ravon va tushunarli bo'lsa, talabalarda yoki o'quvchilarda unga nisbatan ishonch ortadi. Tushunarli va mantiqiy nutq, pedagogning bilimdon va yetuk shaxs sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi. O'qituvchi samarali muloqot qilishni bilishi kerak. Yaxshi notiqlik – bu nafaqat auditoriyaga murojaat qilish, balki o'quvchilarni tinglash, ularning fikrini qabul qilish, kerakli savollarga javob topishda


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

yordam berish mahoratidir. Pedagogik mahoratning muhim qismi – murakkab tushunchalarni oddiy, tushunarli qilib tushuntira olishdir. Notiqlik san'ati bu jarayonda katta rol o'ynaydi. Qiziqarli, jonli va aniq nutq yordamida o'qituvchi mavzuni oson yetkazadi va o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi.

Notiqlikning yana bir muhim jihati – ta'sirchanlikdir. Pedagog nutq orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkazib, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Ilhomlantiruvchi nutqlar o'quvchilarni faol bo'lishga undaydi. Zamonaviy pedagogdan nafaqat texnik bilimlar, balki o'z fikrini to'g'ri ifodalash, auditoriya oldida erkin nutq so'zlash va o'zini boshqara bilish talab qilinadi. Nutqidagi ishonchlilik, madaniylik, ovoz ohangi va mimika pedagogning ijobiy imijini shakllantiradi.

Notiqlik mahoratini rivojlantirish usullari:

- Nutqiy texnikalarni o'zlashtirish; nutq tempini boshqarish; ovoz balandligini va ohangini o'zgaruvchan qilish; to'g'ri nafas olish texnikasini o'rganish.
- Lug'at boyligini oshirish: kitob o'qish va yangi so'zlarni o'zlashtirish; muloqot jarayonida aniqlik va lo'ndalikni ta'minlash.
- Mashq qilish: auditoriya oldida nutq so'zlashni ko'proq mashq qilish; o'z nutqlarini yozib olib, kamchiliklarni tahlil qilish.
- Ritorika va psixologiya bo'yicha bilimlarni egallash: auditoriyaning e'tiborini jalb etish usullari; jismoniy harakatlar va mimikaning ta'sirini tushunish.



Yuqoridagi diagramma pedagog imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining o'rni haqida piramida shaklida tasvirlangan. Diagrammada pedagogik imij (40%) eng yuqori ahamiyatga ega bo'lib, undan keyin notiqlik mahorati (30%), nutq madaniyati (20%) va ishonch va muloqot (10%) keltirilgan. Bu piramida pedagogning imijini shakllantirishda har bir omilning o'zaro ahamiyatini ko'rsatadi.

Pedagogning nutqi nafaqat ma'lumotni tushuntirish, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish vositasi hisoblanadi. Samarali muloqot pedagogga o'quvchilarning ehtiyojlarini anglash va ularga individual yondashish imkonini beradi. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan munosabatlar pedagogning imijini mustahkamlashga xizmat qiladi. Agar pedagog o'quvchilarni tinglash, ularga javob berish va ular bilan o'zaro fikr almashish imkoniyatini taqdim etsa, bu pedagogning imijini yanada ijobiy qiladi. Pedagogning ta'lim

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

jarayonida ko‘rsatayotgan sifatli muloqoti, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va o‘quvchilarda ijobiy ta’sir qoldiradi.

Pedagogning imijini shakllantirishda notiqlik mahoratining rolini oshirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bular quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: treninglar va seminarlar: Pedagoglarga nutq madaniyatini rivojlantirish, ta’sirchan va aniq nutq qilish mahoratini oshirishga qaratilgan treninglar va seminarlar tashkil etish; amaliy mashg‘ulotlar: Pedagoglarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish. Bu mashg‘ulotlar orqali pedagoglar o‘z nutqini yaxshilash va o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishning samarali usullarini o‘rganadilar; kuzatish va tahlil: Pedagoglarning darslari va muloqotini kuzatish, o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini tahlil qilish va takomillashtirish yo‘llarini izlash.

Notiqlik mahorati pedagogning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, aniq va ta’sirchan nutqi o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularni motivatsiya qiladi va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Pedagogning nutq madaniyati va muloqot uslubi uning professional imijini shakllantiradi va o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Shuning uchun, pedagoglar o‘zlarining notiqlik mahoratini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Bu nafaqat pedagogning o‘z faoliyatini yanada samarali qilishiga, balki o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini va bilim olish jarayonini yaxshilashga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Muxamedov, A. (2020). Pedagogika asoslari. Tashkent: O‘qituvchi.
2. G‘afurov, I. (2019). Pedagogik muloqot va nutq madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge: Harvard University Press.
4. Shamsutdinova, L. (2018). O‘qituvchining nutq madaniyati. Toshkent: TDPU nashri.
5. Amonov, R. (2017). Pedagogik kommunikatsiya va uning ta’limdagi o‘rni. Samarqand: SamDU.
6. Dastanova, G. (2021). Notiqlik san’ati va uning pedagogik ahamiyati. Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.
7. Hymes, D. (1972). On communicative competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
8. Niyazov, S. (2015). Pedagogik imij va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Toshkent: Ma’naviyat.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Doniyorova Gulbahor Bobir qizi**, doktorant [**Дониёрова Гулбахор Бобур кизи**, докторант], [**Gulbahor B. Doniyorova,** doctoral student]; manzil: Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: г. Чирчик, улица Амира Темура дом 104], [address: Chirchiq city, Amir Temur street 104 house].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Original paper

ONLAYN INTERNET O'YINLARIGA QARAMLIKNING TURLI XIL KO'RINISHLARI

© J.B. Egamberdiyev[1]✉
[1]Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada onlayn o'yinlarga qaramlikning dolzarb muammolari, ularning yoshlar ongiga salbiy ta'siri va ushbu hodisaning ta'lim hamda tarbiyadagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif onlayn o'yinlar orqali shakllanadigan xulq-atvor buzilishlarining ijtimoiy oqibatlarini ko'rib chiqadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – onlayn o'yinlarga qaramlikning psixologik mexanizmlarini aniqlash va uning yoshlar ruhiyatiga ta'sirini o'rganishdir. Shuningdek, ushbu qaramlikning oldini olish usullarini ishlab chiqish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biridir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida onlayn o'yinlarga qaramlikka oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. K.Yang, M.Waters va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida keltirilgan qaramlik mezonlari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar va kuzatish usullari asosida muammoning keng tarqalganligini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yinlarga haddan tashqari berilish yoshlarning kundalik hayotiga, o'qish samaradorligiga va oilaviy munosabatlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, onlayn o'yinlarga qaramlikning asosiy alomatlari – vaqtni nazorat qila olmaslik, sog'liq muammolari va ijtimoiy izolyatsiya holatlari aniqlangan.

XULOSA: tadqiqot natijalari onlayn o'yinlarga qaramlik zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammosi ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu muammo bilan kurashish uchun yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish, texnologik vaqtni chegaralash va psixologik yordam ko'rsatish zarurligi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: onlayn o'yinlar, qaramlik, yoshlar psixologiyasi, virtual olam, media savodxonlik, psixologik yordam, texnologik ta'sir.

Iqtibos uchun: Egamberdiyev J.B. Onlayn internet o'yinlariga qaramlikning turli xil ko'rinishlari // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.87-94.

РАЗЛИЧНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЗАВИСИМОСТИ ОТ ОНЛАЙН-ИГР В ИНТЕРНЕТЕ

© Ж.Б. Эгамбердиев[1]✉
[1]Шахрисабзский государственный педагогический институт, Шахрисабз, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется проблема зависимости от онлайн-игр, которая становится все более актуальной в условиях развития технологий. онлайн-игры оказывают значительное влияние на психологическое и социальное развитие подростков, вызывая изменения в их поведении и способствуя формированию зависимого поведения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить психологические механизмы зависимости от онлайн-игр, определить основные ее признаки и разработать рекомендации для профилактики и лечения зависимости среди подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализирована научная литература, посвященная зависимости от онлайн-игр, включая работы к. янга, м. уотерса и других ученых. также использовались наблюдение и метод анкетирования для изучения воздействия онлайн-игр на поведение подростков.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что зависимость от онлайн-игр проявляется в виде психологических и социальных проблем, таких как снижение успеваемости, ухудшение семейных отношений и ухудшение состояния здоровья. Наибольший уровень зависимости наблюдается среди подростков, активно вовлеченных в агрессивные или соревновательные игры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что зависимость от онлайн-игр является серьезной психологической проблемой, требующей внимания со стороны родителей, педагогов и специалистов. Профилактика должна включать в себя развитие медиаграмотности, контроль времени, проводимого за играми, и психологическую поддержку.

Ключевые слова: онлайн-игры, зависимость, молодежная психология, виртуальный мир, медиаграмотность, психологическая помощь, технологическое влияние.

Для цитирования: Эгамбердиев Дж. Б. Различные проявления зависимости от онлайн-игр в интернете. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 87-94.

VARIOUS MANIFESTATIONS OF ADDICTION TO ONLINE INTERNET GAMES

© Jamol B. Egamberdiyev[1]✉
[1]Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Shahrisabz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the problem of online game addiction, which is becoming increasingly relevant with the advancement of technology. Online games significantly affect the psychological and social development of adolescents, leading to behavioral changes and fostering dependency.

AIM: the main aim of the study is to identify the psychological mechanisms of online game addiction, determine its key symptoms, and develop recommendations for preventing and addressing this addiction among adolescents.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on online game addiction, including works by k. young, m. waters, and others. observations and survey methods were also utilized to explore the effects of online games on adolescent behavior.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that online game addiction manifests in various psychological and social issues, such as decreased academic performance, strained family relationships, and health deterioration. the highest level of addiction was observed among adolescents engaged in competitive or aggressive games.

CONCLUSION: the study confirmed that online game addiction is a serious psychological issue requiring attention from parents, educators, and specialists. Prevention measures should include media literacy development, time management, and psychological support.

Keywords: online games, addiction, youth psychology, virtual world, media literacy, psychological assistance, technological impact.

For citation: Jamol B. Egamberdiyev. (2024) 'Various manifestations of addiction to online internet games', Inter education & global study, (10(1)), pp. 87-94.(In Uzbek).

Bugungi zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari qatorida onlayn o'yinlarga qaramlik dolzarb mavzulardan biri sifatida talqin qilinmoqda. Sababi texnologik taraqqiyot va internetning rivojlanishi onlayn o'yinlar nafaqat yoshlar, hatto kattalar orasida ham keng tarqalmoqda. Bu o'yinlar ayrim ijobiy jihatlarga ega bo'lsa-da, ko'p odamlar onlayn o'yinlarni iste'mol me'yoriga amal qilmasligi qaramlik holatlarini paydo qilmoqda.

Yana bir narsa. Avvallari, tahminan 35-40 yillar oldin hatto kattalarning aksariyati ham nimani anglatishini bilmagan bir so'z bugungi kunda allqachon butun dunyoning chipqoniga aylanib qolgan. Bu - pornografiya. Bu harom, iflos va jirkanch narsani sehrli va jozibador olam qilib ko'rsatishga urunishlarning son-sanog'i yo'q.

Bu narsa internetni shu darajada egallab olganki, beihtiyor ayrim g'arb mamlakatlarining "odam" deb ataluvchi mavjudotlari zinokorlikdan boshqa hech qanday ish bilan shug'ullanmaydigandek tuyuladi. Afsuski, bugungi kunda bu balodan to'lig'icha asrashga 100 foiz kafolat bera oladigan elektron dasturning o'zi yo'q .

Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur. Zero har qanday xabar ham to'g'ri va xolis bo'lavermaydi. Har bir ma`lumotni tekshirish haqida Alloh taolo shunday deydi: "Ey mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz!'' (Hujurot, 6).

Internet klublarda yoshlar o'ynaydigan virtual o'yinlarning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishga ega. Ularning 41 foiz jangari (turli otishmalar va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

portlatishlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun zo‘ravonlik va yovuzliklardan foydalanadi. Bunday o‘yinlarni yoshlarning ongiga tashlangan olovga qiyoslash mumkin, chunki bu o‘yinlar yoshlar ongini zaharlaydi va ularning ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi .

Onlayn o‘yinlarga qaramlik – bu zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida keng tarqalgan psixologik muammo bo‘lib, odamlar video yoki kompyuter o‘yinlariga kuchli bog‘lanib qolish holatidir. Bu qaramlik insonning kundalik hayotiga, munosabatlariga, o‘qishiga va sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Onlayn o‘yinlarga qaramlikning asosiy belgilari quyidagilardir:

O‘yinlarga ko‘p vaqt sarflash – odam o‘yin o‘ynashga doimiy ravishda ko‘p vaqt ajratadi va bu o‘yinlar ustidan nazoratni yo‘qotadi. Biror ishni qilish o‘rniga o‘yin o‘ynashni afzal ko‘radi.

O‘yinlarsiz yashay olmaslik – kishi onlayn o‘yinlarsiz o‘zini noqulay his qiladi yoki bezovtalanadi. O‘yin o‘ynamayotgan paytda kayfiyat buzilishi, asabiylashish yoki tashvish seziladi .

Kundalik hayotga ta'siri – o‘yinlar tufayli inson o‘zining kundalik vazifalarini bajarishda qiynaladi. O‘qish, ish yoki oilaviy munosabatlar zarar ko‘radi.

Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar – uzoq vaqt davomida ekranga qarab o‘tirish tanaga jismoniy zarar keltirishi mumkin: ko‘zlarning charchashi, uyqusizlik, ortiqcha vazn yoki mushak-skelet tizimining buzilishlari.

Chekinish simptomlari – o‘yin o‘ynamagan paytda odam o‘zini ruhiy jihatdan yomon his qiladi, asabiylashadi va o‘yinlarga qaytishni istaydi.

Onlayn o‘yinlarga qaramlikni keltirib chiqaruvchi omillar:

Mukofot tizimi – o‘yinlar tez-tez mukofotlar berish orqali odamda qoniqish hissini uyg‘otadi va davom ettirishga undaydi.

Ijtimoiy muloqot – ko‘pgina onlayn o‘yinlar ko‘p foydalanuvchili bo‘lib, do‘stlar yoki boshqa o‘yinchilar bilan bog‘lanish imkoniyatini yaratadi. Bu ijtimoiy o‘zaro ta’sir qaramlikni kuchaytirishi mumkin.

Reallikdan qochish – odamlar ba'zida real hayotdagi muammolardan qochish yoki stressni kamaytirish uchun o‘yinlarga berilib ketishadi .

Onlayn o‘yinlarga qaramlikning oldini olish va davolash uchun quyidagi choralar qo‘llanilishi mumkin :

Chegaralar belgilash – o‘yinlarga qancha vaqt ajratishni aniq belgilash va unga qat'iy rioya qilish.

Muvozanatli turmush tarzi – sport bilan shug‘ullanish, kitob o‘qish, do‘stlar bilan muloqot qilish kabi faoliyatlar orqali vaqtingizni muvozanatli ravishda tashkil qilish.

Psixologik yordam – agar qaramlik kuchli bo‘lsa, psixolog yoki terapevtga murojaat qilish. Maxsus dasturlar va terapiya usullari mavjud.

Onlayn o‘yinlarga qaramlikni nazorat qilish va boshqarish juda muhim, chunki bu qaramlik insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga katta zarar yetkazishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Onlayn internet tobeligi muammosi bo‘yicha amalga oshirilgan sof psixologik tadqiqotlar ichida K.Yangning tadqiqotlari alohida e’tirof etilib, u mazkur g‘oyaning ilk mualliflaridan biri sanaladi. Muallif onlayn internetg¬a tobelik masalasini aniqlovchi so‘rovnoma ishlab chiqib ilk bor 1994 yilda veb tarmoq orqali o‘z tadqiqotini amalga oshirdi. Oradan besh yil vaqt o‘tib muammo yuzasidan o‘z monografisini nashr etdi.

K.S.Yangning ta’kidicha, onlayn internetga tobelikni belgilovchi to‘rt muhim sifat mavjud :

– elektron pochtani tekshirishga bo‘lgan muntazam istak;

– internet aloqani doimiy ravishda kutish;

– shaxsning internet tarmog‘ida ko‘p vaqtini sarflashi to‘g‘risida boshqalarning shikoyati;

– biror kishining internet uchun juda ko‘p pul sarflayotgani to‘g‘risidagi shikoyati va hokazo.

Demak, muallifning nazaricha, insonning internetga bo‘lgan munosabati unga bo‘lgan tobelik darajasini aniqlashni osonlashtiradi.

Tadqiqotchi M.Vaters internetga tobelikni namoyon etuvchi quyidagi qo‘shimcha sifatlarni kiritadi :

– ish joyida va uyda ovqatlanish vaqtini kamaytirish yoki monitor oldida muntazam ovqatlanish;

– bog‘liq bo‘lmagan ish jarayonida internetga tez – tez kirish.

– onlayn tizimda vaqtni yo‘qotish.

– odamlar bilan jonli tarzda emas, balki onlayn tez-tez muloqot qilish;

– internetga mukkasidan ketish tufayli, oila va ish joyidagi mas’uliyatni unutish shuningdek, ijtimoiy hayot, ilmiy faoliyat yoki o‘z salomatligi bilan bog‘liq masalalarni e’tibordan chetda qoldirish;

– internetda ishlash vaqtini qisqartirmaslik;

– doim internetda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ovqatlanish, dars tayyorlash yoki dam olish vaqtlarini cheklash;

– o‘z muammolarini oldini olish yoki ilojsizlik, xavotirlik, tushkunlik kabi hissiy kechinmalarini yo‘qotish uchun internetda bo‘lish;

– internetdan uzoqlashganda charchoq, asabiylashish, kayfiyatning tushishi, internetga kirish istagining paydo bo‘lishi;

– internetga maxfiy asosda kirish yoki tobelikni tan olmaslik (yaqinlari va oila a’zolari bo‘lmagan taqdirda);

“Onlayn internet tobeligi” fenomeni rus psixologiyasida ham yangi tadqiqotlar turkumidan biri hisoblanib, unga oid ilk izlanishlar A.Y.Lichko hamda N.Y.Ivanovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Mualliflarning fikricha, tobelik bu kasallik bo‘lib, kimyoviy tobelikka yaqin xulq-atvorning noodatiy ko‘rinishidir .

A.Y.Voyskunskiyning aytishicha, internetga tobelik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘zida inson hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab olishi lozim. Chunki, boshqa tobelik turlaridan farqli ravishda, internetga tobelik psixik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi hamda real hayotdan o‘zini olib qochishga qaratilgan shaxsning noodatiy xulq-atvor shakli sifatida e’tirof etilgan.

Demak, yuqorida qayd etilgan tobelik turlari va unga oid yondashuvlarning mazmuni “internet tobeligi” tushunchasi mohiyat –mazmunini aniqlashtirishga keng imkon beradi. Bundan tashqari, tobe xulqning klinik belgilari va psixologik mexanizmlarini taqqoslashda ham muhim sanaladi. Addiktolog M.D.Griffisning aytishicha, tobelik fenomenini tushuntiruvchi quyidagi tushunchalar mavjud :

– ustuvorlik – inson uchun biror sevimli mashg‘ulot yuqori darajali ahamiyatga ega bo‘lib, unga bo‘lgan moyillik boshqa fikr, his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar mazmunidan ustunlik qiladi;

– kayfiyat o‘zgarishi - insonning biror predmet va hodisaga bo‘lgan ortiqcha munosabati orqali kechadi yoki haddan ortiq mashg‘ul bo‘lgan mashg‘ulotdan bahra olish, xotirjamlikni his etish;

– bag‘rikenglik – haddan ortiq ro‘ju’ qo‘ygan mashg‘ulot uchun hech narsani ayamaslik, ortiqcha pul sarflash;

– konfliktga moyillik – nizolarning barcha turlarini anglatib, u intropsixik (ichki) esktropsixik (tashqi) shaklda namoyon bo‘lishi mumkin;

– o‘jarlik – har qanday holatda va vaziyatda ro‘ju’ qo‘ygan mashg‘ulotga qaytish.

I.Y.Kupriyanovaning fikricha, onlayn internetga tobelik masalasini tadqiq etishda avvalo, uni tavsiflovchi ayrim psixologik jihatlarni aniqlab olishi lozim :

– kompyuter bilan ishlashga bo‘lgan ob’ektiv tobelik (o‘yin o‘ynash, dasturlash, virtaul muloqot saytlari);

– masofaviy muloqotga hamsuhbat qidirish;

– internet orqali pullik o‘yinlarga patologik tobelik;

– haddan ortiq onlayn auksionlarda qatnashish hamda xaridlarni amalga oshirish va hokazo.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, yuridik psixologiya va kriminologiya fanlarida ham elektron tarmoq ma’lumotlariga tobelik masalasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda asosiy masala noodatiy “jinsiy yaqinlikka” tobelik va uning huquqiy asoslari muammosiga qaratilgan. Misol uchun, T.N.Borodkina internetga tobelik asosida insonlar tomonidan amalga oshiriladigan jinoiy harakat mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: “ internetga tobelik xulqi bu- ruhiy tomondan buzilgan xulq-atvor shakliga tenglashtirilgan faoliyat sanalib, unda inson o‘z ehtiyojlarini qondirish istagi bilan emas, balki haqiqiy dunyodan qochish istagi bilan yashaydi. Shuning uchun, sud – huquq tizimida inson ruhiy holatning ahamiyati, uning sog‘-salomatligi, patologik buzilishlarga ega yoki ega emasligi alohida e’tiborga olinishi lozim deb ta’kidlaydi”.

A.Y.Yegorov tobe xulq muammosining tibbiy – psixologik masalalariga to‘xtalib o‘tar ekan, uning ta’kidicha ko‘pchilik o‘smirlar hayotda kompyuter tarmog‘iga berilib ketish kasalligidan aziyat chekadilar. Buning uchun ularda maxsus psixoprofilaktik chora – tadbirlar tashkil etilishi kerak. Misol uchun dunyoga mashhur eng yosh xaker Kevin Metnikning jinoiy faoliyati ushbu mulohazaga yaqqol misoldir . Muallifning fikricha, ayrim

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

tibbiy kasalliklar ham kiber jinoyatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga bo‘lgan tobelikni bartaraf etish uchun esa, maxsus ishlab chiqilgan psixoprofilaktik chora-tadbirlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Psixologik adabiyotlarda, internetga tobelik fenomenini asoslashga oid ilk tadqiqotlar K.Yangning izlanishlari bilan asoslanilsada, ammo undan ham oldin mazkur muammoga doir ayrim tadqiqotlarni uchratish mumkin. Bunday ishlarning ilmiy rahnamosi sifatida ingliz psixologi M.Shottonning ishlari e’tirof etiladi. M.Shotton 100 dan ortiq kompyuter bilan ishlaydigan dasturchilar va kompyuter ixlosmandlari ustida tadqiqot olib bordi. Tadqiqotda suhbat usuli va ayrim psixologik testlardan foydalanildi. Muallifning xulosalariga ko‘ra, internetga tobelik ko‘proq oilalardagi to‘ng‘ich farzandlarda qayd etilib, u 30 yoshda avjiga chiqadi. Shuningdek, insondagi yuqori ma’lumotlilik, turmush qurmaganlik, farzandsizlik kabi holatlar ham, internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida rol o‘ynashi mumkin .

Mazkur fasl bo’yicha quyidagicha xulosalarni aytish mumkin. Bugungi kunda addiksiyaning turlari judayam ko’p. bulardan eng aktuali onlayn internet va kompyuter o’yinlariga tobelik turidir. Dunyo bo’yicha bugungi kunda 200 mlndan ortiq shaxslar onlyan o’yinlarga qaramlikdan aziyat chekib kelmoqda. Ya’ni kompyuterning topshiriqlariga to‘liq erishishga bo‘lgan harakat turi ham sanaladi. Ushbu holatda shaxs yaqin kishilari va boshqalarning topshiriqlarini bajarishdan ko‘ra, tarmoq orqali bajariladigan maqsadlarni afzal ko‘radilar va hokazo. Bu esa kelajakda yangi zamon xavf-hatarlarini keltirib chiqarmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Wu CY, Lee MB, Liao SC, Chang LR (2015) Risk Factors of Internet Addiction among Internet Users: An Online Questionnaire Survey. PLoS One 10(10): e0137506.
2. Lindberg A, Bowden-Jones H (2014) Internet Gaming Addiction: A Novel Treatment Approach, The Lindberg & Bowden-Jones Model. The Canadian Journal of Addiction 5(2): 27.
3. Waters M. Internet Addiction Disorder and Pastoral Care. II American Journal of Pastoral Counseling, 2005, Vol. 8 Issue 1, p3-12
4. Войскунский А. Е. Личность в сети: становление и современное состояние киберпсихологии. Образование и развитие личности в современном коммуникативном пространстве // Материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. - Аспринт Иркутск, 2016. – С.17-26.
5. Короленко Ц.П. Аддиктивное поведение. Общая характеристика и закономерности развития. Обозрение психиатрии и медицинской психологии им. В.М.Бехтерева - СПб.: Санкт-Петербургский научно-исследовательский психоневрологический институт, 1991. - №1. - с. 8-15.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

6. Батищев В.В. Методология организации программы психотерапии и реабилитации больных с зависимостью от психоактивных веществ, имеющих низкий уровень мотивации на лечение / В.В. Батищев, Н.В. Негериш. М., 2001. – С.54.
7. Griffiths M.D. A Components model of addiction within a biopsychosocial framework // Journal of Substance Use, 2010. - P. 191-197.
8. Куприянова И.Е., Семке В.Я., Логинов И.П. Социальные вопросы ад-диктивных состояний (по материалам XIV конгресса социальной психиатрии, Гамбург, 5. 10 июня 1994) // Региональные проблемы современной аддикто-логии. - Томск, 1994. - С. 68. - 72.
9. Т.Н.Бородкина А.В.Павлюк. Киберпреступления: понятие, содержание и меры противодействия. Социально-политические науки. № 1. 2018. –135- 137 с
10. Егоров А.Ю., Игумнов С.А. Расстройства поведения у подростков: клинико-психологические аспекты. - СПб.: Речь, 2005. – С.89.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Egamberdiyev Jamol Berdimurodovich**, o’qituvchi [**Эгамбердиев Жамол Бердымуродович**, преподователь], [**Jamol B. Egamberdiyev,** teacher]; manzil: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'cha 10-uy., [адрес: Кашкадарьинская область, город Шахрисабз, улица Шахрисабз, дом 10], [address: 10 Shahrisabz street , city of Shahrisabz, Kashkadarya region].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Original paper

SUN'IY INTELLEKTNING MAZMUN MOHIYATI

© D. A. Ergasheva[1]✉
[1]Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada sun'iy intellekt tushunchasi va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, texnologiyaning jadal rivojlanishi kontekstida sun'iy intellektning mazmun mohiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — sun'iy intellektning rivojlanish bosqichlarini o'rganish, uning innovatsion imkoniyatlarini aniqlash va insoniyat kelajagiga bo'lgan ta'sirini baholashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot sun'iy intellekt sohasiga oid adabiyotlarning tahliliga asoslanib, turli olimlarning fikr-mulohazalari va nazariyalarini o'rganishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat ijobiy yutuqlarni, balki insoniyat kelajagiga xavf tug'diruvchi tahlikalarni ham o'z ichiga oladi. Sun'iy intellektning rivojlanishi barcha sohalarning tubdan o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA: tadqiqot natijalari sun'iy intellektni doimiy nazorat qilish zarurligini va bu texnologiyalarning ijobiy jihatlarini xavfsiz tarzda rivojlantirish kerakligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, innovatsiya, Tyuring testi, zamonaviy texnologiyalar, sun'iy neyron tarmoqlar, robototexnika.

Iqtibos uchun: Ergasheva D.A. Sun'iy intellektning mazmun mohiyati va uning zamonaviy jamiyatdagi o'rni. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.95-102.

СУЩНОСТЬ СОДЕРЖАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

© Д.А. Эргашева[1]✉
[1]Наманганский государственный педагогический институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется понятие искусственного интеллекта, его современные достижения и вызовы в быстро меняющемся технологическом мире.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить этапы развития искусственного интеллекта, его влияние на различные отрасли и оценить риски и преимущества этих технологий для общества.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основано на анализе научных публикаций, посвященных искусственному интеллекту, а также на изучении его прикладных аспектов в различных областях науки и техники.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что технологии искусственного интеллекта могут быть как движущей силой инноваций, так и источником потенциальных угроз, требующих контроля и регулирования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтверждает необходимость устойчивого развития технологий искусственного интеллекта с учетом возможных рисков и этических аспектов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, инновации, тест тьюринга, нейронные сети, робототехника, цифровые технологии.

Для цитирования: Эргашева Д.А. Сущность содержания искусственного интеллекта. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 95-102.

THE ESSENCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE CONTENT

© Dilnoza A. Ergasheva[1]✉
[1]Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the concept of artificial intelligence, its current achievements, and challenges in the rapidly evolving technological world.

AIM: the main aim of the study is to examine the stages of artificial intelligence development, its influence on various fields, and to evaluate the risks and benefits these technologies bring to society.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on the analysis of scientific publications on artificial intelligence and its application across various disciplines and industries.

DISCUSSION AND RESULTS: the results indicate that artificial intelligence technologies can serve as both a driving force for innovation and a source of potential threats, requiring monitoring and regulation.

CONCLUSION: the study confirms the need for sustainable development of artificial intelligence technologies, considering possible risks and ethical concerns.

Keywords: artificial intelligence, innovation, turing test, neural networks, robotics, digital technologies.

For citation: Dilnoza A. Ergasheva. (2024) 'The essence of artificial intelligence content', Inter education & global study, (10(1)), pp. 95-102. (In Uzbek).

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalar: sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;ma’lumotlarni qayta ishlash hamda sun’iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo‘nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish;sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari qo’yilgan.[1]

Sun'iy intellekt (AI-artificial intelligence) zamonaviy kompyuter fanining jadal rivojlanayotgan sohasidir. Sun'iy intellekt bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi inson intellektiga xos bo'lgan funktsiyalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini ishlab chiqishdir. Bunday tizimlarni yaratishga urinishlar o'tgan asrning 40-yillari oxirida, birinchi kompyuterlar yaratilgan paytda boshlangan. Shu sababli, sun’iy intellekt nisbatan yosh ilmiy soha bo'lib, u turli fanlar, masalan, diskret matematika, tilshunoslik, psixologiya, dasturlash, matematik statistika va boshqa sohalar chorrahasida joylashgan.

"Sun'iy intellekt" tushunchasini to'g'ri aniqlashga qaratilgan barcha urinishlarga qaramay, bugungi kungacha qat'iy ta'rif yo'q. Shu maqsadda eng keng tarqalgan ta'riflarni ko'rib chiqaylik. Shunday qilib, I. Rich sun’iy intellektni hozirda inson yaxshiroq bajara oladigan ishlarga taqlid qiluvchi va ushbu funktsiyalarga ega bo’lgan kompyuterlar yartishga qaratilgan tadqiqot sohasi deb hisoblaydi. AI o'z rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Bosqichlarning har biri hukmron ilmiy g'oya (paradigma) bilan tavsiflanishi mumkin [2].

Sun’iy intellekt tushunchasini turli davrlarda ushbu sohaga aloqador bo’lgan olimlar o’zlarining yozgan kitoblarida turlicha yoritganlar. Ho’sh, o’zi sun’iy intellekt bizga nima bera oladi, uning afzalliklari qanday va shu vaqtning o’zida uning insoniyat kelajagiga havfi qay darajada? V.N. Bondaryovning “Sun’iy intellekt” kitobida shunday deyiladi: Sun’iy intellektning mohiyati va aniqlanishi qiyosiydir. 1950 yili mashinalarning intellektini aniqlash va sinash uchun Tyuring testi taqdim etildi, uning mohiyati shunda ediki, Tyuring agar inson yozishmalar jarayonida kompyuter bilan suhbat qilyaptimi yoki inson bilan aniqlay olmasa mashinaning intellekti yuqori baholanadi va u g’olib bo’lar edi. Bir qator kamchiliklarga qaramay, Turing testi ko'plab zamonaviy AI tizimlarini baholash uchun asos yaratdi. Ushbu baholash Tyuring testining oddiy versiyasi bo’lib, u ko'pincha antropomorfizm (odamlarni o'xshatish, jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni berish) uchun tanqid qilinadi, chunki u inson xatti-harakatlariga mashinaning taqlid qilishi bilan baholanadi. Shu bilan birga, mashina intellekti inson aqlidan farq qiladi va mashina intellektini tabiiy intellektga qiyoslash xatolikdir, ehtimol, shuning uchun ham Tyuring testi o’z vaqtida ko’plab tanqidlarga uchragan.

Ushbu tanqidning ta'siri ostida AIning boshqa ta'riflari taklif qilindi, masalan: AI - aqlli xatti-harakatlarni avtomatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan informatika sohasi [3]; AI - bu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

idrok etish, xulosa chiqarish va harakat qilish imkoniyatini yaratadigan hisoblash fani [4]; AI - bu mantiqiy xulosa chiqarish, o'rganish va idrok etish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan axborot texnologiyasidir [5].

G.I Kolesnikova o'zining sun'iy intellektning muammolari va yutuqlariga bag'ishlangan maqolasida sun'iy intellektga quyidagicha ta'rif beradi: "Hozirgi bosqichda sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy istiqbolli yo'nalishi AIning qaror qabul qilish imkoniyatlarini oshiradigan dasturlarni yaratish hisoblanadi."

Shunday qilib, insoniyat kelajagi uchun uchta muhim savol tug'iladi:

1. AIga qanday asoslar qo'yiladi?
2. Ular qanday munosabatda bo'ladi?
3. AI ularni qay darajada o'zgartira oladi?

Bizning fikrimizcha, o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasiga asoslanib, uchinchi savol eng muhimi, chunki ekstremal holatlarda, AI nazoratdan chiqib ketishi mumkin va bu ehtimoldan yiroq emas. Inson va AI o'rtasidagi asosiy farq nima? Mening fikrimcha, motivatsiyada. Aynan motivatsiya harakatlarga sifat beradi. AI hech qanday motivatsiyaga ega bo'lmasa, u vosita bo'lib qoladi [6].

Mashinalar odamlardan aqlliroq bo'lishi mumkinmi? Yo'q, deydi Jan-Gabriel Ganasiya: bu shunchaki ilmiy fantastikadan ilhomlangan afsona. U o'z maqolasida fanning ushbu sohasi rivojlanishining asosiy bosqichlarini, zamonaviy texnika yutuqlarini va tobora ko'proq e'tiborni talab qilayotgan axloqiy masalalarni eslatib o'tadi.

Sun'iy intellekt (AI) 1956 yilda Dartmut kollejida (Gannover, AQSh) yozgi seminarda to'rt amerikalik olim: Jon Makkarti, Marvin Minski, Nataniel Rochester va Klod tomonidan tashkil etilgan yozgi seminarda rasman kun yorug'ini ko'rgan fan sohasidir. O'shandan beri, "sun'iy intellekt" atamasi, ehtimol, hammaning e'tiborini jalb qilish uchun yaratilgan bo'lib, shu qadar mashhur bo'ldiki, bugungi kunda bu haqda hech qachon eshitmagan odamni uchratishingiz qiyin. Vaqt o'tishi bilan informatikaning ushbu tarmog'i tobora rivojlanib bordi va so'nggi oltmish yil ichida aqlli texnologiyalar dunyo qiyofasini o'zgartirishda muhim rol o'ynadi.

Biroq, "sun'iy intellekt" atamasining mashhurligi ko'p jihatdan uning noto'g'ri talqini bilan bog'liq - xususan, u odamlar bilan raqobatlasha oladigan aql bilan ta'minlangan ma'lum bir sun'iy shaxsni nazarda tutganda.

Ключевые слова: трёхмерные технологии, моделирование, эффективность обучения, практические навыки, междисциплинарный подход, инновации, образовательный процесс.

Для цитирования: Жураева А.А. Модель развития компетентности учащихся в проектировании трехмерных средств обучения. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 131-136.

A MODEL FOR DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCE IN DESIGNING THREE-DIMENSIONAL LEARNING TOOLS

© Aziza A. Jurayeva[1]✉
[1]Navoi State University,Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the model for developing students' competence in designing three-dimensional (3D) educational tools and its importance in the modern educational process. It analyzes the impact of technological advancements and interdisciplinary approaches on education quality.

AIM: the main aim of the study is to develop an effective model for enhancing students' competence in designing 3D educational tools, which prepares them for modern labor market demands while boosting their creative and technological capabilities.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on 3D modeling, pedagogical approaches, and the integration of innovative technologies in the educational process.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that employing an interdisciplinary approach in teaching 3D educational tools significantly improved students' practical skills, creativity, and technical proficiency.

CONCLUSION: the study results confirmed that the proposed model for developing competence in designing 3D educational tools enhances the educational process, making it more effective and aligned with practical applications, which is crucial in today's rapidly evolving technological landscape.

Keywords: three-dimensional technologies, modeling, educational effectiveness, practical skills, interdisciplinary approach, innovation, educational process.

For citation: Aziza A. Jurayeva (2024) 'A Model for Developing Students Competence in Designing Three-Dimensional Learning Tools', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 131-136.(In Uzbek).

Talabalarning uch o'lchovli o'quv vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish modeli zamonaviy pedagogik jarayonda katta ahamiyat kasb etadi, chunki texnologik yutuqlar va didaktik yangilanishlar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uch o'lchovli (3D) texnologiyalarning fanlar kesimida qo'llanilishi va ushbu zamonaviy vositalarni yarata olish kompetentsiyasi talabalarning kelajak mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonishida muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, uch o'lchovli modellash, virtual reallik (VR) tizimlari va 3D-printerlardan foydalanish imkoniyatlari kengaygani sari, zamonaviy ta'lim dargohlarida ham tegishli texnik bazani shakllantirish, shu jarayonda esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati tug'iladi. Bu esa o'qituvchilar, pedagog-tadqiqotchilar va ta'lim mutaxassislaridan talabalar kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan samarali modelni ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi.

Avvalo, uch o'lchovli o'quv vositalarni loyihalashga oid kompetentlikning negizida talabaning fanlararo integratsiyaga tayyorligi, ijodkorlik, texnik bilimlar hamda amaliy qo'llash ko'nikmalari mujassam bo'ladi. Zamonaviy talaba uch o'lchovli modellashtirish jarayonini nafaqat maxsus dasturni bilishi orqali, balki undan pedagogik maqsadlarda foydalanish, uni turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda qo'llay olish darajasida tushunishi lozim. Bunda, xususan, informatika, muhandislik, matematika, dizayn, pedagogika, psixologiya kabi fanlarning kesishgan nuqtalari, ularning nazariy tamoyillari hamda amaliy metodik yechimlari ahamiyat kasb etadi. Shu bois, talabalarning kompetentlik darajasini oshirishda, ular bir fan doirasida emas, balki fanlararo integratsiya negizida ish olib borishi lozim. Bu esa har tomonlama puxta o'qitish dasturlari, mahoratli murabbiylar va tegishli texnik yordam mavjud bo'lishini talab qiladi.

Talabalarning uch o'lchovli o'quv vositalarni loyihalashga tayyorligini shakllantirishda didaktik uslubiyat va metodikaning o'rni beqiyos. Bir tomondan, nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ma'ruza mashg'ulotlari, interaktiv seminarlar, amaliy tajriba almashinuvlari zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri real loyihalarda sinab ko'rish, ularni taqdimot qilish va tahlil etish orqali mustahkamlash

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

nihoyatda muhim. Shuningdek, talabalarni mustaqil ishlashga undaydigan topshiriqlar, laboratoriya mashg‘ulotlari hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan vazifalar berilishi lozim. Bunday jarayonlarda talabaning mustaqil qidirish, yaratish va tajriba o‘tkazish kompetentsiyalari o‘sadi, ijodkorlik qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Modelni muvaffaqiyatli joriy etish uchun, avvalo, yo‘naltirilgan maqsadlar to‘g‘ri belgilanishi kerak. Bu maqsadlar umumiy qilib aytganda uch qismga bo‘linadi: bilimlar, ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlar. Bilimlar bo‘limida talabalar ushbu yo‘nalishda zarur bo‘lgan nazariy asoslar, uch o‘lchovli texnologiyalarning tamoyillari, amaliy dasturlarning funksiyalari, pedagogik jarayonlardagi didaktik imkoniyatlar bilan tanishadilar. Ko‘nikmalar bo‘limida talaba mustaqil ravishda 3D-modelni yaratish, dasturiy ta’minotdan foydalangan holda lo‘g‘ich operatsiyalarni bajara olish, kompyuterni ilg‘or darajada boshqarish hamda o‘quv jarayonini o‘zgacha ko‘rinishda tashkil qila olish amaliyotiga ega bo‘lishi kutiladi. Shaxsiy sifatlar bo‘limida esa ijodkorlik, mantiqiy tafakkur, mustaqillik, jamoa bilan ishlash, mas’uliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash kabi jihatlar ustuvor hisoblanadi.

Ushbu jarayonda integratsiyalashgan yondashuv qo‘llash muhim: talabaning uch o‘lchovli loyihalash bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash, uni amaliy tajriba bilan boyitish, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish va bu jarayonni baholash mezonlarini aniq belgilash. Shu o‘rinda baholash mezonlari sifatida quyidagilarga e’tibor qaratish mumkin: talabaning 3D-modelni yaratish bosqichlaridagi mustaqilligi, mazmun sifati, ijodkorlik, funksionallik, innovatsion yechimlar taklif eta olish darajasi va, eng muhimi, loyihani turli fanlardan foydalanib rivojlantirishga, o‘quv jarayoniga tatbiq etishga bo‘lgan layoqati. Bularning bari puxta ishlab chiqilgan kompetentlik modelining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

To‘liqroq modelni shakllantirishda o‘qituvchi, talaba va ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik prinsipiga tayanish tavsiya etiladi. Ta’lim muhiti uch o‘lchovli loyihalashga mo‘ljallangan maxsus laboratoriyalar, 3D-printerlar, dasturiy platformalar, internet resurslari va virtual reallik texnologiyalari bilan ta’minlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu muhит ijtimoiy-psixologik jihatdan ham qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak, ya’ni talabalar erkin ijod qilishlari, o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rishlari, xatolardan qo‘rqmasliklari, o‘qituvchilar va ustoz-murabbiylar bilan samarali muloqot o‘rnatishlari uchun qulay muhit yaratilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ish jarayonida talabalarga shunchaki 3D-modelni yaratishni o‘rgatishdan ko‘ra, bu modeldan ijtimoiy va o‘quv jarayonlarida qanday foydalanish lozimligi ham qayta-qayta ko‘rsatib berilishi zarur. Misol uchun, tabiatshunoslik fanidan dars berishda geologik tuzilishlarni 3D-tasvirlarda ifodalash, tibbiyot yo‘nalishida suyaklar strukturasini uch o‘lchovli ko‘rinishda modellashtirish, arxitektura bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar me’moriy loyihalarni raqamli shaklda yaratish, matematika fanida fazoviy geometrik shakllarni real ko‘rinishlarda modellashtirish kabilar tahsil jarayonining interaktiv va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bu kabi amaliy qo‘llanilishi namunalari talaba tafakkurini kengaytiradi, motivatsiyani oshiradi va o‘quv jarayonini yanada boyitadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Mazkur model o‘zini oqlashi uchun o‘quv jarayonining barcha bosqichlari bir butunlikda olib borilishi muhim. Bunda dastlabki bosqichda talabalarda bazaviy bilimlar va dasturiy ko‘nikmalar shakllantiriladi, keyingi bosqichlarda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, jamoaviy loyihalarni tayyorlash, muammoli vaziyatlardan yechim topish kabi yondashuvlar o‘tkaziladi. Shuningdek, modelning samaradorligini doimiy ravishda tahlil qilish, zarur hollarda takomillashtirib borish lozim. Buning uchun esa ta’lim dargohida muntazam monitoring, belgilangan natijalarni baholash, talabalardan va o‘qituvchilardan fikr-mulohazalar yig‘ish mexanizmlari joriy etiladi. Shu tarzda, modelning “reja-amal-tahlil-takomillashtirish” sikli barqaror ravishda bajarilib, o‘qitish jarayoni sifat ko‘rsatkichlari muttasil yaxshilanadi.

Uch o‘lchovli o‘quv vositalarni loyihalashga oid kompetentlikni rivojlantirish modeli samarali bo‘lishi uchun metodik qo‘llanmalar, darsliklar, interaktiv o‘quv dasturlari yaratilishi va tarqatilishi ham muhim. Talabalar 3D-modellashtirish dasturlari bilan ishlash, bosqichma-bosqich modelni yaratish texnologiyalari, 3D-printerni sozlash va undan foydalanish qoidalari, virtual reallik ko‘zoynaklari bilan ishlash imkoniyatlari haqida aniq ko‘rsatmalar va o‘quv materiallariga ega bo‘lishlari lozim. Bunday vositalar mavjud bo‘lmasa, talabalarning ijodiy izlanuvchanligi cheklanib, ularning mustaqil loyihalar bilan shug‘ullanish imkoniyatlari kamayishi mumkin. Shu boisdan, ushbu ko‘rsatmalarni ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar, mualliflar jamoasi va ilmiy maslahatchilar bir jamoaga birlashtirilishi zarur.

Yana bir muhim masala – o‘qituvchilarning malakasini oshirish. Zotan, talabalar bilan ishlashda o‘qituvchi ko‘rsatayotgan yondashuv, ularning texnik bilim darajasi, 3D-loyihalash bo‘yicha berilayotgan topshiriqlarni to‘g‘ri yo‘naltira olish ko‘nikmasi kabi jihatlar ham katta ta’sirga ega. Agar o‘qituvchining o‘zi ushbu texnologiyalar bilan yaxshi tanish bo‘lmasa, talabaning rivojlanishi qiyin kechadi. Shu bois o‘qituvchilar malakasini oshiruvchi maxsus seminarlarga, treninglarga, onlayn kurslarga qatnashish, chet el tajribalarini o‘rganish kabilarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu jarayonda o‘qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish, pedagogik jarayonni texnologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirish, metodik tajribasini boyitish hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Modellashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi muhitni rivojlantirishda jamoaviy hamkorlik shakllari ham ko‘zda tutilishi kerak. Bu degani, talabalarning fan yo‘nalishlari bo‘yicha birgalikda loyihalar yaratishi, axborot almashishi, bir-birlarining ishlarini tahlil qilishi va maslahat berishi ularga fanlararo integratsiyani chuqur anglash, kelgusi ishlarida hamkorlik muhitini yaratish imkonini beradi. Jamoaviy ish jarayonida mas’uliyatni taqsimlash, jamoa a’zolari o‘rtasida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zgalarning fikrini hurmat qilish, kelishmovchiliklarni ijobiy hal qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, modelni samarali qo‘llashda talabalarda mas’uliyat hissini shakllantirish lozim. Ular yaratayotgan 3D-loyihalar, didaktik materiallar yoki interaktiv maketlar real ta’lim jarayonida yoki amaliy maydonda qo‘llanishi mumkinligini his qilishlari

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

zarur. Shuning uchun ham o‘quv jarayonida talabalar o‘z loyihalarini jamoatchilikka taqdim qilishi, ilmiy-amaliy konferensiyalarda, tanlovlarda qatnashishi, ixtisoslashgan veb-platformalarda ishlarini namoyish etishi va tegishli baholar olishi lozim. Shu tariqa, o‘qish jarayonida erishilgan natijalar real hayotda ham amaliy ahamiyat kasb etayotganini his qilish talabalarga o‘z ustida ishlash, intilish, tajribalarni boyitish, professional sari qadamlar tashlash uchun motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Uch o‘lchovli texnologiyalarning kelgusi istiqbollari yildan-yilga kengayib bormoqda. Ta’lim sohasida VR, AR (kengaytirilgan reallik), 3D-printerlar va boshqa multimediaviy imkoniyatlarning integratsiyasi global miqyosda ilg‘or tajriba sifatida ko‘rilmoqda. Bunday tendensiyalarda ortda qolmaslik, aksincha, yetakchi o‘rin egallash uchun talabalarning kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan model albatta dolzarb va qulay yechim bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda nafaqat texnik yoki dasturiy tomonni, balki psixologik-pedagogik yondashuvni, fanlararo uyg‘unlikni va ijodiy ishtirokni unutmaslik zarur. Aynan shu jihatlar yana bir bor ta’lim sifatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Talabalarning uch o‘lchovli o‘quv vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish modeli – bu zamonaviy fanlararo integratsiyani hisobga olgan, ijodkorlik va texnologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi, shuningdek, shaxsiy rivojlanish bilan jamoaviy hamkorlikni uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuvdir. Bunda nafaqat texnik yoki dasturiy taraf, balki talabaning ijodiy fikrlashi, mas’uliyatli yondashuvi, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish ko‘nikmasi, pedagogik jarayonda yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali qiymat yaratish layoqati shakllanadi. Modelni hayotga tatbiq etishda didaktik vositalar, motivatsiya, fanlararo uyg‘unlik, metodik ta’minot, o‘qituvchilarning malakasi, o‘quv inshootlarining zamonaviy texnika bilan boyitilishi va samarali baholash tizimi uyg‘un ishlashi lozim. Shundagina talabalarning uch o‘lchovli texnologiyalarni ijodiy qo‘llashga oid kompetentligini jadal rivojlantiruvchi poydevor yaratiladi. Bu esa kelgusi avlod mutaxassislarining ilmiy salohiyatini oshirish, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyot va raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirish yo‘lida muhim omildir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Andreeva, G. M., & Pokrovskiy, N. G. (2018). 3D-моделирование в образовании: теория и практика. Москва: Просвещение.
2. Barkova, L. I. (2020). Интегрированные технологии в профессиональном образовании. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ.
3. UNESCO. (2020). Guidance on reopening schools safely and effectively. UNESCO Publishing

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jurayeva Aziza Akramovna**, o'qituvchi [**Жураева Азиза Акрамовна**, преподаватель], [**Aziza A. Jurayeva**, teacher]; manzil: Navoiy sh., Ibn SIno ko`chasi 45, [адрес: Г. Навои, Улица Ибн Сина, 45], [address: Navoi, Ibn Sina Street, 45].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

HISOBLASH JARAYONIDAGI XATOLIKLARNI O`RGANISH

© E.R. Kamolov[1]✉
[1]Alfraganus Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada hisoblash jarayonidagi xatoliklarni o'rganishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, matematik modellashtirishda va hisoblash amallarida uchraydigan xatoliklarning turlari, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – hisoblash jarayonida xatoliklarni aniqlash va ulardan xalos bo'lish uchun samarali usullarni ishlab chiqish, shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali aniqlik darajasini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda matematik modellar, absolyut va nisbiy xato tahlillari, taqribiy hisoblash usullari, yaxlitlash xatoliklari va xatoliklar nazariyasiga asoslangan usullar qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, hisoblash jarayonida xatoliklarni to'g'ri baholash va ulardan xalos bo'lish usullaridan foydalanish matematik modellashtirish samaradorligini oshiradi. Xatoliklarni to'g'ri tasniflash va bartaraf etish talabalarni nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA: hisoblash jarayonidagi xatoliklarni o'rganish matematik modellashtirishda aniqlik darajasini oshirishga, shuningdek, masalalarni yechishda sifatli natijalar olishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, matematik modellashtirish, absolyut va nisbiy xato, matematik model xatosi, taqribi hisoblash, yaxlitlash xatoliklari, xatoliklar nazariyasi, aniqlik darajasi.

Iqtibos uchun: Kamolov E.R. Hisoblash jarayonidagi xatoliklarni o'rganish. // Inter education & global study. 2024. №10(1) B.137–143.

ИЗУЧЕНИЕ ОШИБОК В ПРОЦЕССЕ РАСЧЕТОВ

© Э.Р. Камолов[1]✉
[1]Университет Альфраганус, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты изучения ошибок в процессах вычислений. Особое внимание уделено

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

классификации ошибок, возникающих в математическом моделировании и вычислительных операциях, их причинам и способам устранения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – выявление ошибок в процессах вычислений и разработка эффективных методов их устранения, а также повышение точности за счет обучения студентов самостоятельному мышлению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы математические модели, анализ абсолютных и относительных ошибок, методы приближенных вычислений, теория ошибок и подходы к устранению ошибок.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что правильная оценка и устранение ошибок в вычислениях значительно повышают эффективность математического моделирования. Классификация и устранение ошибок играют важную роль в применении теоретических знаний на практике.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: изучение ошибок в процессе вычислений способствует повышению точности математического моделирования и получению качественных результатов при решении задач.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, математическое моделирование, абсолютная и относительная погрешность, погрешность математической модели, аппроксимационный расчет, погрешности округления, теория погрешностей, уровень точности.

Для цитирования: Камолов Э.Р. Изучение ошибок в процессе расчетов. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.137–143.

STUDYING ERRORS IN THE CALCULATION PROCESS

© E.R. Kamolov[1]✉
[1] Alfraganus university,Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the theoretical and practical aspects of studying errors in computational processes. Special attention is given to the classification of errors arising in mathematical modeling and computational operations, their causes, and methods of elimination.

AIM: the main objective of the study is to identify errors in computational processes, develop effective methods to eliminate them, and improve accuracy by teaching students independent thinking.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized mathematical models, analyses of absolute and relative errors, approximation methods, error theory, and approaches to error elimination.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that proper assessment and elimination of errors in calculations significantly enhance the efficiency of mathematical

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

modeling. Classifying and addressing errors are essential for applying theoretical knowledge in practice.

CONCLUSION: studying errors in computational processes contributes to improving the accuracy of mathematical modeling and achieving high-quality results in problem-solving.

Keywords: independent thinking, mathematical modeling, absolute and relative error, mathematical model error, approximation calculation, rounding errors, error theory, accuracy level.

For citation: Kamolov E.R. (2024) 'Studying errors in the calculation process', Inter education & global study, (10(1)), pp.137–143. (In Uzbek).

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" belgilangan talablardan biri – ta`lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonida talabalarni mustaqil fikirlashga o`rgatish va iqtidorli kadrlarni yetishtirish hisoblanadi. Har bir mutaxassisning asosiy vazifasi o'z sohasi ob'ektlarining xossa va xususiyatlarini o'rganish va shu asosda yangi natijalarga erishishdan iborat. Ob'ektni o'rganish va u haqida xulosalar qilish o'ta murakkab jarayon hisoblanib, u bir necha xil usullar yordamida amalga oshiriladi va bu jarayon tadqiqotchidan etarlicha chuqur bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi. Modelni echishda foydalaniladigan birlamchi boshlang'ich ma'lumotlar qiymatlari har doim aniq bo'lavermaydi. Modellarni echishda taqribiy echish usullaridan foydalaniladi. Bularning barchasi modellashtirish jarayonida xatoliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Savol tug'iladi: bu xatoliklar qanday turlanadi va baholanadi? Bu savollarga javob berish har bir mutaxassis uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Modellashtirishda xatoliklar va ularning turlari. Ma'lumki, modellashtirish jarayonining ko'pgina bosqichlarida taqribiy almashtirish yoki taqribiy hisoblashlardan foydalaniladi. Bu esa masalaning echimi qandaydir xatoliklar bilan, ya'ni masalaning taqribiy echimi hosil bo'lishiga olib keladi. Modellashtirishda hosil bo'lgan xatoliklarni qanday baholash mumkin, degan savol barcha mutaxassislarni qiziqtirib keladi. Bu savolga javob berish maqsadida absolyut va nisbiy xato tushunchalari kiritiladi.

Agar biror miqdorning aniq qiymatini va uning taqribiy hisoblash natijasida olingan qiymatini deb olsak, u holda absolyut xato deb

$$\Delta x = |x - \bar{x}|$$

ga, nisbiy xato deb esa,

$$\delta x = \frac{|x - \bar{x}|}{|x|} \cdot 100\% = \frac{\Delta x}{|x|} \cdot 100\%$$

ga aytiladi.

Modellashtirishda hosil bo'ladigan xatoliklarning kelib chiqish manbalarini, asosan to'rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh xatolar echilayotgan masalaning matematik modelini qurish bilan bog'liq xatolardir. Ma'lumki, modelda masalaning asosiy xossa va xususiyatlari e'tiborga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

olinadi, agar modelda masalaning barcha xususiyatlarini hisobga olish imkoni bo‘lsa, u holda bu model o‘ta murakkab ko‘rinish oladi, natijada esa uni echish imkoni bo‘lmay qoladi. Matematik model qurishda foydalanilgan gipotezalar hisobiga ba’zi xatoliklar paydo bo‘ladi. Bu xatoliklar matematik model xatosi deb ataladi.

Ikkinchi guruh xatolar masalaning echish uchun beriladigan boshlang‘ich qiymatlaridagi xatoliklardir. O‘lchash va hisoblash natijasida yoki tajriba (eksperiment) usuli yordamida olingan birlamchi boshlang‘ich qiymatlar har doim ham aniq bo‘lavermaydi. Chunki bu qiymatlar o‘lchash asboblarining aniqligiga, hisoblash usullariga, tajriba o‘tkazish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu guruh xatoliklar odatda qutilib bo‘lmaydigan xatolar deb ataladi.

Uchinchi guruh xatolar masalani echish usulidagi mavjud xatolardir. Ma’lumki, aksariyat hollarda modellarni echishda analitik, ya’ni aniq usullardan foydalanish imkoniyati bo‘lavermaydi, natijada taqribiy sonli echish usullaridan foydalaniladi va masalanig taqribiy echimi hosil bo‘ladi. Bu erda yo‘l qo‘yilgan xatolar echish usulining xatosi deb ataladi.

To‘rtinchi guruh xatolar bevosita Shklarda hisoblashni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xatoliklardir. ShKlardagi hisoblashlarda sonlarni yaxlitlash uning razryadiga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Bu xatolar odatda hisoblash xatoliklari deb ataladi.

Ayrim hollarda ba’zi xatoliklardan qutulish uchun quyidagi takliflarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- qiymati hisoblanadigan ifodalarni imkoni boricha soddalashtirish va unda bajariladigan amallar sonini eng kam miqdorga keltirish;

- agar bir qator sonlar ustida qo‘shish-ayirish amallarini bajarish lozim bo‘lsa, dastlab kichik sonlar ustida amallarni bajarish;

- oraliq hisoblashlarda qiymatlari deyarli teng bo‘lgan miqdorlar ustida ayirish amalini bajarmaslik. Hisoblash jarayonida esa muhandislar har xil ko`rinishdagi sonlarga duch kelishadi, ular aniq va taqribiy sonlar bo`lishi mumkin. Aniq sonlar o`sha miqdorning haqiqiy qiymatini aniqlaydi, Taqribiysi esa haqiqiy qiymatga yaqinlik darajasini bildirib, u hisoblash xatoligini anglatadi. Masalan, kub 6 ta qirraga ega, qo`limizdagi barmoqlar soni 10 ta, auditoriyada 15 ta talaba, kitob 320 varaqdan iborat desak, 6, 10, 15 va 320 aniq sonlarni bildiradi.Hayotda ko`p hollarda miqdorlarni, aniq son qiymatlarni topishning har doim ham iloji bo`lavermaydi. Shuning uchun ko`p hollarda taqribiy sonlar ishlatiladi. Yana ko`p hisoblashlarda ayrim hisoblashlarning oson bo`lishi uchun sonlar taqribiysi bilan almashtirib yuboriladi. Masalalarrni yechish jarayonida, hisoblash ishlarida albatta xatolikka yo`l qo`yiladi. Shuning uchun har qanday masalani biror aniqlik darajasida yechish mumkin, bunda xatolik darajasi ko`rsatilishi kerak.Shuning uchun matematika kursini o`rganishda talaba xatoliklarni paydo bo`lish asoslarini yaxshi bilishi kerak.

1) Har qanday jarayonni o`rganilayotgan davrda, uning o`rniga uni harakterlovchi boshqa soddaroq matematik modellar bilan almashtiriladi. Har doim ham hayotdagi voqealarni jarayonlarni modellar bilan ifodalab bo`lavermaydi. Demak, qanday shartlar qo`yilib, xatolikka yo`l qo`yiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

2) Masalada qatnashayotgan ayrim parametrlar qandaydir o`lchov natijasida olingan bo`lishi mumkin. Yani π,l va shunga o`xshash fizika, matematika, texnikada uchraydigan o`zgarmaslar qatnashib qolishi mumkin va hakozo.

3) Cheksiz takrorlanuvchi jarayonlarni ularni chekli qiymatlari bilan almashtirishda.

Masalan:

Yig`indida chekli sondagi hadlarni olib, sin⁡x ni qiymatlarini hisoblash mumkin. Shunga o`xshash hollarda albatta xatoliklarga yo`l qo`yiladi.

4) Boshlang`ich ma`lumotlarni yaxlitlash, oraliq hisoblashlardagi yaxlitlashlar natijasida ham xatolikka yo`l qo`yiladi.

5) Taqribiy ma`lumotlar ustida bajariladigan amallar natijasida ham xatolikka yo`l qo`yiladi

Demak, xatoliklarni quyidagi 3 ta asosiy guruhga ajratish mumkin.

Yo`qotib bo`lmaydigan xatoliklar. Bunga boshlang`ich ma`lumotlarni aniq bermaslik, aniq jarayonlarni soddalashtirish, haqiqiy sonlar ustida bajariladigan amallar kiradi.

Yaxlitlash xatoliklari. Bunga boshlang`ich va oraliq hamda natijaviy hisoblashdagi natijalar kiradi

Qoldiq xatoliklar. Bular asosan cheksiz, takrorlanib turuvchi jarayonlarni cheklilari bilan almashtirilganda yuz beradi. Yo`l qo`yilgan xatoliklarni; absolyut xatolik, nisbiy xatolik, qoldiq hadlarda statistik baholash mumkin.

Demak, muhandis yoki iqtisodchi taqribiy miqdorlar bilan ish ko`rganda quyidagilarga amal qilishi kerak: taqribiy miqdorlarni matematik jihatdan aniqlik darajasini bilish; boshlang`ich ma`lumotlarni aniqlik darajasini bilgan holda, natijaning ham aniqlik darajasini bilish; berilgan ma`lumotlarni aniqlikda olib, natijalarni ham shu aniqlikda hisoblash; natijaga ko`p ta`sir qilmaydigan qilib, hisoblash jarayonini ko`rishni bilish.

Matematik analizning cheksiz qatorlar nazariyasini o`rganganda funksiyalarni Teyler qatoriga yoyib hisoblashda qanday xatolikka yo`l qo`yiladi.

Faraz qilaylik, bizga A-aniq son berilgan bo`lsin, uning tarkibiy qiymati deb undan unchalik farq qilmaydigan va hisoblashlarda uning o`rniga ishlatiladigan songa aytiladi. Uni a-harfi bilan belgilaymiz.

Agar A<a bo`lsa, u holda a tarkibiy soni kami bilan olingan deyiladi.

Agar A>a bo`lsa, ortig`i bilan olingan deyiladi. Aniq son bilan uning tarkibiy qiymati orasidagi farqqa xatolik deyiladi. a sonning absolyut xatoligi deb,

$$\Delta_a = |A - a| (1)$$

ga aytiladi.

Bu yerda 2 hol bo`lishi mumkin.

A aniq son berilgan. U holda absolyut xatolik (1) formula bilan topiladi.

Misol. A=784,2737 va a=784,274 bo`lsin,

$$\Delta_a = |784{,}2737 - 784{,}274| = 0{,}0003$$

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

2. A aniq son bizga ma`lum emas. U holda, (1) formula bilan absolyut xatolikni hisoblab bo`lmaydi.

U holda absolyut xatolikning xatolik chegarasi tushunchasi kiritiladi.

$$\Delta_a \geq |A - a|$$

Shartni qanoatlantiruvchi songa chegaraviy absolyut xatolik deyiladi.

Demak,

$$\Delta_a = |A - a| \leq \Delta_a (2)$$

A ning qiymati;

$$a - \Delta_a \leq A \leq a + \Delta_a \ (3)$$

Oraliqda bo`ladi.

Demak, $A = a \pm \Delta_a$

Misol. 45,3 soni yaxlitlab olingan bo`lsin. Aniq qiymati ma`lum emas, lekin yaxlitlash qoidasiga asoslanib aytish mumkinki, absolyut xatolik 0.05 dan oshmaydi.

Bu yerda, absolyut xatolikning chegarasi 0.05 ga teng ekan. U holda 45,3 ±0,05 ko`rinishida yoziladi.

Absolyut xatolik chegarasi qanchalik kichik bo`lsa, tarkibiy son shunchalik aniq bo`ladi.

Ammo, absolyut va chegaraviy absolyut xatolik bilan o`lchov ishlari yaxshi yoki yomon ma`noda bajarilgan deb bo`lmaydi.

O`tkazilayotgan o`lchovlarni sifatli bo`lishi uchun, absolyut va chegaraviy absolyut xatolik o`lchanayotgan miqdorning necha qismini tashkil qilishini bilishimiz kerak. Shuning uchun, nisbiy xatolik tushunchasi kiritiladi.

Tar`if: A tarkibiy sonning nisbiy xatoligi b_a deb, A≠0 bo`lganda

$$b_a = \frac{\Delta_a}{|A|} \ (4)$$

ga aytiladi. Bu yerdan:

$$\Delta_a = b_a * |A| \ \ (5)$$

$b_a \geq b_a$ ga chegaraviy nisbiy xatolik deyiladi.

(4) va (5) lardan

$$\frac{\Delta_a}{|A|} \leq b'_a \text{ yoki } \Delta_a = b'_a * |A|$$

$$\Delta_a \leq \Delta'_a \text{ dan } \ [\![\Delta'_a = |A| * b'_a \ (6)$$

U holda

$$b'_a = \frac{\Delta' a}{|A|} \ (7)$$

$A \approx a$ bo`lganligidan (6 va (7) ga ko`ra

$$\Delta'_a = |a| * b'_a$$

$b'_a = \frac{\Delta' a}{|a|}$ (100 ga ko`paytirilsa % larda ifodalanadi)

Yuqoridagi misollarga qaytsak,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

$$b'_1 = \frac{0,1}{28,4} = 0,0035 \text{ yoki } 0,35\%$$

$$b'_2 = \frac{0,1}{110,3} = 0,0009 \text{ yoki } 0,09\%$$

Demak, $b'_1 > b'_2$ shuning uchun b'_2 da o`lchov aniqrog` kamligi ko`rinadi.

Xatoliklar nazariyasi elementlarini bilish yerdan foydalanish va yer kadastri, suv xo`jaligini aftomatik boshqarish va shu kabi yo`nalishlarda o`qiydigan talabalar mutaxasislik fanlarini o`zlashtirishlarida muhim tushunchalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. A.A.Abduqodirov va boshqalar. Hisoblash matematikasi va dasturlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
2. A.A.Abduqodirov. Hisoblash matematikasi va dasturlashdan laboratoriya ishlasri. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1990
3. Ф.Б.Бадалов. Оптималлаш назарияси ва математик программалаштириш. Дарслик. Тошкент, Ўқитувчи, 1989.
4. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” oily ta’lim meyoriy hujjatlar to’plami. T..”Sharq”, 2001 g.
5. Пискунов Н. С. Дифференцал ва интеграл ҳисоб. М. 1973 й

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**E.R. Kamolov**, katta o‘qituvchi [**Э.Р. Камолов**, старший преподаватель], [**E.R. Kamolov** senior lecturer]; manzil: 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi 2a-uy, [адрес: 100190, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Верхний Каракамыш, д. 2а], [address: 2a Verkhny Karakamysh Street, Yunusabad district, Tashkent, 100190]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA METODIK TAVSIYALAR

© G. M. Koshkinbaeva[1]✉

[1]International school of Finance and Technology, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish va ularning til ko‘nikmalarini mustahkamlashda metodik tavsiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik yoshdagi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini samarali rivojlantirish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, shuningdek, amaliy metodlarning samaradorligi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda o‘yinlar, suhbatlar va rasm asosidagi mashg‘ulotlarning samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini yaxshilash uchun ilmiy asoslangan metodik tavsiyalarni qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatdi. Bu jarayonda o‘qituvchining faol ishtiroki va didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: nutq, nutqiy rivojlanish, nutqiy faollik, kichik yoshdagi o‘quvchilar, metodik tavsiyalar, til ko‘nikmalari.

Iqtibos uchun: Koshkinbaeva G.M. Kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirishda metodik tavsiyalar. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.144–148.

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

© Г.М. Кошкинбаева[1]✉

[1]International school of Finance and Technology, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется значение методических рекомендаций в развитии речи младших школьников и укреплении их языковых навыков.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработать методические рекомендации для эффективного развития устной и письменной речи младших школьников и определить их практическое применение.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научной литературы по речевому развитию младших школьников, а также изучены эффективные методические подходы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты подтвердили эффективность использования игр, бесед и занятий на основе изображений для развития речи младших школьников.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что использование научно обоснованных методических рекомендаций способствует успешному развитию речи младших школьников. Важное значение имеет активное участие учителя и использование дидактических материалов.

Ключевые слова: речь, речевое развитие, речевая активность, младшие школьники, методические рекомендации, языковые навыки.

Для цитирования: Кошкинбаева Г.М. Методические рекомендации по развитию речи младших школьников. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.144–148.

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR THE SPEECH DEVELOPMENT OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN

© Gozal M. Koshkinbaeva[1]✉
[1]International school of Finance and Technology, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the importance of methodological recommendations in developing the speech and language skills of young students.

AIM: the main objective of the study is to develop methodological recommendations for effectively improving the oral and written speech of young students and exploring their practical applications.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific literature on speech development in young students and examined effective methodological approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: the results confirmed the effectiveness of using games, conversations, and image-based activities to develop the speech of young students.

CONCLUSION: the study demonstrated that applying scientifically grounded methodological recommendations facilitates successful speech development in young students. Active teacher involvement and the use of didactic materials play a crucial role.

Keywords: speech, speech development, speech activity, young students, methodological recommendations, language skills.

For citation: Gozal M. Koshkinbaeva. Methodological recommendations for the speech development of younger schoolchildren. // Inter education & global study, (10(1)), pp. 144–148. (In Uzbek).

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda metodika — bu o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning fikrlarini aniq, mantiqiy va ifodali tarzda ifodalashga yordam

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

beradigan o‘qitish usullarining to‘plamidir. Nutqni o‘stirish jarayoni o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini, kommunikativ qobiliyatlarini, ijodiy fikrlashlarini va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday metodikalar turli yoshdagi o‘quvchilarga mos ravishda qo‘llaniladi, ammo asosan, 1-3-sinflarda, shu jumladan 2-sinfda, og‘zaki nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilaming tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullami qo'llash tushuniladi.

Nutq — bu insonning fikrlarini, hissiyotlarini va g‘oyalarini til vositalari yordamida ifoda etish jarayonidir. Nutq odatda og‘zaki va yozma shakllarda bo‘ladi va bu jarayon muloqotning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Nutqning asosiy funksiyasi — fikrlarni boshqalar bilan o‘zaro almashish, axborot uzatish, ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va madaniy almashuvni ta’minlashdir.

Nutq quyidagi asosiy shakllarda bo‘ladi: og‘zaki nutq: Insonning til yordamida ovozli tarzda boshqalarga o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalashidir. Bu shakl kundalik muloqotda keng qo‘llaniladi. Yozma nutq: o‘z fikrlarini yozma shaklda ifodalashdir, masalan, insholar, xatlar, maqolalar yoki kitoblar orqali. Nutq faqat so‘zlardan iborat bo‘lmay, uning tarkibida tovushlar, so‘zlar, gaplar, sintaksis (gap tuzilishi) va boshqa lingvistik elementlar mavjud. Nutq o‘ziga xos vazifalarni bajaradi, masalan: alohida fikrni ifodalash: Nutqning asosiy vazifalaridan biri — odamlar o‘rtasida fikr almashinuvi.

Axborot uzatish: Nutq orqali odamlar turli ma’lumotlarni bir-biriga etkazadilar. Emotsional ifoda: Nutq orqali insonlar o‘z his-tuyg‘ularini, kayfiyatlarini bildiradilar. Nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish jarayonida ularning psixologik va lingvistik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bolalar yoshidan kelib chiqqan holda, ular nutqni o‘rgatish va ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun, nutqni rivojlantirishda quyidagi asosiy nazariy asoslar e’tiborga olinadi:

Nutqiy faollik: Bolalar faqat tilni o‘rganish emas, balki uni amaliyotda qo‘llashlari kerak. Bu ularning nutqiy faolligini oshiradi. Bosqichma-bosqich o‘rganish: O‘quvchilarni kichik qismlarga bo‘lingan vazifalar orqali nutqni o‘rgatish, ularning nutqiy ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. O‘rgatuvchi-yordamchi til: O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda o‘qituvchi yordamchi sifatida faol ishtirok etishi lozim. Nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Quyida ba’zi samarali

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

metodlar keltirilgan: o‘yinlar orqali nutqni rivojlantirish: O‘yinlar bolalar uchun eng yaxshi o‘rganish vositasidir. Ular o‘zaro muloqotda bo‘lishadi, yangi so‘zlarni o‘rganishadi va ularni o‘z so‘zlarida qo‘llashadi. Shu sababli, til o‘rgatishda o‘yin elementlarini qo‘llash juda foydalidir. Masalan, “Kim bo‘lishi mumkin?” O‘yini orqali o‘quvchilarga har xil xususiyatlar bilan ob’ektlar yoki odamlarni tasvirlashni so‘rashingiz mumkin; suhbat va munozara: Kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga rag‘batlantirish zarur. Suhbatlar o‘quvchilarning muloqot qilish va nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, sinfda kichik guruhlarda qiziqarli mavzularda munozaralar tashkil etish mumkin;rasmga asoslangan mashg‘ulotlar: Rasm va tasvirlar bolalarning tasavvurini va nutqini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga rasmni tasvirlab berish yoki rasm asosida hikoya tuzishni so‘rashingiz mumkin; yozma ishlarga e’tibor qaratish: Bolalarning yozma nutqini rivojlantirish uchun qisqa insho yoki xat yozish kabi topshiriqlarni bajarish zarur. Bu ular o‘z fikrlarini aniq va ravon tarzda yozma shaklda ifoda etishga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishda didaktik vositalardan foydalanish. O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda didaktik vositalar, jumladan, kitoblar, darsliklar, video materiallar va interaktiv resurslar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bolalarning diqqatini jalb qilish va o‘rganishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Misol uchun, audio va video materiallar yordamida nutqiy ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, kompyuter va mobil ilovalar orqali bolalar o‘z nutqini tahlil qilish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

O‘qituvchining rolini kengaytirish. O‘qituvchining nutqni rivojlantirishdagi roli alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘zining til va nutqiy madaniyatini bolalarga o‘rgatishi, o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashga yordam berishi lozim. O‘qituvchi, shuningdek, o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga undash uchun savollar berishi, nutqiy muammolarni hal qilishga yordam berishi kerak.

Nutqni rivojlantirishdagi psixologik asoslar. Bolalarning nutqi rivojlanishi ularning psixologik rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda quyidagi psixologik asoslar muhimdir: Emotsional jihat: O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda, ular o‘zlarini erkin va ishonchli his qilishlari muhim. Bu ularning nutqiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit: Bolalar o‘zaro muloqot qilishda va nutqni rivojlantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati katta. O‘quvchilar o‘z sinf doshlari va o‘qituvchilari bilan muloqotda bo‘lish orqali nutqlarini shakllantiradilar. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda ilmiy asoslangan metodik tavsiyalarni qo‘llash samarali natijalar beradi. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quvchilarda fikrni aniq ifodalash, so‘z boyligini oshirish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar bolalar nutqini rivojlantirishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, didaktik vositalardan samarali foydalanishlari zarur. Nutqni rivojlantirish, nafaqat o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini, balki umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Nutq faoliyati uchun, shuningdek oquvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur: kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak.o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi; har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi; fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berish zarur. Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng o‘rin olmog‘i lozim. Ayniqsa, o‘qituvchining nutqida ifodalilik yetarli bo‘lsa, albatta, bunday nutq bolalar nutqiga ham ta’sir etadi.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me’yorlashga qaratilgan harakatlargina emas, balki millatning umumiy ko‘tarish, odamlarga ma’lum “til didi”ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir. O‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun ularni ko‘proq kitob o‘qishga undash, uyda ota-onalari bilan mazmunli suhbat qilishga jalb qilish, do‘stlari bilan fikr almashishlariga va qiziqarli suhbat qilishlariga sharoit yaratish lozim. Shundagina o‘quvchilarda dunyoqarash shakllanadi va fikrlash doirasi kengayib boradi. Chunki bola eshitgan va ko‘rgan hodisalarini sekinlik bilan tushunib, har safar har xil taassurotlarni o‘ziga oladi. Bu kabi jarayonlar o‘quvchilar nutqini rivojlanishiga, ravon va to‘g‘ri gapirishlariga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xolmatov B. Didaktik asoslar va metodika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Karimov A. Bolalar psixologiyasi. T.: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
3. Mirzayeva, Z. O‘qitishda innovatsion metodlar. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti, 2022.
4. Hasanov, N. Nutqiy rivojlanish va pedagogika. Buxoro: Ilm ziyo, 2021.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Koshkinbaeva Gozal Maxsetbaevna**, talaba [**Кошкимбаева Гузаль Махсетбаевна**, студент], [**Gozal M. Koshkinbaeva**, student]; manzil: Toshkent, Mirzo Ulug'bek tumani, Mahalla fuqarolar yig'ini, [адрес: Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, махаллинский сход граждан Подшобог], [address: Tashkent, Mirzo-Ulugbek district, Makhalla gathering of citizens].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

KASBIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDOSHUVLAR

© M.B. Kubayeva[1]✉

[1]Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada kasbiy ta’lim muassasalarida ijodiy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar va ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning xususiyatlari va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – kasbiy ta’lim muassasalarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish samaradorligini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilindi. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari va uning ta’lim jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy fikrlash komponentlarini rivojlantirishga asoslangan yondashuv orqali talabalarning muammoni hal qilish, fikrlash chuqurligi va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgan.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, kasbiy ta’lim muassasalarida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘quv jarayonini yanada samarali va amaliyotga moslashtirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kompetensiyani shakllantirish, ijodiy fikrlash komponenti, kompetensiyaviy yondashuv, originallik, fikrlash chuqurligi, moslashuvchanlik, innovatsion ta’lim.

Iqtibos uchun: Kubayeva M.B. Kasbiy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvlar //Inter education & global study 2024. №10(1). B.149–154.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

© М.Б. Кубаева[1]✉

[1]Навоийский инновационный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются педагогические подходы к формированию творческой компетенции учащихся в профессиональных учебных заведениях и их роль в образовательном процессе. Рассмотрены особенности компетентностного подхода и его значение для развития творческого мышления.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность формирования творческих компетенций учащихся профессиональных учебных заведений с использованием инновационных подходов и определить их преимущества в подготовке студентов к практическим задачам.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ международного опыта и научной литературы, посвященной развитию творческой компетенции и внедрению компетентностного подхода в образовательный процесс.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование подходов, направленных на развитие компонентов творческого мышления, способствует значительному улучшению навыков решения задач, глубины анализа и гибкости мышления у студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что внедрение компетентностного подхода в профессиональных учебных заведениях позволяет сделать образовательный процесс более эффективным и ориентированным на практику.

Ключевые слова: формирование компетенций, творческое мышление, компетентностный подход, оригинальность, глубина анализа, гибкость, инновационное обучение.

Для цитирования: Кубаева М.Б. Педагогические подходы к формированию творческой компетентности учащихся в профессиональных образовательных учреждениях // Inter education & global study 2024. №10(1). С.149–154.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

© Mavluda B. Kubayeva[1]✉
[1]Navoi Innovation University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes pedagogical approaches to forming creative competence in students of professional educational institutions and their role in the educational process. The features of the competency-based approach and its significance for developing creative thinking are discussed.

5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent “O`qituvchi” 1993 yil.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Murodova Mubina Akramjon qizi,** magistr**,** [**Муродова Мубина Акрамжон кизи,**магистр, [**Mubina A. Murodova,** master’s degree]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy**,** [адрес: г. Коканд, улица Турана, д. 23], [address: Kokand, Turan street, 23].

✉**Ma’muraxon Xushnazarova** dotsent (PhD) [**Мамурахон Хушназарова,** доцент (PhD)], [**Ma’muraxon Xushnazarova**, associate professor (PhD)]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: г. Коканд, улица Турана, д. 23], [address: Kokand, Turan street, 23].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

THE INFLUENCE OF KNOWLEDGE OF TREE METHOD TO DEVELOP STUDENTS' ORAL SPEECH

© Diyora R. Muxamatjonova[1]✉
[1]Alfraganus university, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the influence of the "Tree of Knowledge" method on developing students' oral speech skills. Particular focus is given to modern teaching methods for medical students and their significance in professional growth.

AIM: the primary aim of the study is to enhance oral communication skills at the C1 level through innovative teaching methods.MATERIALS AND METHODS: the study analyzed modern approaches and materials applied in teaching English in medical universities.

DISCUSSION AND RESULTS: the use of the "Tree of Knowledge" method helps build students' confidence in their language abilities and improves their communicative competence. Interactive approaches facilitate the effective acquisition of medical terminology.

CONCLUSION: the research highlights the necessity of implementing new methodologies to enhance students' oral speech and professional communication skills.

Key words: communicative competence, integration of medicine, tree of knowledge, EFL/ESL, medical lexicology, audio dialogues.

For citation: Diyora R. Muxamatjonova. (2024) 'The influence of knowledge of tree method to develop students' oral speech', // Inter education & global study, (10(1)), pp.207-211. (In Eng).

ВЛИЯНИЕ ЗНАНИЙ МЕТОДА «ДЕРЕВО» НА РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ

© Д.Р. Мухаматджонова[1]✉
[1]Университет Альфраганус, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние методики «Древо знаний» на развитие устной речи студентов. Особое внимание уделяется современным методам обучения английскому языку для студентов-медиков и их значимости в профессиональном развитии.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – развитие устной речи на уровне C1 с использованием инновационных методов обучения.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе проанализированы современные подходы и материалы, применяемые в обучении английскому языку в медицинских вузах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: использование метода «Древо знаний» способствует повышению уровня доверия студентов к своим языковым навыкам и улучшению их коммуникативной компетенции. Интерактивные подходы способствуют более эффективному усвоению медицинской терминологии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подчеркивает необходимость внедрения новых методик для повышения качества устной речи и профессионального общения студентов.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, интеграция медицины, древо знаний, EFL/ESL, медицинская лексикология, аудиодиалоги.

Для цитирования: Мухаматджонова Д.Р. Влияние знаний метода «Древо» на развитие устной речи студентов. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 207-211.

TALABALARNING OG’ZAKI NUTQINI OSHIRISHDA BILIMLAR METODIKASINING TA’SIRI

© D.R. Muxamatjonova[1]✉
[1] Alfraganus Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalar og’zaki nutqini rivojlantirishda bilimlar metodikasining ahamiyati va uning ta’sir mexanizmlari yoritiladi. Xususan, tibbiyot sohasida ingliz tilini örgatishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi örganiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – tibbiy atamalarni özlashtirish va C1 darajasida ravon va izchil nutq qobiliyatini shakllantirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tibbiyot sohasida EFL/ESL (xorijiy til sifatida ingliz tilini öqitish) dasturlarida qo‘llaniladigan zamonaviy metod va vositalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: interaktiv darslar jarayonida “Bilimlar daraxti” usulidan foydalanish talabalar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali talabalarning og‘zaki nutqiga ishonchi oshadi va ularda kasbiy nutq qobiliyatlari shakllanadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari zamonaviy metodik yondashuvlar orqali talabalar muloqot qobiliyatini oshirish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentsiya, tibbiyot integratsiyasi, bilim daraxti, EFL/ESL, tibbiy leksikologiya, audio dialoglar..

Iqtibos uchun: Muxamatjonova D.R. Talabalarning og‘zaki nutqini oshirishda bilimlar metodikasining ta’siri. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.207-211.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

It is of major significance in these days the utilizing and usage of advanced dialects instructing strategies due to globalization and the quick development of specialized communication. Having great English communication abilities does not as it were infer the information of the proficient dialect but moreover it can encourage common understanding and participation inside the worldwide world. The English educating learning handle based on the learners' dialect purposes and needs has driven to the improvement of so-called English for masters or English for Particular Purposes (ESP)[1]. Nowadays students have different backstage and levels of English language due to these modern trends of internet communication. Students also have various and multiple ideas in their minds about using English language in their future profession as doctors of general practice. And when teacher starts to teach in the classroom, students expect from teacher how to learn, to work with the received information from outside such as Internet resources and social media in their future profession.

English teachers should be creative while managing their teaching/ learning process. A continuous effective process may be done to include the proper atmosphere in order to improve the students speaking skill, giving attention to the speaking components and make the English lesson more exiting. For this reason, the English teacher should apply only appropriate and effective methods and techniques of teaching communication skills.

During the course students study basic grammar, medical lexicology, listen to audio dialogues of doctor and patient, write down thesis paper in English on their future medical specification on the third course. Medical textbooks, guide-books, encyclopedias, research and professional articles in PDF format as the irreplaceable tools can be found out in many medical research web sites. The presentation papers that are submitted at the end of each year has multiple functions such as searching information in Internet resources, writing this material without mistakes, and last one, orally speaking presentation paper, working out pronunciation and orator skills[2]. But the main focus of such presentation papers is medical topic, which the student chooses. The study of translation usually includes the analysis of key texts, enabling students to develop an awareness of the problems of understanding and interpretation. It also involves the development of the analytical, practical, evaluative, aesthetic, and expository skills required to address translation problems. Here we can see integration of medicine and study of English language, establishment of correlation with the passed materials that have been studied during each year with the following text-books of following authors: A.M. Maslova, Z.I. Wainstein, L.S. Plebeyskaya, L.U.Khojayeva L.U., Arziyeva D.T. and others. Because of the function of transmission of the text and words form above-mentioned text-books to the graphic organizers, team and role-pay games in the classroom, interactive learning can make the teaching process more direct, active, rapid and convenient so that it can be widely used in non-lingual universities by English teachers and become more and more popular among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Speaking is considered a crucial skill in order to express the speaker's intentions and effective oral communication results in getting success in various fields.

In the lesson there will be different types of reading topics and speaking cue card that is based on the same meaning. After we have discussed any medical topic in interactive way and found some new medical terms to the given theme word or word combination, we did reading of the theme text for about five-ten minutes (this time duration reaped the results we were looking for). Using the terms that are found in the passage will be transferred to "the tree of knowledge" with the help of the unknown or new terms turn by turn students will make a conversation using the role-play method even students can make a little play. Of course, medical students may encounter various psychological problems in the process of learning English. They may avoid discussions in English because they do not have sufficient knowledge. In this case, the teacher's task is to encourage lively conversation by creating a warm and friendly atmosphere in the classroom. Tree of knowledge will be the kinesthetic material during the class students should make a conversation as it given below, in addition, they have to express grammar rule correctly in the oral version.

For example: Two random students will be chosen and asked them to stand in the middle. On the teacher's desk there will be prepared cue cards and under the cue cards various conditions will be written. Imagine students chose to talk about doctor and patient conversation.

1-figure: "Tree of knowledge"

Doctor: Hi, Dilshoda. What brings you today?

Patient: My back hurts.

Doctor: All right. Where does it hurt exactly?

Patient: it's just the small of my back.

Doctor: Any pain near the shoulder blades or neck?

Patient: No, that part doesn't hurt

Doctor: I see. Do it only hurt when you bend over?

Patient: No, it hurts when I wake up in the morning too.

Doctor: Okay, I'll take a look and see what I can find.

2-figure: The speaking dialog

This method will be continued until the last word used. Also students will be changed the roles with other. Each of the words that used before cannot be expressed.

Teaching English can be a challenge and ESP can be even more challenging, however it is always important to remember that students will normally have a basic understanding of the English language when they are firstly at classes. When teaching English for specific purposes for medical professionals, it is worth remembering that there are a lot of specific jargons that apply only to their field. Along with vocabulary lists, teacher will need to involve them in roleplaying exercises to encourage them to use their language skills. Some of the main things that nurses, doctors, and other medical

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

professionals will need to know are the names of the parts of the human body, medical supplies, and visiting hours (identifying family members).

In this paper, the main focus has been laid on the novel approaches for teaching speaking skills in EFL/ESL classrooms. For this purpose, first of all, the importance of English in the modern world has been briefly given. Then the importance of language skills has been discussed elaborately and the purpose of teaching skills has been presented systematically. After that, the activities that are involved before practising speaking skills have been brought out. This study work presents how modern teaching methodology may help develop communication skills within medical classes. CLT aims to facilitate the process of ESL teaching from the perspective of medicine as well as describing the opportunities of students to integrate the acquired knowledge into specialized meaningful messages that will assist in developing interpersonal communication skills in real life circumstances.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Parupalli Srinivas Rao - Novel approaches for teaching speaking skills in efl/esl classrooms: a comprehensive study Lecturer in English, English Language Centre, King Faisal University, Al-Hasa, Kingdom of Saudi Arabia. https://doi.org/10.33329/rjelal.7119.489
2. Cora, L. and Knight, P. Learning and teaching English: A course for teachers. Oxford: Oxford University Press, 2000. Print.
3. Cheng, L. Targeting language support for non-native English speaking graduage students at a Canadian university.TESL Canada Journal, 2007. 21(2), Online.
4. Brown, G. and G. Yule.Teaching the Spoken Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. Print.
5. Nailya Maratovna Bekimbetova, Olga Aleksandrovna Danilova - Medical english teaching and learning techniques in institutions of higher education with application of multimedia technologies: the problems and their solutions. Kazan Federal University, 18, Kremlyovskaya Street, Kazan,420008 (RUSSIAN FEDERATION)
6. Muxamatjonova D.R - The effectiveness of the use of repetition in poetry - Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 2022 y, Chirchiq sh, 354-356 p. https://scholar.google.com/citations?user=9yBD-W8AAAAJ&hl=ru

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Muxamatjonova Diyora Rustam qizi**, o'qituvchi [**Мухаматджонова Диёра Рустам кизи**, преподаватель], [**Diyora R. Muxamatjonova,** teacher]; manzil: 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi 2a-uy, [адрес: 100190, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Верхний Каракамыш, д. 2а], [address: 2a Verkhny Karakamysh Street, Yunusabad district, Tashkent, 100190].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

O‘ZBEKISTONDA STOL TENNISI SPORT TURINING RIVOJLANISHI

© P.I. Najimov[1]✉
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada O‘zbekistonda stol tennisi sport turining rivojlanish bosqichlari, bugungi holati va istiqbollari tahlil qilingan. Stol tennisi yoshlar orasida jismoniy va intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim sport turi sifatida ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – sport infratuzilmasini yaxshilash, murabbiylik tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribani o‘rganish orqali stol tennisi sport turini milliy va xalqaro miqyosda rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda stol tennisi bo‘yicha tarixiy rivojlanish, zamonaviy infratuzilma va murabbiylik tizimi tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar o‘rganilib, yosh sportchilarni tayyorlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, sport infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida stol tennisi darslarini ommalashtirish va xalqaro turnirlar tashkil qilish bu sport turining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xitoy va Janubiy Koreya tajribalari asosida zamonaviy dasturlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

XULOSA: O‘zbekistonda stol tennisi sport turini rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, murabbiylarning malakasini oshirish va yosh sportchilarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar zarur. Ushbu sport turini rivojlantirish sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: stol tennisi, O‘zbekiston, sport infratuzilmasi, murabbiylar tayyorlash, yosh sportchilar, xalqaro tajriba, jismoniy rivojlanish, ta’lim muassasalari, sog‘lom turmush tarzi.

Iqtibos uchun: Najimov P.I. O‘zbekistonda stol tennisi sport turining rivojlanishi. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 212–218.

РАЗВИТИЕ НАСТОЛЬНОГО ТЕННИСА В УЗБЕКИСТАНЕ

© П.И. Нажимов[1]✉
[1]Каракалпакский государственный университет, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассмотрены этапы развития, современное состояние и перспективы настольного тенниса в Узбекистане. Настольный теннис признан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

важным видом спорта, поддерживающим физическое и интеллектуальное развитие среди молодежи.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – изучить возможности развития настольного тенниса на национальном и международном уровнях через улучшение спортивной инфраструктуры, совершенствование системы подготовки тренеров и использование международного опыта.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы исторические аспекты развития настольного тенниса, современные инфраструктурные условия и система подготовки тренеров. Были изучены международные практики и разработаны практические рекомендации по подготовке молодых спортсменов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что развитие спортивной инфраструктуры, популяризация настольного тенниса в образовательных учреждениях и организация международных турниров способствуют развитию этого вида спорта. Рекомендуется внедрение современных программ, основанных на опыте Китая и Южной Кореи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для развития настольного тенниса в Узбекистане необходимо улучшить инфраструктуру, повысить квалификацию тренеров и сосредоточиться на подготовке молодых спортсменов. Этот вид спорта способствует популяризации здорового образа жизни и достижению успехов на международной арене.

Ключевые слова: настольный теннис, Узбекистан, спортивная инфраструктура, подготовка тренеров, молодые спортсмены, международный опыт, физическое развитие, образовательные учреждения, здоровый образ жизни.

Для цитирования: Нажимов П.И. Развитие настольного тенниса в Узбекистане. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 212–218.

THE DEVELOPMENT OF TABLE TENNIS IN UZBEKISTAN

© Paraxat I. Najimov[1]✉
[1]Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the stages of development, current state, and prospects of table tennis in Uzbekistan. Table tennis is recognized as an important sport among young people, supporting both physical and intellectual development.

AIM: the main objective of the study is to explore opportunities for the development of table tennis at the national and international levels by improving sports infrastructure, enhancing the coaching system, and utilizing international experience.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed the historical development of table tennis, current infrastructure, and the coaching system. International practices were studied, and practical recommendations for training young athletes were developed.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that developing sports infrastructure, popularizing table tennis in educational institutions, and organizing

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

international tournaments significantly contribute to the sport's growth. Modern programs based on the experiences of China and South Korea are recommended.

CONCLUSION: to advance table tennis in Uzbekistan, it is essential to improve infrastructure, enhance coach training, and focus on preparing young athletes. This sport promotes a healthy lifestyle and helps achieve success on the international stage.

Keywords: table tennis, Uzbekistan, sports infrastructure, coaching, young athletes, international experience, physical development, educational institutions, healthy lifestyle.

For citation: Paraxat I. Najimov (2024) 'Development of table tennis in Uzbekistan', Inter education & global study, (10(1)), pp. 212–218. (In Uzbek).

Stol tennisi — bu yuqori texnik mahorat, tezkorlik va taktik fikrlashni talab qiladigan sport turi bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida katta e'tiborga sazovor bo'lgan. O'zbekistonda ushbu sport turining rivojlanishi so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Ushbu sport nafaqat tanani chiniqtirish, balki diqqat-e'tiborni oshirish, reflekslarni rivojlantirish va insonning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Respublikamizda stol tennisi bo'yicha xalqaro turnirlarning tashkil etilishi va sportchilarimizning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari bu sohada yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ammo ushbu sportning ommalashuvi va rivojlanishi uchun infratuzilma, malakali murabbiylar va zamonaviy o'quv dasturlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.



Mazkur maqolada O'zbekistonda stol tennisi sportining rivojlanish tarixi, mavjud muammolar va rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, xalqaro tajribadan o'rganish imkoniyatlari yoritiladi.

O'zbekistonda stol tennisi sportining rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Dastlab bu sport turi ko'proq havaskorlar orasida o'ynalgan bo'lsa, bugungi kunda u professional darajaga chiqdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, sportning barcha turlari kabi stol tennisi ham davlat e'tiborida bo'ldi. Bu sohada yangi sport majmualarining qurilishi, murabbiylar tayyorlash va xalqaro turnirlar tashkil etilishi rivojlanishning muhim omillaridan bo'lib xizmat qildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

O‘zbekistonda stol tennisi federatsiyasi 1990-yillarda tashkil etilgan va bugungi kunga kelib, u ushbu sport turini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Federatsiya xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilgan holda, mamlakatda yuqori saviyali musobaqalarni tashkil etish, sportchilarni xalqaro maydonlarga olib chiqish va yosh avlodni sportga jalb qilish bilan shug‘ullanmoqda. Shu bilan birga, 2010-yillardan boshlab, stol tennisi maktablari va to‘garaklarining soni sezilarli darajada ortdi.

O‘zbekiston stol tennisi bo‘yicha xalqaro musobaqalarda o‘z ishtirokini faollashtirmoqda. Yosh sportchilar Osiyo va jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib, yuqori natijalar ko‘rsatmoqda. Biroq, bu sohadagi infratuzilma va murabbiylik tizimida hali hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud. Yangi sport zallarining yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilmasligi va qishloq joylarida sport to‘garaklarining kamligi rivojlanishni cheklovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro tajribani o‘rganish ushbu sport turini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Xitoy va Janubiy Koreyada stol tennisi milliy sport turlaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatlarda sportchilarning yoshlikdan maxsus dastur asosida tayyorlanishi va ularning individual mahoratini oshirishga qaratilgan texnologiyalarni joriy etish muvaffaqiyat kaliti bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda ham yosh sportchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi, zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning sport zallariga joriy etilishi bu sohani yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.



Stol tennisi nafaqat professional sport, balki sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi omil sifatida ham muhimdir. Ta’lim muassasalarida ushbu sport turini keng joriy etish va ommalashtirish orqali yoshlar orasida sog‘lom hayotga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. Shu ma’noda, stol tennisi maktab sport dasturlariga keng miqyosda kiritilishi va yoshlar uchun turnirlar tashkil etilishi lozim.

Sportchilarni tayyorlash masalasida murabbiylarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda murabbiylar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni xalqaro darajadagi malaka oshirish dasturlariga jalb qilish va zamonaviy trenerlik texnikalaridan foydalanish orqali sportchilarimizning xalqaro arenadagi muvaffaqiyatini yanada oshirish mumkin. Shu bilan birga, o‘zbek murabbiylarini zamonaviy texnologiyalar, analitik tizimlar va ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda ish olib borishga o‘rgatish zarur.

Stol tennisi bo‘yicha Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Xitoy va Janubiy Koreya stol tennisi bo‘yicha jahonning yetakchi mamlakatlari hisoblanadi. Xitoyning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan yosh avlodni erta bosqichda aniqlash va rivojlantirish tizimiga bog‘liq. Ushbu mamlakatda bolalar 4-5 yoshdan boshlab stol tennisi maktablarida shug‘ullanishni boshlaydi. Maxsus dasturlar orqali har bir sportchining mahorati individual ravishda kuzatilib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Xitoyda sport infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan mashq zallari va milliy darajadagi musobaqalar tizimi mavjud. Janubiy Koreyada esa texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratiladi. Murabbiylar video tahlil tizimlari yordamida sportchilarning harakatlarini batafsil tahlil qilishadi, bu esa texnik va taktik kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish imkonini beradi. O‘zbekistonda ushbu tajribalarni joriy etish orqali sportchilarning jahon maydonida muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash mumkin.

Olimpiya o‘yinlarida stol tennis.

Stol tennisi 1988-yilda Seulda bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida birinchi bor rasman musobaqa dasturiga kiritilgan. Ushbu sport turi Olimpiadada o‘ziga xos texnik va taktik qoidalari bilan ajralib turadi, bu esa sportchilardan yuqori darajada tezkorlik va aniqlik talab qiladi. Xitoy sportchilari Olimpiya o‘yinlarida doimiy ravishda yetakchilikni saqlab qolishgan. Ularning texnik ustunligi, ruhiy tayyorgarligi va jamoaviy ishi stol tennisi tarixidagi ko‘plab rekordlarni o‘rnatishga olib kelgan. Masalan, 2008-yilda Pekinda bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida Xitoy terma jamoasi barcha oltin medallarni qo‘lga kiritgan. Shuningdek, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya sportchilari ham jahon darajasidagi yetakchi o‘yinchilar sifatida tanilgan. O‘zbekistonda yosh sportchilarni Olimpiya o‘yinlariga tayyorlashda xalqaro standartlarga muvofiq dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.



CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Xalqaro musobaqalar va O‘zbekistonning imkoniyatlari.

Jahon stol tennisi federatsiyasi (ITTF) tomonidan tashkil etiladigan jahon chempionatlari va turli xalqaro turnirlar ushbu sport turining rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Xitoy va Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi raqobat ushbu sport turini yanada ommalashtirgan. Xalqaro turnirlar nafaqat sportchilarning tajriba orttirishi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash uchun ham platforma vazifasini o‘taydi. O‘zbekiston o‘z sportchilarini xalqaro musobaqalarda qatnashishga tayyorlash orqali ularga tajriba orttirish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, yosh sportchilarni xalqaro musobaqalarga jalb qilish va milliy musobaqalarni xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish orqali bu borada katta yutuqlarga erishish mumkin. O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasi xalqaro hamkorlikni kuchaytirib, professional sportchilar tayyorlashda zamonaviy texnikalar va strategiyalardan foydalanishi zarur. Bu esa kelajakda mamlakatimiz sportchilarining xalqaro arenada yuqori natijalar ko‘rsatishiga imkon beradi.

O‘zbekistonda stol tennisi sport turi katta salohiyatga ega bo‘lib, uni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim. Infratuzilmani rivojlantirish, yosh sportchilar uchun keng imkoniyatlar yaratish, xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish orqali ushbu sport turining ommalashuvini ta’minlash mumkin.

Shuningdek, davlat va nodavlat sektorlarning hamkorligi, murabbiylarning malakasini oshirish va yosh avlodni sportga jalb etish stol tennisi rivoji uchun muhim omillardan biridir. Kelajakda ushbu sport turi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro maydonda ham O‘zbekistonning sport salohiyatini namoyish etuvchi yo‘nalishlardan biriga aylanishi mumkin. Stol tennisi orqali mamlakatimiz yoshlari nafaqat jismonan, balki ma’naviy va intellektual jihatdan ham rivojlanib, dunyo sport sahnasida o‘z o‘rnini topishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
2. O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasining rasmiy nashrlari va hisobotlari.
3. Qayumov, S. (2019). Jismoniy tarbiya va sport metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
4. Karimov, A. (2021). Sport infratuzilmasini rivojlantirish: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
5. International Table Tennis Federation (ITTF). (2023). Development and Coaching Guidelines for Table Tennis. London: ITTF Publications.
6. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi (2022–2026 yillar).
7. Usmonov, B. (2020). Stol tennisi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Yangi avlod.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

8. Xitoy va Janubiy Koreyada stol tennisi bo‘yicha rivojlanish tajribasi. (2022). Osiyo sport jurnali.
9. Abdurahmonov, D. (2018). Jismoniy madaniyat va sport turlari bo‘yicha innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Stol tennisi bo‘yicha xalqaro turnirlar natijalari: O‘zbekiston sportchilari muvaffaqiyati. (2023). O‘zbekiston sport axborotnomasi

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Najimov Paraxat Ibraimovich**, o’qituvchi [**Нажимов Парахат Ибрагимович**, преподаватель], [**Paraxat I. Najimov,** teacher]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Akademik Charjoy Abdirov ko‘chasi, 1- uy, [адрес: Республика Каракалпакстан, г. Нукус, улица Академика Чарджоя Абдирова, дом 1], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Charjoy Abdirov street, house number 1.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

TALABALAR SHAXSIY RIVOJLANISH REJASI - OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI SAMARALI JORIY QILISH OMILI

© D.A. Nazarova[1]✉
[1]Oriental universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada oliy ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etishning samaradorligi va uning talabalar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi haqida so‘z boradi. Inklyuziv ta’limning tamoyillari, yondashuvlar va metodlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – oliy ta’limda inklyuziv ta’limni samarali joriy qilishni ta'minlash, nogironligi bo‘lgan talabalar uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish va ularga shaxsiy rivojlanish dasturlarini tuzish jarayonini tahlil qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda oliy ta'limda inklyuziv ta’limni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Maxsus ehtiyojli talabalar uchun ta’lim jarayonini moslashtirishda qo‘llaniladigan yondashuvlar va metodlar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy etish orqali nogironligi bo‘lgan talabalar o‘z ta’lim jarayonida faol qatnashib, bilim olish samaradorligini oshirishi mumkin. Shaxsiy rivojlanish dasturlari yordamida ularning akademik va ijtimoiy rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim siyosatini qo‘llash va nogironligi bo‘lgan talabalar uchun moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqishning muhimligini tasdiqladi. Bunday dasturlar talabalarning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi va jamiyatda ularning o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, shaxsiy rivojlanish dasturi, nogironlik, maxsus ehtiyoj, ta’lim samaradorligi, o‘quv materiallari, innovatsion ta’lim metodlari.

Iqtibos uchun: Nazarova D.A. Oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni samarali joriy qilish: nogironligi bo‘lgan talabalar uchun shaxsiy rivojlanish dasturlarini tuzish. // Inter education & global study, 2024. №10(1). B. 219–225.

ПЛАН ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ-ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО ВНЕДРЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

© Д.А. Назарова[1]✉
[1] Университет Oriental, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются подходы к созданию инклюзивного образовательного процесса в высших учебных заведениях, а также роль

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

индивидуальных программ развития для студентов с инвалидностью в повышении эффективности их обучения и социальной интеграции.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить возможности и преимущества создания инклюзивных условий для студентов с инвалидностью в высших учебных заведениях, а также исследовать роль индивидуальных программ развития в их академическом и социальном успехе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования был проведен анализ литературных источников и практических материалов по вопросам инклюзивного образования, создания специальных условий для студентов с особыми потребностями и разработки индивидуальных программ развития.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что создание инклюзивной образовательной среды, а также внедрение индивидуальных программ развития для студентов с инвалидностью значительно улучшает их академическую успеваемость и способствует лучшей социальной интеграции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило, что внедрение инклюзивных подходов в высших учебных заведениях, включая разработку индивидуальных планов развития, способствует улучшению учебных результатов студентов с инвалидностью и их успешной интеграции в общество.

Ключевые слова: инклюзивное образование, индивидуальные программы развития, студенты с инвалидностью, социальная интеграция, образовательная среда, инновационные образовательные технологии.

Для цитирования: Назарова Д.А. План личностного развития учащихся-фактор эффективного внедрения инклюзивного образования в высших учебных заведениях. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.219–225.

THE PERSONAL DEVELOPMENT PLAN FOR STUDENTS IS A FACTOR IN THE EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

© Nazarova D. Asatovna[1]✉
[1]Oriental University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the approaches to creating an inclusive educational environment in higher education institutions and the importance of individual development programs for students with disabilities in enhancing their educational and social integration.

AIM: the main objective of the study is to explore the benefits and opportunities of creating inclusive conditions for students with disabilities in higher education institutions and to investigate the role of individual development programs in their academic and social success.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing literary sources and practical materials on inclusive education, creating special conditions for students with special needs, and developing individual development programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that creating an inclusive educational environment and implementing individual development programs for students with disabilities significantly enhanced their academic performance and contributed to better social integration.

CONCLUSION: the study confirmed that implementing inclusive approaches in higher education, including the development of individual development plans, improves the academic results of students with disabilities and facilitates their successful integration into society.

Keywords: inclusive education, individual development programs, students with disabilities, social integration, educational environment, innovative educational technologies.

For citation: Nazarova D. Asatovna. (2024), 'The personal development plan for students is a factor in the effective implementation of inclusive education in higher education institutions'. // Inter education & global study, (10(1)), pp. 219–225.(In Uzbek).

Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli o'quvchilarni umumiy ta'lim tizimiga jalb qilish orqali ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratish tamoyilidir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ularga ta'lim olish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limning muhim jihatlari: tenglik: har bir o'quvchiga ta'lim olish imkoniyatlarini teng asosda yaratish; diversifikatsiya: ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish; qo'llab-quvvatlash: maxsus shart-sharoit, yordam va ko'mak vositalarini qo'llash.

Oliy ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni qo'llash nafaqat maxsus ehtiyojli talabalar uchun, balki jamiyatning rivojlanishi uchun ham muhim omil sanaladi.

Oliy ta'lim tashkilotida alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalar uchun maxsus qo'llab-quvvatlash choralari muhim ahamiyat kasb etib, talabalar uchun inklyuziv ta'lim sharoitlarini yaratish turli yondashuv va choralarni o'z ichiga oladi. Bu yordam vositalari talabalarning o'quv jarayonini yengillashtiribgina qolmay, ularning ijtimoiy va ta'limiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Ta'lim tizimidagi inklyuziv yondashuv: maxsus ehtiyojli talabalarni ijtimoiy integratsiyaga jalb qiladi; ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi; jamiyatda hamkorlik va bag'rikenglik madaniyatini rivojlantiradi; har bir talabaning bilim olish jarayonida o'zini erkin va qadrli his qilishini ta'minlaydi.

Oliy ta'limda tizimida alohida ehtiyojlarga ega talabalar bilan ishlash inklyuziv ta'limning muhim qismi hisoblanadi. Chunki, ta'limda alohidatalabalar o'z o'rganish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi, shuning uchun ular uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari va moslashtirilgan ta'lim metodlari zarurdir. Oliy ta'lim

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

muassasalari inklyuziv ta’lim siyosatini qo‘llab-quvvatlagan holda, bunday talabalar uchun moslashtirilgan ta’lim dasturlari va shart-sharoitlarni taqdim etishlari kerak.

Oliy ta’lim tizimida maxsus ehtiyojli talabalar turli xil jismoniy, psixologik yoki o‘rganishdagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ularni shartli ravishda quyidagicha quruhlashtirishimiz mumkin:

U yoki bu ravishda nogironlikka ega talabalar: Ushbu talabalar ko‘rish, eshitish, harakatlanish qobiliyatlaridagi cheklovlarga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur talabalar maxsus texnik yordam vositalariga ehtiyoj sezadilar.

Ruhiy va aqliy qiyinchiliklarga ega talabalar: Bu toifa talabalar turli ruhiy kasalliklar yoki aqliy rivojlanishdagi qiyinchiliklar bilan duch kelishadi. Psixologik yordam, maslahat berish va maxsus pedagogik qo‘llab-quvvatlash ularning ta’lim olish jarayoniga moslashuvchan yondashuv orqali yordam beradi.

O‘rganish qiyinchiliklariga ega talabalar: Bu guruh talabalariga biz disleksiya (o‘qish qiyinligi), disgrafiya (yozish qiyinligi) va boshqa o‘rganish muammolariga ega bo‘lgan yoshlarni kiritishimiz mumkin. Ularga ta’lim jarayonida qo‘shimcha vaqt, moslashtirilgan topshiriqlar va baholash tizimlari taqdim etilishi lozim.

Oliy ta’lim tashkilorida maxsus ehtiyojli har bir talabaga uning ehtiyojlari asosida individual yondashuv, yordam ko‘rsatilishi kerak. Quyida oliy ta’limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan inklyuziv tadbirlarining ayrimlari keltiramiz:

Moslashtirilgan o‘quv materiallari va resurslar: Talabalar o‘zlarining jismoniy yoki o‘rganish ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitiladi. Masalan, ko‘rish qobiliyatida muammolari bo‘lgan talabalarga brayl alifbosidagi kitoblar yoki audiokitoblar taqdim etiladi, eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun esa maxsus subtitrli videolar yoki signallar orqali yordam beriladi. Disleksiya yoki disgrafiya kabi o‘rganish muammolari bilan duch kelgan talabalar uchun esa oson o‘qiladigan materiallar tayyorlanishi zarur.

Texnik yordam vositalari: Jismoniy nogironlikka ega talabalar uchun maxsus texnik vositalar muhim o‘rin tutadi. Masalan, harakatlanish qobiliyati cheklangan talabalar uchun zinapoyalar o‘rniga titgich, eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun esa eshitish apparatlari yoki audio-vizual yordamchi vositalar ishlatiladi.

Psixologik va pedagogik yordam: Ruhiy va aqliy qiyinchiliklarga ega talabalar uchun psixologlar va maxsus pedagoglar tomonidan yordam ko‘rsatiladi. Bu talabalar bilan muntazam psixologik maslahatlar olib borish va ta’lim jarayonini ularga moslashtirish orqali ular uchun qulay ta’lim muhitini yaratish kerak.

Moslashtirilgan imtihonlar va baholash tizimlari: Maxsus ehtiyojli talabalar uchun imtihonlar va baholash tizimi ularning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Masalan, o‘rganish qiyinchiliklariga ega bo‘lgan talabalar uchun qo‘shimcha vaqt berish, og‘zaki imtihon o‘rniga yozma imtihonlardan foydalanish yoki test shaklini oddiylashtirish kabilar qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ularning baholash jarayonida yordamchi vositalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Hamkorlik: Talabalar, o‘qituvchilar va universitet xodimlari o‘rtasida doimiy hamkorlikni ta'minlash orqali inklyuziv madaniyatni shakllantirish. Maxsus ehtiyojli talabalar uchun ta’lim muhitini qulay qilish uchun barcha ishtirokchilar o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsatishi kerak.

Turli xil o‘quv usullari: Har bir o‘quvchiga mos ta’lim usullarini qo‘llash. Masalan, visual o‘quvchilarga rasmlar va diagrammalar orqali, audial o‘quvchilarga esa audio materiallar orqali ta’lim berish. Bu yondashuv barcha talabalarni ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Teng imkoniyatlar yaratish: Maxsus ehtiyojli talabalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratish inklyuziv ta’limning asosiy maqsadidir. Oliy ta’lim muassasalari barcha talabalar uchun teng ta’lim imkoniyatlari yaratishi, moslashtirilgan resurslar va vositalarni taqdim etishi zarur.

Maxsus pedagoglar va maslahat beruvchilarning ishtiroki: Oliy ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni amalga oshirishda maxsus pedagoglar va psixologlarning yordami muhim hisoblanib, ularning rivojlanishini monitoring qiladi va zarur bo‘lganda, individual yondashuvni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan talabalarning shaxsiy rivojlanishiga e’tibor qaratgan holda moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish jamiyatda inklyuziv talimni rivojlantirishning muhim qismidir. Bu o‘quv dasturlari nogironligi bo‘lgan talabalarga ta’lim jarayonida faol qatnashish, o‘zlari uchun qulay sharoitlarda bilim olish va o‘z ixtisosliklari bo‘yicha muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi nogironlikka ega shaxslarning akademik va ijtimoiy rivojlanishlariga katta ahamiyat bermoqda. Shaxsiy rivojlanish dasturlari aynan shu maqsadga qaratilgan bo‘lib, ular nogiron talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib ishlab chiqiladi.

Shaxsiy rivojlanish dasturlari nogiron talabalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, jamiyatga to‘liq qo‘shilishini ta’minlash va ularning shaxsiy rivojlanishlari uchun platforma yaratadi. Bunda shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish, ularni joriy qilish va ularning ijobiy ta’sirlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot beriladi. Shaxsiy rivojlanish dasturlari nogironligi bo‘lgan talabalarning ta’lim jarayonida faol qatnashishlari va muvaffaqiyatga erishishlari uchun mo‘ljallangan bolib, ularning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Ta’limga to‘liq qo‘shilish: Nogironligi bo‘lgan talabalar uchun moslashtirilgan ta’lim dasturlari ularning akademik jarayonda teng ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

Akademik rivojlanish: Shaxsiy dasturlar talabalarning alohida o‘quv ehtiyojlarini qondirish orqali ularning akademik darajalarini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, ularning universitetdagi umumiy natijalariga ijobiy ta’sir qiladi.

Ijtimoiy rivojlanish: Shaxsiy rivojlanish dasturlari nogironligi bo‘lgan talabalarning ijtimoiy hayotiga ham katta yordam beradi. Ular ta'lim jarayonida boshqa talabalar bilan muloqot qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va kelajakdagi kasbga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini oshiradi.

Ishga joylashish: Bu dasturlar talabalarni ta'limdan keyingi davrga tayyorlaydi, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim siyosatini qo‘llash talabalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Maxsus ehtiyojli talabalar uchun moslashtirilgan ta’lim usullari, texnik vositalar va pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ular uchun qulay ta’lim muhitini shakllantirish oliy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim. Shu tarzda, maxsus ehtiyojli talabalar nafaqat bilim olish, balki jamiyatda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi.

Shaxsiy rivojlanish dasturlari nogironligi bo‘lgan talabalarning ta’lim jarayonida teng ishtirok etishlarini ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu dasturlar nogiron talabalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta’minlaydi. Oliy ta’lim muassasalari ushbu dasturlarni ishlab chiqish va joriy qilish orqali nogironligi bo‘lgan talabalarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib, ularning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta’minlashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.
2. O‘zbekiston Resrublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. O‘zbekiston Resrublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
4. «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2017-yil 1 dekabrdagi PF-5270-son Farmoni.
5. «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida " gi PF-6108-son farmoni.
7. Butterworth, J., & Mitchell, D. (2013). Inclusive Education and its Social Benefits. London: Routledge. 77-80 betlar.
8. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28-bet.
9. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri subyektlarining o’rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
10. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

11. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction 'Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education."European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.
12. Н.Н.Малофеев. От равных прав к равным возможностям, от специальной школы к инклюзии. Известия РГПУ им. Герцена. 2018. №190. 8-15 стр.
13. Mitchell, D. (2014). Special Education in the Future of Inclusive Education. Retrieved from https://consensus.app.
14. Smith, J. & Thomas, P. (2016). Developing Personal Learning Programs for Students with Disabilities. Retrieved from https://consensus.app.
15. Peters, S. (2019). Inclusive Education and Universal Design for Learning. Retrieved from [https://consensus.app/papers/inclusive-education-universal-design-students-disabilities-peters/9f91b34b2aef55f74d1e73e5f9a4521f/).

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Nazarova Dildora Asatovna**, professor v.b(p.f.n) [**Назарова Дилдора Асатовна**, профессор], [**Nazarova D. Asatovna,** professor]; manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko`chasi, 154A-uy, [адрес: Г. Ташкент, улица Шота Руставели, д. 154а], [address: Tashkent, Shota Rustaveli street, 154a]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

WRITING SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN FORMATION METHODS

© Shahnoza Oktamova[1]✉

[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines modern approaches to developing writing skills in preschool children, with a focus on the use of quest technologies in the educational process.

AIM: the primary aim of the study is to enhance the effectiveness of developing writing skills in preschool children and to identify the advantages of applying interactive and innovative methods in preparing children for educational activities.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on quest and WebQuest technologies, their theoretical foundations, and their practical applications in the educational process.

DISCUSSION AND RESULTS: the results revealed that employing quest technologies increases children's engagement in learning, develops their communication skills, and fosters teamwork. Leveraging online resources and integrating gamified elements make the educational process more captivating and productive.

CONCLUSION: the study confirmed that the application of quest technologies in preschool and primary education can make the educational process more engaging, effective, and aligned with modern educational requirements.

Keywords: quest technologies, WebQuest, educational effectiveness, innovative teaching, learning skills, interactive pedagogy, preschool education.

For citation: Shahnoza Oktamova. (2024) 'Writing Skills Of Preschool Children Formation Methods', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 226-230. (In Eng).

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПИСЬМЕННЫХ НАВЫКОВ У ДОШКОЛЬНИКОВ

© Ш. Октамова[1]✉

[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются современные подходы к формированию навыков письма у детей дошкольного возраста, включая использование технологии квестов в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность формирования навыков письма у дошкольников и выявить преимущества

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

применения интерактивных и инновационных технологий для подготовки детей к учебной деятельности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научной литературы по технологии квестов и WebQuest, их теоретическим основам и практическому применению в образовательном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование технологии квестов способствует повышению интереса детей к обучению, формированию у них коммуникативных навыков и умения работать в команде. Активное использование интернет-ресурсов и игровых элементов позволяет сделать образовательный процесс более увлекательным и продуктивным.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что применение технологии квестов в дошкольном и начальном образовании может сделать образовательный процесс более интересным, эффективным и соответствующим современным требованиям.

Ключевые слова: технология квестов, WebQuest, эффективность обучения, инновационные технологии, образовательные навыки, интерактивная педагогика, дошкольное образование.

Для цитирования: Октамова Ш. Методы формирования письменных навыков у дошкольников. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 226-230.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH QOBILIYATLARI SHAKLLANTIRISH USULLARI

© Sh. O‘ktamova[1]✉
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, Uzbekistan

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar, jumladan, quest texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirish va ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlashda interaktiv va innovatsion usullardan foydalanishning afzalliklarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quest va WebQuest texnologiyalari, ularning nazariy asoslari hamda ta’lim jarayoniga qo‘llanilishiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, quest texnologiyalari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, ularni o‘zaro hamkorlikka jalb qilish va o‘quv jarayoniga qiziqishni oshirishda samarali hisoblanadi. Bunda internet manbalari va o‘yin elementlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

XULOSA: tadqiqot natijalari maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda quest texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa bolalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida mustaqil va ijodiy faoliyatga jalb qilishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: quest texnologiyalari, WebQuest, ta’lim samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, o‘quv ko‘nikmalari, interaktiv pedagogika, maktabgacha ta’lim.

Iqtibos uchun: O‘ktamova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish qobiliyatlari shakllantirish usullari. // Inter education & global study. 2024, №10(1), B. 226-230.

In the current process of globalization, the process of emergence of new knowledge is accelerating. Continuous improvement of the quality of education, transition to digital technologies is one of the most urgent issues in education today. Information competence plays a key role in solving these problems. Modern children are born, develop and study in an environment saturated with information and communication technologies and digital devices. It is for this reason that it is necessary to fully use new opportunities - the information potential of the Internet - at the first stage of education. We teach children to work with various data sources from the first school days, because now working with text, graphics, sound, multimedia, digital data has become a necessary meta-educational skill. Teachers are often faced with the problem of how to organize educational activities to match modern reality. One of such pedagogical technologies can be called educational research technology. One of these technologies is the quest. Participation in the quest helps to form a universal educational activity that stimulates the need for communication among its participants.

For the first time, the concept of "quest" appeared in computer games in the last century. According to the writings of O.V. Pankova, M.N. Kicherova, G.Z. Efimova, this concept refers to various types of online and offline computer games. In the presented interactive story, the player with the hero or heroes at any time of the game has to look for something to reach the goal, to move to the next stage, to solve a puzzle or to find the only correct solution in a certain situation. In the mid-90s of the last century, B. Dodgem and T. Marchem (USA, University of San Diego) developed the concept of web quest technology in order to improve the educational process. The term "WebQuest" was introduced in 1995 by the university professor B. Dodgem. B. Dodgem suggested the use of a certain search system in the educational process, in which it was necessary to find a solution to the task by passing intermediate stages, each of which requires performing some actions or finding a key to enter the next stage. Based on the works of L. S. Vygotsky on the "zone of proximal development", T. March examined the web quest from the perspective of cognitive psychology and defined the web quest as a specific task in the educational structure and procedure that uses links to important resources on the Internet. He encouraged students to study any problem with an uncertain solution in

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

order to form the ability of students to work both individually and in a group in the process of searching and changing information. B. Joge has provided 30,000 web quest designs on his personal site QuestGarden; This resource has been translated into ten languages (Spanish, Portuguese, Greek, French, German, Italian, Dutch, Greek, Arabic and Indonesian).The researches of N. G. Budanova, V. V. Schmidt, N. A. Nikolaeva, E. A. Igumnova, I. V. Radetskoy, A. V. Yakovenko, describing Quest technology as a design-type technology, are of interest to us, because the student should have the skills to search and analyze data, store, the ability to base new knowledge on the basis of transfer and comparison, that is, students receive educational "products" (from solving a problem in the form of answering a question to created multimedia presentations, videos, websites, booklets, etc.). If we pay attention to the fact that the quest has a clearly defined didactic task, a game plan, a leader (coach), and clear rules, the quest is carried out in order to expand and deepen the knowledge and skills of students. According to O. V. Pankova, the quest technology, first of all, immerses the child in the educational environment, makes it possible to interest the child by creating a game-like process with an active search on the Internet or other sources, such as textbooks, didactic materials, posters, presentations.

Discussion and results: We consider quest technology as an interactive integrated pedagogy that allows for cooperation with production, research, information-communication and game technologies, taking into account knowledge and its components in accordance with the State Education Standard to achieve a certain level of education. we understand as technology. Educational quest is a problem-based form of teaching that combines the techniques of various educational models, combining goal-directed search for step-by-step problem solving with adventures or a game according to a specific plot. We consider it necessary to highlight the positive aspects of using quests in education:

1. Increasing students' enthusiasm.
2. The need to develop caution, notice details.
3. Lesson material is better remembered due to great emotional coloring.
4. Forming the ability to work in a group.
5. The ability to adjust the complexity of tasks and focus on any age and topic.

Does not require high resource consumption. As a result of literature analysis, we consider it necessary to highlight some features of work in web quest technology.

Before dividing students into teams, children get acquainted with general information about the subject being studied, so students face the problem of educational research. The teacher selects Internet resources, and the tasks form game situations, problem situations, so that each team gets acquainted with only one problematic aspect of the topic.

Conclusion: After researching, discussing, and fully understanding the specific problem in each team, students are regrouped to have one representative from each initial team in the newly formed teams. During the discussion, all participants of the quest

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

learn from each other all sides of the discussed problem. In such a discussion, students should express their opinions, draw conclusions, predict the next possible course of action (if any). During the web quest, students must answer one general question of a controversial nature by studying and discussing the material. As a conclusion, we present the tasks of the quests.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet 10-bet. 2. Asqarova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish” Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati. Namangan. 2020. 15-b.
2. Ataboyev S. Kreativ qobilyatning asosiy mezonlari o‘quvchilar shaxsi rivojlantirish asosi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar. 2022.
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov A., Tursunov Sh., 1-2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2000-2007-yy.
5. Doniyorov A. Boshlang‘ich sinf “Ona tili va o`qish savodxonligi” darslarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish usullari. ORIENTAL JOURNAL OF OCIAL SCIENCES. 2022. 8-b.
6. Eshmirzayev Y. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning ilmiy metodik jihatlari. Журнал инновации в начальном образовании. 2020-yil, 132-136-b
7. Ergasheva M., Ergasheva Z., Abdusattorova S. Golden Brain scientific Journal. 2023. 43-44-b.
8. Ergasheva Z. Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2022. 456-b.
9. Ergasheva M., Ergasheva Z., Abdusattorova S. Research and education scientific Journal. 2023. 57-b.
10. Eshmirzayev Yu.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari. Magistrlik dissertatsiyasi Jizzax-2022

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Oktamova Shahnoza**, teacher [**Октамова Шахноза**, преподаватель], [**O‘ktamova Shahnoza,** o‘qituvchi]; address: Jizzakh region, Jizzakh Sh., Rashidova Street, 4, 130-100, [адрес: Джизакская область, г. Джизак, Ул. Рашидова, 4, 130100], [manzil: Jizzax viloyati, Jizzax Sh., Rashidova ko'chasi, 4, 130100].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISH TALABALARINING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI TAHLILI

© G.K. Obidova[1]✉

[1]Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali,Farg‘ona,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada texnika oliy o‘quv yurtlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish oliy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Bo‘lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning murakkabligi va bu jarayonning zamonaviy pedagogik faoliyat mazmuni, maqsadi va vazifalariga ta‘sir qilishi haqida fikr yuritiladi. Talabalarning ekologik ongini rivojlantirish uchun ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhimligi ta‘kidlanadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – texnika oliy o‘quv yurtlarida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ekologik interaktiv usullarni ishlab chiqish va ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligini oshirishdir. Bundan tashqari, ingliz tili darslarida ekologik yondashuvlardan foydalanib, talabalarning ekologik kompetentsiyalarini rivojlantirish maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ekologik ta‘limning zamonaviy yondashuvlariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi va texnika oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili fanini o‘qitishda interaktiv metodlar qo‘llanilishi bo‘yicha empirik ma‘lumotlar to‘plandi. Talabalarning bilim darajasi va ekologik madaniyatini o‘rganish uchun simulyatsiya texnologiyalari asosida eksperimentlar o‘tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili darslarida ekologik interaktiv metodlarni qo‘llash talabalarning bilim darajasini oshirishda samarali bo‘lgan. Masalan, “contact” va “pinboard” texnikalaridan foydalanish orqali talabalar atrof-muhit muammolarini ingliz tilida mustaqil o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. “score” interfaol usulining qo‘llanilishi esa talabalarning tanqidiy fikrlash va ekologik muammolarni hal qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, texnika oliy o‘quv yurtlarida ekologik interaktiv metodlarni ingliz tili darslariga integratsiya qilish talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini amaliyotga yanada yaqinlashtiradi va bo‘lajak mutaxassislarning ekologik ongini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalar va ekologik interaktiv metodlarni qo‘llash ta‘lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: pedagogik amaliyot, kasbiy amaliyot, ekologik tayyorgarlik, ekologik material, kasbiy kompetentsiya.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Iqtibos uchun: Obidova G.K. Ingliz tilini o‘rganishda ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali usullari // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 231-238.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

© Г.К. Обидова[1]✉
[1]Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается важность развития экологической культуры у студентов технических вузов как одной из ключевых задач современного образования. Отмечается, что экологическая культура будущих специалистов формируется в процессе интеграции экологических подходов в обучение, в том числе через преподавание английского языка с использованием интерактивных методов. Освещаются проблемы и перспективы внедрения таких методов в образовательный процесс.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – изучить возможности и преимущества применения экологических интерактивных методов в процессе обучения английскому языку в технических вузах для формирования у студентов экологической культуры и профессиональных компетенций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы современные научные подходы к экологическому образованию и педагогические технологии, направленные на развитие экологической культуры. Были применены интерактивные методы, такие как "Contact", "Pinboard" и "SCORE", а также проведены практические эксперименты с участием студентов для оценки их эффективности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование интерактивных экологических методов при обучении английскому языку значительно повысило уровень знаний студентов, их критическое мышление и способность решать экологические проблемы. Например, метод "SCORE" позволил студентам анализировать экологические вопросы с разных точек зрения и находить эффективные решения, что способствовало укреплению их профессиональной подготовки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что интеграция экологических интерактивных методов в процесс преподавания английского языка в технических вузах способствует не только повышению уровня знаний студентов, но и формированию у них экологической культуры. Это делает образовательный

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

процесс более практико-ориентированным и отвечает современным требованиям подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: педагогическая практика, профессиональная практика, экологическая подготовка, экологический материал, профессиональная компетентность.

Для цитирования: Обидова Г.К. Анализ эффективных методов формирования экологической культуры у студентов технических специальностей в процессе обучения английскому языку // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.231-238.

ANALYSIS OF EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPING ECOLOGICAL CULTURE AMONG TECHNICAL EDUCATION STUDENTS IN LEARNING ENGLISH

© Gulmira.K. Obidova[1]✉
[1] Fergana Branch of Tashkent University of Information Technology, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights the importance of developing ecological culture among students of technical universities as one of the key tasks of modern education. It is noted that the ecological culture of future specialists is formed through the integration of ecological approaches into education, including teaching English using interactive methods. The problems and prospects of implementing such methods in the educational process are discussed.

AIM: the main objective of the study is to explore the possibilities and advantages of applying ecological interactive methods in the process of teaching English in technical universities to foster ecological culture and professional competencies among students.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed modern scientific approaches to ecological education and pedagogical technologies aimed at developing ecological culture. Interactive methods such as "Contact," "Pinboard," and "SCORE" were applied, and practical experiments were conducted with students to evaluate their effectiveness.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that the use of interactive ecological methods in teaching English significantly improved students' knowledge levels, critical thinking, and ability to address ecological problems. For instance, the "SCORE" method enabled students to analyze ecological issues from various perspectives and find effective solutions, thereby enhancing their professional training.

CONCLUSION: the results of the study confirmed that integrating ecological interactive methods into the process of teaching English in technical universities not only enhances students' knowledge but also fosters their ecological culture. This approach makes the educational process more practice-oriented and meets the modern requirements for training future specialists.

Keywords: pedagogical practice, professional practice, ecological training, ecological material, professional competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

For citation: Gulmira.K. Obidova. (2024) 'Analysis of effective methods for developing ecological culture among technical education students in learning English' // Inter education & global study. (10(1)). pp. 231-238. (In Uzbek).

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassaslarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini shakllanti-rishga va rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuv o'zining tashkil topishida murakkab yo'lini bosib o'tmoqda, bu jarayonda pedagogik faoliyatning maz-muni, maqsadi va vazifalari o'zgara boshlaydi, ammo o'z mohiyatini saqlab qoladi, ya'ni talabaning va u yashayotgan atrof-muhitning uyg'un rivojlangan munosabatlarini tarbiyalash ham ancha ahamiyatlidir. Ammo, bizning jamiyatimiz faoliyati shu paytga qadar tabiatda tuzatib bo'lmas o'zgarishlarni birma bir keltirishga qodir, shu bilan ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyati dastur talablari darajasida emasligini tasdiqlanadi. Natijada bugun talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish vazifalarini samarali hal etish maqsadida yangi yondoshuvlarni izlab topish zarur.

Bo'lajak mutaxassislarda ekologik madaniyatni shakllantirish va ri-vojlantirish jamiyatimiz va tabiatning o'zaro aloqadarligini takomillash-trishning muhim vazifalaridan biri sifatida, avvalambor, o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama yetuk rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ammo barcha bu yondoshuvlar nafaqat ingliz tilini o'qitish uslubiyoti va ta'lim oluv-chilar tarbiyasiga ta'luqli bo'lishi kerak, balki bo'lajak mutaxassislarning to'liq ta'lim jarayonini qamrab olishi kerak. Talabalarning kasbiy tayyor-garligi jarayoniga ekologiya nuqtai nazaridan yangicha qarashlar kiritilishi zarur. Ko'rib chiqilayotgan jarayonlarni tadqiq etish davrida biz ushbu masalani yechish maqsadida yangi ekologik jarayonga kirisha olish bo'yicha yondashuv taqdim etdik.

Ekologik ta'lim hozirgi kunda va kelajakda rivojlanuvchi ham lokal, ham global o'lchamlarga egadir. Shu bilan birga ekologik ta'lim alohida sezgilar, tafakkur, tanqidiy fikr, anglashning, shuningdek ekologik muammolar yechimlari ko'nikmalarining rivojlanishini ko'zlaydi, bu esa, albatta, talabaning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Til asosiy fan sifatida o'rgatilmaydigan tabiiy fanlar ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda mavjud ta'lim jarayonining integrasiyalashuvi birinchi galda biz ingliz tilini o'rganish jarayonida ekologik ta'limning dolzarb mazmunini yaratish va joriy etishga qaror qildik, va "Nima uchun o'qitish kerak?" degan savolimizga javob olish va talabalarni "Olingan bilimlarni qayerda va qanday ishlatish mumkin?", "Har bir inson umum-bashariy kelajak uchun nima qilishi kerak?" kabi savollarga javoblar topishiga harakat qildik. Ana shunday maqsad bilan o'qituvchilar ekologik ta'lim mazmuniga ko'plab muhim jihatlarni kiritishlari va korreksiya qilishlari zarur, natijada quyidagilarni amalga oshirishning imkoniyati paydo bo'ladi: talabalarni ingliz tili mashg'ulotlarida ular atrofini qurshab tur-gan tabiat holati to'g'risida olingan axborotni to'g'ri tushuna bilishga o'rgatish; har bir talaba uchun "atrofimizdagi muhit" aniq ekologik tushunchani tushunarli va mohiyatan oson qilib qo'yish; talabalarni ingliz tilidagi matnlarda atrof-muhit muammosini kat-ta ahamiyatga va shaxsiy ma'noga ega bo'lgan masalalar sifatida qabul

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

qilishga o‘rgatish; matnlar, muloqotlar, monologlar orqali talabalarning qadriyatlar haqida tushunchalarini o‘zgartirishga shunday harakat qilish kerakki, ular ijtimoiy-madaniy me’yorlarga qarshi chiqolmasin.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak mutaxassislarni ekologik jihatdan tayyorlash muammosi bo‘yicha ingliz tilini o‘qitishda bir nechta metodlarni samaradorligini aniqlandi.

“Contact” (Kontakt) usuli

Treningning maqsadi: o‘quv jamoasi ishtirokchilarini bir – biri bilan tanishtirish; do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish; o‘quvchilar o‘rtasidagi psixologik to‘siqlarni yengishga o‘rgatish.

Mazkur trening o‘qituvchi va talabalar jamosini, uning xarakteri, ijodiy imkoniyatlari, qobilyatlari, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e’tibor berishni, kimga nimada yordam berishni, kimni qo‘llab – quvvatlashni o‘rgatishga imkon yaratadi

Mashg‘ulot boshlanishidan oldin o‘qituvchining illtimosiga ko‘ra o‘quvchilar xonanining kiraverish joyida mahsus stolga tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan qog‘ozlardan bittadan tanlab oladilar va doira shaklida qo‘yilgan stollarga joylashadilar.

Talabalar o‘z joylarini egallagach, o‘qituvchi ular bilan tuziladigan xikoyaning mavzusini kelishib oladi yoki o‘qituvchining bir nechta mavzularni talabalarga e’lon qiladi.

Hikoya mavzusi talabalrning qiziqishlarini xisobga olgan holda ekologik muamollar, sog‘lom turmush tarzi, atrof muxitni muxofaza qilish va gigiyena qoidalari xaqida bo‘lishi mumkin.(Environmental Problems, Healthy Lifestyle, Environmental Protection, Hygiene Rules)

Dars talabalardan birining biron bir mavzu yoki tanlangan mavzu asosidagi xikoyasidan boshlanishi mumkin.(passiv guruxlarda xikoyani o‘qituvchining o‘zi boshlab beradi). Hikoyani boshlagan talaba, uning eng qiziqarli joyida so‘zlashdan to‘xtab, “Hikoyani davomi____ raqamli o‘quvchida” deydi . Raqami ko‘rsatilgan talaba hikoyani to‘xtagan joyidan mavzudan chiqmagan holda (ingliz tilida) davom ettiradi.Bu talaba ham avvalgi talaba kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida to‘xtab, “Hikoyani davomi____ raqamli o‘quvchida” deydi. Mos raqam ko‘rsatilgan talaba hikoyani kelgan joyidan boshlab, davom ettiradi. Hikoyani so‘zlash, davom ettirish davradagi o‘quvchilarning barchasi ishtirok etmaguncha shu tariqa davom etadi.

O‘qituvchi talabalarning so‘zlayotgan hikoyalari bir – biriga mantiqan bog‘liq va mazmunga ega bo‘lishini kuzatib boradi hamda mavzudan chetlanish bo‘lsa bu xolatni to‘g‘rilab boradi. Hikoya tuzilgach, o‘qituvchi barchaga minnitdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

Pinbord texnikasi (ing: pin mahkamlash, bord doska)

Muammoni hal qilishga oid fikrlarni (Ekologik muammolarni inson saolmatligiga ta’siri) tizimlashtirish va guruxlashni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi holatni shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy xujumni boshlanishini tashkil qiladi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

(rag‘batlantiradi). Talabalar tomonidan bir qancha maqollar ingliz tilida bayon qilindi.(Earth does not belong to us, we belong to Earth; The Environment makes our Characters; To keep nature a beauty.)

Fikrlarni taklif qiladilar muhokama qiladilar, baxolaydilar va eng optimal fikrni tanlaydilar.Ularni tayanch xulosaviy fikr (ikkita so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

Guruh vakillari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda: yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar; baxsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar; fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarni aniqlaydilar; shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni qog‘oz varaqlaridagi guruhlarga ajratadilar; ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoning yagona yoki qarama – qarshi holatlari ishlab chiqiladi.

SCORE – interfaol uslubi – talabalarda muammolarni aniqlash qobilyati kognitiv ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, bor manbalar va imkoniyatlardan foydalanib, muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

S (symtom) muammoning belgisi muammoning muhokamasi vaqtida turli ziddiyatlarga , tushunmovchiliklraga keltiruvchi yopiq elementlari, yo‘nalishlari (masalan ta’lim – tarbiyada, talabalar o‘rtasidagi munosabatda uchraydigan tushunmovchiliklar, ziddiyatlar) hali ochilmagan yopiq qirralarni o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan texnologiyalar, harakatlarni aniqlashdir.

C (cause) - sababi – muammoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan yopiq qirralar (masalan, ziddiyat va tushunmovchilikka olib keluvchi eski qarashlar, an’anaviy fikr va mulohazalar) ni izlash, aniqlash.

O (outcome) – natijasi- kutiladigan natijaga ega bo‘lishda muammoga olib kelgan yopiq qirralar o‘rnini bosuvchi yangi texnologiyalar, harakatlar, maqsad, holatlarni belgilash.

R (resources) – manbai – muammoning ochilmagan qirralarini o‘zgartirishga, uning maqsadalari texnologiya va harakatlar hamda kutiladigan natijaga erishishga xizmat qiladigan vositalarni yoki muqobil materiallarni hamda “qayerda?”, “qachon?”, “nima?”, “qanday?”, “nimaga?” “kim?” savollari asosida muammoning yechishning kerakli asosiy manbalarini topishdan iborat.

E (effect) – samarasi- muammoning yechimi asosida aniq bir maqsad bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan mukammal natija orqali yuksak samaraga erishish, aniq maqsadli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Yuqorida keltirilgan texnologiyalarning muhim aspektlardan bir talabalarda mutaxassisliklari doirasida chet tilida fikrlay olishlaridadir. Shu bilan birga talabalarning sinfdan tashqari ekologik-pedagogik faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish til yo‘nalishining eng maqbul tomonlarini amalga oshirilishi bilan bog‘liqdir, bunda shaxs kasbiy sifatlari, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi mutaxassislar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir. Taqdim etilayotgan shaxs sifatlari bo‘lajak mutaxassis shaxsiga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

qo‘yiladigan asosiy kasbiy-pedagogik yondoshuv sifatida namoyon bo‘ladi va bundan muntazam ravishda foydalanish lozim.

Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni ekologik madaniyatni shakllan-tirish va rivojlantirish bo‘yicha o‘qishdan tashqari faoliyat olib borishga tayyorlash tizimining shakllanganllanganligi pedagogik faoliyatning yanada yuksak va strategik darajasiga erishishini ta’minlaydi. Natijada talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘lajak mutaxassisning ekologik-pedagogik faoliyatiga nisbatan muayyan talab va vazifalarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuningdek kasbiy shakllanganlik darajasining hamda ta’lim faoliyatini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Chet tilini o‘qitishda ekologik ta’lim va tarbiya shakllanishining zamonaviy bosqichi o‘z ichiga bo‘lajak yosh professionallarni shartli ravishda tayyorlash sohasida pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va usul-larini takomillashtirishni oladi. Bunda ekologik madaniyatni shakllan-tirish va rivojlantirish bo‘yicha mavjud tarbiyaviy faoliyat jihatining bo‘lajak mutaxassislar tayyorgarligi tizimiga moslashishi zarur. Mazkur faoliyat, zamonaviy talablarga muvofiq, yosh mutaxassislarni nazariy-amaliy tayyorlashga aniq yo‘naltirilgan tizimining yaratilishini kutmoqda. Aynan talabalik yillarida (18–30 yosh), jamoatchilik munosabatlariga nafaqat intellektual va ijtimoiy munosabatlarning joriy etilishining shakllanishi, shuningdek, hayotiy munosabatlarning individual uslubi ham aniqlanadi. Oddiy qilib aytganda, bo‘lajak mutaxassisning kompetensiyalari shakllana boshlaydi, ular bilan mutaxassis o‘z kasbiy faoliyati muhitiga va odatiy hayot tarzi sohasida kirib boradi. Shu bois, talabalarning korxona va kollejlarda o‘z kasbiy amaliyotini o‘tash davrini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Imkon qadar shunday kurslarni qo‘shish zarurki, ular talabalarni ekologik madaniyat sohasida shartli ravishda o‘tilishi kerak bo‘lgan amaliy, darsdan tashqari yoki fakultativ mashg‘ulotlariga tayyorlasin.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muammolarining yechimi ko‘p qirrali, ko‘p bosqichli va dinamik jarayon hisoblanib, uni o‘rganish turli pozisiyalardan amalga oshirilish mumkin bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda “ekologik madaniyat” ni mazmuni murakkab va bir xil ma’noga ega bo‘lmaganligi, jiddiy tahlil qilishdagi birgina yondoshuv, ya’ni ingliz tilini o‘rganishda ekologik madaniyatning shakllanishi jarayoni berilgan. Bunday yondoshuv ekologik madaniyatli shaxsni tarbiyalash borasidagi muhim vazifalarni yechishda samarali bo‘lishi mumkin, bunda ta’lim oluvchining o‘z xatti-harakatlarining turli oqibatlarini oldindan prognozlashtirish, taqqoslash, aniqlash layoqatlari shaxsning o‘ziga xos xususiyat-lari namoyon etadi. Shunday qilib, oliy kasbiy ta’limning zamonaviy tizimida inson ekologik madaniyati shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ekologik kompetensiyalarning minimumini o‘zlashtirish oliygohda ekologik bilimlar asoslarini shartli ravishda o‘qitilishi bilan ta’minlanishi mumkin. Yo‘nalishlarga muvofiq, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida atrofimizdagi tabiiy olamni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitish ko‘zlanmoqda. Talaba-larda ekologik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

qonuniylik bilimlari asosida aniq ekologik muammolarni yechishga layoqati va tayyorgarligi sifatida ekologik mas'uliyatni rivojlan-tirish, faoliyatning ekologik maqsadga muvofiq usullarini egallash, chet tilini shartli ravishda bilish, shuningdek ekologik qadriyatlar tizimini anglash va qabul qilish "Ekologik madaniyat"ning mazmun yo'nalishi bo'yicha ta'limning maqsadi va kutilayotgan natijasi hisoblanadi..

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kuzibaevna, O. G. (2020). Technologies of developing the ecological culture of students in the process of learning a foreign languages in higher educational institutions. Solid State Technology, 63(1s), 1816-1825.
2. Kuzibaevna, O. G. (2021). Analysis of Effective Ways to Develop Students' Environmental Culture in Foreign Language Teaching. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(12), 37-43.
3. Obidova, G. K. (2022). INGLIZ TILINI O 'RGANISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 20), 124-129.
4. Обидова, Г. (2021). Развитие экологической культуры в образовательных моделях развитых стран мира. Общество и инновации, 2(10/S), 251-256.
5. Обидова, Г. К., & Гайбуллаева, М. Ф. (2021). Хорижий тилларни ўқитишда экологик таълимнинг педагогик психологик имкониятлари. Scientific progress, 2(7), 312-321.
6. Обидова, Г. К. (2016). Закономерности и принципы становления и развития экологической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3-5), 82-85.
7. Обидова, Г. К. Гуманизация и интеграция в экологизации образовательного процесса. ХАБАРШЫСЫ, 55.
8. TEACHING AND LEARNING ENGLISH THROUGH DIGITAL TECHNOLOGY M Toshpulatova, R Ilhomjonova Engineering problems and innovations
9. THE MAIN FEATURES IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES M.I Toshpulatova Journal of Integrated Education and Research 1 (5), 207-214
10. Use of Folktales in English Lessons T.M Ikromovna POLISH SCIENCE JOURNAL

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Obidova Gulmira Kuzibaevna**, pegagogika fanlari doktori, dotsent [**Обидова Гулмира Кузибаевна**, доктор педагогических наук, доцент], [**Gulmira K. Obidova,** doctor of pedagogical sciences, associate professor]; manzil: Farg'ona shahar, 150118, Mustaqillik ko'chasi, 185-uy, [адрес: г. Фергана, 150118, ул. Мустакиллик, 185], [address: Fergana city, 150118, Independence Street, 185].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTNING ROLI

© Sh.U. O‘ktamova[1]✉
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, Uzbekistan

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinflarda kreativlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – badiiy adabiyot orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali usullarni o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda badiiy adabiyotdan foydalanishning nazariy asoslari, kreativlikni rivojlantirish usullari va pedagogik yondashuvlar ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarlar o‘quvchilarning tasavvurlarini faollashtirish, hissiy intellektni rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirishda sezilarli samaradorlikka ega.

XULOSA: tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyotdan foydalanish orqali o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, kreativlik, boshlang‘ich sinflar, ijodiy fikrlash, hissiy intellekt, o‘qituvchilar roli.

Iqtibos uchun: O‘ktamova Sh.U. Boshlang‘ich sinflarda kreativlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning roli. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.239–243.

РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

© Ш.У. Октамова[1]✉
[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется роль художественной литературы в развитии креативности у младших школьников и её значение в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить эффективные методы использования художественной литературы для развития творческого мышления и воображения у учащихся младших классов.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были изучены теоретические основы использования художественной литературы, методы развития креативности и педагогические подходы на основе научной литературы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что художественные произведения эффективно стимулируют развитие воображения, эмоционального интеллекта и творческого мышления у учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование художественной литературы способствует успешному развитию креативных способностей учащихся младших классов.

Ключевые слова: художественная литература, креативность, младшие классы, творческое мышление, эмоциональный интеллект, роль учителя.

Для цитирования: Октамова Ш.У. Роль художественной литературы в формировании креативности у младших школьников. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 239–243.

THE ROLE OF LITERARY WORKS IN DEVELOPING CREATIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

© O‘ktamova U. Shahnoza[1]✉
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the role of literary works in developing creativity among primary school students and its significance in the educational process.

AIM: the main aim of the study is to explore effective methods for using literary works to foster creative thinking and imagination among primary school students.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed the theoretical foundations of using literary works, methods of fostering creativity, and pedagogical approaches based on scientific literature.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that literary works effectively enhance students' imagination, emotional intelligence, and creative thinking.

CONCLUSION: the study results confirmed that using literary works is a powerful tool for fostering creativity among primary school students.

Keywords: literary works, creativity, primary grades, creative thinking, emotional intelligence, teacher's role.

For citation: O‘ktamova U. Shahnoza. (2024) ‘The Role of Literary Works in Developing Creativity in Primary School Students’, Inter education & global study, (10(1)), pp. 239–243. (In Uzbek).

Kreativlik — zamonaviy ta’lim tizimida asosiy maqsadlardan biri bo‘lib, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun zaruriy qobiliyat sifatida qaraladi. XXI asrda jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar insonlardan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

yangicha fikrlash, innovatsion yondashuv va muammolarni ijodiy hal etish ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalarning ijodiy qobiliyatlari va tafakkuri aynan ushbu davrda faol shakllanadi. Bu jarayonda o‘quvchilarning yoshiga mos badiiy adabiyotlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf ta’limi bolalarning intellektual, hissiy va ijodiy rivojlanishidagi poydevor davri hisoblanadi. Shu davrda taqdim etilgan bilimlar va shakllantirilgan ko‘nikmalar bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ta’limda badiiy adabiyotdan foydalanish nafaqat bolalarning qiziqishini oshiradi, balki ularning dunyoqarashi, til boyligi va hissiy intellektini rivojlantirishga ham ko‘mak beradi. Badiiy adabiyot orqali o‘quvchilar nafaqat yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, balki ularni ijodiy fikrlashga undaydigan syujetlar, obrazlar va voqealar bilan tanishadilar.

Bugungi kunda ta’lim tizimi faqatgina faktlar va bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham yo‘naltirilgan. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda kreativlikni rivojlantirish ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun badiiy adabiyotdan foydalanish juda muhim. Badiiy asarlar bolalarda tasavvurni faollashtirish, hissiy kechinmalarni chuqur his qilish va yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi. Ertaklar, hikoyalar va she’rlar orqali o‘quvchilar voqelikni o‘zicha qayta tasavvur qiladi, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, badiiy adabiyot insonning o‘ziga xos ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar asarlar qahramonlarining harakatlari va his-tuyg‘ulari orqali hayotning turli jihatlarini tushunishga harakat qiladilar. Ushbu jarayon nafaqat ularning hissiy intellektini boyitadi, balki ular uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni shakllantiradi. Masalan, ertaklarda yomonlik va yaxshilikning ziddiyatli kurashi bolalarga hayotiy muammolarni anglash va o‘z munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kreativlikni rivojlantirishda badiiy adabiyotning o‘rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ushbu mavzu yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi vositalar sifatida badiiy adabiyotlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyotdan ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o‘rni va imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, maqolada badiiy adabiyotdan foydalanishning samarali usullari, o‘qituvchining roli va ijodiy jarayonni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Kreativlik zamonaviy ta’lim jarayonlarida eng muhim ko‘nikmalardan biri sifatida qaralmoqda. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ularning individual rivojlanishiga xizmat qiladi, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu borada boshlang‘ich ta’limning vazifasi nihoyatda katta. Boshlang‘ich sinf

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘quvchilari kreativ fikrlashni rivojlantirishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu jarayonda badiiy adabiyotdan foydalanish samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Badiiy Adabiyotning Boshlang‘ich Sinf O‘quvchilari Uchun Ahamiyati

Badiiy adabiyot insonning tasavvur doirasini kengaytirishda, estetik didini shakllantirishda, til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy asarlar nafaqat ma’lumot manbai, balki ularda o‘ziga xos ichki dunyo yarata oladigan ijodiy materialdir. Badiiy adabiyot orqali bolalar dunyoqarashlarini boyitish, hissiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish mumkin.

Bolalarning tasavvurlari odatda badiiy asarlarda tasvirlangan qahramonlar va voqealar asosida shakllanadi. O‘quvchilar bu jarayonda o‘z fikrlarini ifodalashga, yangi g‘oyalarni yaratishga va muammolarni ijodiy hal qilishga o‘rganadilar. Masalan, ertaklar, hikoyalar va she’rlar o‘quvchilarning qahramonlar hayotini o‘z tasavvurlarida jonlantirishlariga yordam beradi.

Kreativlikni Shakllantirishda Badiiy Adabiyotdan Foydalanish Usullari

1. Ijodiy Hikoya Yaratish: O‘qilgan asar asosida yangi hikoya yozish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlarini faollashtiradi. Ular badiiy asardagi qahramonlarning keyingi hayoti haqida o‘z g‘oyalarini o‘ylab topadilar va ifodalaydilar.

2. Qahramonlarning Tasvirini Chizish: Badiiy adabiyot matnlari asosida o‘quvchilar tasvirlab berilgan qahramonlarni chizishga harakat qilishadi. Bu jarayon ularning ijodkorligini rivojlantirish bilan birga vizual tasavvurlarini boyitadi.

3. Rolli O‘yinlar: Badiiy asarlar asosida dramatik chiqishlar tashkil etish o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi. Bu faoliyat o‘quvchilarning hissiy ifoda qobiliyatlarini va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Savollar va Javoblar: Asar mazmuni bo‘yicha turli savollar orqali o‘quvchilarni muammoli fikrlashga undash. Bu jarayon ularning analiz qilish va yangi g‘oyalarni taklif etish qobiliyatlarini shakllantiradi.

5. Ijodiy Tushuntirish: O‘quvchilarga asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘z so‘zlari bilan tushuntirib berish topshirig‘ini berish ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy Adabiyotning Foydali Xususiyatlari.

Badiiy adabiyot o‘quvchilarda bir qator ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi: tasavvurni faollashtirish: badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar va qahramonlar orqali bolalar o‘z tasavvurlarini kengaytiradi. bu ularning real va tasavvuriy olam o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishlariga yordam beradi; tilni boyitish: asarlarda ishlatilgan rang-barang so‘zlar va iboralar o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi. til boyligi ijodiy fikrlash uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi; hissiy intellektni rivojlantirish: qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdardlik qilish orqali bolalar o‘z hissiy intellektlarini shakllantiradilar; analitik fikrlashni rivojlantirish: badiiy asarlardagi konfliktlarni tushunish va ularni tahlil qilish jarayoni bolalarning analitik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

O‘qituvchilarning Rolini Belgilash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining badiiy adabiyot orqali kreativlikni rivojlantirishdagi roli juda katta. Ular asar tanlash, o‘qish jarayonini tashkil etish va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladilar. O‘qituvchilar quyidagi tamoyillarga e’tibor berishlari lozim:

1. O‘quvchilarning Yoshi va Qiziqishlarini Inobatga Olish: Badiiy asarlar tanlashda bolalarning yoshi va ularning qiziqishlariga mos keladigan asarlarni tanlash muhimdir.
2. Individual Yondashuv: Har bir o‘quvchining qobiliyatlarini inobatga olib, ularga individual topshiriqlar berish kreativlikni rivojlantirishda samarali usuldir.
3. Muammoli Vaziyatlarni Tashkil Qilish: O‘qituvchi asar mazmunidan kelib chiqib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydigan muammoli vaziyatlarni yaratishi kerak.
4. Tajriba Almashtirish Muhitini Yaratish: O‘quvchilar o‘z g‘oyalari va ijodiy ishlari bilan bir-birlari bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy adabiyot orqali kreativlikni rivojlantirish ta’limning samaradorligini oshirishga va o‘quvchilarning individual rivojlanishiga xizmat qiladi. Badiiy asarlar o‘quvchilarning tasavvurlari, til ko‘nikmalari va hissiy intellektlarini boyitadi. O‘qituvchilarning puxta rejalashtirilgan yondashuvlari orqali badiiy adabiyot ijodkorlikni shakllantirishning asosiy vositasiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kelajakda ularning jamiyatda faol va samarali shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Robinson, K. (2001). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone.
2. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1996). Investing in Creativity: A New Look at Creativity. American Psychologist, 51(7), 677-688.
3. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. Harper Perennial.
4. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.
5. Bettelheim, B. (1976). The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales.
6. Knopf. Gee, J. P. (2004). Situated Language and Learning: A Critique of Traditional Schooling. Routledge.
7. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Longman.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Oktamova Shahnoza Uchqun qizi**, o‘qituvchi [**Октамова Шахноза Учкун кизи**, преподаватель], [**O‘ktamova U. Shahnoza,** teacher]; manzil: Jizzax viloyati, Jizzax Sh., Rashidova ko'chasi, 4, 130100, [адрес: Джизакская область, г. Джизак, Ул. Рашидова, 4, 130100], [address: Jizzakh region, Jizzakh Sh., Rashidova Street, 4, 130-100].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

MASOFAVIY TA'LIMNING KELIB CHIQISH TARIXI

© D. Parbaboyev[1]✉

[1]Jizzax davlat pedagogika univeristeti, Jizzax,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada masofaviy ta'limning kelib chiqish tarixi, uning shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi masofaviy ta'limning paydo bo‘lishi, uning jamiyat va ta'lim tizimiga ta'sirini yoritish hamda zamonaviy texnologiyalarning ushbu ta'lim turini takomillashtirishdagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda masofaviy ta'lim tarixi va uning qadam-baqadam rivojlanishi haqidagi ilmiy manbalar o‘rganilgan va tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta'limning turli bosqichlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji bilan yangi darajaga chiqdi va ilg‘or ta'lim shakllarini shakllantirishga yordam berdi.

XULOSA: masofaviy ta'lim jamiyatning innovatsion ehtiyojlarini ta'minlash, ilmiy va ta'limiy jarayonlarni global darajaga olib chiqish uchun samarali vosita sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta'lim, ta'lim tarixi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn kurslar, MOOC, ta'lim samaradorligi.

Iqtibos uchun: Parbaboyev D. Masofaviy ta'limning kelib chiqish tarixi. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.244–249.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

© Д. Парбабоев[1]✉

[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется история возникновения дистанционного обучения, его этапы формирования и процессы развития.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — осветить происхождение дистанционного обучения, его влияние на общество и систему образования, а также роль современных технологий в совершенствовании этой формы обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании изучены и проанализированы научные источники об истории дистанционного обучения и его поэтапном развитии.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что различные этапы дистанционного обучения вышли на новый уровень благодаря развитию информационно-коммуникационных технологий, способствующих созданию передовых образовательных форм.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: дистанционное обучение рассматривается как эффективное средство для удовлетворения инновационных потребностей общества и вывода научных и образовательных процессов на глобальный уровень.

Ключевые слова: дистанционное обучение, история образования, информационно-коммуникационные технологии, онлайн-курсы, МООС, эффективность образования.

Для цитирования: Парбабоев Д. История возникновения дистанционного обучения. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.244–249.

THE HISTORY OF DISTANCE LEARNING

© Doston Parbaboyev[1]✉
[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the history of the emergence of distance education, its stages of formation, and development processes.

AIM: the main objective of the study is to highlight the origin of distance education, its impact on society and the education system, as well as the role of modern technologies in improving this form of education.

MATERIALS AND METHODS: the study examines and analyzes scientific sources on the history of distance education and its step-by-step development.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that the various stages of distance education reached a new level due to the development of information and communication technologies, contributing to the creation of advanced educational forms.

CONCLUSION: distance education is considered an effective tool for meeting the innovative needs of society and elevating scientific and educational processes to a global scale.

Keywords: distance education, history of education, information and communication technologies, online courses, MOOC, education effectiveness.

For citation: Doston Parbaboyev. (2024). 'The History Of Distance Learning //. Inter education & global study', (10(1)), pp. 244–249. (In Uzbek).

Masofaviy ta'lim – zamonaviy jamiyatda ilm olish va o'qitish jarayonlarini tubdan o'zgartirgan hodisalardan biridir. Uning paydo bo'lishi ham, rivoj topishi ham, bugungi kunga kelib qulay va har jihatdan samarador shaklga aylanishi ham murakkab jarayon bo'lib, turli bosqichlarni o'z ichiga oladi. Masofaviy ta'lim deganda, o'quvchi yoki talabalar o'zlari tanlagan fanlarni istalgan joyda va istalgan vaqtda, asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'rganishlari mumkin bo'lgan ta'lim shakli nazarda tutiladi. Biroq, bunday ta'lim tarmog'ining dastlabki ildizlari texnologiyalarning hozirgidek rivojlanmagan davrlarida paydo bo'lganini ham unutmaslik kerak. XIX asrda, xususan, pochta xizmati rivojlanishi bilan boshlangan masofaviy o'qitishning dastlabki shakllari keyinchalik radio, televideniye, kompyuter va internet paydo bo'lgach, butunlay yangi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘lchovga ega bo‘ldi. Shu tariqa, masofaviy ta’limning shakllanishi va rivoji insoniyat tarixi, texnologik taraqqiyot hamda ta’lim berish uslublarining doimiy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi.

Masofaviy ta’limning ilk ko‘rinishlari odatda “korrespondens o‘qitish” deb nomlangan usul orqali namoyon bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida pochta xizmati ishonchli bo‘lib, odamlar o‘zlari istagan ma’lumot yoki fan bo‘yicha dars materiallarini pochta orqali olib, yana shu orqali yozma topshiriqlarni jo‘natishgan. O‘sha davrda matbaa, gazeta va jurnallar keng tarqalgan, shu bois ko‘plab o‘quv kurslarini matbuot orqali ham uzatish imkoni bo‘lgan. Masofaviy ta’limning bu bosqichi bir vaqtning o‘zida bir qancha qulayliklarni yaratgan bo‘lsa-da, jarayon sekin kechardi, chunki pochta orqali yuborilgan materiallarning yetib borishi va yana o‘qituvchiga qaytib kelishi ancha vaqtni olardi. Shunga qaramay, bunday shakl katta geografik hududda yashovchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv muassasalariga bora olmaydigan shaxslar uchun katta imkoniyat yaratdi. O‘sha paytda masofaviy o‘qitish yangilik sifatida qabul qilingan va jamiyatda turli munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, uning kelajakda kuchli salohiyatga ega ekanligi sezilarli darajada anglashilgan.

Keyingi bosqichlarda, XX asr boshlariga kelib radio ommaviy axborot vositasi sifatida tarqalish boshlaganida, ushbu vositadan ham ta’lim maqsadida foydalana boshlashgan. Radiouzlatuvchilar ilm-fan, adabiyot, madaniyat va til o‘rganish bo‘yicha maxsus dasturlar tayyorlab, tinglovchilarga yetkazishgan. Bu tajribalar masofaviy o‘qitish samaradorligini oshirishda yana bir dadil qadam bo‘ldi, chunki endi o‘qish jarayonida faqat yozma manbalar emas, balki og‘zaki axborot ham muhim o‘rin tuta boshladi. Darslarni tinglash imkoniyatiga ega bo‘lgan auditoriya, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoki maxsus malaka oshirishni xohlagan aholi qatlamlari uchun bevosita yangilik va qulaylik yaratdi. Biroq, bu shaklda ham o‘ziga xos cheklovlar bor edi: radio orqali beriladigan ma’lumotlar bir tomonlama uzatilib, tinglovchilarning savollari yoki fikr-mulohazalari ortga qaytarilmasdi. Shuningdek, bu davrda hanuz eshitish moslamalari har kimda ham mavjud emas edi. Shunga qaramasdan, radiota’lim – keyinchalik masofaviy ta’limga asos bo‘lgan tamoyillarni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalarida televideniyening rivojlanishi ham masofaviy ta’limga jiddiy turtki bo‘ldi. Televideniye orqali darslar tayyorlash, videolektsiyalarni ommaga taqdim etish, ayniqsa, yirik shaharlarda tashkil etilgan telestudiyalar yordamida, mukammalroq bo‘lishi mumkin edi. Bu usulda o‘quvchini rasmlari, grafikalar, animatorlik vositalari bilan tanishtirish, nafaqat audio, balki vizual turtkilar bilan ham samarali ta’lim berish imkoniyati tug‘ildi. Biroq, televideniye ham asosiy cheklovlardan xoli emasdi: dastlabki yillarda ko‘rsatuvlar jonli tarzda efirga uzatilgan, shuning uchun o‘quv jarayonini to‘liq qayta ko‘rish yoki teskari aloqani amalga oshirish qiyin bo‘lgan. Oradan vaqt o‘tgach, videoyozuv texnologiyalari rivojlangani sayin darslarni yozib olish, keyinchalik ular bilan qayta ishlash, ko‘rib chiqish va muhokama qilish imkoni paydo bo‘ldi. Natijada, televideniye orqali o‘qitish kengayib, masofaviy ta’lim mazmunan boyib bordi. Shu bilan birga, bu tizim ham monologik ko‘rinishda bo‘lgani, tomoshabin bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘zaro interaktiv aloqani imkon qadar cheklab turardi. Lekin, har holda, masofaviy ta’limning televideniye bosqichi uzluksiz ta’lim g‘oyasini tarannum etish imkonini oshirdi va uzoq hududlarda yashovchi minglab odamlarga ta’lim olishda yordam berdi.

XX asrning ikkinchi yarmi va ayniqsa uning oxiri texnologik inqiloblar asri sifatida e’tirof etiladi. Kompyuterlarning paydo bo‘lishi, dastlab oddiy ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, keyinchalik dasturiy ta’minot va tarmoq texnologiyalarining rivoj topishi bilan yangi imkoniyatlarni kashf etdi. Aynan shu davrda elektron pochta, matnli fayl almashish kabi aloqa usullari paydo bo‘ldi, bu esa masofaviy o‘qitishning pirovardida internet orqali shakllangan zamonaviy modeliga asos bo‘lib xizmat qildi. Kompyuterlar yordamida dars materiallarini tayyorlash, elektron kitoblar yaratish, videokonferensiya, elektron forum va chatlar orqali muhokamalar o‘tkazish jarayoni masofaviy ta’limni interaktivlik bilan boyitdi. Interaktivlik esa oldingi bosqichlardagi “bir tomonlama uzatish” cheklovlarini kamaytirishga xizmat qilardi. Shuningdek, kirish tezligining oshishi va internet tarmog‘ining kengayishi bilan dunyoning istalgan burchida bo‘lgan talabalarga o‘quv kurslari ochiq bo‘lib qoldi.

Bu jarayon XXI asr boshlarida yana-da faollashdi, ayniqsa, “e-learning” yoki onlayn ta’lim platformalarining ommalashishi bilan. Endi talabalar masofaviy tarzda o‘qish uchun faqatgina elektron xat yoki statik ma’lumotlarga tayanib qolmay, balki multimedia darsliklar, interaktiv testlar, real vaqt rejimidagi webinarlar, videoma’ruzalar va raqamli kutubxonalar bilan ham ishlash imkoniga ega bo‘ldilar. Bu davrda “Learning Management System” (LMS) deb ataladigan maxsus platformalar joriy etila boshladi. Moodle, Blackboard kabi tizimlar o‘qituvchilarga kursni to‘liq rejalashtirish, materiallarni yuklash, vazifalarni baholash va fikr-mulohaza bildirish uchun keng imkoniyatlar taklif qildi. Talabalar ham o‘qituvchi bilan doimiy aloqada bo‘lib, savol-javob va muhokamalarda faol ishtirok eta boshlashdi. Shu tariqa, masofaviy ta’lim an’anaviy auditoriya darslariga tobora yaqinlashib, hatto ayrim jarayonlarda uni ortda qoldira oladigan pog‘onaga ko‘tarildi.

So‘nggi yillarda masofaviy ta’lim “MOOC” (Massive Open Online Courses) formatida o‘zining global ko‘rinishini yanada kengaytirdi. Dunyodagi nufuzli universitetlar Coursera, edX, Udacity kabi platformalar orqali har xil yo‘nalishlardagi kurslarini butun dunyodagi millionlab talabalar e’tiboriga havola eta boshlashdi. Ushbu kurslar nafaqat bepul yoki nisbatan arzon narxlarda taklif etilishi, balki talabalarga moslashuvchan jadval va interaktiv dars materiallari taqdim qilishi bilan ham ahamiyatli bo‘ldi. Shu bilan birga, sertifikat yoki diplom berish tizimlari yo‘lga qo‘yilib, masofaviy ta’lim orqali malaka oshirish va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish yanada jozibador tus oldi. MOOC formatidagi darslar anchagina murakkab bo‘lsa-da, dunyoning turli burchaklaridan kelgan ishtirokchilar bilan o‘zaro muloqot yuritish, guruhlarda vazifalarni bajarish, o‘z fikr va tajribalarini baham ko‘rish imkonini yaratdi. Bunday global miqyosdagi hamkorlik nafaqat bilim olish, balki turli madaniy va ijtimoiy tajribalarni ham almashish imkonini ochdi.

Masofaviy ta’limning paydo bo‘lishi va rivoji nafaqat ta’lim sohasiga, balki umuman inson faoliyatining turli jabhalariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, ish joyida malaka

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

oshirish kurslari, shaxsiy rivojlanish bo‘yicha onlayn dasturlar, turli kasb-hunar o‘quv kurslari – barchasi raqamli texnologiyalar negizida yanada ommalashdi. Avvallari chekka hududlarda yashovchi, moddiy imkoniyatlari cheklangan yoki faol ish bilan band bo‘lib, an’anaviy ta’lim muassasalariga borishga vaqti yo‘q kishilar uchun ilm olish qiyin kechgan bo‘lsa, bugun masofaviy ta’lim tufayli ushbu to‘siqlar bartaraf bo‘ldi. Shuningdek, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda fan-ta’lim sohasidagi innovatsiyalarni tezkorlik bilan joriy etish masofaviy o‘qitishning asosiy afzalliklaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ayni paytda masofaviy ta’lim tizimining oldida turli muammolar ham mavjud. Texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, internet tezligining pastligi yoki uning qamrovi cheklangan hududlar borligi, raqamli savodxonlikning turli darajalari, ta’lim sifatini baholashning murakkabligi kabi masalalar hozirgi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, ta’lim olish jarayonining individual xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim, chunki masofaviy tarzda mustaqil o‘rganish intizomni, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini, vaqtni samarali taqsimlashni talab etadi. Shunday bo‘lsa-da, tadqiqotchilar hamda amaliyotchilar masofaviy ta’limni takomillashtirish, interaktiv dars materiallarini boyitish, virtual laboratoriya va ilg‘or simulyatsiyalarni joriy etish, jamoaviy loyihalar va onlayn baholash mexanizmlarini takomillashtirish ustida ishlashmoqda. Shu sababdan, masofaviy ta’lim sohasining kelajagi, katta ehtimol bilan, yanada globallashgan va ko‘p qirrali tajribalarni o‘z ichiga olishi kutiladi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlasak, masofaviy ta’lim boshqa turli innovatsiyalar singari jamiyat ehtiyojlaridan tug‘ilganini ko‘rish mumkin. Uning kelib chiqishi va bosqichma-bosqich rivoji texnologik omillar bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, davlat siyosati va global axborot maydonining shakllanishi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Masofaviy ta’lim, aslida, insonlarning zamon va makon chegaralaridan qat’i nazar, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga intilishidan kelib chiqqan. Dastlabki korrespondens usulidan tortib, bugungi eng rivojlangan onlayn kurslargacha bo‘lgan bosqichlar shuni ko‘rsatadiki, bu ta’lim shakli har doim yangilik va imkoniyatlar izlagan hamda tobora kengroq ommani qamrab olishga intilgan. Shu bilan birgalikda, har bir bosqichda texnik-texnologik ixtirolar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ta’lim berish uslublarini takomillashtirgan.

Masofaviy ta’limning bugungi jadal taraqqiyoti ilm-fan va texnologiyaning inson hayotiga tobora chuqur kirib borayotgani bilan hamohang ravishda kechmoqda. Keyingi bosqichlarda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalari masofaviy ta’limni yanada interaktiv, individuallashgan va jozibador shaklga aylantirishi kutilyapti. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali ta’lim jarayonini yanada keng auditoriyaga yetkazish, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bularning barchasi insoniyatning kelajakda masofaviy ta’limdan oladigan nafini oshirish, malaka oshirish, fan-texnika yutuqlarini ommaviy tarzda o‘rganish, ijtimoiy adolat va imkoniyat tengligini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Masofaviy ta’limning kelib chiqish tarixi matbaa va pochta orqali jo‘natiladigan korrespondens shaklidan boshlab, radio, televideniye, kompyuter va keyinchalik internet texnologiyalari orqali bosqichma-bosqich rivojlandi. Har bir bosqichda u o‘zining mazmuni va texnik imkoniyatlarini kengaytirib bordi. Bugungi kunda masofaviy ta’lim barcha darajadagi o‘quvchilar va talabalar uchun qulay, arzon, moslashuvchan va interaktiv usullarni taklif etib, xalqaro miqyosda ham jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bunda, albatta, texnologik inqiloblar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va globallashuv jarayonlarining roli beqiyos. Masofaviy ta’limning tarixi – bu faqat ta’lim sohasidagina emas, balki butun jamiyat miqyosida o‘zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar qanday paydo bo‘lishini ko‘rsatib beruvchi yorqin misoldir. Shu boisdan ham, masofaviy ta’limning kelajakdagi istiqbollari juda keng ko‘lamga ega bo‘lib, uning shakllanish jarayoni davom etar ekan, insonlarning ta’lim olish va ilmga erishish imkoniyatlari yanada kengayib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. European Commission. (2020). Digital Education Action Plan (2021-2027). European Commission Publications.
2. https://ec.europa.eu
3. Moore, M. G., & Kearsley, G. (2011). Distance Education: A Systems View of Online Learning. Cengage Learning.
4. Peters, O. (2001). Learning and Teaching in Distance Education: Pedagogical Analyses and Interpretations in an International Perspective. Kogan Page.
5. Open University (2021). Annual Report on Online Learning in the UK.
6. Bates, T. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. BCcampus Open Textbook Project.
7. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.
8. European Higher Education Area (EHEA). (2015). Innovative Learning and Teaching in European Higher Education Institutions. EHEA Reports.
9. Bozkurt, A., et al. (2020). A Global Outlook to the Interruption of Education Due to COVID-19 Pandemic: Navigating in a Time of Uncertainty and Crisis. Asian Journal of Distance Education, 15(1), 1-126.
10. Schlosser, C. A., & Simonson, M. R. (2009). Distance Education: Definition and Glossary of Terms. Information Age Publishing.
11. Holmberg, B. (2005). Theory and Practice of Distance Education. Routledge

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Parbaboyev Doston**, o‘qituvchi [**Парбабоев Достон**,преподаватель], [**Parbaboyev Doston** teacher]; manzil: 130100.Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4., [адрес: 130100.Джизакская область, город Джизак, улица Шарафа Рашидова, 4.], [address: 130100.4 Sharaf Rashidov Street, Jizzakh region, Jizzakh city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

“ATOM FIZIKASI” FANIDAN TALABALARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

© K. Pardayeva[1]✉, Sh.Tursunov[2]✉, Sh.Hasanov[3]✉
[1,2,3]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Surxondaryo, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada "Atom fizikasi" bo‘limi bilan tanishish jarayonida talabalar nurlanish qonunlarini o‘rganish, amaliy ahamiyatini kuzatish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan foydalanishning muhimligi ta’kidlangan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi "Atom fizikasi" fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish orqali talabalar bilimini rivojlantirish, ularni kreativ fikrlashga va amaliy ko‘nikmalarga tayyorlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda interfaol metodlarning "Atom fizikasi" darsida qanday qo‘llanilishi, bu metodlar yordamida talabalar bilim faoliyatini qanday rivojlantirish mumkinligi tahlil qilingan. “zinama-zina” interfaol metodi o‘rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar orqali darsni o‘qitish talabalar bilim faoliyatini rivojlantiradi, kreativlik va mantiqiy fikrlashni oshiradi, shuningdek amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari "Atom fizikasi" fanini muammoli ta’lim metodi va interfaol metodlar orqali o‘qitishning talabalar bilimini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: atom fizikasi, muammoli ta’lim, majburiy va spontan nurlanishlar, “zinama-zina” interfaol metodi, interfaol ta’lim strategiyalari.

Iqtibos uchun: Pardayeva K., Tursunov Sh., Hasanov Sh. "Atom fizikasi fanidan talabalar bilim faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish." // Inter education & global study, 2024. №10(1), B. 250–255.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО ПРЕДМЕТУ 'АТОМНАЯ ФИЗИКА’

© К.Пардаева[1]✉, Ш.Турсунов[2]✉, Ш.Хасанов[3]✉
[1,2,3]Институт предпринимательства и педагогики Денова, Сурхандарья, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена использованию интерактивных методов в преподавании темы "Атомная физика", а также их роли в развитии самостоятельного мышления и практических навыков у студентов.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — использование интерактивных методов для развития познавательной активности студентов в курсе "атомная физика", а также стимулирование их креативного и логического мышления.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании рассматривается применение интерактивных методов в обучении "атомной физике", а также их влияние на развитие студентов. В частности, рассматривается метод "Зинама-зина" в контексте интерактивного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что использование интерактивных методов в обучении способствует развитию познавательной активности студентов, улучшает их креативное и логическое мышление, а также способствует формированию практических навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтверждает высокую эффективность применения методов проблемного обучения и интерактивных стратегий в обучении студентов теме "атомная физика".

Ключевые слова: атомная физика, проблемное обучение, обязательные и спонтанные излучения, метод "Зинама-зина", интерактивные обучающие стратегии.

Для цитирования: Пардаева К., Турсунов Ш., Хасанов Ш. "Использование интерактивных методов в развитии познавательной активности студентов по предмету «Атомная физика». // Inter education & global study, 2024. №10(1), С. 250–255.

USING INTERACTIVE METHODS TO ENHANCE STUDENTS' COGNITIVE ACTIVITY IN 'ATOMIC PHYSICS'

© Kibria Z. Pardayeva[1]✉, Shokir T. Tursunov[2]✉, Shoxrux N. Hasanov[3]✉
[1,2.3]Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Surxandarya, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article focuses on the use of interactive methods in teaching the topic "atomic physics" and their role in developing independent thinking and practical skills among students.

AIM: the main aim of the study is to use interactive methods to enhance students' cognitive activity in the "atomic physics" course, as well as to stimulate their creative and logical thinking.

MATERIALS AND METHODS: the study explores the application of interactive methods in teaching "atomic physics" and their impact on student development. Specifically, the "zinama-zina" method is discussed in the context of interactive learning.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that using interactive methods in teaching enhances students' cognitive activity, improves their creative and logical thinking, and helps develop practical skills.

CONCLUSION: the study confirms the effectiveness of problem-based learning methods and interactive strategies in teaching students the topic "atomic physics."

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Keywords: atomic physics, problem-based learning, mandatory and spontaneous radiation, "zinama-zina" method, interactive teaching strategies.

For citation: Kibria Z. Pardayeva, Shokir T. Tursunov, Shoxrux N. Hasanov. (2024) 'Using Interactive Methods to Enhance Students Cognitive Activity in «Atomic Physics»', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 250–255. (In Uzbek).

Talabalar "Atom fizikasi" bo'limi bilan tanishish jarayonidagi nurlanish qonunlarini o'rganishga, uning amaliy ahamiyatini kuzatishga, mustaqil fikrlashga imkoniyat yaratadi. Talabalar nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llab ko'radilar. Bu holat talabalarga, birinchidan, atom fizikasidan nazariy olgan bilimlarini amaliyotga ijodiy qo'llashga; ikkinchidan, o'quv materiallarining tushunarli bo'lishiga; uchinchidan, nazariy bilimlarini ongli, puxta, chuqur egallashlariga; to'rtinchidan, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalar hozir fan va texnika taraqqiyoti davrida yashamoqdalar. Har bir talaba bevosita yangi texnika tuzilishi va uning ishlash prinsplaridan foydalanib, ular bilan tez-tez munosabatda bo'lib turadi. Bu esa o'z navbatida talabalardan atom fizikasi bilimlarini puxta va chuqur o'rganishni talab etadi. Talabalrni kuzatishdan va ular bilan olib borilgan savol-javoblardan shu narsa aniq bo'ldiki, ular atom fizikasidan olgan nazariy bilimlarini kundalik turmushga qo'llashga qiynaladilar. Talabalarda atom fizikasidan nazariy olgan bilimlarni mustaqil kuzatish, ularni tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish va ularni umumlashtirish, tajribalar qo'yish, laboratoriya ishlarini bajarish amaliy ko'nikma va malakalar yo'q. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga deyarli e'tibor berilmaydi. Talabalar atom fizikasini o'rganish jarayonida nazariy olgan bilimlarini amaliyotga ijodiy qo'llay olishmaydi. Shu bilan birgalikda talabalarning ko'pchiligi texnikadan foydalanish sirlarini o'rganishda atom fizikasining roli va ahamiyatini to'la tushunib yeta olmaydilar. Bu o'z navbatida talabalarning atom fizikasini o'rganishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Oliy ta'limda "Atom fizikasi" kursini muammoli o'qitish, birinchidan, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga; ikkinchidan mantiqiy fikrlashlarini, mushohada yuritishlarini o'stirishga; uchinchidan, eng muhimi ularda amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar bilan interfaol ta'lim strategiyalarini integratsiyalash natijasida "Atom fizikasi" bo'limini o'qitish talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirgan holda, ularda kreativlik, mantiqiy-mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Muammoli ta'lim metodi bilan "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galeriya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" interfaol ta'lim strategiyalaridan ixtiyoriy bittasini tanlab darsni qiziqarli tarzda o'tish mumkin. Bu o'qituvchidan mohirlikni, hozir javoblikni talab etadi.

Muammoli ta'lim metodi bilan "Zinama-zina" interfaol ta'lim strategiyasi integratsiyasini ko'rib chiqaylik. "Zinama-zina" interfaol ta'lim strategiyasi istagan fanni o'qitishda foydalanish mumkin. O'yin talabalarni hozirjavoblikka, tezkorlikka, ziyraklikka, mushohada yuritishga, ijodkorlikka o'rgatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Bu texnologiyani quyidagicha amalga oshirish mumkin. Talabalar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhning oxirida o‘tirgan talabalarga A, B, C, D, E harflari yozilgan javob varaqlari beriladi. O‘qituvchi test savollari va javoblarni A, B, C, D, E variantlarida o‘qiydi. Oxirgi o‘rindagi talabalar berilgan testning to‘g‘ri javobini quyidagi shartli belgilar asosida ko‘rsatadi. Masalan, “Majburiy va spontan” nurlanishlar mavzusidagi quyidagi test savollarini keltiraylik.

1. Spontan nurlanish deb qanday nurlanishga aytiladi?

A) to‘lqin energiyasi ta’sirida atomlarning bir qismi uyg‘onadi va yuqori energetik holatga o‘tadi

B) to‘lqin energiyasi ta’sirida atomlarning bir qismi uyg‘onadi va quyi energetik holatga o‘tadi

C) yuqori energetik sathdagi elektronlarni tashqi energiya yordamida pastki sathga tushganda yuzaga keluvchi elektromagnitik nurlanish

D) quyi energetik sathdagi elektronlarni tashqi energiya yordamida yuqori sathga chiqqanda yuzaga keluvchi elektromagnitik nurlanish

2. Majburiy nurlanish deb qanday nurlanishga aytiladi?

A) to‘lqin energiyasi ta’sirida atomlarning bir qismi uyg‘onadi va yuqori energetik holatga o‘tadi

B) to‘lqin energiyasi ta’sirida atomlarning bir qismi uyg‘onadi va quyi energetik holatga o‘tadi

C) yuqori energetik sathdagi elektronlarni tashqi energiya yordamida pastki sathga tushganda yuzaga keluvchi elektromagnitik nurlanish

D) quyi energetik sathdagi elektronlarni tashqi energiya yordamida yuqori sathga chiqqanda yuzaga keluvchi elektromagnitik nurlanish

3. Quyidagi javoblardan qaysilari to‘g‘ri?

1) majburiy nurlanish induksiyalangan nurlanish deb ham ataladi; 2) kvant o‘tishlarda atom yoki molekulalarning kinetik energiyasi o‘zgarmaydi; 3) fotonning energiyasi atom yoki molekulalarning boshlang‘ich va oxirgi statsionar holatlari energiyalarining farqiga teng.

A) 1, 2, 3 B) 1, 3 C) 3 D) 2, 3

4. Fotonning uyg‘ongan zarrachalar bilan o‘zaro ta’sirlanishida … majburiy nurlanish vujudga keladi. Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri javobni qo‘ying.

A) agarda foton energiyasi katta bo‘lsa

B) agarda foton energiyasi sathlar yig‘indisiga teng bo‘lsa

C) agarda foton energiyasi sathlar farqiga teng bo‘lsa

D) agarda foton energiyasi kichik bo‘lsa

5. Spektr deb nimaga aytiladi?

A) “Spektr” so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, “ko‘rinish” degan ma’noni bildiradi

B) Biron bir nurlanishda mavjud bo‘lgan to‘lqin uzunligi

C) Elektromagnit nurlanishning hosil qiladigan rangli yo‘li

D) atomlaming nurlanish intensivligini chastota yoki to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

6) Majburiy kvant o‘tishlar natijasida zarrachalardan bitta yo‘nalishda nechta zarra ajralib chiqadi?

A) 1 ta elektron
B) 2 ta bir xil foton
C) 1 ta foton
D) 2 ta bir xil elektron

7) Atom yoki molekulalardan nurlanayotgan energiya nimani ifodalaydi?

A) chiqish spektrini
B) yutilish spektrini
C) intensivlikni
D) chastotani

8) Nurlanayotgan energiya spektrining qanday turlari bor?

1. chiziqli spektr – elektromagnit to‘lqin nurlanishi ta’sirida atomlarning nurlanish qonuniyatlarini harakterlab, monoxromatik ko‘rinishga ega
2. yuqori temperaturada yaraqlaydigan gaz va modda bug‘larining yo‘l-yo‘l spektri
3. to‘lqin uzunligi 3800 A dan kichik ultrabinafsha va 7600 dan katta infraqizil to‘lqinlar
4. issiqlik nurlanish ta’sirida hosil bo‘ladigan spektr bo‘lib, intensivliklari bo‘yicha tutashgan uzluksiz spektr

A) 1, 4 B) 1 C) 1, 2, 4 D)1, 3, 4

9) Atomlar eng quyi energetik holatda … . Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri so‘zni qo‘ying.

A) yorug‘lik yutmaydi
B) yorug‘lik chiqarmaydi
C) yorug‘lik yutmaydi ham, chiqarmaydi ham
B) eng quyi energetik holatda bo‘la olmaydi

10) $\frac{dN_2}{dt} = -A_{2,1} \cdot N_2$ formuladagi $A_{2,1}$ kattalik nima?

A) Spontan nurlanish ehtimolligi bo‘lib, uni Plank koeffitsiyenti deyiladi
B) Majburiy nurlanish ehtimolligi bo‘lib, uni Plank koeffitsiyenti deyiladi
C) Spontan nurlanish ehtimolligi bo‘lib, uni Eynshteyn koeffitsiyenti deyiladi
D) Majburiy nurlanish ehtimolligi bo‘lib, uni Eynshteyn koeffitsiyenti deyiladi

Ushbu test savoli o‘qilishi bilan talabalar A harfining tasviri tushirilgan varaqni ko‘rsatadi. Talabalarning qaysi biri tezlik bilan to‘g‘ri javobni ko‘rsata olsa, yonidagi sherigiga javob varaqalarini beradi. To‘g‘ri javobni ko‘rsata olmagan talaba yonidagi sherigiga javob varaqalarini bermaydi. To‘g‘ri javobni ko‘rsatgan guruh bir zina yuqoriga ko‘tariladi. O‘qituvchi keyingi savolni o‘qiydi. Yana yuqoridagi holat qaytariladi. Savolning to‘g‘ri javobini ko‘rsatgandagina, javob varaqalarini yonidagi sherigiga uzatadi. Talabalardagi faollik, tezkorlik guruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar talabalar to‘g‘ri javobni ko‘rsata olmasa, guruh zinaning quyi pog‘onalarida qoladi. Javob varaqalari talabalar qo‘lidan bir-biriga o‘tib, oldingi qatordagi talabalarga yetib keladi va o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. Test savoliga zudlik bilan javob ko‘rsata olmagan talabaga past baho qo‘yiladi. Buni talabaning o‘zi ham bilib turadi. Eng asosiysi, talaba har bir javobni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ko‘rsatishi orqali o‘z bilimiga baho qo‘yib boradi. “Zinama-zina” metodi talabalarning bilimi, topqirligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O‘yinga bo‘lgan qiziqish natijasida talabalarda diqqat-e’tibor, idrok ortadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sh.Sodiqova, Sh.Otajonov, M.Kurbanov. “Lazerlar va ularning amaliyotdagi o‘rni”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020.
2. Sh.T.Boymirov. Umumta’lim maktabida Fizikaning elektrodinamika bo‘limini muammoli o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish. Dissertatasiya. 2021.
3. Sh.S.Zamonova, K.Z.Pardayeva. “Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida fizikani o‘qitish”. Tabiiy fanlar integratsiyasining istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2024.
4. D.A.Alibekov. Interfaol metodlarning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati. Журнал Педагогики и психологии в современном образованиию 2024
5. K.R.Xolmuradov. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2024.
6. M.S.Saidova. Interfaol metodlar darsning jon tomiri. “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 2024.
7. O.U.Avlayev, S.R.Mirzayeva, Sh.R.Samarova. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2007.
8. D.Sidiqova. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim va loyihalash texnologiyasi. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro-2020.
9. http://www.timelesslearntech.com/learning-platform.php
10. http://cross.highcat.org/
11. https://flippity.net/

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Pardayeva Kibriyo Zafar qizi**, o‘qituvchi, **Tursunov Shokir Toirovich**, o‘qituvchi, **Xasanov Shoxrux Nurali o‘g‘li**, talaba [**Пардаева Кибрия Зафар кизи,** преподаватель, **Турсунов Шокир Тоирович,** преподаватель**, Хасанов Шохрух Нурали угли,** студент], [**Kibria Z. Pardayeva,** teacher**, Shokir T. Tursunov,** teacher**, Shoxrux N. Hasanov,** student]; manzil: Denov tumani Bog' ko'chasi 112-uy, [адрес: Деновский район улица Бог(Садовая) 112], [address: Denovsky district Bog 112 street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

EXPLORING THE USE OF CORPUS LINGUISTICS IN EFL INSTRUCTION

© Durdona R. Pulatova[1]✉

[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the use of corpus linguistics in teaching english as a foreign language (efl) and its role in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to explore the effectiveness of using corpus linguistics in efl instruction and to highlight the benefits of using innovative technologies to improve students' understanding of specialized vocabulary and grammar.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on corpus linguistics and its application in teaching english as a foreign language, particularly in academic contexts.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using corpus linguistics tools significantly enhanced students' vocabulary and grammatical accuracy, especially in the context of specialized academic texts.

CONCLUSION: the study results confirmed that the use of corpus linguistics tools in efl instruction can make the learning process more effective and closely aligned with real-world applications.

Keywords: corpus linguistics, EFL instruction, vocabulary acquisition, grammatical analysis, academic English, innovative teaching.

For citation: Durdona R. Pulatova. (2024) 'Exploring The Use Of Corpus Linguistics In EFL Instruction', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 256-260. (In Eng)

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ (EFL)

© Д.Р. Пулатова[1]✉

[1]Ташкентский Государственный Педагогический Университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется роль корпусной лингвистики в обучении английскому языку как иностранному. Рассматриваются преимущества использования корпусных данных для улучшения изучения академического английского, в частности в области естественных наук, и их влияние на образовательный процесс.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — исследовать влияние использования корпусной лингвистики в обучении английскому языку как иностранному среди студентов второго курса естественнонаучных факультетов, а также оценить роль

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

корпусных инструментов в улучшении усвоения лексики, грамматики и повышении вовлеченности студентов в работу с аутентичными текстами.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведён анализ научных источников по применению корпусной лингвистики в обучении английскому языку как иностранному. Также оценивалось использование корпуса данных для улучшения понимания лексики и грамматики в контексте естественных наук.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование корпусной лингвистики способствовало значительному улучшению знаний студентов в области лексики и грамматики, особенно в таких аспектах, как понимание словосочетаний и сложных грамматических конструкций, что подтверждает исследования biber et al. (1998).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что использование технологий, основанных на корпусной лингвистике, в обучении английскому языку как иностранному способствует улучшению образовательного процесса, делая его более эффективным и приближенным к реальным условиям.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, обучение английскому языку как иностранному, лексика, грамматика, академический английский, естественные науки, инновационное обучение.

Для цитирования: Пулатова Д.Р. Исследование Использования Корпусной Лингвистики В Обучении Английскому Языку Как Иностранному (EFL). // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 256-260.

CHET TILINI (INGLIZ TILINI) O‘QITISHDA KORPUS LINGVISTIKASI QO‘LLANILISHINI O‘RGANISH

© D.R. Pulatova[1]✉
[1]Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada korpus lingvistikasi ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilish uchun qanday qo‘llanilishi mumkinligi muhokama qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida korpus lingvistikasining foydaliligi, o‘quvchilarni tilni haqiqiy kontekstlarda o‘rganishga jalb etish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda korpus lingvistikasi, uning til o‘rganishda qo‘llanilishi va uning ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishdagi o‘rni tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, korpus lingvistikasi vositalarini qo‘llash o‘quvchilarning so‘z boyligi va grammatikani o‘zlashtirishda sezilarli ijobiy natijalar berdi. O‘quvchilar tilni haqiqiy kontekstlarda o‘rganish orqali yanada mustahkam bilimlarga ega bo‘ldilar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

XULOSA: tadqiqot natijalari ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda korpus lingvistikasi vositalarini qo‘llash, o‘quv jarayonini haqiqiy til namunalari asosida yanada samarali qilishga yordam berishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: Korpus lingvistikasi, ingliz tilini o‘qitish, so‘z boyligi, grammatika, akademik ingliz tili, o‘quv jarayoni, innovatsion o‘qitish.

Iqtibos uchun: Pulatova D.R. Chet tilini (ingliz tilini) o‘qitishda korpus lingvistikasi qo‘llanilishini o‘rganish. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 256-260.

Corpus linguistics has revolutionized language education by providing access to authentic language data through large, systematically organized text collections. These corpora, analyzed using software tools, allow educators and learners to identify patterns of language use, collocations, and contextual meanings. This approach contrasts traditional EFL teaching, which often relies on isolated vocabulary lists and prescriptive grammar rules.

The ability to access and analyze authentic language data is particularly relevant for students in the natural sciences faculty. Academic English in these fields involves technical vocabulary and precise grammatical structures. Therefore, integrating corpus linguistics into their curriculum can bridge the gap between general EFL instruction and subject-specific language needs.

Problem Statement. Despite the growing popularity of corpus linguistics in language education, its application in EFL instruction for non-linguistic university students remains underexplored. Traditional methods fail to equip these learners with the tools necessary to navigate specialized academic texts effectively.

Purpose of the Study. This study investigates the impact of corpus linguistics on EFL instruction among second-year natural science students. It evaluates the role of corpus tools in enhancing vocabulary acquisition, grammatical accuracy, and learners' engagement with authentic texts.

Research Questions

How does the use of corpus linguistics affect vocabulary acquisition among EFL learners?

What is the impact of corpus-based tools on grammatical understanding?

How do students perceive the use of corpus linguistics in their learning process?

Significance of the Study. By addressing a gap in research, this study contributes to the growing body of literature on corpus linguistics in EFL instruction. It provides practical insights for educators seeking to integrate data-driven learning approaches into their teaching practices.

Corpus linguistics is the study of language based on real-world text collections, or corpora, analyzed through specialized software. As McEnery and Hardie (2012) highlight, the approach provides a descriptive, data-driven perspective on language, enabling learners to uncover authentic patterns and usage.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Applications in EFL Instruction. Corpus-based learning, often referred to as Data-Driven Learning (DDL), encourages learners to explore language independently by interacting with corpus tools (Johns, 1991). Through DDL, learners can observe authentic usage patterns, enhancing their understanding of vocabulary, collocations, and grammar. Boulton and Cobb (2017) emphasize the method's potential for promoting learner autonomy and long-term retention.

Vocabulary Acquisition. Research indicates that exposure to authentic language data can significantly improve vocabulary acquisition. Nation (2001) suggests that encountering words in context facilitates deeper understanding and retention. Corpus tools, such as concordancers, allow learners to observe how words function in various contexts, addressing both form and meaning (Flowerdew, 2004).

Grammatical Understanding.Biber et al. (1998) argue that corpora provide unparalleled insights into grammatical structures, offering learners examples of syntax in authentic contexts. Learners can identify patterns, such as verb tense usage and passive constructions, which are often underrepresented in traditional EFL materials (Hunston, 2002).

While the benefits of corpus-based instruction are well-documented, student perceptions vary. Positive experiences often correlate with adequate training and ease of use, whereas initial technical challenges can deter learners (Cheng et al., 2014). Integrating corpus tools into the curriculum requires careful planning to ensure accessibility and engagement.

Existing studies have primarily focused on linguistic students or general EFL learners, with limited research on non-linguistic disciplines such as natural sciences. This study addresses this gap by investigating corpus linguistics' impact on specialized EFL learners.

Impact of Corpus Linguistics on Vocabulary Acquisition.

The paper found that students in the experimental group demonstrated a significant increase in vocabulary size and contextual understanding. Observing word usage in authentic contexts enabled learners to grasp collocations, idiomatic expressions, and technical terms relevant to their field. These findings align with Nation's (2001) assertion that contextual exposure enhances vocabulary retention.

Experimental group students outperformed their peers in grammatical accuracy, particularly in areas such as verb tense consistency and complex sentence structures. The corpus-based approach allowed learners to identify and emulate authentic grammatical patterns, supporting previous research by Biber et al. (1998).

Survey results revealed overwhelmingly positive feedback from the experimental group. Students reported increased motivation and autonomy, with 85% expressing a preference for corpus-based learning. However, initial challenges with software navigation highlight the need for comprehensive training at the outset.

Integrating corpus linguistics into EFL instruction offers a practical solution for addressing the needs of specialized learners. By providing authentic language exposure,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

corpus tools can bridge the gap between classroom instruction and real-world application. Educators should consider incorporating corpus-based activities alongside traditional methods to create a balanced and engaging curriculum.

While the study provides valuable insights, its scope is limited by its sample size and duration. Future research should explore long-term impacts and extend corpus-based instruction to other disciplines. Investigating the integration of corpora with emerging technologies, such as AI-driven language tools, could further enhance EFL pedagogy.

The paper confirms that corpus linguistics is a powerful tool for EFL instruction, particularly for non-linguistic university students. By fostering vocabulary acquisition, grammatical understanding, and learner autonomy, corpus-based approaches address key challenges in traditional language education. As digital resources become increasingly accessible, corpus linguistics has the potential to redefine EFL instruction for diverse academic contexts.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus linguistics: Investigating language structure and use. Cambridge University Press.
2. Boulton, A., & Cobb, T. (2017). Corpus use in language learning: A meta-analysis. Language Learning, 67(2), 348–393.
3. Cheng, W., Greaves, C., Sinclair, J., & Warren, M. (2014). Using corpora in the classroom: An analysis of students' experiences. English for Specific Purposes, 33(1), 1-15.
4. Flowerdew, L. (2004). The argument for using English specialized corpora to teach academic writing. Applied Linguistics, 25(2), 141-173.
5. Gilquin, G., & Granger, S. (2011). Learner corpora and English teaching: A case for data-driven instruction. English Today, 27(3), 45-52.
6. Hunston, S. (2002). Corpora in applied linguistics. Cambridge University Press.
7. Johns, T. (1991). Data-driven learning: The perpetual challenge. English Language Research Journal, 4, 1-16.
8. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). Corpus linguistics: Method, theory, and practice. Cambridge University Press.
9. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Pulatova Durdona Ravshanovna**, postdoctorate researcher [**Пулатова Дурдона Равшановна**, научный сотрудник в постдокторантура], [**Durdona R. Pulatova,** doktorlikdan keyingi tadqiqotchi]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy, [адрес: г. Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27.], [address: 27 Bunyodkor street, Chilanzor district, Tashkent city].

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BOLAJAK O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZISIYANI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

© Z.Sh. Qarshiyeva[1]✉

[1]Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Kattaqo'rg'on, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida refleksiv yondashuvning ahamiyati va uni ta’lim jarayonida tatbiq etish yo‘llari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv pozitsiyani rivojlantirishni ta’minlash va interfaol o‘qitish texnologiyalari yordamida ularning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, modulli dastur texnologiyalari, interfaol o‘quv usullari va aksiologik yondashuvlar asosida o‘qitish tajribasi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, interfaol o‘qitish usullari, tanqidiy fikrlash va refleksiya elementlarini o‘z ichiga olgan texnologiyalar o‘quvchilarning faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

XULOSA: tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini tasdiqladi. Refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: refleksiv, pozitsiya, model, modellashtirish, yondashuv, loyiha, uyg‘unlashtirish, aksiologik, natija, komponent, tamoyil.

Iqtibos uchun: Qarshiyeva Z.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.261–269.

РАЗВИТИЕ РЕФЛЕКСИВНОЙ ПОЗИЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© З.Ш. Каршиева[1]✉

[1]Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета, Каттакурган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается проблема развития рефлексивной позиции у будущих педагогов в процессе их профессиональной подготовки как актуальная педагогическая проблема. Особое внимание уделено значению рефлексивного подхода в системе высшего образования и его внедрению в образовательный процесс.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – обеспечить развитие рефлексивной позиции будущих педагогов в процессе их профессиональной подготовки и сформировать у них навыки критического мышления, самостоятельного принятия решений с использованием интерактивных технологий обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведён анализ научно-педагогической литературы, посвящённой развитию рефлексивной позиции. Были изучены технологии модульных программ, интерактивные методы обучения и аксиологические подходы к образовательному процессу.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что подходы, направленные на развитие рефлексивной позиции, способствуют повышению уровня профессиональной подготовки педагогов. Внедрение интерактивных методов обучения и элементов рефлексии значительно повышает эффективность образовательного процесса и уровень активности студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили актуальность развития рефлексивной позиции у будущих педагогов в системе профессиональной подготовки. Подходы, направленные на развитие рефлексивной позиции, помогают укрепить как теоретические знания студентов, так и их практические навыки.

Ключевые слова: рефлексивный, позиция, модель, моделирование, подход, проектирование, гармонизация, аксиологический, результат, компонент, принцип.

Для цитирования: Каршиева З.Ш. Развитие рефлексивной позиции у будущих педагогов как актуальная педагогическая проблема // Inter education & global study.2024. №10(1). С.261–269.

THE DEVELOPMENT OF A REFLEXIVE ATTITUDE AMONG CHILD TEACHERS AS AN URGENT PEDAGOGICAL PROBLEM

© Zulfiya Sh. Qarshiyeva[1]✉
[1] Kattakurgan Branch of Samarkand State University, Kattakurgan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the issue of developing a reflexive position in future teachers during their professional training as a relevant pedagogical problem. Particular attention is paid to the significance of the reflexive approach in higher education and its integration into the educational process.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

AIM: the main objective of the study is to ensure the development of a reflexive position in future teachers during their professional training and to form their critical thinking skills and independent decision-making through the use of interactive teaching technologies.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific and pedagogical literature related to the development of a reflexive position. Modular program technologies, interactive teaching methods, and axiological approaches to the educational process were studied.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that approaches aimed at developing a reflexive position significantly enhance the level of professional training for teachers. Implementing interactive teaching methods and elements of reflection greatly improves the effectiveness of the educational process and student engagement.

CONCLUSION: the results of the study confirmed the relevance of developing a reflexive position in future teachers as part of their professional training. Approaches focused on developing a reflexive position help to strengthen students' theoretical knowledge and practical skills.

Key words: reflexive, position, model, modeling, approach, design, harmonization, axiological, result, component, principle.

For citation: Zulfiya Sh. Qarshiyeva. (2024) 'The development of a reflexive attitude among child teachers as an urgent pedagogical problem', // Inter education & global study. (10(1)). pp. 261–269.(In Uzbek).

Oliy ta'lim muassasasi tarbiyaviy jarayoni – bu OTMning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatida umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ta'lim tashkilotining maxsus tarbiyaviy imkoniyatini maqsadga yo'naltirilgan holda ro'yobga chiqarilishidir. Mazkur jarayonning sub'ektlari ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar bo'lib, mazmuni esa ularning kasbiy yo'naltirilgan faoliyatning umumiy turlaridagi (o'quv, auditoriyadan tashqari, nazariy, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va boshqalar) hamkorligidir.

Ta'lim modernizatsiyasi zamonaviy nazariya va amaliyot asosida tarbiyaning yangi modellarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy ta'lim qadriyat jihatidan yaxlit voqelik bo'lib, bu inson shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatish natijalarida aks etadi. U madaniyatlarning uzatuvchisi bo'lib qolmay, uni shakllantirish mexanizmiga aylana boradi.

Qadriyatlar bu umumiy maqsadlar va ularga erishish vositalari bo'lib, bilimlar integratsiyasini ta'minlovchi fundamental me'yorlar vazifasini bajaradi, bu esa, individga hayotda muhim ahamiyat kasb etadigan holatlarda o'zini tutishning maqbul shaklini tanlashga yordam beradi. Qadriyatlar – ta'lim oluvchi ichki salohiyatining individual rivojlanishi hamda yangi sifatlar va qobiliyatlarning shakllanishi ko'rsatkichidir (inson faoliyatining ma'lum bir sohasida, xususan – kasbiy faoliyatda).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta'minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta'minlash” kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta’lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi:

- davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

- yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

“Maktab – ma'naviyat va ma'rifat o‘chog‘i” kontseptsiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish va h.k.

Shiddatli modernizatsiya sharoitida zamonaviy kasbiy-pedagogik ta’lim nafaqat o‘z kasbi va turdosh sohalarni yaxshi egallagan, balki doimiy ravishda kasbiy o‘sishga va mobillikka tayyor bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan.

Jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda, kasbiy ta’lim bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashda ustuvor vazifani belgilab olishi, o‘zini va o‘z kasbiy faoliyatini yaxshilaydigan, uzluksiz ravishda mustaqil bilim olishga qodir bo‘lgan shaxsni rivojlantirish uchun sharoit yaratishni yetakchi vazifa sifatida ilgari surishi kerak, chunki faqat yuqori idroklilik, operativ tarzda bilimlarini yangilashga, malaka va ko‘nikmalarini kengaytirishga tayyorligi bilan ajralib turadigan mutaxassislar o‘z kasbiy funktsiyalarini bemalol amalga oshirishlari mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratgan holda, voqelik bilan o‘zaro munosabatlarning muayyan vaziyatlarida universal faoliyat usullaridan foydalanishga ongli munosabatni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib, u kasbiy tayyorgarlik jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ushbu jarayonni tashkil etish usullari, shakllari va vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Insonning o‘z faoliyati va “hayot sohibi” sifatida o‘ziga nisbatan ongli munosabati refleksiya orqali shakllantiriladi, chunki aynan refleksiya anglab yetiladigan voqelikka nisbatan o‘z munosabatini identifikatsiyalashga yordam beradi.

Ilg‘or ta’lim masalasi birinchi galdagi vazifa deb hisoblansa, pedagogik tizimni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi yaxlit shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida refleksiyaga bo‘lgan layoqatni shakllantirish g‘oyasini olg‘a suradi. Olimlar B.Z.Vulfov va V.D.Ivanov ichki nazoratning roliga katta e'tibor qaratishadi: “o‘zini tahlil qilish, kasbni va u bilan yashash usullarini ongli ravishda tanlash”, bu yerda refleksiya “o‘z o‘rniga munosib bo‘lishning faol omili”dir, chunki u raqobatbardoshlikning erkinlik, moslashuvchanlik, belgilangan maqsadlarga erishishda qat'iylik kabi muhim sifatlarini rag‘batlantiradi .

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarkib toptirish shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishsiz amalga oshmaydi. Aniq pozitsiyaning yo‘qligi shaxsni ziddiyatlar va qiyinchiliklar bilan ro‘baru etish orqali o‘zining ichki imkoniyatlarini namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi .

Shaxsning ongli mustaqil faoliyatga tayyorligining asosi bo‘lgan shaxsning pozitsiyasini shakllantirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan yoritilgan, xususan:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

hayotiy pozitsiya (K.A.Abulxanova, G.M.Kodjaspirova, N.E.Shurkova, Sh.Z.Taylanova), sub'ektiv pozitsiya (G.M.Aksenova, A.G.Gogoberidze, S.A.Nelyubov, M.Maxmudova), pedagogik pozitsiya (I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, V.A.Slastenin, N.Egamberdiyeva), refleksiv pozitsiya (T.A.Bondarenko, L.V.Yakovleva, A.V.Xristeva, Ye.L.Erina, D.Xakimova va boshqalar).

Yuqoridagi ishlar tahlili refleksiv pozitsiya shaxsning boshqa barcha nuqtai nazarlarini shakllantirish uchun asosdir, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu munosabat bilan, bo‘lajak o‘qituvchining aynan ushbu shaxsiy-mustaqil ta’limini shakllantirish jarayonini tahlil etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ushbu pedagogik hodisaning yagona aniq ta'rifi mavjud emas, degan xulosa qilish mumkin. Refleksiv pozitsiyaning mavjud ta'riflari ilmiy tadqiqotlarning mohiyatidan kelib chiqqan holda tavsiflangan.

G.P. Shedrovitskiy birinchilardan bo‘lib “refleksiv pozitsiya” tushunchasini individ amalga oshirilayotgan faoliyatga nisbatan uni tahlil qilish va kelgusi faoliyat rejasini tuzib chiqish maqsadida “tashqi” pozitsiyani egallash zarurligini his qiladigan vaziyat sifatida talqin qilgan, bunda u refleksiv jarayonlarga asoslangan. G.P.Shedrovitskiy insonning tashqi olamga nisbatan nuqtai nazariyani refleksiv pozitsiya deb hisoblagan .

V.V. Davidov refleksiv pozitsiyani sub'ektning fikrlash darajasi bilan bog‘lab izohlaydi va u individual ongni mustaqil bilish faoliyati vositalariga yo‘naltirish; boshqa insonning ichki dunyosi va uning harakatlarining sabablari haqida tasavvurni shakllantirish; vaziyatni tushunish qobiliyatini o‘z ichiga olishini ta’kidlab o‘tgan .

Ilmiy ishlar tahlillari natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, aksariyat tadqiqotchilar shaxsning qobiliyati, tayyorgarligi, malakasi, fikrlash darajasi, samarali pedagogik jarayonni tashkil etish usuli va refleksiv jarayonlarni faollashtiradigan vaziyat sifatida refleksiv pozitsiyani shakllantirish zarurligini ta'kidlab o‘tishadi. Refleksiv pozitsiya tushunchasining izohlari, albatta ko‘rib chiqilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Ammo bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli kasbiy tayyorgarlik sub’ekti sifatida o‘z shaxsiga nisbatan refleksiv pozitsiya tushunchasiga aniqlik kiritish kerak. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasining aniq ta'rifini kelgusida shakllantirish maqsadida refleksiv pozitsiya tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab, “refleksiv pozitsiya” tushunchasini aniqlashtirish uchun uning tarkibiy asosi hisoblangan “refleksiv” va “pozitsiya” atamalariga aniqlik kiritish lozim.

Refleksiya muammosi turli soha vakillari tomonidan ilgari surilgan va uning rivojlanishida sifat o‘zgarishlari yuz bergan. “Refleksiya” tushunchasi fanning ko‘plab sohalarida ishlatiladi, bu esa ushbu atama bilan bog‘liq hodisa mazmunining ko‘p ma'noli ekanligi bilan izohlanadi.

Refleksiya (lot.reflexio – ortga qaytish, aks etish).

1. Kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

2) fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish;

3) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;

4) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi .

Ushbu atama birinchi marta falsafada amaliyot, predmetli moddiy dunyo, madaniyatni yoki kognitiv faoliyatni aks ettirish va o‘rganish; insonning ma'naviy dunyosining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan mustaqil harakatlari va ularning ko‘rinishlari, o‘zini o‘zi anglash faoliyatini tushunib yetishga qaratilgan ijtimoiy rivojlangan insonning nazariy faoliyatining shakli sifatida foydalana boshlangan . Refleksiya falsafiy nuqtai nazardan tushunib yetish, ongning o‘zini, o‘z qobiliyatlarini, holatini va namoyon bo‘lishini ko‘z oldiga keltirish qobiliyatidir , “nafaqat shunchaki bilib olish, balki o‘zligini bilish qobiliyati; shunchaki bilish emas, balki o‘zing kimligingni bilishing zarurligi” (P.Teyyar de Sharden) tarzida ifoda etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning tadqiqot mavzusi sifatida refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish pedagogik va psixologik adabiyotlarda “refleksiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Psixologik tadqiqotlarda ko‘pincha refleksiya insonning tug‘ma qobiliyati deb hisoblanadi, u bilimlar, insonning o‘z ichki dunyosi va shaxslararo munosabatlardagi o‘rni, shuningdek, bilish va o‘zgartirish kiritishga asoslangan faoliyat shakllari va usullariga murojaat qilishda namoyon bo‘ladi ; bundan tashqari, individning o‘z ichki dunyosiga, fikrlash tajribasiga, kechinmalar va faoliyatiga, boshqacha qilib aytganda, u ko‘rgan, eshitgan, o‘qigan, o‘ylagan, his qilgan barcha narsalarga murojaat qilishi, qanday qilib, nima sababdan, nima uchun u bunday ko‘radi, harakat qiladi, o‘ylaydi, his qiladi kabi savollarga javob izlashini talab etadi .

“Refleksiv pozitsiya”ning mohiyatini aniqlash uchun yana bir muhim bo‘lgan “pozitsiya” atamasi ham tahlil qilinishi talab etiladi.

Zamonaviy fanda “pozitsiya” tushunchasini talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. “Pozitsiya” falsafa, psixologiya, pedagogikada tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Psixolog-olimlar pozitsiyani voqelikning ayrim jihatlariga nisbatan inson munosabatlarining barqaror tizimi, faoliyat uchun asos bo‘lgan, o‘ziga xos xulq-atvor va xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladigan kichik guruhlarning rolli-maqomli tuzilmasidagi individning nuqtai nazarining ajralmas, eng umumlashtirilgan tavsifi sifatida e’tirof etishadi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlash mumkinki, pozitsiya – bu rivojlanayotgan qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u mukammal holatda qarama-qarshi bo‘lmagan va nisbiy barqarorligi bilan ajralib turadi.

A.A. Akramov pozitsiyani shaxs munosabatlarining ko‘p qirrali tizimi (o‘z o‘ziga, jamiyatga, o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan jamoalarga, mehnatga), motivlar va ustanovkalar tizimi sifatida keng qamrovli va mantiqiy izohga ega, shaxs o‘z faoliyati jarayonida unga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

va ushbu faoliyat yo‘naltirilgan maqsadlar va qadriyatlar tizimiga amal qilishi ekanligi bilan bog‘lab talqin qiladi.

V.N. Myasishev munosabatlarni ob’ektiv voqelikning turli jixatlari bilan individual, tanlangan, ongli shaxsiy aloqalarning yaxlit tizimi sifatida belgilaydi, ushbu voqelik shaxsiy tajribani ifodalaydi va ichki harakatlar va kechinmalarni aniqlaydi.Shaxsga dinamik, ijtimoiy ta'sir ostidagi, o‘zgaruvchan shakllanuvchi individ sifatida qaraladi. Insonning voqelikka bo‘lgan haqiqiy munosabati faqat ma'lum bir vaqtgacha bo‘lgan potentsial xususiyatlardir. Ularning to‘liq namoyon bo‘lishi inson o‘zi uchun sub’ektiv ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarda harakat qilishni boshlaganda yuz beradi, shu bilan faoliyat va alohida harakatlarning individual xususiyatini belgilaydigan faol pozitsiyani namoyish etadi.

“Pozitsiya” tushunchasi bo‘yicha pedagogik va psixologik yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish “pozitsiya” va “faoliyat” tushunchalari o‘rtasidagi yaqin aloqa bor deb xulosa qilish huquqini beradi. Shunday qilib, “pozitsiya – bu insonning qadriyatlari va uning tashqi namoyon bo‘lish sharoitlarini bog‘laydigan usul” bo‘lib, u insonning rivojlanishi hamda uning faoliyati taraqqiyotini belgilab beradi .

Agar inson muayyan qadriyatlarga ega bo‘lsa, u faoliyatdagi voqelikka o‘z munosabatini ko‘rsatishga doimo tayyor bo‘ladi. Ushbu tayyorlik muayyan ob'ektlar va faoliyat sharoitlari inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog‘liq bo‘ladi: agar kishi o‘z xohish-istaklarini ifoda etishga maqsadlar va faoliyat vositalarini tanlashga tayyor bo‘lsa, u amalda o‘zi uchun muhim va qadrli bo‘lgan narsani himoya qilishga tayyor bo‘ladi. Binobarin, pozitsiya faqat faoliyatda, haqiqiy harakatda namoyon bo‘ladi. Uni amalga oshirish uchun usullar, vositalar, sharoitlar zarurdir.

Insoniy qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish va uni isbotini topish, o‘z faoliyatini aniqlash va rivojlantirish pozitsiya orqali sodir bo‘ladi, u orqali inson o‘zini faoliyat sub'ekti sifatida namoyon qiladi.

Pozitsiya faoliyatning zaruriy sharti bo‘lib, u orqali amalga oshiriladi, “inson amalga oshirishga ikkilangan hatti-harakatlarni” aniqlab, faoliyatda aks ettiradi. Tadqiqotchilar asosan pozitsiyani insonning aynan faoliyatda namoyon bo‘ladigan real voqelikning turli jihatlariga munosabati sifatida izohlaydilar.

Shunday qilib, pozitsiya munosabat sifatida insonning u yoki bu faoliyat yo‘nalishini tashkil qiladi va ta'minlaydi. Shuning uchun faoliyatsiz pozitsiyani shakllantirish mumkin emas. Tanlov bu pozitsiya birligidir. U qadriyatli yo‘nalganlikka asoslangan bo‘lib, sub'ektning mustaqilligi bilan belgilanadi. Harakat esa, faoliyat birligidir. Aynan tanlov va harakat birligida pozitsiya namoyon bo‘ladi, u vaziyatni tushunish, qaror qabul qilish va zarur harakatlarni amalga oshirishni o‘zida birlashtiradi.

“Pozitsiya” tushunchasini tahlil qilib, biz shaxs pozitsiyasini faoliyatda namoyon bo‘ladigan voqelikning turli jihatlariga munosabatning sub'ektning barqaror ongli tizimi ekanligi haqidagi xulosaga keldik.

Shuni ta'kidlash kerakki, sub'ekt tomonidan refleksiv qobiliyatlarining maqsadli va mustaqil ravishda namoyon bo‘lishi, shuningdek, refleksiv qobiliyatlardan foydalanish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

(voqelikni turli xil holatlarida yaxlit samarali faoliyatni ta'minlash uchun) sub'ektning refleksiyaga ichki anglangan tarzdagi tayyorgarligi bo‘lganda namoyon bo‘ladi, refleksiv pozitsiya shaxsning o‘z faoliyatiga va o‘z-o‘ziga barqaror, yaxlit, ongli munosabatlar tizimini aks ettiradi, u shaxsiy tajribani shakllantirish va boyitishga yordam beradi.

Refleksiv pozitsiya har qanday faoliyat turida o‘zini namoyon qiladi va shunga mos ravishda, u shaxsning boshqa pozitsiyalarining tarkibiy qismi bo‘lib, fundamental asosini esa, shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirib borishi tashkil etadi.

“Refleksiya”, “pozitsiya” tushunchalarini tahlil etish asosida bo‘lajak o‘qituvchining “refleksiv pozitsiya” tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritildi: refleksiv pozitsiya bo‘lajak o‘qituvchi o‘z o‘zi, pedagoglik kasbi, pedagogik munosabatlar sub'ektlari, “Pedagogika” faniga shaxsiy nuqtai nazarini ifoda etishning ongli tizimi bo‘lib, uning refleksiv tajribasiga asoslanadi hamda boyib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror
3. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020 yil
4. Saygushev,N.Ya. Refleksivnoye upravleniye professionalnim stanovleniyem budushego uchitelya : monografiya. - M. : INFRA-M. 2017. - 279 s.S.179.
5. Qarshiyeva Z.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish. Uslubiy qo‘llanma.Samarqand davlat chet tillar instituti - 2021-75 bet.
6. Akramov A.A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori. ...diss. – Toshkent, 2016. – 282 b.
7. Shedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost, refleksiya // Issledovaniye rechemislitelnoy deyatelnosti. – Alma-Ata, 2004. – 125 s.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna**, dotsent [**Каршиева Зулфия Шукуровна**, доцент], [**Zulfiya Sh. Qarshiyeva,** associate professor]; manzil: Kattaqo'rg'on shahar Amir Temur ko‘chasi 27a uy, [адрес: Каттакурган город улица Амира Темура 27а дом], [address: Kattakurgan city 27a Amir Temur Street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

NOTA SAVODXONLIGINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

© D.N. Raxmonova[1]✉
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinflarda nota savodxonligini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning dolzarb muammolari yoritilib, musiqa ta’limi jarayonidagi yangi yondashuvlar va ularning o‘quvchilarning musiqiy bilimlarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang‘ich ta’limda musiqa savodxonligini o‘qitishning samaradorligini oshirish va musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda nota savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili, shuningdek, musiqa ta’limining amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik metodlar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, musiqa darslarida nota savodxonligini ongli ravishda o‘rgatish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida musiqiy tafakkur va ijodkorlik ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda musiqa savodxonligini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishga yordam berishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: nota savodxonligi, musiqa ta’limi, boshlang‘ich sinflar, musiqiy-nazariy bilimlar, ijodkorlik, o‘qitish samaradorligi.

Iqtibos uchun: Raxmonova D.N. Nota savodxonligini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.270–274.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ НОТАГРАМОТНОСТИ

© Д.Н. Рахмонова[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются актуальные проблемы музыкальной грамотности в начальных классах и пути их решения. Анализируются новые

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

подходы к обучению нотной грамоте, а также их роль в формировании музыкально-теоретических знаний у школьников.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повышение эффективности обучения нотной грамоте в начальных классах и выявление возможностей применения инновационных педагогических технологий в музыкальном образовании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ отечественной и зарубежной литературы, посвященной музыкальной грамотности, а также практических методов, используемых в образовательном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что обучение нотной грамоте с использованием осознанного подхода способствует значительному развитию музыкального мышления, творческих навыков и культурного восприятия у учащихся начальных классов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило, что использование инновационных технологий в процессе обучения нотной грамоте позволяет не только повысить качество музыкального образования, но и сформировать у школьников устойчивую музыкальную культуру.

Ключевые слова: нотная грамотность, музыкальное образование, начальные классы, музыкально-теоретические знания, творчество, эффективность обучения.

Для цитирования: Рахмонова Д.Н. Механизмы совершенствования методики обучения нотаграмотности // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 270–274.

MECHANISMS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING MUSICAL LITERACY

© Dilshoda N. Rakhmonova[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the challenges of teaching musical literacy in elementary school and presents innovative approaches to addressing these issues. It also highlights the role of music education in developing students' musical and theoretical knowledge.

AIM: the main aim of the study is to enhance the effectiveness of teaching musical literacy in elementary schools and to explore the potential of innovative pedagogical technologies in fostering musical education.

MATERIALS AND METHODS: the study involves analyzing local and international literature on musical literacy, as well as practical methods implemented in educational processes.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that a conscious approach to teaching musical literacy significantly enhances the musical thinking, creativity, and cultural perception of elementary school students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

CONCLUSION: the results confirm that employing innovative technologies in the process of teaching musical literacy not only improves the quality of musical education but also contributes to cultivating a sustainable musical culture among students.

Keywords: musical literacy, music education, elementary school, musical-theoretical knowledge, creativity, teaching effectiveness.

For citation: Dilshoda N. Rakhmonova. (2024). 'Mechanisms for improving the methodology of teaching musical literacy', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 270–274. (In Uzbek).

XXI asrning dastlabki o'n yilligi keskin nazariy izlanishlar davri sifati mamlakatimiz tarixiga kirdi. Bu davrda o'quv jarayonining tamoyillari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini ishlab chiqish davri yuz berdi. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi sezilarli darajada isloh qilindi. Natijada, umumta'lim maktabining yangi o'quvchilari, tamoyillari, meyoriy-huquqiy ta'minoti to'la-to'kis va uzil-kesil ishlab chiqildi. O'n bir yillik bepul ta'lim maktabi, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf) bosqichdan iborat etib belgilandi. Umumta'lim zarur va majburiy deb tan olindi. Mazkur jarayonda musiqa ta'limi ham chetda qolgan emas. Aksincha "ommaviy musiqiy ta'lim" davlat siyosatiga aylandi va qo'shiq darsi rasmiy ravishda boshqa majburiy maktab fanlari bilan bir qatorga qo'ladi.

Bu vaqtda umumta'limda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etishda musiqa ta'limidan foydalanish asosiy vosita sifatida qaralishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda musiqa pedagogikasi sohasida katta nazariy va uslubiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Birinchi marta musiqa ta'limining ko'plab masalalari o'rtaga qo'yildi va ma'lum darajada hal qilindi. Umumta'lim maktabi uchun musiqa fani dasturlari takomillashtirildi, musiqa o'qituvchilari uchun musiqa fani bo'yicha uslubiy to'plamlar nashr etildi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini tashkil etishga yangi yondashuvlar, shuningdek, kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash o'quv kurslari tashkil etildi.

Umumta'lim maktabi musiqa ta'limini sahnalashtirishning asosiy masalalari qayta ko'rib chiqildi. Maqsad shaxsning hissiy sohasini rivojlantirish. Tajribali musiqa o'qituvchisi musiqa ta'limi jarayonida musiqa haqidagi bilimlar birinchi o'ringa qo'yish orqali uni idrok etish, paydo bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirish, ularni tanish va zarur ehtiyojga aylantirish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ushbu pozitsiyani mustahkamlash borasida musiqa ta'limi jarayonini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Musiqa tarbiyasi shunday ta'limiy jarayonki unda badiiy tarbiyani o'zining asosiy maqsadi qilib qo'yishi kerakligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar aynan musiqa ta'limining asosiy yo'nalishi, maqsadlari va vazifalarida, musiqa darsida ham aks etdi. O'zining avvalgi shaklini saqlab qolgan holda, u o'quvchilar faoliyatining yangi turlari – musiqa tinglash, ritm, improvizatsiya bilan boyitilib, boshqa tarkibga ega bo'ldi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim musiqa darsi o'quv mashg'ulotlarida musiqa savodxonligini ta'minlash o'quv jarayoni samaradorligini kafolatlash bilan bir

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

qatorda musiqa ta'limining yuksalishi davrini ta'minlashga xizmat qiladi. Musiqa fani o'qituvchilari musiqa darsining asosiy muammolarini hal qilishga murojaat qilish davrida uni yuzaga kelish sharti va oqibatlarini o'rganishga harakat qiladilar. Ushbu jarayonda maktabda musiqa ta'limining mazmunini aniqlash asosida vazifa bo'lib, avvalambor ilmiy tadqiqotchilardan musiqa terminalogiyalarini aniqlashtirishni talab qiladi. Bunda "boshlang'ich ta'lim", "boshlang'ich ta'limda musiqa", "boshlang'ich ta'limda musiqa savodi", "maktabda musiqa", "musiqa", "nota savodxonligi", "nota o'qish", "nota yrodamida kuylash" kabi bir qator tushunchalar yuzaga keldiki, ularni to'g'ri tushunish, tahlil qilish va shu yordamida musiqiy-nazariy tushunchalarning tubdan farqlanishga e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi. Bu musiqa pedagogikasida keng tarqalgan quyidagi ta'riflarni izohlashga olib keldi. Shunday qilib, musiqa savodxonlik tushunchasi musiqa bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiya yig'indisi sifatida aniqlandi, shu jumladan, ko'nikma, malakalar va kompetensiya yig'indisi sifatida aniqlandi, adabiyotlar tahlil qilish, musiqiy ekspessivlik vositalarini o'rganish, musiqiy nutqning tuzulishini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy asarlarning turlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy asarlarning turli shakllari bilan elementar tanishish, shuningdek musiqa cholg'ulari va ulardan foydalanish masalasi shular jumlasidandir. Musiqa notasi tovushlarning davomiyligini va tegishli pauzalarni o'rganishni, tovush balandligini o'rganishni va uni notada yozishni, notalarda uchraydigan odatiy belgilarni (kalitlar, metrik ko'rsatkichlar, o'zgartirish belgilari va boshqalar) o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni didaktika nuqtai nazaridan ajratib, musiqa o'qituvchilari o'quv jarayonida musiqa va musiqiy notalarni bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Musiqa savodxonligining umumiy vazifasi – musiqa nutqni tushunish qobilyati bo'lib, u bir qator nazariy ma'lumotlarni bilish va musiqiy notani tushunish qobiliyatini hal qilishga yordam beradigan asosiy ta'lim vositasi xisoblanadi.

Boshlang'ich sinf musiqa fanini o'zlashtirish doirasida notani ajratish avvalgi o'qitish metodikasini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Musiqa pedagogikasi fani tajribasida amaliy ehtiyojga ega bo'lgan nota savodxonligi dasturidan ma'lumotlarni olib tashlash, o'qitishning yangi usullarini topish va hatto maktab o'quvchilarini zarur o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Keyinchalik umumta'lim musiqa fani dasturlarida maktab musiqa ta'limida nota yozuvining roli va o'rni nihoyatda muhim ekanligi aniqlandi. Dasturda o'qituvchilarni musiqa darslarida nota yozuvlaridan foydalanish, bu ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki faqat "eshitish" qobiliyatlari bilan ishlash va notalar o'qishni pog'onama-pog'ona o'zlashtirish vositasi, bu esa o'z navbatida maktabda musiqiy ta'limning yakuniy vazifalariga yaxshiroq erishish vositasidir.

Bugungi globallashuv jarayonida umumta'lim maktablari bsohlang'ich sinf o'quvchilariga nota savodxonlogini o'qitish metodikasinind ilg'or qoidalari o'tgan o'n yillikda yanada takomillashtirilgan bo'lib, bir qator kompetensiyaviy yondashuv tufayli musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda aynan musiqiy-nazariy bilimlar muhimligini ko'rsatadi. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyev o'zining tadqiqot ishlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyat turlarini tahlil etib, bo'lajak musiqa

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘qituvchilari umumta’lim maktablarida kasbiy faoliyatni olib boorish uchun “cholg‘u ijrochiligini mukammal egallashlari”, “xonandalik maxoratini yuksaltirishi” va nohoyat “musiqiy-nazariy bilimlarni egallashlari” shartligini ta’kidlab o‘tgan. Nazarimizda, bu kabi kasbiy faoliyat turlari umumta’lim tizimi musiqa pedagogikasining konsepsiyasini belgilab, musiqa metodologiyasi rivojlanishining bardavomi bo‘lib, bu bir qator dasturiy hujjatlarda aks etgan.

Musiqa asarini nota yozuvi asosida o‘zlashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nota yo‘li – “musiqiy ongni murakkab qayta qurish yo‘li” deb tushunish va shu bilan birga uning davomiyligi sifatida shaxs ongida subyektiv sezgilarning musiqiy hodisalar haqidagi tarixiy go‘yalar bilan birlashishi, shuningdek musiqiy tafakkurni rivojlantirish va vokal – eshitish apparatlarini tayyorlashi musiqani sezilarli darajada keygaytiradi. Bu butun jarayon, o‘z navbatida, musiqiy ongni “nota yozuvining asosiy tamoyillarini tushunishga” olib keladi. Shunday qilib, musiqa asari nota yozuvini bilish – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga musiqiy savodsiz odamlar uchun mavjud bo‘lmagan musiqiy hodisalarni sifat jihatidan yangi bilish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022 – yil 2-fevralda №PQ-112 sonli “Madaniyat va san’at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori.
2. D.N.Raxmonova “Boshlang’ich sinf o’quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o’quv qo’llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”
3. D.N.Raxmonova “Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o’quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish”. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”
4. G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqa metodikasi” Toshkent 2021-yil
5. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limining “Milliy o‘quv dasturi”. “Musiqa” fanining milliy o‘quv dasturi.
6. R.Ishmuhamedov “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” Toshkent-2021
7. Aliyev Y.B. Didaktika – praktike (didaktika xudojestvennogo obrazovaniya). M. 1996.
8. Archajnikova L.G. Professiya – uchitel muziki. 1990.
9. Rakhmonova, D. N. (2019). Development of music culture for elementary school pupils with using interactive software. Theoretical & Applied Science, (12), 101-106
10. Rakhmonova, D. N. (2022). Music literacy for primary school pupils. Global Book Publishing Services, 1-182.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Raxmonova Dilshoda Nusratovna**, katta o’qituvchi [**Рахмонова Дилшода Нусратовна**, старший преподаватель], [**Dilshoda N. Rakhmonova,** senior lecturer]; manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko'chasi 43-uy, [адрес: Город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43], [address: 43 Barkamol avlod Street, Termez city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

O‘QUVCHILAR NUTQI, BILISH IDROK JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA METAFORA KOGNITIV XUSUSIYATLARINING ROLI

© D.V. Rustamova[1]✉
[1]Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘quvchilar nutqini, bilish idrok jarayonlarini rivojlantirishda metaforaning kognitiv xususiyatlari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – metaforaning kognitiv xususiyatlari orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va bilim olish jarayonini samarali tashkil etishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kognitiv metafora nazariyalari, ularning tilshunoslikdagi o‘rni, metaforaning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va roli bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar metaforaning kognitiv xususiyatlari yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirishga imkon berishini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari metaforaning kognitiv xususiyatlarini ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali ekanini va ularning bilish faoliyatini mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: metafora, kognitivlik, konseptualizm, kognitiv tizim, lingvokulturologiya, bilim jarayoni, ta’lim samaradorligi.

Iqtibos uchun: Rustamova D.V. O‘quvchilar nutqi, bilish idrok jarayonlarini rivojlantirishda metafora kognitiv xususiyatlarining roli. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.275–281.

РОЛЬ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СВОЙСТВ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ, ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ ВОСПРИЯТИЯ

© Д.В. Рустамова[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется роль когнитивных свойств метафоры в развитии речи учащихся, их познавательных процессов и самостоятельного мышления, а также их значение в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить значимость когнитивных свойств метафоры для развития речи учащихся, формирования их ассоциативного

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

мышления и обогащения словарного запаса, а также для усиления восприятия и познавательных процессов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научных трудов по теории когнитивной метафоры, её лингвокультурологическим и когнитивным аспектам, а также их применению в образовательной практике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование когнитивных свойств метафоры способствует значительному улучшению речи учащихся, расширению их способности понимать ассоциативные связи между объектами и повышению уровня восприятия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что использование когнитивных свойств метафоры в образовательной практике способствует эффективному развитию речи учащихся и углублению их познавательных процессов.

Ключевые слова: метафора, когнитивность, концептуализм, когнитивная система, лингвокультурология, познавательные процессы, образовательная эффективность.

Для цитирования: Рустамова Д.В. Роль метафорических познавательных свойств в развитии речи учащихся, познавательных процессов восприятия. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.275–281.

THE ROLE OF METAPHORICAL COGNITIVE PROPERTIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH AND COGNITIVE PROCESSES OF PERCEPTION

© Dilfuzakhon V. Rustamova[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the role of the cognitive properties of metaphor in developing students' speech, cognitive processes, and independent thinking, as well as their significance in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to identify the importance of the cognitive properties of metaphor for enhancing students' speech development, forming associative thinking, enriching their vocabulary, and strengthening perception and cognitive processes.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific works on the theory of cognitive metaphor, its linguocultural and cognitive aspects, and their application in educational practices.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that using the cognitive properties of metaphor significantly improved students' speech, expanded their ability to comprehend associative connections between objects, and enhanced perception levels.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

CONCLUSION: the study results confirmed that applying the cognitive properties of metaphor in educational practices contributes to the effective development of students' speech and deepens their cognitive processes.

Keywords: metaphor, cognition, conceptualism, cognitive system, linguoculturology, cognitive processes, educational effectiveness.

For citation: Dilfuzakhon V. Rustamova (2024) 'The role of metaphorical cognitive properties in the development of students' speech and cognitive processes of perception', // Inter education & global study, (10(1)), pp.275–281. (In Uzbek).

Metafora borasidagi ilmiy qarashlar faqatgina ritorika sohasi bilan cheklanib qolmadi, zamonaviy tadqiqotlar metaforaning tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilindi. Metafora mehanizmi tahlili chuqur o‘rganilgan davrlarda uning nutqning bezagi sifatidagi funksiyasidan tashqari kognitivlik, volyuntativlik, ekspressivlik kabi funksiyalari ham kashf qilindi. Ayni mana shu tahlil va izlanishlar biz quyida o‘rganmoqchi bo‘lganimiz metaforaning kognitiv xususiyatlarini to‘liq yoritib berdi. Kognitivlik nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, bugungi kunda uning rivoji inson intellektual rivojlanishi bilan bog‘liq. Metaforaning kognitiv xususiyatarini tadqiq etishdan avval metafora borasidagi olimlarning nazariyalarini o‘rganish va metafora hodisasidagi kognitivlik xususiyatining amaliy ahamiyatini ochib bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Metafora fenomeni juda ham serqirra til hodisasi bo‘lib, uning kognitivlik xususiyatini tadbiq etishda kognitivlik tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganish zarur hisoblanadi.

Shu o‘rinda falsafa, tilshunoslik, sotsiologiya singari ijtimoiy gumanitar fanlar sohasiga oid bo‘lgan kognitivlik, kognitiv tizim yoxud kognitiv tuzilma atamalariga qisqacha ta’rif bersak. Kognitiv tizim, kognitiv tuzilma (lotincha: cognition “idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili”)-xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi. Ushbu tizimga asoslanib maqsadlar qo‘yiladi va ma’lum bir vaziyatda qanday harakat qilish haqida qaror qabul qilinadi. Kognitiv tizimning asosi- fikrlash, ong, xotira va tilning o‘zaro ta’siri; bunday tizimning tashuvchisi insonning miyasi.[8.180-197] Ushbu ta’rifdan yaqqol namoyon bo‘lganidek kognitivlik sof inson intellektining mahsuli, uning tashuvchisi va saqlovchisi inson miyyasi hisoblanadi. Inson tasavvuri, bilimi, ma’daniyati, fikrlarining majmuyi esa, albatta, uning nutqida namoyon bo‘ladi. Ushbu ta’rifni hisobga olgan holda tilimizda mavjud metaforalar inson ongida qayta ishlangan so‘zlardan hosil bo‘lishi va tilga ko‘chishi tufayli sof kognitiv hodisa deb hisoblasak bo‘ladi.

Metaforasiz bizning lisoniy faoliyatimiz bo‘lishi mumkin emas. U fikr ifodasidan tortib fikrning o‘zininham to‘lig‘icha qamrab olgan. Biror tafakkur sohasi yo‘qki, metafora unda ishtirok etmagan bo‘lsin. Borliqni anglash, baholash, tushuntirish, tavsiflashning asosiy vostasi metaforadir. Hatto insonni sun’iy intellektdan farqlovchi xususiyati ham uning metaforik tafakkur tarzidir. Shu bois boshqa fanlar doirasidan tilshunoslikka kirib kelgan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

metafora tushunchasi tilshuboslikning yangi asrdagi taraqqiyoti natijasida tilshunoslik va boshqa fanlarning umumiy o‘rganish ob’ektiga aylanib ulgurdi. Alaloqibat, turli fan sohalari kesimidagi paradigma bo‘lgan lingvokognitologiya ham serqirra mohiyatli metaforaning o‘ziga hos jihatlarini tekshira boshladi va fanda kognitiv metafora degan tushuncha paydo bo‘ldi. [3.385-402]

Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi o‘tgan asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. Uni ko‘pincha Luysburgda Reys Dirven tomonidan 1989-yilda uyushtirilgan simpozium va unda tashkil etilgan Xalqaro Kognitiv Lingvistik Assotsiyatsiya (IKLA) bilan ham bog‘lashdi. Uning vujudga kelishiga tilni yangicha tushunish va undagi ruhiy, mental aspektni bo‘rttirish ehtiyoji sabab bo‘lganligi uqtiriladi. Bunda, asosan, tilning borliqni qabul etish, u haqida ahborot hosil qilish va uzatish, axborotning shakllanishi, qurilishi va takomillashuvi bilan zich bog‘langanligi, umuman olganda, keng ko‘lamli bilimlarni uzatish va qabul qilishdan iborat kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etishiga urg‘u beriladi. [10.58]

Qanchalik yosh yo‘nalish bo‘lmasin, kognitiv yondashuv qisqa muddat ichida yangidan-yangi oqimlarni shakllantirdi. Kognitiv grammatikalar, kognitiv fonetika, kognitiv leksikologiya atamalari paydo bo‘ldi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik semantik strukturasi bilan bog‘langanligi bois prototipik semantika, konseptual semantika, freymal semantika sohalari keng taraqqiy etmoqda.[11.13-31] Kategorizatsiya, konseptualizatsiya, olamning lisoniy manzarasi kabi tushunchalar ommalashib ulgurdi. Shu bilan birga, fanlar kesimida paydo bo‘lganligi sababli unda ikki mustaqil fan sohalarining muammolari ham o‘rganilayotganligi, ba’zan ularning orasiga chegara qo‘yib bo‘lmaslik hollari ham kuzatilmoqda. Endigina kognitivizmga qo‘l urayotgan zamonaviy tilshunoslikda bu holat anchayin murakkabligi bilan namoyon bo‘layotir.[5.245] Kognitivlik sohasi so‘zlarning ma’noviy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, tilshunoslikning semantika sohasida keng rivoj topdi. Ayni shu xususiyati metaforaga xoslangan hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik konsepti, umuman olganda, “ ong va bilim, tajriba asosida paydo bo‘ladigan ahborot tarkibidagi mental va psixik resurs; xotira, mental leksika, konseptual sistema, miya tili; inson ongida aks etgan olam sur’atining mazmuniy va vazifa bajaruvchi birligi” sifatida tushunadi.[5.245] Z.D.Popova, I.A.Sterninlar konseptni “o‘ziga xos strukturga ega bo‘lgan bilim kvanti sifatidagi fikriy birlik” deya tushunadilar. Keltirilgan qarashlarda qanchalik rang-baranglik bo‘lmasin, ularda fikriy birlik, bilim, borliq, xotira, til kategoriyalariga asoslanganligini ko‘rish mumkin. A.A.Zalevkaya “fikrni amaldagi ifoda bilan bog‘laydigan asos kognitiv mohiyat” [12.36-45] ta’rifida konseptga nisbat beriladi. Til konseptni shakllantiruvchi va ifodalovchi vosita[13.428] ekanligi inkor qilinmaydi, balki e’tirof etiladi. S.A.Askoldova konseptni “ bir turdagi predmetlarning noaniq tasavvurni almashtiradigan aniq fikriy qurilma”[4. 267-279] sifatida tushinadi. D.S.Lixachev esa yuqoridagi misralarni o‘qish jarayonida ongimiz ostida qad ko‘targan “ unda tushuncha va konsept muqobil kategoriyalarmi “ degan savolimizga javob bergandek bo‘ladi. Uning ta’kidlashicha konsept tushunchaning “o‘rinbosari” bo‘lishi bilan birga, avvalgi va yuzaga kelayotgan yangi ma’noga ishora qiladi, shaxsning lisoniy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tajribasiga munosabatini ifodalaydi va til sohiblari uchun umumiy bo‘lgan konseptosferani hosil qilishda qatnashadi.[7.3-9] Umuman olganda, Yu.S.Stepanovaning konseptga bergan “konsept bu bamisoli borliqning ongdagi “quyqa”si, shu asosda borliq inson mental dunyosiga kirib boradi” ta’rifi yuqoridagi keltirilgan iqtiboslarni umumlashtiradi va berilgan barcha fikrlarni yetarlicha asoslab beradi.

O‘tgan asrlarda mustaqil soha sifatida shakllangan metaforologiya bugun o‘zining kognitiv bosqichiga ko‘tarildi. Metafora olamning lisoniy tasvirini hosil qilish mehanizmini kognitiv asoslarda keng ko‘lamda o‘rganila boshlandi. Metaforaning uzuq-yuluq o‘rganila boshlangan kognitiv xususiyati E.Makkormakning “Когнитивная теория метафоры” asarida o‘zining atroflicha va chuqur talqinini topdi. Olim metaforaga bilish jarayonidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘ldi. Uning fikricha, inson aslida sog‘lom aql nuqtayi nazaridan qiyoslanishi “noto‘g‘ri” bo‘lgan borliq hodisalarini taqosslaydi, ular asosidagi semantik konseptlarni idrokiy asoslarda qiyoslaydi va o‘xshashliklarni topadi. Bu metaforaning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Metafora ziddiyatli ikki yoqlama tabiatga ega: referentlar orasidagi muvofiqlik; referentlar orasidagi nomuvofiqlik.

Muvofiqlik va nomuvofiqlik ziddiyati yangi hosil beradi – metafora vujudga keladi. Metaforaning kognitiv xususiyatlaridan biri shuki, inson ko‘rmagan narsalarini ko‘rgan, eshitmagan narsalarini eshitgan, sezmagan narsalarini sezgan narsalari asosida baholaydi. Baholash bilan birga, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlar ajratiladi. Metaforani bilish faoliyati, bilish jarayoni hamda bilish mahsuli, natijasida qarash lozim. [10.62] Ushbu ta’rif ham biz yuqorida aytganimizdek tilimizda mavjud bo‘lgan metaforalar, insonning aqliy faoliyati mahsuli ekanligini isbotlaydi. Inson miyasida, tasavvurida borliqda mavjud narsa-predmet, voqea-hodisa, inson, jonli va jonsiz predmetlar orasidagi bog‘liqliklarni, o‘xshashliklarni farqlaydi. Mana shu o‘xshashliklar asosida yangi metaforalar hosil qiladi. Tilimizda yaratilingan metaforalar belgisi, shakli, vazifasi jihatidan predmetlar orasidagi o‘xshashliklar asosida vujudga kelgandir. Mana shunday o‘xshashlik va bog‘liqlikning mavjudligi ham metaforalarni kognitiv tomonini chuqur o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi.Chunki bitta so‘zdan hosil qilingan metaforalar turlicha o‘xshashlik yoki funksiya asosida yaratilingan bo‘lishi mumkin. Masalan: Qushning qanoti asosida yaratilingan samolyotning qanoti va Yoshlar bizning qanotimiz birligidagi qanot metaforasi samolyotning qanoti misolida uchish vazifasini bajarish funksiyasidan kelib chiqqan holda funksional o‘xshashlik asosida yaratilingan bo‘lsa, yoshlar bizning qanotimiz metaforasida esa qushning qanoti unga tayanch vazifasini bajarishi funksiyaidagi o‘xshashlik asosida yasalgan.

Konseptning matn orqali ifodalanishi, unda kognitiv metaforalarning talqini o‘zbek tilshunosligining eng so‘nggi yutuqlaridan bo‘lib yuzaga keldi. Bu borada olima D.Xudoyberganovaning doktorlik dissertatsiyasida matnning psixologik, lingvokulturologik talqiniga bag‘ishlangan fikrlari diqqatga sazovordir. [11.64-67] Inson biologik mavjudot sifatida sezgi a’zolari asosida borliqni anglash, u haqda axborot hosil qilish hamda unga o‘z aks munosabatini tayyorlashda o‘zini alohida ajratib turadi. Bunda insonning intellektual, emotsional faoliyati ishtirok etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Masalan, o‘zbek tilida tokni zararlaydigan oidium kasalligini kul so‘zining hosila ma’nosi ifodalaydi. Uni “kulga o‘xshash kasallik” o‘xshatish qurilmasining qisqargan shakli deyish juda to‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda o‘xshatish sub’ekti tushib qolib, o‘xshatish qurilmasining faqat kul etaloni butun ma’nosini o‘zida saqlagan va o‘xshatishning qisqargan shakli – metafora vujudga kelgan.[9.288] O‘xshatish orqali ma’no ko‘chirib metafora yasalganda nafaqat ma’lum bir belgi xususiyatlar to‘g‘ridan- to‘g‘ri ko‘chiriladi, balki,o‘xshashliklar ongda qisqartirilib barcha uchun tushunarli asosi qolgan holda ham ko‘chirilishi mumkin ekan. Bunda yasalgan metafora barcha uchun tushunarli ekanligi inson fikrlashi, ongi xotirasi bilan bog‘liq. Bu ham metaforaning kognitiv xususiyatlaridan biridir.

Metaforaning kognitiv xususiyatlari haqida so‘z borar ekan metaforaning bu xususiyati tilning rivojlangan davrlarda tadqiq etilib kashf qilingan bo‘lsada, metaforani antik davrlarda o‘rganib tadqiq etgan olimlarning ilmiy qarashlarida ham kognitivlik aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Biz yuqoridagi boblarda ta’kidlaganimizdek metafora tushunchasining fanga olib kirilishi qadimgi yunon faylasufi Arastuning ilmiy qarshlari bilan bog‘liq. Aynan Arastu ham metaforani “lisoniy va kognitiv faoliyat vositasi ekanligini asoslaydi.[1.648] Yana bir qadimiy olimlardan Sitseron esa bilimlarning mukammallashuvi asosi va paydo bo‘lib boraveradigan cheksiz ma’nolarning hosil bo‘lish usuli sifatida baholaydi. Tilning tejamkorligi til sohiblarining dialektik tafakkuri asosida nomlash va ifodalash usuli sifatida metaforaga tayanib, til boyligi iqtisodi va “saranjom-sarishtaligi”ni vujudga keltiradi. [2.217] Metafora borliq ob’ektlari va ularning nomlarini tafakkur qilish, badiiy obrazlar yaratish va yangi ma’nolarni dunyoga keltirish usullaridan biri. U kognitiv, nominativ, badiiy va ma’no hosil qildiruvchi vazifalarni bajaradi. [6.269] Ta’riflarda keltirilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki metafora barcha davrlarda so‘zlovchi uchun ifodalash, tinglovchi uchun esa borliqni anglash vositasi bo‘lib kelgan. Har ikkala holatda ham ushbu tushuncha bilish uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo‘lib, borliqni anglashga yordam berishi tufayli kognitivlikni yuzaga keltiradi.

Metafora yuksak darajada rivojlangan inson ongining mahsuli bo‘lib, borliqni anglash va tushunishning yetakchi vositasi hisoblanadi. Tafakkurimizda yuzaga kelgan bilimlar tilimizda o‘z aksini topadi, ayni jarayonda fikrning yuzaga keltiruvchisi ham, uni yetkazuvchisi, yangi nomlar va obrazlarni hosil qiluvchisi ham aynan metafora hisoblanadi. Ushbu xususiyatlarning barchasi kognitiv metafora uchun asos vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Аристотель. Поетика// Аристотель. Соч.4 т. Т. 4, - М. 1984. – С. 648.
2. Античные теория языка и стилья.-М.-Л. 1936.- С.217.
3. Артунюнова Н.Д. Метафора и языке чувств // Артунюнова Н.Д. Язык и мир человека. М., 1999.С.385-402.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

4. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесностъ. От теории словесности к структуре текста: Антология. Под. Педю проф. В.П. Нерознака. – М.: ACADEMIA, 1987.- С. 267-279.
5. Краткий словарь когнитивных терминов. Е.С. Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрац, Л.Г.Лузина.- М.,1996.- 245 с.
6. ЛЭС.- М.,1986.-С.296.
7. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. Известия РАН. Сер.лит. и яз. – М., 1993. – Т.52б №1.-С.3-9
8. Хомякова Е.Г. “Информационная когнитивная система и её актуализация в языке” Сборник статей.-Под
9. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z. 2010. – 288 b.
10. Nasrullayeva G.S. Antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvoma’daniy aspekti. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya- Farg‘ona: 2019. 58-b.
11. Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matlarning antropotsentrik talqini// Filol. fan. dokt. diss.- Toshkent:1915. 13-31-b.
12. Залевская А.А. Психолингвитический подход к проблеме концепта. Методологические прщблемы лингвистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. Ун-та, 2001.-С. 36-45.
13. Попова З.Д. Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. Монография.- Воронеж: Изд-во Воронеж.ун-та. 2001.- С. 428

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi**, doktorant [**Рустамова Дилфузахон Вохиджон кизи**, докторант], [**Rustamova V. Dilfuzaxon** doctoral student]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19.], [address: 19 Murabiylar street, Ferghana, 150100]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

4K MODELINI DIVERSIFIKATSIYA ASOSIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIGA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

© G.Sh. Sadikova[1]✉
[1]Toshkent Davlat agrar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ta’lim texnologiyalarining diversifikatsiyasi va 4k modeli asosida ta’lim jarayonida kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – 4k modeli asosida ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning individual o‘rganish ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 4k modeli asosidagi ta’lim texnologiyalarining diversifikatsiyasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, blundell (2022) va collins va halverson (2009) kabi olimlarning ishlari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: diversifikatsiyalash yondashuvi yordamida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olish darajasi oshgani, ularning bilim almashish qobiliyatlari va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlangani aniqlandi. Shu bilan birga, texnologiyalarning individual ehtiyojlarga moslashish imkoniyatlari amalda o‘z samarasini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari 4k modeli asosida ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni joriy qilish mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: 4K, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ta’lim texnologiyalari, diversifikatsiya, innovatsion o‘qitish.

Iqtibos uchun: Sadikova G.Sh. 4K modelini diversifikatsiya asosida ta’lim texnologiyalariga qo‘llash imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.282–288.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МОДЕЛИ 4К К ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ НА ОСНОВЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ

© Г.Ш. Садикова[1]✉
[1]Ташкентский государственный аграрный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются подходы к диверсификации образовательных технологий в высших учебных заведениях с использованием

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

модели 4к, а также их роль в создании эффективной и адаптивной образовательной среды.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повысить эффективность образовательного процесса через внедрение диверсифицированных технологий обучения на основе модели 4к и выявить их влияние на формирование у студентов ключевых компетенций, таких как креативность, коммуникация, сотрудничество и критическое мышление.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы научные работы и публикации по теме диверсификации образовательных технологий с акцентом на модель 4к, а также проведен сравнительный анализ их внедрения в образовательные программы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование подходов диверсификации на основе модели 4к способствует повышению вовлеченности студентов, развитию у них навыков сотрудничества и улучшению усвоения учебного материала. Выявлены ключевые принципы, обеспечивающие успешное внедрение этих технологий в учебный процесс.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что диверсификация образовательных технологий на основе модели 4к повышает эффективность образовательного процесса, адаптируя его под индивидуальные потребности студентов и обеспечивая развитие их ключевых компетенций.

Ключевые слова: модель 4К, креативность, коммуникация, сотрудничество, критическое мышление, образовательные технологии, диверсификация, инновационное обучение.

Для цитирования: Садикова Г.Ш. Возможности применения модели 4к к образовательным технологиям на основе диверсификации. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.282–288.

THE POSSIBILITIES OF APPLYING THE 4K MODEL TO EDUCATIONAL TECHNOLOGIES BASED ON DIVERSIFICATION

© Gulandom Sh. Sadikova[1]✉
[1] Tashkent State Agrarian University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes approaches to diversifying educational technologies in higher education institutions using the 4k model and their role in creating an effective and adaptive learning environment.

AIM: the main objective of the study is to enhance the effectiveness of the educational process by implementing diversified teaching technologies based on the 4k model and to explore their impact on developing students' key competencies such as creativity, communication, collaboration, and critical thinking.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific works and publications on the diversification of educational technologies, particularly those focused on the 4k model, and comparing their application in educational programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that approaches to diversification based on the 4k model increase student engagement, foster collaborative skills, and improve learning outcomes. Key principles ensuring the successful integration of these technologies into the educational process were identified.

CONCLUSION: the study confirmed that the diversification of educational technologies based on the 4k model enhances the effectiveness of the educational process, tailoring it to students' individual needs and fostering the development of their key competencies.

Keywords: 4K model, creativity, communication, collaboration, critical thinking, educational technologies, diversification, innovative teaching.

For citation: Gulandom Sh. Sadikova. (2024) 'The possibilities of applying the 4k model to educational technologies based on diversification, // Inter education & global study, (10(1)), pp. 282–288. (In Uzbek).

Ta'lim jarayoni doimiy o'zgaruvchan va rivojlanayotgan soha bo'lib, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish uchun yangicha uslublar va texnologiyalarni qo'llash zarurati tobora kuchaymoqda. Zamonaviy dunyoda o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlar kirib kelishi bilan ta'lim texnologiyalarining diversifikatsiyasi alohida e'tibor talab qiladigan soha sifatida shakllandi. Bugungi kunda faqat an'anaviy o'qitish usullariga tayanish yetarli emas, chunki zamonaviy talaba raqamli texnologiyalar va interaktiv o'quv vositalari bilan o'z bilimlarini kengaytirishga ehtiyoj sezadi.

Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish — bu ta'lim jarayonini turli xil texnologiyalar bilan boyitib, dars berish usullarini zamonaviy talab va ehtiyojlarga moslashtirish jarayonidir. Bu yondashuv nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning individual o'rganish uslublarini hisobga olib, ular uchun yanada samarali va qiziqarli ta'lim muhitini yaratadi. Blundell (2022) ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish orqali o'qitish jarayoniga moslashuvchanlik va uning markazida talabani nazarda tutuvchi yondashuv kiritilishini ta'kidlaydi.

Diversifikatsiyalashning muhim jihatlaridan biri — bu texnologiyalarni bir xil formatda emas, balki turli formatlarda qo'llashdir. Bu jarayon talabalar ehtiyojlariga mos keladigan individual yondashuvlarni ishlab chiqish va ularga mos ravishda texnologik vositalarni tanlashni nazarda tutadi [1].

Asosiy qism. Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishning yana bir jihati — bu texnologiyalarning o'qitish jarayonidagi samaradorligini oshirishdir. Diversifikatsiya talabalarning bilim olish jarayonini moslashuvchan qiladi, ularga turli xil usullarda, o'z ehtiyojlariga mos ravishda bilim olish imkonini beradi. Shu orqali o'quv jarayoni talabalar uchun yanada qulay va natijador bo'ladi. Collins va Halverson (2009) ta'kidlaganidek,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

diversifikatsiyalangan ta’lim texnologiyalari o‘quvchilar o‘rtasida bilim almashishni rag‘batlantiradi va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu tariqa, ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish zamonaviy ta’limni talabalarning ehtiyojlari va o‘quv jarayonining qiziqarli va interaktiv bo‘lishini ta’minlaydigan muhim yondashuv sifatida qaraladi. Bu ta’lim jarayonini boyitib, talabalarning bilim olish usullarini yanada moslashuvchan va samarali qiladi.

Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishning asosiy tamoyillari mavjud bo‘lib, ular texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali va moslashuvchan tarzda tatbiq qilishga yordam beradi. Bu tamoyillar ta'lim jarayonini individual talabalar ehtiyojlariga moslashtirish, texnologik vositalarni pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish va ta'limda zamonaviy vositalardan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Diversifikatsiya jarayonida texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun ular o‘quv jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilinishi lozim. Texnologiyalar an'anaviy o‘quv uslublari bilan uyg‘un holda ishlashi kerak. Bu tamoyil texnologik vositalarning o‘qitish maqsadlariga mos kelishi va ularni pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: moslashuvchanlik tamoyili.

Moslashuvchanlik — bu diversifikatsiyalangan ta’lim texnologiyalarining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u o‘qitish jarayonini har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Diversifikatsiya texnologiyalari yordamida o‘qituvchi talabalarning bilim olish uslublarini e’tiborga olib, ularga mos o‘quv vositalarini tanlaydi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlaydi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Integratsiya tamoyili:diversifikatsiya jarayonida texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun ular o‘quv jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilinishi lozim. Texnologiyalar an'anaviy o‘quv uslublari bilan uyg‘un holda ishlashi kerak. Bu tamoyil texnologik vositalarning o‘qitish maqsadlariga mos kelishi va ularni pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi.

Interaktivlik tamoyil: interaktivlik tamoyili ta'lim jarayonida texnologiyalarning talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni ta'minlashiga asoslanadi. Diversifikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishi va bilim olish jarayoniga jalb qilinishi muhimdir. Bu tamoyil o‘quvchilarni bir-birlari bilan, o‘qituvchilar bilan va o‘quv materiallari bilan interaktiv muloqot qilishga undaydi.

Texnologik qo'llab-quvvatlash tamoyili: bu tamoyil ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi uchun yetarli infratuzilma va texnik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ifodalaydi. Texnologiyalar samarali ishlashi uchun texnik xizmatlar, internet aloqasi, texnik vositalar va ularga kirish imkoniyati mavjud bo‘lishi lozim. Ta’lim muassasalari texnologik ta’minotni yuqori darajada ta’minlash orqali diversifikatsiyalash jarayonini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Moslashgan baholash tamoyili: diversifikatsiya qilingan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda baholash jarayonlari ham moslashgan bo‘lishi kerak. Bu tamoyil

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

talabalarning bilim olish jarayonini kuzatish va ularning bilimlarini turli xil baholash vositalari orqali tahlil qilishni nazarda tutadi. Baholashning diversifikatsiya qilingan vositalari orqali talabalar bilimlari to‘liq va keng ko‘lamda tahlil qilinadi.

Ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish jarayoni turli texnologik vositalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlar orqali kechadi: an’anaviy va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish: An’anaviy dars usullari bilan birga raqamli vositalar, masalan, interaktiv taxtalar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va mobil ilovalardan foydalaniladi.

Ta’lim uslublarini moslashtirish: O‘quvchilarning turli uslubdagi o‘rganish qobiliyatlari inobatga olinadi. Bu yerda har bir talabaning individual ehtiyojlari uchun mos texnologiyalar tanlanadi.

Real vaqtda interaktiv aloqa: O‘quvchilar real vaqtda o‘zaro muloqot qilishi va hamkorlikda ishlashi uchun onlayn vositalar, masalan, Google Meet, Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar joriy qilinadi.

Gamifikatsiya va raqamli vositalarni qo‘llash: O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali talabalarning ishtiyoqini oshirish va ularning o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirishga yordam berish mumkin.

Ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi va quyidagi afzalliklarga ega: talabalar ehtiyojlariga moslashish: Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va o‘rganish uslublariga mos keluvchi texnologiyalarni tanlash orqali ta’lim jarayoni moslashuvchan bo‘ladi.

Interaktivlikni oshirish: Diversifikatsiya talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi va o‘zaro muloqot imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Bilimlarni yanada qiziqarli qilish: Raqamli vositalar va interaktiv texnologiyalar orqali ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va innovatsion bo‘ladi.

Ta’lim resurslariga kengroq kirish: Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali talabalar global bilim manbalariga kirish imkoniga ega bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishni samarali amalga oshirish uchun esa bir qator vazifalarni bajarish lozim bo’ladi:

O‘qituvchilarning texnologik malakasini oshirish: O‘qituvchilar raqamli vositalardan samarali foydalanishni o‘rganishi kerak. Maxsus treninglar va seminarlar o‘tkazilishi lozim [4].


Ta’lim infratuzilmasini yaxshilash: Ta’lim muassasalari texnologiyalar bilan to‘liq ta'minlanishi kerak. Bu raqamli platformalar va texnologik vositalarga to‘liq kirish imkonini beradi [**5**].

Raqamli vositalarni to‘g‘ri tanlash: Diversifikatsiyalash uchun qo‘llanadigan texnologiyalar dars mazmuniga va talabalarning ehtiyojlariga mos kelishi kerak [3].


Texnologiyalarni muntazam kuzatish: Diversifikatsiyalangan texnologiyalarning samaradorligini kuzatish va ularni yangilab borish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi [2].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Diversifikatsiyalangan ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini turli yo'nalishlarda boyitib, raqamli va an'anaviy uslublarni integratsiya qilish orqali talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.



Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilish jarayonida ko'plab afzalliklar mavjud bo'lsa-da, bu jarayonni amalga oshirishda qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklar texnologik, pedagogik, iqtisodiy va boshqaruv bilan bog'liq bo ʻlib, ta'lim tizimini to'liq diversifikatsiyalashni qiyinlashtirishi mumkin. Quyida diversifikatsiyani amalga oshirishdagi asosiy qiyinchiliklar keltirilgan:



CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Ta'lim texnologiyalarini diversifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bir nechta yechimlar mavjud. Birinchi navbatda, texnologik infratuzilmani rivojlantirish muhimdir. Ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar va internet bilan to‘liq ta’minlanishi kerak. O‘qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish uchun muntazam trening va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilishi kerak.

Texnologik vositalarni oqilona tanlash esa texnologiyalarni o‘quv jarayoniga mos ravishda tatbiq etishni ta'minlaydi, bu esa ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi"dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi Toshkent: 2023.
2. O‘rmonova Dilfuza Mamasalievna “Takrorlash va mustahkamlash darslarini “4k” modeli asosida tashkil etishda kolloborativ muhitdan foydalanish usullari” InnovativeDevelopment in Educational Activities (IDEA) Vol. 2 N.
3. Kiumars Zarafshani, Adel Solaymani, Mike D’Itri, Marilyn M. Helms, Samaneh Sanjabi “Evaluating technology acceptance in agricultural education in Iran: A study of vocational agriculture teachers” Social Sciences & Humanities Open Volume 2, Issue 1, 2020, 100041
4. Панов Н.А, Зайцева К.С Формирование компетенций «4К» обучающихся профессиональных образовательных организаций. Методические рекомендации. Санкт-Петербург 2021 г

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sadikova Gulandom Shavkatovna**, katta o‘qituvchi [**Садикова Гуландом Шавкатовна**, старший преподаватель], [**Gulandom Sh. Sadikova** senior lecturer]; manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, universitet ko'chasi, 2, [адрес: 100140, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская 2], [address: 100140, Tashkent region, Kibraisky district, Universitetskaya str. 2].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISIDAGI KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

© H.A. Saipova[1]✉, X.I. Obidova[2]✉
[1,2]Farg'ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga yechimlar tahlil qilinadi. Hozirgi ta’lim tizimida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati va uning ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik, psixologik va metodik yondashuvlar orqali samaradorlikni oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy ko‘nikmalarga tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar va pedagogik metodlar tahlil qilindi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodologiyalar ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlik darajasi, pedagogik va psixologik bilimlarni egallashda, shuningdek, metodik ko‘nikmalarni rivojlantirishda sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari bo‘yajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida pedagogik yondashuvlarni qo‘llash o‘quv jarayonini yanada samarali va amaliyotga yaqinlashtirishi mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, psixologik bilim, metodik ko‘nikmalar, innovatsion o‘qitish, zamonaviy texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Saipova H.A., Obidova X.I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.289–295.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© Х.А. Саипова[1]✉, Х.И. Обидова[2]✉
[1,2]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы формирования профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов в контексте современных требований образования и социальной динамики. Обсуждается влияние внешних факторов, таких как развитие технологий и изменение общества, на подготовку будущих педагогов.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить особенности формирования профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов и определить ключевые подходы и методы для эффективного развития данной компетенции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научных работ, посвященных развитию профессиональной компетентности в педагогике, а также рассмотрены методические подходы и педагогические технологии, направленные на повышение профессионального уровня будущих учителей начальных классов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что эффективное развитие профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов зависит от интеграции теоретических и практических знаний, а также психолого-педагогических навыков, необходимых для успешной работы в образовательной среде.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что успешное формирование профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов требует комплексного подхода, включающего как теоретическую подготовку, так и развитие практических навыков в реальных педагогических условиях.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогическая подготовка, будущий учитель, психологические знания, педагогические навыки, методика преподавания.

Для цитирования: Саипова Х.А., Обидова Х.И. Особенности формирования профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.289–295.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER

© Hilola A. Saipova[1]✉, Xurshida I. Obidova[2]✉
[1,2] Fergana state university, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the issues related to the formation of professional competence in future primary school teachers, addressing current educational requirements and societal changes. The influence of external factors, such

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

as technological advancement and societal development, on teacher preparation is also considered.

AIM: the main objective of the study is to identify the unique aspects of the development of professional competence in future primary school teachers and determine key approaches and methods for effectively developing this competence.

MATERIALS AND METHODS: the study involved an analysis of scientific literature related to the development of professional competence in pedagogy, along with a review of methodological approaches and educational technologies aimed at enhancing the professional competence of future primary school teachers.

DISCUSSION AND RESULTS: the results revealed that the effective development of professional competence in future primary school teachers is dependent on integrating both theoretical knowledge and practical pedagogical skills, which are essential for success in the educational environment.

CONCLUSION: the results of the study confirm that successful development of professional competence in future primary school teachers requires a comprehensive approach that includes both theoretical preparation and practical skill development in real pedagogical settings.

Key words: professional competence, teacher preparation, future teacher, psychological knowledge, pedagogical skills, teaching methodology.

For citation: Hilola A. Saipova, Xurshida I. Obidova (2024). 'The specific features of the development of professional competence in future primary school teacher.' // Inter education & global study. (10(1)), pp.289–295. (In Uzbek).

Hozirgi vaqtda ta'limni modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish o'qituvchilarning kasbiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatini yangilashni taqozo etmoqda. Bunga sabab jadallik bilan rivojlanib, yangilanib borayotgan axborot asrida ma'lumotlarning tez eskirishi, ishchi kuchini texnika bilan o'rin almashinishi, sun'iy intellektning insonlar vazifasini bir qismini bajargan holda o'z ustida ishlamaydigan xodimga o'rin qoldirmayotgani va inson tomonidan bajarilayotgan ko'p ishlarni kompyuterlashtirilayotganini misol qilib keltirishimiz mumkin. Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, uning yuqori rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, tubdan yangi texnikalarni joriy etish, ta'limni rivojlantirishga qodir bo'lgan faol va ijodiy shaxsni tarbiyalash zarurati bilan to'qnashadi. O'zini o'zi rivojlantirish, tarbiyalash, yangi ma'lmotlarni mustaqil ravishda idrok etish va baholash, qarorlar qabul qilish, yangi professional g'oyalarni yaratish bo'lajak o'qituvchilarning kasbi va shaxsi oldida turgan muhim vazifasidir. Ana shunday insongina jamiyatni taraqqiyotning yangi chegaralari sari yetaklay oladi.

Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak pedagogning mutaxassislik (kasbiy) kompetensiyasi mavjud bo'lib, u o'qituvchining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilayotgan muammolardan biridir. Ana shunday

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

masalalardan biri bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni riviojlantirishga kompetentli yondashuvni aniqlash va DTS ning asosiy qoidalariga munosib holatda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash ushbu tushunchani o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi bir tadqiqotlarga e’tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan tadqiqotlarda asosan, o‘qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan.

V.I. Baydenko “kasbiy kompetentlik” tushunchasini quyidagicha tavsiflagan: o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomik va egiluvchanlik xususiyatlarga ega bo‘lish; kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish; insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko‘nikmalarning integrallashgan birlashuvi; faoliyat mezoni (sifat o‘lchovi), qo‘llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o‘z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi.(2,72).

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda V.I.Baydenko kasbiy kompetentlikni ish-faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, duch kelinadigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, shu bilan bir qatorda o‘z ish-faoliyati natijalari, ya’ni mos ko‘nikma va malaka, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

Pedagog olimlarning fikricha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak: o‘quv materiallarini tayyorlash va taqdim qilish; o‘quvchilarni bilim va shu bilan birga tarbiya olishga qiziqtira olish; o‘quvchilarda uchraydigan turlicha kamchiliklarni bartaraf etishiga ko‘maklashish; muntazam ravishda o‘quvchilarni nazoratiga olish.

Mazkur ko‘rsatmalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajribali pedagog olim sifatida A.K.Markovo yondashuviga ko‘ra bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyati to‘rtta muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash; kasbiy pedagogik malakani egallash; kasbiy psixologik ko‘nikmalarni egallash; shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatiga quyidagi mexanizmlar asosida yo‘naltirilishi kerak: mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida; maxsus kurslar vositasida; mustaqil ta’lim vositasida; ustoz-shogird an’anasi vositasida.

Bu mexanizmlarga amal qilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonini aniq tashkil etish uchun xizmat qiladi. Shu tufayli ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar pedagogik, psixologik, sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatlidir.

O‘qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobiliyati, pedagogik kompetensiyasining oshishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy kompetentligini ta’lim malakalarini oshirib borishdir.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Ta’limning an’anaviy “bilim, ko‘nikma, malakalar” natijalaridan farqli ravishda kompetentlik: birinchidan, integratsiyalangan bo‘ladi; ikkinchidan, sun’iy yaratiladigan test vaziyatida (nazorat ishi, imtihon, kurs ishi himoyasi va h.k) emas, balki vaziyatli va haqiqiy zarurat vaziyatlarda ifodalanadi; uchinchidan, vaqtning asosiy qismida ma’lum mamunga kirib va ma’lum vaziyatda mos elementlardan imkoniyat sifatida mavjud bo‘ladi.

Ta’lim tizimida tom ma’noda o‘quvchilarga sifatli, foydali va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkaib bera olishi uchun bugungi kun o‘qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarga aniq, tushunarli hamda tez yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorati hamda kreativ qobiliyatiga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

Bugungi kunda har bir pedagog har tomonlama mukammal bo‘lmog‘i zarur. Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasi rivojlangan, fanlar tizimida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lib, o‘quvchilardagi bilim, ko‘nikma, qobiliyat va kompetensiyalarni rivojlantiradi. Uning vazifalari quyidagicha: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy tushunchalari, tarkibi va mezonlarini bilishi; boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan texnologiyalarning nazariy asoslari, o‘ziga xos xususiyatlarini, darajalarini bilish va o‘rganish; o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish va boshqarish yo‘llarini, o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan, individual yondoshishni; boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda modulli, muammoli, kreativ ta’lim, didaktik – o‘yinli, hamkorlikda o‘qitish hamda an’anaviy ta’lim texnologiyalarini, loyiha texnologiyalarini qo‘llashni; fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, multimediya texnologiyalaridan foydalanishni; o‘quvchilarni kichik guruhlarda o‘qitish, ularda ijodkorlik izlanuvchanlikni shakllantirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ishlashning shakllantirish usullarini egallashni bilishi kerak; ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda nashrdan chiqqan va o‘quv adabiyotlarida bor bo‘lgan, internet orqali berilgan o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar haqidagi maqolalarni hamda axborotlarni mustaqil o‘rganib, tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo‘llash; istiqbolli o‘qitish vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olish bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish; o‘z pedagogik faoliyatlarini tahlil qila olishga, baholashga o‘rgatish; tahliliy, tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdir.

Fanni o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan maxsus bilim, tajriba talab qilib, yangi yondashuvlar o‘qituvchidan darsni yangicha metod va texnologiyalar asosida o‘tishni taqozo etadi. Fanlarning o‘quv dasturi va darsliklarida vatanparvarlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Bugungi kunda zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog‘lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida kasbiy kompetentlik sifatlari ham bo‘lishi kerak. Har bir pedagogning kasbiy kompetensiyasi bo‘lib, u shaxsning yaxlit tuzilishidagi nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi. Muayyan mutaxassislik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning muvofiqlik darajasi, normativ talablar, muayyan faoliyat sohasidagi kasbiy tayyorgarlik darajalari kasbiy kompetensiyaning mazmunini tashkil qiladi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va kasbiy yuksalishi bevosita uning ijodiy qobiliyatiga bog‘liq. Odatda, pedagoglarning ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari hamda samarali pedagogik muloqotni amalga oshirishi orqali ta’minlanadi.

Samarali pedagogik muloqotni amalga oshirish-o‘qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik faoliyatdagi muloqot ta’lim muammolarini hal qilish, o‘quv jarayonini ijtimoiy-psixologik ta’minlash vositasi, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usuli bo‘lib, ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, ta’lim jarayonini rejalashtirish va baholash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, o‘z ustida muntazam ishlash, psixologik bilimlarga ega bo‘lish hamda o‘z fanini mukammal bilish kabi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.
2. Белкин А.С. Компетентность, профессионализм, мастерство. — Екатеринбург: Урал. гос. лед. ун-т, 2006. — 176 с.
3. Браже Т.Г. Профессиональная компетентность специалиста как многофакторное явление ф/ Тезисы к семинару, 25—29 июля 1990 г. / под ред. В.Г. Онушкина. — Л.: НИИ НОВ, 1990. — С. 39—62.
4. Будникова С.П. Психологические условия становления профессиональной позиции у будущих педагогов на этапе производственной (педагогической) практики: автореф. дис. ... канд. псих. наук. — Калуга, 2003. — 24 с.
5. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования /л Высшее образование в России. — 2005.— Нс 4. — С. 23—29.
6. Карпов А.В. Рефлексивность как психологическое свойство и методика её диагностики // Психологический журнал. 2001. Т.: 24. № 5. С. 45-57.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

7. Кузьмина Н.В. Методы исследования педагогической деятельности. - Л.: Изд-во Ленингр. Ун-та, 1970. — 114 с.
8. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.// - T.: Fan va texnologiya nashriyoti

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saipova Hilola Abduxamitovna**, dotsent [**Саипова Хилола Абдухамитовна**, доцент], [**Hilola A. Saipova** associate professor]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19], [address: 150100, Fergana, Murabiylar str., 19].

✉**Obidova Xurshida Ilhomjon qizi** magistr [**Обидова Хуршида Ильхомжоновна,** магистр], [**Xurshida I. Obidova** master's degree]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19], [address: 150100, Fergana, Murabiylar str., 19].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

TA'LIM TIZIMIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

© Sh.Pozilova[1]✉, Z.G`.Komilova[2]✉
[1,2]Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bugungi kunda ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish jamiyatning innovatsion rivojlanishi va global iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlikni o'quvchilarda rivojlantirish nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki kelajak avlodni muammolarni hal qilishga qodir, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ushbu maqola kreativlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishning asosiy muammolarini aniqlash va ularni hal etish uchun samarali yondashuvlarni tavsiya qilishdir. Shu bilan birga, kreativ yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish ko'zda tutilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: ta'lim tizimi uchun zamonaviy kreativ yondashuvlarning tahlili; o'quvchilarning ijodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha kuzatuv va so'rovnoma; ta'lim jarayonida kreativ metodlarni qo'llash tajribasining umumlashtirilishi. Material sifatida xalqaro va milliy ta'lim tajribalari, ilmiy maqolalar va ta'limdagi innovatsion dasturlar foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativlikni rivojlantirishda quyidagi muammolar dolzarbligicha qolmoqda: Darslik va dasturlar ijodiy erkinlikka to'sqinlik qilmoqda.O'qituvchilarning kreativ yondashuvlarga tayyor emasligi: O'qituvchilarni kreativ metodikalarni qo'llashga o'rgatish zarur. Kreativ jarayonlarni qo'llash uchun etarli resurslar mavjud emas. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga etarlicha e'tibor berilmaydi.

Natijalarga ko'ra, ta'lim tizimiga kreativlikni rivojlantiruvchi metodlarni joriy etish uchun innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini rag'batlantirish zarurligi aniqlandi.

XULOSA: kreativlikni rivojlantirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ta'lim tizimi, innovatsiya, ijodkorlik, ta'lim metodikasi, muammolar, rivojlanish, ta'lim texnologiyalari.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Iqtibosuchun: Pozilova Sh., Komilova Z.G`.Ta`lim tizimida kreativlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 296–301.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

© Ш. Позилова[1]✉, З.Г. Комилова[2]✉
[1,2]Ташкентский университет informatsionных технологий, Ташкент, Узбекистан

Аннотаця

ВВЕДЕНИЕ: сегодня развитие креативности в системе образования играет важную роль в процессе инновационного развития общества и адаптации к глобальным экономическим изменениям. Формирование творческих способностей учащихся не только делает образовательный процесс более увлекательным и эффективным, но и воспитывает будущее поколение как самостоятельных и креативных личностей, способных находить решения сложных задач. Настоящая статья посвящена анализу современных проблем развития креативности и поиску путей их преодоления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что использование коллаборативного подхода и новых методик обучения значительно повышает уровень коммуникативных и коллаборативных навыков студентов, а также их способность к критическому и креативному мышлению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают, что внедрение новых образовательных технологий, включая учебники и коллаборативное обучение, помогает развивать у студентов навыки, необходимые для успешной профессиональной деятельности в будущем.

Ключевые слова: образовательный процесс, учебники, коллаборативное обучение, 4K навыки, компетенции, инновационное образование, креативность, критическое мышление, коммуникация, социальное развитие.

Для цитирования: Темирова И.С. Учебники нового поколения - как средство формирования у учащихся навыков совместной работы. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.314–322.

TEXTBOOKS OF THE NEW GENERATION - AS A MEANS OF DEVELOPING STUDENTS' TEAMWORK SKILLS

© Iqbol S. Temirova[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the technologies of teaching educational materials based on the collaborative approach in modern educational processes, with a focus on the development of 4k skills (creativity, critical thinking, communication, and collaboration) among students through the use of textbooks and collaborative teaching methods.

AIM: the main objective of the study is to improve the effectiveness of teaching educational materials in schools and universities through the use of modern educational methods, particularly collaborative learning approaches, to develop 4k skills among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on collaborative teaching methods, textbooks, and their application in educational processes aimed at fostering 4k skills. The integration of new methods and collaborative approaches was explored for its impact on students' development of critical and creative thinking.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that the use of collaborative methods in teaching significantly improved students' communication, critical thinking, creativity, and collaborative skills, thereby preparing them for future professional activities.

CONCLUSION: the study confirms that the integration of collaborative learning approaches and modern textbooks into the educational process helps improve the development of essential 4k skills, making the learning experience more effective and aligned with real-world applications.

Keywords: educational process, textbooks, collaborative learning, 4K skills, competence, innovation, creativity, critical thinking, communication skills, social development.

For citation: Iqbol S. Temirova. (2024) 'Textbooks of the new generation - as a means of developing students' teamwork skills', // Inter education & global study, (10(1)), pp. 314–322. (In Uzbek).

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda maktablarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha muhim o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti, ammo bu jarayonda ta'lim olish bilan birga muloqot qila olish, o'zgalar bilan birgalikda ishlay olish, birgina tugmani bosish orqali ma'lumot olish mumkin bo'lgan bugungi kunda ma'lumotlarning ishonchli yoki ishonchli emasligini aniqlay olish va ijodkorlik eng asosiy shartlar bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab amaliyot integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olingani buning yaqqol dalilidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'lim sohasida boshlangan islohotlarni davom ettirish zarurligini ta'kidlab, 2023-yilga oid Davlat dasturi to'g'risidagi farmoni loyihasida "2023-2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi o‘quv dasturlarini amaliyotga kiritilish” [1] vazifasini belgilagani ham bu islohotlarning muhim qismi ekanligini anglatadi.

Shunga muvofiq ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1–4-sinf darsliklari yangidan tayyorlandi. Yangi darsliklardagi topshiriq va vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilarimizda boshlang‘ich sinflarda bilimni baholaydigan xalqaro dasturlarning masalalarini yechish malaka ko‘nikmasi shaklanadi. Darsliklar zamonaviy axborot jamiyatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakani shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan, “Novda Edutaiment” nashriyot uyi tomonidan 2023-yil nashr qilingan yangi avlod darsliklari 4K ko’nikmalarini ya’ni kommunikativlik, tanqidiy fikrlash (critical thinking), kreativlik va kollaboratsiya (jamoada ishlash ko‘nikmalari, jamoaviy qaror qabul qilish qobiliyati) va ta’lim jarayonini intensivlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan bo’lib ular o’quvchilarda kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhim bo’lgan kasbiy hamda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu ko‘nikmalarni egallash o‘quvchilarga o‘zgaruvchan dunyoda faol ishtirok etish, muammolarni hal qilishda analitik yondashuvni qo‘llash, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyor bo‘lishni o‘rgatadi [2].


Yangi darsliklarda o’quvchining munosib portreti, ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu darsliklar har bir o‘quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, uzluksiz kasbiy o‘sishi va barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Yuqorida ko’zda tutilayotgan 4K ko’nikmalarining har birining o’rni beqiyosdir. Masalan, kollaboratsiya- bu o'quvchilarning juftlik yoki guruhlarda hamkorlikda ishlayotgan har qanday faoliyatidir. Buni boshlang’ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darslari misolida olib qaraydigan bo’lsak, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta'lim standartlarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagicha belgilangan (1-rasm).

Yuqorida keltirilgan birinchi vazifa: “O‘quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun ona tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish”ni qaraydigan bo’lsak, o’quvchilarda adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, matnni tinglab tushinish jarayoni bilan uzviy bog‘langan holda grammatik bilimlarni kolloborativ yondashuvga asoslangan innovatsion usullar vositasida nutqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga darslikda o`quvchining fanga oid kompetentsiyalarni hamda hayotiy ko`nikmakarni puxta egallab borishlarida ushbu barcha vazifalar bir-birini o`zaro integrativ tarzda to`ldirib, maqsadni ta’minlash uchun xizmat qilishga yo`naltirilgan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)



1-rasm. Ona tili fanini o’qitishning asosiy vazifalari.

Ikkinchi vazifa: “O‘quvchilarning ona tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish”ga oid harakatlarni amalga oshiradi. Ma’lumki, lingvistik kompetensiyalar insonning tilni to‘g‘ri va muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyatini belgilaydi va u turli sohalarda muhim rol o‘ynaydi (2-rasmga qarang).



2-rasm. lingvistik kompetensiya mazmuni.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashq va topshiriqlardan foydalangan holda ularning lingvistik kompetensiyalarini kolloborativ yondashuv asosida shakllantirish ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jozibadorligini oshirish orqali o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik qilish, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, ijodiylik va ijtimoiy moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu yondashuv o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali bo'lishini ta’minlaydi.

Uchinchi vazifa: “O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” dars jarayonida o‘quvchilarga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

mustaqil topshiriqlar berish va ularning natijasini baholash interfaol usullar va ijodkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar asosida amalga oshiriladi.

Ona tili fani dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda 4K tamoyilidagi kolloborativ yondashuvga asoslanish kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirish, ularni kelajakda funksional savodxon bo‘lish kabi ko‘nikmalarga egalik darajalarini oshirib boradi.

Natijalar va munozara.

1-4- sinf ona tili va o’qish savodxonligi darsliklari o‘quvchilarda bu kabi lingvistik bilimlar bilan bir qatorda hayotiy zaruratga asoslangan matnlarni o‘rganishga majbur qilmoqda. Bunda o‘quvchilar beixtiyor mavzu asosidagi matnni o‘qishi va munosabat bildirishi, matnda noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zlarni topishi, ma’nosini topish uchun keyingi berilgan topshiriq orqali bajarib bilimini mustahkamlashi mumkin. Darslikda berilgan bunday topshiriqlarni o’quvchilar juftlikda, jamoa bilan hamkorlida bajarishlari esa ularning adabiy nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga o'z fikrini ifoda qilish, boshqalar bilan fikr almashish va jamoada birlikda yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi va bu orqali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va ishonchli kommunikatsiya qobiliyatlari ustida ishlashlarini ta'minlaydi.

Bugungi kunda amalda bo’lgan ona tili hamda o‘qish savodxonligi darsliklarida hamkorlikda, juftlikda ishlashga undaydigan topshiriqlar qamrovi o’rganilib quyidagilar aniqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida kolloborativ yondashuvdan foydalanib dars tashkil etishni talab etadigan topshiriqlar.

Sinflardagi /Darsliklar	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Ona tili	-	21 ta mashq	12 ta mashq	17 ta mashq
O’qish savodxonligi	8 ta topshiriq	31 ta topshiriq	17 ta topshiriq	24 ta topshiriq

Ushbu jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, yangi avlod darsliklari mazmuni o‘quvchilarga nazariy bilimlar berish bilan birga ularga hayotiy ko‘nikmalarga egalik sifatlarini ham tarkib toptirish uchun katta imkoniyat yaratishga yo‘naltirilgan holda tayyorlangan.

Aslida o’quv yili davomida har bir sinf ona tili darsi uchun 136 soat, o’qish savodxonligi uchun esa, 102 soat ajratiladi. Ammo, ushbu 1- jadvaldagi ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki hamkorlikda, juftlikda ishlashga undovchi topshiriqlar bu ko’rsatkichlarning 30 %ini ham tashkil etmaydi(ona tili- 2-sinf 15%, 3-sinf 8%, 4-sinf 12%; O’qish savodxonligi- 1-sinf 11%, 2- sinf 30%, 3-sinf 16%, 4-sinf 23%).

Ushbu natijalarni diagramma orqali ko‘rsatadigan bo‘lsak, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (1-diagrammaga qarang).

Diagrammadagi natijalardan ko’rinib turibdiki, 1-sinf ona tili darsligida esa birorta ham kollaborativ yondashuvga asoslangan toshiriqlar yo’q. Holbuki, hamkorlikda o‘qitish o‘qituvchining ta’lim- tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka tartibda, jamoa bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi, o‘quvchilarning o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayon hisoblanadi. O‘quvchilar topshiriqlar ustida kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar va o‘zlariga hamda o‘z guruhlaridagi o‘rtoqlariga birgalikda yordam beradilar. Bu jarayonni o’quvchi birinchi sinfdanoq darslarda ishtirokchisiga aylansa u yangi o’rtoqlari bilan tezroq muloqotga kirisha oladi, ular bilan do’stona munosabatlarni o’rnatishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Masalan 1-sinf ona tili 1-qism darsligining 11-mavzu 1-mashqida “Do’stlar” nomli kichik hikoya keltirilgan. (2-rasm).



2-rasm. 1-sinf ona tili darsligi, 11-mavzu 1-mashq

Mashq shartiga ko’ra, o’quvchilar hikoyani avval mustaqil o‘qib chiqishlari, keyin esa, o’qituvchi yordamida matn yuzasidan qisqa savol - javob asosida mashq mazmunini tushunib olishlari talab etiladi. Ushbu mashq o‘quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq an’anaviy usuldan qochgan holda bu mashq shartini “pairworking” ya’ni “juftlikda ishlash” metodi bilan o’zgartirilsa, o’quvchilarda bir vaqtning o’zida nafaqat matnni tushunish, balki sinfdoshi, partadoshi bilan muloqotga kirishish, uni tinglab tushunish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllanishi uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.



3-rasm. 1-sinf ona tili darsligi, 6-mavzu 1-mashq

Demak, avval hikoya o’qib chiqiladi. So’ngra shu hikoyadan kelib chiqib o’quvchilar o’z partadoshlarining qiziqishlarini so’rab, bilib olgan ma’lumotlarini 1 ta gapda ifoda etgan holda daftarlariga yozadilar. Gaplaridagi so’zlarning unli harflari tagiga chiziladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Shu darslikning 6-mavzu 1-mashqi (3-rasm)da berilgan shartni ham o'quvchilar juftlikda yoki guruh bo'lib bajarishsa vaqt kamroq sarflanib, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar faolroq o'quvchilar bilan hamkorlikda maqsadga tezroq erishadilar. Mashq mazmuni mohiyatini anglagan holda topshiriqni bajaradilar. Shu bilan birga ushbu o'quvchilarning o'zlarida ishonch, mustaqillik, faollik oshishiga erishiladi.

Dars jarayonida kolloborativ yondashuvdan foydalanishning ijobiy tomonlari o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

-faol ishtirok: o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshadi, chunki ular o'z fikrlarini ifoda etish, bo'shqalarning fikrlarini tinglash va muhokama qilishga undaladi.

-muloqot qobiliyatini rivojlantirish: kolloborativ yondashuv o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan hurmat va tolerantlik hislarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning muloqot ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

-kritik fikrlash: o'quvchilar o'z fikrlarini tahlil qilish va boshqa fikrlarni baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

-jamoada ishlash: kolloborativ yondashuv o'quvchilarni jamoada ishlashga o'rgatishga yordam beradi, ularning hamkorlik qilish va birgalikda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

-ijodiylik: kolloborativ yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o'z g'oyalarini bo'lishish va boshqa fikrlar bilan birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

-til ko'nikmalarini mustahkamlash: o'quvchilar o'z fikrlarini rus tilida ifoda etishga harakat qilish orqali til ko'nikmalarini mustahkamlaydilar va o'zlashtiradilar.

-ma'lumotga asoslangan ta'lim: kolloborativ yondashuv o'quvchilarni ma'lumotlarni tahlil qilishga, manbalardan foydalanishga va xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy darsliklar ta'lim jarayonini intensivlashtirish va o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni kollaboratsiya, ta'lim jarayonida alohida e'tiborga molikdir. Kollaborativ o'qitish metodlari orqali o'quvchilar birgalikda muammolarni hal qilish, fikr almashish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bular o'z navbatida, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlashda sezilarli rol o'ynaydi.

Darsliklarda taqdim etilgan topshiriqlar o'quvchilarga o'zaro hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi, bu esa ularning ishonchini oshirib, jamoa ichida samimiy muloqot va munosabatlarni rivojlantiradi. O'quvchilar guruhlarda ishlash orqali bir- biriga yordam berishni, bir-biridan o'rganishni va innovatsion fikrlashni o'zlashtiradilar. Bularning barchasi ta'lim jarayonining zamonaviy talablarga javob berishini ta'minlaydi va kelajakda muvaffaqiyatga erishishlariga tayyorlaydi.

Shunday qilib, darsliklar va ta'lim metodlari o'quvchilarda ijodkorlik, analitik fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, ularni jamiyatda faol va raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

jamiyatning intellektual taraqqiyotiga xizmat qiladi va kelajakda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida
2. “Yangi O’zbekiston” gazetasi № 163 (952), 2023-yil 17-avgust
3. Azizxo‘jaeva, N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Sharq.
4. Xodjiyev, M. (2005). Ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Qosimova, X. (2010). Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Sattarova, G. (2013). Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. Toshkent: Fan.
7. Karimova, M. (2015). Kollaborativ ta'lim asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: Innovatsiya.
8. Ismoilov, D. (2018). Adabiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyo.
9. D.Sh.Yuldasheva, S.D.Kuranov, D.D.Baynazarova,M.E.Toirova Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-4-sinf Ona tili darsliklari–Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
10. U.B.Aydarova, N.K.Azizova Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-4-sinf O’qish savodxonligi darsliklari–Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Temirova Iqbol Sadriddinovna**, tayanch doktoranti [**Темирова Икбол Садриддиновна**, докторант], [**Iqbol S. Temirova** doctoral student]; manzil: Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy, [адрес: Бухара г. Пиридастгир улица, д. 2], [address: Bukhara, Pyridastgir str., 2]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

TALABALARNING BADIIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

© J.U.Tojiboyev[1]✉
[1]Farg’ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuvning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bu jarayonning ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalarda kreativ yondashuv orqali badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kreativ yondashuv va uning talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni o‘rganildi, nazariy va amaliy manbalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativ yondashuv talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va ularni badiiy-estetik jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida kreativ pedagogik yondashuvning ahamiyatini va bu yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: badiiy-estetik, kreativ, kompetentlik, yondashuv, innovatsion, individual, ijodkorlik, shaxslararo muloqot.

Iqtibos uchun: Tojiboyev J.U. Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuvning o‘ziga xos jihatlari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.323–328.

СПЕЦИФИКА КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

© Ж.У. Тожибоев[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются особенности креативного подхода в развитии художественно-эстетической компетентности студентов и его значение в системе образования.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — формирование и развитие художественно-эстетической компетентности студентов через креативный подход.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании изучены креативный подход и его роль в развитии художественно-эстетической компетентности студентов, проведен анализ теоретических и практических источников.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что креативный подход способствует развитию творческого мышления студентов и их художественно-эстетическому обогащению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило важность креативного педагогического подхода в образовательном процессе и необходимость его дальнейшего развития.

Ключевые слова: художественно-эстетический, креативный, компетентность, подход, инновационный, индивидуальный, креативность, межличностное общение.

Для цитирования: Тожибоев Ж.У. Особенности креативного подхода в развитии художественно-эстетической компетентности студентов. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.323–328.

SPECIFIC ASPECTS OF THE CREATIVE APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE OF STUDENTS

© Jaxongir U. Tojiboyev[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the specific aspects of the creative approach in developing students' artistic-aesthetic competence and its significance in the education system.

AIM: the main objective of the study is to shape and enhance students' artistic-aesthetic competence through a creative approach.

MATERIALS AND METHODS: the study examined the creative approach and its role in developing students' artistic-aesthetic competence, analyzing theoretical and practical sources.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings demonstrated that the creative approach fosters students' creative thinking abilities and enriches them artistically and aesthetically.

CONCLUSION: the study underscores the importance of a creative pedagogical approach in the educational process and the necessity of its further development.

Keywords: artistic-aesthetic, creative, competence, approach, innovative, individual, creativity, interpersonal communication.

For citation: Jaxongir U. Tojiboyev. (2024) 'Specific aspects of the creative approach in the development of artistic-aesthetic competence of students'. // Inter education & global study. №10(1). pp. 323–328. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Bugungi kunda mamlakatimizda san’at sohasidagi islohotlar jamiyatning ijtimoiy ma’naviy ta’limiy badiiy-estetik talab va ehtiyojlari asosida amalga oshirilmoqda. Chunki bugungi yoshlar davlatimiz tomonidan tashkil etilgan bolalar musiqa va san’at maktablaridan tashqari litsey – kollejlar, san’at va madaniyat oliy ta’lim muassasalari hamda pedagogika universitetlarida san’atning o‘zi tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha mukammal bilim olish imkoniga egalar. Bundan tashqari eng chekka hududlarda ham bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyat ko‘rsatayotgani san’at va madaniyat sohasida yuksak badiiy-estetik kompetensiyaga ega bo‘lgan, kreativ fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Respublikadagi barcha bolalar musiqa va san’at maktablari hamda maktabdan tashqari ta’lim muassasalari zamonaviy o‘quv jihozlari bilan to‘liq ta’minlangan. Shuningdek, mamlakatimizdagi barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham bugungi kunda san’at sohasidagi yetuk mutaxassis kadlar faoliyat olib bormoqda. Yaratilgan imkoniyatlar esa pedagoglardan yanada mas’uliyatliroq bo‘lishni, o‘quvchilar ongiga, ruhiyatiga tasviriy sanatining barcha qirralarini singdirishni talab etadi. Buning uchun esa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining bilimi tafakkuri, zarur pedagogik kompetentligi qatorida badiiy-estetik kompetentligi rivojlangan bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa ularda kreativ fikrlash kompetensiyasiga ega pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish alohida e’tibor talab etadi.

Ilk bor kreativ yondashuv (ingl. “creative” – ijod, ijodiy, lot. “creatio” – yaratish, bunyod etish) tushunchasi D. Simpson tomonidan 1922-yilda insonning qolipli fikrlash usulidan voz kechish xususiyatini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi”.

Talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishda kreativ yondashuvni qo‘llash uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonchning mavjudligi.

Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish modeli va texnologiyalarini takomillashtirish mazkur jarayonni tashkil etishga doir izlanishlar hamda tamoyillarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, bizningcha, har qanday ilmiy ishning eng ustuvor vazifalaridan biri, aniq tadqiqotning dastlabki nuqtai nazarlari va amalga oshirish usullarini aniqlash hamda tahlil qilish, ularning kelajakdagi istiqbollarini to‘g‘ri baholash, keyinchalik bilish vositasi sifatida foydalanishdan iborat. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga oid yondashuvlar mohiyati va imkoniyatlarini tahlil qilish bilan bevosita bog‘liq.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Mazmuniga ko‘ra “yondashuv” atamasi ko‘p qirrali bo‘lib, quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi:

- ta’lim ishtirokchilarining ijtimoiy ong va o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi g‘oyaviy kategoriya;

- ta’lim jarayoni, uning komponentlari, pedagogik munosabatlarning subyektlari – pedagog va ta’lim oluvchilrning o‘zaro faoliyatini tizimli tashkil etish;

- tadqiqot obyektini ifodalaydigan tushunchalar sifatida fundamental metodologik yo‘nalish;

- faoliyatning asosiy mazmuni va yetakchi g‘oyalarini belgilaydigan tamoyillar yig‘indisi;

- o‘qituvchining o‘quvchilar va sinf jamoasi bilan o‘zaro muloqotdagi madaniyatini belgilaydigan asosiy aksiologik yo‘nalganlik.

Biz tadqiqotimizda nazariy va amaliy ahamiyatga ega materiallarni o‘rganish asosida bo‘lajak pedagoglarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga doir kreativ yondashuvni aniqlashtirdik. Demak yondashuvning yuqorida keltirilgan komponentlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kreativlik elementlari tatbiq etilsa badiiylik, ijodiy yo‘nalganlik imkoniyatlari ortadi.

Auditoriya va auditoriyadan tashqri faoliyatda individual kreativ muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini nafaqat turli xil bilimlar bilan boyitadi, balki u bilan o‘zining hayotiy va kasbiy tajribasi, dunyoning o‘ziga xos hissiy qarashlari bilan o‘rtoqlashadi. Ushbu jarayonda eng muhimi, san’at asarlarini mustaqil ravishda tahlil qilishga o‘rgatish, ularning oldida ulkan san’at dunyosini, jahon san’at madaniyatini kashf etish va ijodiy o‘zini o‘zi qadrlashning yuqori mezonlarini shakllantirishdir. Bu esa shuni anglatadiki, yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasiga qo‘shimcha ravishda, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi boy tasavvurga, moslashuvchan nostandart fikrlashga, ongning birgalikdagi faoliyati uchun rivojlangan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak, ya'ni, ijodiy fazilatlarga ega - kreativ shaxs bo‘lishi kerak.

Kreativlikni shaxsning o‘ziga xos xususiyati va uning aql-idrokining ko‘rsatkichi namoyon bo‘lishi sifatida taqdim etishda, avvalambor, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash kerak: san’at asarlariga tashabbuskor yondoshish, ijodiy g‘oyalarni yaratish qobiliyati, badiiy asarning rivojlantiruvchi qiyofasini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati, bu yangi badiiy tafsilotlarni kiritish bilan bog‘liq yoki aksincha, badiiy tasvirning yaxlitligini buzadigan barcha kamchiliklarni bartaraf etishdir. Shu sababli, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kreativligi san’at asarining badiiy-majoziy mazmunli mohiyatini mustaqil ravishda anglash va kompozitsiyaning badiiy kontseptsiyasini aktuallashtirishning dolzarb muammolarini mustaqil ravishda hal qilish, avvalgi san’at asarlari tajribasidan foydalanish va o‘zgartirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Ta’limiy va tarbiyaviy jarayonda pedagogik kreativlik talaba shaxsining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi ijodiy fazilatlar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi, bu uning maktab o‘quvchilari bilan ishlashning maqbul shakllarini innovatsion izlashda o‘z ifodasini topadi,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

natijada uning kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuv asosida yuqori samaradorlikka erishishi ta’minlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kreativligi mash'ala sifatida uning ijodiy ishining barcha jihatlarini - ijro etuvchi va pedagogik masalalarni yoritib beradi hamda uning o‘quvchilarining shaxsiy faoliyati bo‘yicha fazilatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ularning tasviriy yutuqlarini rag‘batlantiradi va ularning ijodiy natijalarining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun talabaning shaxsiyati qanchalik yorqin va iste'dodli bo‘lsa, uning ta'siri shunchalik kuchli va samaraliroq bo‘ladi, bu esa tasviriy san’at o‘qituvchilarini ijodiy mustaqillikka intilishlarini rag‘batlantiradi.

Pedagogikada innovatsion yo‘naltirilgan ta'lim individual ijodiy yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun o‘quvchilarida kreativik fazilatlarini shakllantirishdan oldin bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kreativ individualligining barcha qirralarini aniq bilishi, shaxsiy fazilatlari va kasbiy ko‘nikmalarini, ayniqsa, muqarrar tuzatishga muhtoj bo‘lganlarini yetarli darajada baholashi kerak. Doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj o‘qituvchining innovatsion faoliyatiing asosiy, asosiy sifati bo‘lishi kerak. Chunki talabalar uchun uning shaxsiy va ijodiy qiyofasi asosan ularning hayotiy va ijodiy yo‘nalishlari va da'volarini belgilaydigan standartga aylanadi.

Shunday qilib, pedagogika ta'limini innovatsion tizimining asosi ta’lim jarayonida talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga nisbatan kreativ pedagogik yondashuv bo‘lishi mumkin. Bu esa tadqiqotimizda maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida ishlaydi, uning davomida pedagogika yo’naishi talabalarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga nisbatan ijodiy pedagogik ta'sirning murakkab nisbati va uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizda ilgari surilgan bu pedagogik yondashuvning eng muhim jihati shundaki, u talabalarni pedagogika darsida o‘qituvchi bilan birgalikda muloqotga asoslangan samarali jarayonga chuqur jalb qilishga yordam beradi va dars paytida talabalarning o‘zini o‘zi anglashining yangi usullari va uslublarini izlashga undaydi. Shuning uchun tadqiqotimizda "o‘z-o‘zini anglash" tushunchasi talabaning kasbiy o‘sishi va o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan doimiy istagi tufayli potentsial ijodiy imkoniyatlarini, xususan, kreativlik salohiyatini rivojlantirishning pedagogik boshqariladigan jarayoni sifatida talqin etiladi.

Yuqoridagi qoidalar kreativ yondashuvning kontseptual platformasi bo‘lib, uning asosiy mazmuni va mohiyatini aks ettiradi. Kreativ pedagogik yondashuvga asoslangan didaktik kompleks doirasidagi pedagogik ta'sir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik jarayonga ijodiy munosabatiga asoslanadi. Bunday pedagogik yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik kreativlik va har bir dars davomida evristik qidiruv holatini yaratish, uning muhitida har bir talaba deyarli tasvirlash vazifalarini mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini, badiiy asar ustida ishlash jarayonida tasvirlashga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyatini egallashga majbur bo‘lishini taqazo etadi. Ongning samarali kombinatsion faoliyatining ushbu jihatlari allaqachon kreativ mustaqillikning elementlari hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Pedagogika darslarida o‘qitishning samarali modeli har bir talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uning ijodiy mustaqilligini shakllantirish, individual qobiliyatlari vositasida badiiy ifodalashning o‘ziga xosligini tasvirlay olish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni ustuvor maqsad qilib qo‘yishi kerak. Yuqorida ta’kidlanganlarga asoslanib, talabalarning kreativ mustaqilligini faollashtirish jarayoni, asosan o‘qituvchining shaxsiy ijodkorligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham pedagog tasviriy va pedagogik faoliyat sohasida yuqori darajadagi kompetentsiya va professionallikka ega bo‘lishi talab etiladi. Binobarin, pedagogik mahorat omili tasviriy san’at sohasida ta’lim olayotgan talabalarining ijodiy mustaqilligini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Guilford J.P. Demos G.D. Torrance E.P. Factors That Aid and Hinder Creativity // Creativity Its Educational Implications. John Wiley and Sons, Inc. N.Y., 1967. 336 p.
2. Хеллер К.А. Роль креативности в объяснении одаренности и выдающихся достижений // Актуальные проблемы психологии Том 6. Психология одаренности / Под ред. Р.А. Семеновой Пономаревой. - К., 2002. - Вып. 1. - С. 104-120.
3. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.
4. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students’ Aesthetic Culture in the Process of Globalization.International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.
5. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 60-64.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tojiboyev Jaxongir Umidjon o‘g‘li**, o’qituvchi [**Тожибоев Жахонгир Умиджон угли**, преподаватель], [**Jaxongir U. Tojiboyev,** teacher]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19.], [address: 19 Murabiylar str., Ferhana, 150100].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

SPORT MASHG‘ULOTLARIGA O‘RGATISHNING BOSQICH VA USLUBLARI

© A.A. Tilakov[1]✉
[1]Jizzax Davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur makolada bolalarni sport mashg‘ulotlariga saralab olish hamda ular bilan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘laniladigan usul, vositalari yoritib berilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – sport mashg‘ulotlarida ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda sport mashg‘ulotlarini tashkil qilish usullari va ularni qo‘llashda mavjud tajribalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, sport mashg‘ulotlarini bosqichma-bosqich tashkil etish va usullarni takomillashtirish bolalar sport tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari sport mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish ta’lim jarayonini yanada yaxshilashi mumkinligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: sport mashg‘ulotlari, ta’lim samaradorligi, texnik usullar, jismoniy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Tilakov A.A. Sport mashg‘ulotlariga o‘rgatishning bosqich va uslublari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.329–334.

ЭТАП И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© А.А.Тилаков[1]✉
[1] Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описаны методы и средства, используемые при отборе детей для спортивной подготовки и организуемых с ними тренировок.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — улучшить процесс обучения детей в спортивных тренировках через использование научных подходов и инновационных методов, что способствует повышению эффективности подготовки и укреплению их здоровья.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ научной литературы, посвященной спортивной подготовке, а также практическое изучение методов обучения технике и тактике спортивных игр.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование поэтапного подхода в обучении спортивным упражнениям существенно улучшает техническую и тактическую подготовку, а также физическое развитие детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что применение инновационных технологий и научно обоснованных методов обучения в спортивных тренировках способствует всестороннему развитию детей и повышению их уровня физической подготовки.

Ключевые слова: спортивная подготовка, поэтапное обучение, технические навыки, физическое развитие, инновационные технологии, образовательная эффективность.

Для цитирования: Тилаков А.А. Этап и методика обучения спортивной деятельности. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 329–334.

STAGE AND METHODS OF TEACHING SPORTS ACTIVITIES

© A.A. Tilakov[1]✉
[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the methods and tools used in the selection of children for sports training and the training organized with them.

AIM: the main objective of the study is to improve the process of teaching sports training to children by utilizing scientific approaches and innovative methods, thereby enhancing training efficiency and promoting their physical development.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature related to sports training, as well as a practical review of methodologies for teaching technical and tactical skills in sports.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that the use of a phased approach in teaching sports exercises significantly enhances the technical and tactical preparation of children while improving their physical development.

CONCLUSION: the study results confirmed that the application of innovative technologies and scientifically validated methods in sports training contributes to the comprehensive development of children and the improvement of their physical fitness levels.

Keywords: sports training, phased learning, technical skills, physical development, innovative technologies, educational effectiveness.

For citation: Tilakov A.A. (2024) ‘Stages and methods of teaching sports activities’, // Inter education & global Study, (10(1)), pp. 329–334. (In Uzbek).

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi sharofati bilan bolalar urtasidagi jismoniy madaniyat va sportga e’tibor yuqori darajada kuchaydi. Bunga misol O‘zbekiston

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida» 2002 yil 24 oktyabrdagi PF-3154-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda Jamg‘armaga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalar va zarur shart-sharoitlar yaratish inobatga olingan. Natijada o‘zbek olimlari tomonidan bolalar sportini tashkillashtirish, ommaviy sportni yanada yukori cho‘qqilarga kutarib, sportni hozirgi davr andozalariga mos xar tomonlama asoslab, jismoniy madaniyat uslubiyatiga O‘zbekistonga xos yangilikni kiritmokdalar. Bola tarbiyasi pedagogik jamoa a’zolari faoliyatining asosiy yunalishlaridan biri bulib, bu sport turlaridan tugaraklarni, umumiy jismoniy tayyorgarlik, soglomlashtirish guruhlarini tashkil kilish bilan bog‘lik bulgan vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiradilar.

Xozrgi kuchli fuqarolik jamiyati qurish davrida jamiyatning uzi oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yuqori talablarni quyadi. Chunki mutaxassis keng doiradagi dunyo qarashga, o‘z kasbini o‘zlashtirish uchun talab etiladigan chuqur bilimga va uni o‘z o‘quvchilariga singdira oladigan qobiliyatga ega bulishi zarur. Shu sababli “Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari" fani buyicha o‘quv-mashq ishlarini tashkil etish, sohadagi ilmiy-uslubiy bilimlar tizimini o‘quvchilarga singdirishga qaratilgan. Bu fan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, biomexanika fanlari bilan boglis bulib, sport turlarini utsitish uslubiyati, shuningdekb murabbiylik amaliyoti bilan chambarchas boglisdir.

Sportni ijtimoiy xodisa sifatida o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u asosan, jamiyatga insonning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat kiladi, shu bilan birga, uning ma’naviy kamolatiga xam kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur xususiyati jismoniy tarbiyaning mushtarak belgisidir. Insonning ijtimoiy ongini rivoj topganligi jismoniy madaniyatni vujudga kelishidagi sub’ektiv omili deb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi fan sifatida insonning jismoniy tarbiya va sport buyicha jamiyatda ko‘rsatgan faoliyatini, yangi shaxsning mazkur faoliyat davomida qonuniy tarzda shakllanishi va jismonan komil inson bo‘lib yetishishini o‘rganadi va tatbiq qiladi. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiyligi uning oqibatlaridan samarali ravishda manfaatdordir deb hisoblaydi (O.A.Milshteyn). Bu oqibatlar majmui, sport bilan shug‘ullangan har bir jamoa a’zosi, har bir ijtimoiy guruh uchun qanchalik foyda yoki ziyon keltirishini aniqlab beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- aholini barcha ijtimoiy gurux va tabakalariga jismoniy tarbiya tizimining ijtimoiy ta’siri;
- jismoniy tarbiya boshqaruvini tashkil kilish va uning faoliyat samaradorligi;
- har bir jamiyat a’zosining ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lishiga, uning ijodkor shaxs sifatida har tomonlama kamol topishiga, uning faoliyati, ijtimoiy siyosiy harakati, umuman, ijtimoiy qiyofasi va faoliyatiga, hayotda tutgan o‘rniga sportning tarbiya, ta’lim va sog‘lomlashtirishga qaratilgan ta’sirining amaliy natijasi;
- mashg‘ulotdan bo‘sh vaqtlarda samarali dam olish usullari va bunday dam olishning ommaviyligi;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

- ommaviy axborot vositalari orqali jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilishning samaradorligi;

- Sportni targ‘ib qilishning samaradorligi;

- xalqaro sport harakatlari va olimpiya uyinlarining rivojlanishiga, turli mamlakat xalqlari o‘rtasida tinchlik - totuvlik va xamkorlikning rivojlanishiga, keskinlikni yumshatishga qo‘shgan hissasining samaradorligiga bog‘liqdir.

Sport qo‘mita jamiyat oldida, bir qator muhim vazifalarni bajarib kelgan hozirgi kunda vazifalar bundan xam ko‘paya boradi. Sport shaxsning har tomonlama rivojlanishiga maxsus tarzda ta’sir kursatadi, xayotiy ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga yordam beradi, ma’naviy, axloqiy va aqliy o‘sishga, shaxsning mardlik, iroda, ruxiy tetiklik kabi xususiyatlarini chiniqtirishga ko‘maklashadi, insonlarda o‘zaro hurmat, do‘stlik xissiyotlarini tarbiyalaydi, o‘zaro yordam, oliyjanoblik, halollik, baynalminallik ruhi va boshqalar sportning eng muxim fazilati hisoblanadi. Sport ko‘ngilxushlik va muxlislik bilan birgalikda sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi, uning sog‘lomlashtirish turlari, dam olish, jushkin hordik chiqarishga qaratilgan bo‘lib, sog‘lom xayotning asosi bo‘lib xisoblanadi. Sportda ta’lim degan bir tushuncha chambarchas holatda ishlatiladiki buning natijasi ijobiylikka qaratilganyu Chunonchi: “Ta’lim" bu shug‘ullanuvchilar bilim, ko‘nikma va malakani egallab olish jarayoni. Ta’limning asosiy mazmuni - o‘yin va mashg‘ulotlarning texnik elementlarini, taktikadagi oddiy individual va guruh qiziqishlarini, harakatlarini shakllantirib borishdan iborat. Sport ta’limi bevosita mashg‘ulot bilan to‘yinadiyu "Mashg‘ulot" bu olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash hamda takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi hisoblanadi. Mashgulotning asosiy mazmuni-texnik usullarni, taktikadagi individual, gurux va jamoa harakatlarini takomillash-tirishdan, ta’limiy, jismoniy, axlokiy va irodaviy fazilatlarni rivojlantirishdan iborat.

“Ta’lim" va "Mashg‘ulot" tushunchalariga maxsus tashkil kilingan ko‘p yillik yagona pedagogik jarayon deb ham qarash zarur. Ularni bir-biridan keskin suratda ajratib bo‘lmaydi, chunki biz ta’lim bera turib, sport mashg‘ulotlariga o‘rgatamiz va ayni chogda sport mashg‘ulotlariga o‘rgata turib ta’lim ham beramiz. "Ta’lim" va "Mashg‘ulotni tushuncha sifatida ajratish esa o‘kuv-mashg‘ulot ishining o‘ziga xos vizifalari maqsadlari borligini yaqqolroq aniqlash imkonini yaratadi. Bu mashg‘ulotlarning maksadi bolalarni anik reja asosida sport musobaqalariga qatnashishlari uchun tayyorlash bilan boglik bulgan ishlarni amalga oshirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada bolalar sportida mashg‘ulotlarga o‘rgatishning butun jarayonini shartli ravishda "Ta’lim" va "Mashg‘ulot" kismlariga bulish mumkin. Sport mashg‘ulotlariga tayyorlash jarayonining turli bosqichlarida ta’lim va mashg‘ulotning salmog‘i tabiiy ravishda o‘zgarib ham turadi. Biz yuqorida "Ta’lim" va "Mashg‘ulot" tushunchalariga bejiz to‘xtalib o‘tmadik. Chunki, biz har kanday mashg‘ulot o‘tkazishimizdan qatiy nazar, ta’limiy, tarbiyaviy, axloqiy mezonlarga tayanamiz, ular vositasida bolalarni sport mashgulotlarga o‘rgatish jarayonlarining bosqich va uslublarini ishlab chiqamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Birinchi boskichda o‘rganiladigan mashg‘ulot (harakat) texnikasi batafsil tanishtirishdan iborat bo‘lib bu bilan tanishish, shug‘ullanuvchilarni bosqichda, aytib berish, ko‘rsatish va tushuntirish uslublari qo‘llaniladi. O‘kituvchi shaxsan ko‘rsatish bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi: kinofilm, tasviriy film, sxema, sport maydonlari maketi va hokazo. Bu jarayonlarda esa namoyishni tushuntirishlar bilan qo‘shib olib borish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchilarning dastlabki urinishlari shug‘ullanuvchilarda birlamchi mashg‘ulot (harakat) sezgisini shakllantiradi. Ikkinchi bosqichda o‘rgatilayotgan mashg‘ulot texnikasi soddalashtirilgan holatda o‘rgatiladi. Mazkur o‘rganish bosqichida muvaffaqiyat ko‘p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ular o‘zining tuzilishi, shakliga ko‘ra o‘rganilayotgan mashg‘ulot texnikasiga yaqin va o‘kuvchilar bajara oladigan bo‘lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan harakatlarda (hujum zarbasi), uni tashkil kiluvchi ijro etuvchi asosiy qismlarga (zvenolarga) ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi, ya’ni buyurish, ko‘rsatma berish, ko‘rish va eshitish, ko‘rib ilg‘ash, texnik vositalar va xokazo. Shuningdek ko‘rgazmali harakat o‘qituvchi-murabbiylarning bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo‘llash, to‘pga bo‘lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, axborot, ovozni belgilash kabi uslublar alohida axamiyatga ega bo‘ladi. Navbatdagi boskichda texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o‘rgatish jarayoni kuzatiladi xamda quyidagilar qo‘llaniladi: takroriy usul; mashgulot harakatlarini murakkab sharoitlarda bajartirish; o‘yin va baxolash uslubi; qo‘shimcha uslub; davra; aylana mashklari.

Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Kup marotaba takrorlashgina mashg‘ulotga bo‘lgan malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash sharoitlarda mashq bajarishni harakat sharoitini o‘zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni taqazo etadi. Hatto toiqganda ham mashqlar bajartiriladi, qo‘shma va uyin uslublari bir vaqtning o‘zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o‘stirish masalalarini hal qilishga, texnik-taktik tayyorgarlik va uyin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Turtinchi boskichda harakatni o‘yin jarayonida mustahkamlash ko‘zda tutiladi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi ko‘llaniladigan (rasmlar, jadvallar, o‘quv filmlari, tasviriy filmlar) jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, "o‘yin" va "bellashish" uslublarining o‘rni ahamiyatli bo‘ladi.

Tayyorgarlik va o‘quv o‘yinlarida harbir uslubni (malakani) o‘rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko‘zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi bu musobaqalashishdir. Mashg‘ulotlarga o‘rgatishda faol uslublar katta ahamiyatga, imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida muammoli o‘qitish (muammoli vazifalarni qo‘yish, yuzaga keltirish) va o‘zining o‘zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlarni qo‘yish, uning yechimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o‘zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi. Yukorida aytilganlarni qo‘l to‘pi, basketbol, futbol sport turi mashg‘ulotlarida qo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lib. Biz yuqorida bolalar sportida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

mashg‘ulotlarga o‘rgatishning dastlabki bosqich va har bir bosqich qamrab olgan uslublari xususida to‘xtalib o‘tdik. O‘ylaymizki, ko‘rib, o‘rganib chiqqan bosqich va uslublarimiz ta’lim istemolida o‘zining amaliy ahamiyati va natijasini ko‘rsatadi. Bolalarning sog‘ligini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojoanishini taminlagan holda har tomonlama rivojlangan yuqori malakali o‘smir sportchilarni tayyorlashni amalga oshirshda shug‘ullanuvchilar orasidan o‘quv guruhga ajratiladi:

Boshlang‘ich tayyorlov gruhlari (3-yillik);
- O‘quv trenirovka guruhlari (4-yillik);
- Sportga takomillashuv guruhlari(3-yillik);
- Oliy sport mahorati guruhlari(3-yillik va undan ortiq).

Shug‘ullanuvchilar qaysi tashkilotta qarashli bo‘lsa shu tashkilot tomonidan tasdiqlangan sport tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq sport mashg‘ulotlari xamda musobaqalarida ishtirok etish butun yil davomida mashg‘ulotlarga qatnashish yozgi va qishgi tatil davrlarida yosh shug‘ullanuvchilar faol dam olishlari va sport sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. N.A.Tastanov. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati/ darslik “Sano- standart” nashryoti, 2017. 480 bet.
2. A.R.Taymurodov, S.F.Atajanov. Sport pedgogik mahoratini oshirish (kurash) –T “Fan va texnologiya”, 2017. 272 bet.
3. K.Yusupov. Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. “G`.G`ulom”nomidagi nashriyot-mabaa uyi, 2005. 132 bet.
4. F.A.Kerimov. Kurash elementlariga ega harakatli o`yinlar. –T. “Ilmiy texnika” axboroti-press nashriyoti, 2020. -88 bet.
5. Jumadurdiyev, Bahodir. (2023). TURLI YOSHDAGI KURASHCHILARDA JISMONIY SIFATLARINING. . res kon 27.11.2023. 300-302.
6. Jumadurdiyev, Bahodir. (2023). Sambo kurashi shug`illanish jarayonida og`ir sport turlari bilan birga jismoniy mashqlar res kon. mart 2023. 470-472.
7. Jumadurdiyev, Bahodir. (2023). Tarbiyalashda kurashning ahamiyati. .res kon. 27-11-2023. 297-299.
8. Tilakov, A. A. (2023). KURASH TARIXINI ILMIY ISBOTLARI. Uzbek Scholar Journal, 23, 16-19.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Tilakov A.A** , katta o‘qituvchi [**Тилаков А.А**, старший преподаватель], [**Tilakov A.A** senior teacher]; manzil: 130100.Jizzax viloyati, Jizzax shahri, sharaf Rashidov ko'chasi, 4-uy., [адрес: 130100.Джизакская область, город Джизак, улица Шарофа Рашидова, дом 4.], [address: 130100.Jizzakh region, Jizzakh city, Sharof Rashidov street, 4].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONNI SHAKLLANTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

© D. Toshtemirova[1]✉
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bo‘lajak pedagoglarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – kelajakdagi pedagoglarning ta’lim jarayonida tabiatga asoslangan ta’limni qo‘llash orqali bolalarda jarayonni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida tabiatga asoslangan ta’lim yondashuvlari, bolalar rivojlanishiga ta’siri va pedagoglarni tayyorlash jarayonidagi ahamiyati bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari tabiatga asoslangan ta’limning bolalarda tanqidiy fikrlash, hissiy farovonlik va ekologik mas’uliyatni rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni bolalar bilan ishlashda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar bilan jihozlashda muhim o‘rin tutadi.

XULOSA: tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda tabiatga asoslangan ta’limning ahamiyatini tasdiqladi va ushbu yondashuvni pedagogik dasturlarga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: jarayonni shakllantirish ko‘nikmalari, tabiatga asoslangan ta’lim, bolalarni rivojlantirish, ekologik mas’uliyat, pedagogik dasturlar, innovatsion yondashuv.

Iqtibos uchun: Toshtemirova D. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.335–341.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА ПРИОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ К ПРИРОДЕ

© Д. Тоштемирова[1]✉
[1]Джизакский государственный педагогический университет, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется развитие навыков формирования процессов у будущих педагогов через знакомство детей с природой, а также

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

теоретические и практические аспекты применения этого подхода в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить стратегии подготовки будущих педагогов, которые позволят эффективно использовать обучение, основанное на взаимодействии с природой, для развития у детей навыков формирования процессов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведён анализ научной литературы по вопросам природы как образовательного инструмента, её роли в развитии детей и включения природоориентированных методик в программы подготовки педагогов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что природоориентированный подход способствует развитию критического мышления, эмоционального интеллекта и экологической осведомлённости у детей, а также помогает педагогам осваивать практические навыки работы с природными методиками обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили необходимость интеграции природоориентированного обучения в программы подготовки педагогов, что способствует более эффективному образовательному процессу и укреплению связи детей с природным миром.

Ключевые слова: навыки формирования процессов, природоориентированное обучение, подготовка педагогов, экологическая осведомлённость, педагогические стратегии, инновационные методики.

Для цитирования: Тоштемирова Д. Педагогическое содержание развития навыков формирования процесса приобщения детей к природе // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 335–341.

THE PEDAGOGICAL CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF SKILLS FOR THE FORMATION OF THE PROCESS OF INTRODUCING CHILDREN TO NATURE

© Dilnura Toshtemirova[1]✉
[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the development of process formation skills in future educators through introducing children to nature, emphasizing the theoretical and practical aspects of this approach in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to identify strategies for preparing future educators to effectively utilize nature-based education for developing children's process formation skills.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on the role of nature as an educational tool, its impact on child development, and the integration of nature-oriented methodologies in teacher preparation programs.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrated that nature-based approaches significantly enhance critical thinking, emotional intelligence, and ecological awareness in children while equipping educators with practical skills to implement nature-based teaching methodologies.

CONCLUSION: the study results confirmed the necessity of integrating nature-based education into teacher preparation programs, contributing to a more effective educational process and strengthening the connection between children and the natural world.

Keywords: process formation skills, nature-based education, teacher preparation, ecological awareness, pedagogical strategies, innovative methodologies.

For citation: Dilnura Toshtemirova. (2024) 'The pedagogical content of the development of skills for the formation of the process of introducing children to nature', // Inter education & global study, (10(1)) pp. 335–341. (In Uzbek).

Tez texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya bilan tavsiflangan asrda bolalar va tabiiy dunyo o'rtasidagi aloqani uzib qo'yishdan xavotir kuchaymoqda. Bu otryad yosh avlodimizning jismoniy, hissiy va kognitiv rivojlanishi uchun juda katta oqibatlarga olib keladi. Ushbu masalaga javoban ushbu ilmiy maqola jarayonni shakllantirish ko'nikmalari tushunchasini va ularning bolalar rivojlanishidagi asosiy rolini o'rganadi. Xususan, biz bolalarni tabiat bilan tanishtirish kelajakdagi o'qituvchilarda ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirish uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkinligini o'rganamiz.

"Jarayonlarni shakllantirish ko'nikmalari" atamasi murakkab tizimlar va jarayonlarni tushunish va ular bilan shug'ullanish uchun asosiy bo'lgan kognitiv, hissiy va amaliy kompetentsiyalarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalarning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish orqali biz ularning tabiatga asoslangan ta’lim kontekstidagi ahamiyatini tushunish uchun asos yaratamiz.

Bizning tadqiqotimiz tizimli fikrlash va kuzatishdan tortib muammolarni hal qilish va hissiy intellektgacha bo'lgan jarayonni shakllantirish ko'nikmalarining turli tarkibiy qismlarini ajratishdan boshlanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ekologik savodxonlik uchun, balki har tomonlama barkamol va barkamol avlodni tarbiyalash uchun ham zarurdir.

Bundan tashqari, biz tabiatga asoslangan ta'limning ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun kuchli vosita sifatida ahamiyatini yoritib beramiz. Ushbu pedagogik yondashuv nafaqat tabiatni qadrlashni, balki bolalarga atrof-muhitni samarali boshqarish va himoya qilish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni kuchaytiradi. Tabiatga asoslangan ta'lim tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hissiy farovonlikni rivojlantirish, atrof-muhit haqida xabardorlikni rivojlantirish va ijodkorlikni rag'batlantirish uchun ko'rsatildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Ushbu kontekstda o‘qituvchilarning muhim rolini e’tirof etgan holda, biz bo‘lajak o‘qituvchilarni tabiatga asoslangan ta’limni o‘qitish amaliyotiga integratsiyalash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish strategiyalarini taklif qilamiz. Tabiatga asoslangan o'quv dasturini o'z ichiga olgan holda, tajribaviy o'rganishni osonlashtiradigan, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taklif qilgan holda va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari o'qituvchilarning keyingi avlodi bolalar bilan mazmunli o'zaro ta'sir qilish orqali jarayonni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishini ta'minlaydi. tabiiy dunyo.

Jarayonni shakllantirish ko'nikmalari: nazariy asos

Jarayonni shakllantirish ko'nikmalari o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator kognitiv, hissiy va amaliy qobiliyatlarni o'z ichiga oladi, ular shaxsning murakkab tizimlar va jarayonlarni tushunish va samarali o'zaro ta'sir qilish qobiliyatining ajralmas qismidir[1]. Ta'lim, xususan, tabiatga asoslangan ta'lim kontekstida bu ko'nikmalar bolalarda har tomonlama rivojlanishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ekologik savodxonlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo'limda biz jarayonni shakllantirish ko'nikmalarining nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz va ularning turli tarkibiy qismlarini o'rganamiz.

Tizimli fikrlash: jarayonni shakllantirish ko'nikmalarining asosida tizimli fikrlash yotadi, bu odamlarga tabiiy ekotizimlardagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqliklarni tan olish va tushunishga imkon beradigan kognitiv qobiliyatdir[2]. Tizimli fikrlash dunyoni o'zaro bog'langan komponentlar tarmog'i sifatida ko'rishni o'z ichiga oladi, bu erda bir qismdagi o'zgarishlar butun tizimga to'lqinli ta'sir ko'rsatishi mumkin. U odamlarni organizmlar, ekotizimlar va atrof-muhit jarayonlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishga undaydi. Tizimli fikrlash orqali bolalar murakkab ekologik muammolarni tahlil qilish va kengroq ekologik kontekstni hisobga olgan holda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Kuzatish va so'rov: jarayonni shakllantirish ko'nikmalari qiziquvchanlik va ilmiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan kuzatish va izlanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bolalar tabiatan qiziquvchan bo‘lib, ularni tabiat olami haqida kuzatishlar o‘tkazishga, savollar berishga va javob izlashga undash orqali o‘qituvchilar ularda chuqur hayrat tuyg‘usini, tevarak-atrofni o‘rganishga intilishni rivojlantirishga yordam beradi[3]. Kuzatish va izlanish ko'nikmalari tanqidiy fikrlashni, gipotezalarni shakllantirishni va tadqiqot usullarini rivojlantirishni ta'minlaydi, bu ilmiy ishlarda ham, kundalik muammolarni hal qilishda ham qimmatlidir.

Muammoni hal qilish: jarayonni shakllantirish ko'nikmalari muammolarni hal qilishda qo'llaniladi, bunda odamlar o'zlarining ijodiy va tahliliy qobiliyatlarini atrof-muhit muammolari va saqlash va barqarorlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun qo'llaydilar. Jarayonni shakllantirishning bu jihati bolalarda vakolat va vakolat tuyg'usini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Muammolarni hal qilish ko'nikmalari ularga mahalliy tabiatni muhofaza qilish tashabbuslaridan tortib global barqarorlik sa'y-harakatlarigacha

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ekologik muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi[3]. Atrof-muhitning bo'lajak boshqaruvchilari sifatida kuchli muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lgan bolalar 21-asrning murakkab ekologik muammolarini hal qilishga ko'proq tayyor.

Hissiy intellekt: hissiy intellekt, ayniqsa, tabiatga asoslangan ta'lim kontekstida jarayonni shakllantirish ko'nikmalarining ajralmas qismidir. Bu tabiatga nisbatan empatiya va hissiy aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi, bu atrof-muhitni boshqarish uchun kuchli turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yuqori hissiy intellektga ega bo'lgan bolalarda tabiiy dunyoga chuqur muhabbat paydo bo'lishi ehtimoli ko'proq bo'lib, uni himoya qilish va asrab-avaylash uchun umrbod intilishga olib keladi. Hissiy intellekt, shuningdek, atrof-muhit uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi, bolalarda ular atrofdagi dunyoga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi.

Amaliy ko'nikmalar: kognitiv va hissiy qobiliyatlardan tashqari, jarayonni shakllantirish ko'nikmalari tabiiy dunyo bilan samarali aloqa qilish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi[5]. Ushbu ko'nikmalar ochiq havoda omon qolish texnikasi, o'simliklarni aniqlash, cho'lda navigatsiya va tabiatga asoslangan san'at va hunarmandchilikni o'z ichiga olishi mumkin. Amaliy ko'nikmalar nafaqat bolaning tabiat bilan muloqot qilish qobiliyatini oshiradi, balki tashqi muhitda o'zini o'zi ta'minlash va o'ziga ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, ular bolalarga atrof-muhit bilan aloqalarini chuqurlashtiradigan aniq tajribalar beradi.

Jarayonni shakllantirish ko'nikmalari yaxlit rivojlanish va ekologik savodxonlik uchun keng qamrovli asosni ifodalaydi. Ushbu ko'nikmalar tizimli fikrlash, kuzatish va izlanish, muammolarni hal qilish, hissiy intellekt va amaliy qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Tabiatga asoslangan ta'lim orqali ushbu ko'nikmalarni tarbiyalash orqali o'qituvchilar bolalarni sayyoramiz oldida turgan murakkab muammolarni hal qilish uchun jihozlangan bilimdon, rahm-shafqatli va atrof-muhitga mas'uliyatli shaxslar bo'lishlari mumkin[6].

Tabiatga asoslangan ta’limning ahamiyati.

Texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya tobora kuchayib borayotgan dunyoda tabiatga asoslangan ta'limning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Tabiatga asoslangan ta'lim bolalarni o'rganish va kashf qilish uchun tabiiy muhitga cho'mtirishni o'z ichiga oladi, bu bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadigan keng ko'lamli imtiyozlarni beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

Tabiatga asoslangan ta'lim bolalarni amaliy, izlanishga asoslangan o'rganishga undaydi. Bolalar tabiiy muhitni o'rganayotganda, ularga savollar berish, kuzatishlar va atrofdagilar bilan tajriba qilish imkoniyati taqdim etiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki bolalar tabiatdagi tajribalarini tahlil qilish va sharhlashni o'rganadilar[4]. Ularda tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari bo‘lgan real muammolarga xulosalar chiqarish, farazlar qilish va yechim izlash ko‘nikmalari shakllanadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Hissiy farovonlikni oshirish: tabiiy sharoitda vaqt o'tkazish bolalarning ruhiy salomatligi va hissiy holatini yaxshilash bilan bog'liq. Tabiat stress va tashvish darajasini kamaytiradigan tinch va oziqlantiruvchi muhitni ta'minlaydi. Bundan tashqari, bolalar tabiatda tez-tez boshdan kechiradigan hayrat va qo'rquv hissi ijobiy hissiy rivojlanishga yordam beradi. Tabiatga asoslangan ta'lim tabiiy dunyo bilan chuqur aloqani rivojlantiradi, bu esa hissiy barqarorlikni oshiradi va baxt va qoniqish hissini oshiradi.

Ekologik ongni rivojlantirish: tabiatga asoslangan ta’lim ekologik ong va mas’uliyat hissini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi[7]. Bolalar tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazar ekan, ularda atrof-muhit bilan chuqur bog‘lanish, uning go‘zalligi va murakkabligini chinakam qadrlash hissi paydo bo‘ladi. Bu bog‘liqlik ekologik savodxonlik uchun asos yaratadi, bu esa ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalarga ekotizimlar, biologik xilma-xillik va tabiiy sharoitlarda tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida ma’lumot berish sayyoramizni himoya qilishga sadoqat va sadoqat hissini uyg‘otadi.

Ijodkorlikni rag'batlantirish: tabiiy muhit ijodiy faoliyat uchun mo'l-ko'l ilhom manbai bo'ladi. San’at, ertak yoki xayoliy o‘yin orqalimi, tabiat bolalarning ijodi va tasavvurini uyg‘otadi. Tabiatga asoslangan ta'lim bolalarni dunyoni boshqa ob'ektiv orqali ko'rishga undaydi, ularni innovatsion usullarda o'zini namoyon qilishga ilhomlantiradi. Tabiiy materiallar va landshaftlar bilan shug'ullanish orqali bolalar badiiy mahorat va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradilar, ijodkorlikni umrbod qadrlashni rivojlantiradilar.

Jismoniy salomatlikni mustahkamlash: tabiatga asoslangan ta'lim ko'pincha piyoda yurish, toqqa chiqish va tabiiy landshaftlarni o'rganish kabi jismoniy faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu mashg‘ulotlar jismoniy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi. Toza havo va tabiiy elementlarga ta'sir qilish bolalarning immunitetini va umumiy farovonligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, tabiiy muhitda ochiq o'yin bolalarning jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadigan vosita qobiliyatlari va fazoviy ongni rivojlantirishga imkon beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish: tabiatga asoslangan ta'lim hamkorlikni, jamoada ishlashni va ijtimoiy hamkorlikni rag'batlantiradi. Bolalar tabiatni birgalikda o'rgansa, ular muloqot qilishni, baham ko'rishni va muammolarni guruh sifatida hal qilishni o'rganadilar. Ushbu tajribalar ularning ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Tabiatga asoslangan dasturlar, shuningdek, jamiyat va o'zaro bog'liqlik hissini rivojlantiradi, chunki bolalarda atrof-muhitga umumiy minnatdorchilik va uni birgalikda himoya qilish istagi paydo bo'ladi.

Tabiatga asoslangan ta’lim bolalik rivojlanishiga kognitiv, hissiy, jismoniy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni ta’minlaydi. Bu tanqidiy fikrlash, hissiy farovonlik, atrof-muhitni bilish, ijodkorlik, jismoniy salomatlik va ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilar sifatida tabiatga asoslangan ta'limning ahamiyatini tan olish juda muhim, chunki u bizni bolalarga nafaqat shaxsiy o'sishni rag'batlantiradigan, balki tabiiy dunyo uchun mas'uliyat va boshqaruv hissini uyg'otadigan o'zgaruvchan ta'lim

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tajribalari bilan ta'minlaydi. Tabiatga asoslangan ta'limning o'qitish amaliyoti va o'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga kiritilishi kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajak yaratish yo'lidagi qadamdir.

Bolalarda tabiat bilan tanishish orqali jarayonni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirish yaxlit ta'limning muhim jihati hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar ekologik savodxonlikni oshirish va ekologik mas'uliyatli fuqarolarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu ko'nikmalarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Tabiatga asoslangan ta'limni o'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga integratsiyalash va o'qituvchilarni ochiq havoda mazmunli tajriba o'tkazishga yordam beradigan bilim va ko'nikmalar bilan jihozlash orqali biz bolalar va tabiiy dunyo o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishimiz va kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajakni ta'minlashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Louv, R. (2005). Last Child in the Woods: Saving Our Children from Nature-Deficit Disorder. Algonquin Books.
2. Kellert, S. R., & Wilson, E. O. (Eds.). (1993). The Biophilia Hypothesis. Island Press.
3. Sobel, D. (2008). Childhood and Nature: Design Principles for Educators. Stenhouse Publishers.
4. Chawla, L. (1999). Life Paths into Effective Environmental Action. The Journal of Environmental Education, 31(1), 15-26.
5. Orr, D. W. (1992). Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. State University of New York Press.
6. Palmer, J. A. (1998). Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress, and Promise. Routledge.
7. Wilson, E. O. (1984). Biophilia. Harvard University Press.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Toshtemirova Dilnura**, o'qituvchi [**Тоштемирова Дилнура**, преподаватель], [**Dilnura Toshtemirova,** teacher]; manzil: 130100.Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4, [адрес: 130100.Джизакская область, город Джизак, улица Шарафа Рашидова, 4.], [address: 130100.4 Sharaf Rashidov Street, Jizzakh region, Jizzakh city.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

DIRIJYORLIK SINFIDA MAXSUS MASHQLAR ORQALI TALABALARNING TAFAKKURINI KENGAYTIRISH MASALALARI.

© Sh.A. Umarov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti,Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada dirijyorlik mashg‘ulotlarida maxsus mashqlar yordamida talabalar tafakkurini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Talabalar o‘ng va chap qo‘llarning mustaqil harakatlari, mushaklarni bo‘shashtirish va harakat yengilligiga erishish muhimligi haqida so‘z boradi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – dirijyorlik sinfi mashg‘ulotlarida maxsus mashqlar yordamida talabalarning qo‘l harakatlaridagi texnikani yengillashtirish va badiiy ifodaliligini oshirish orqali tafakkur va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda mushaklarni bo‘shashtiruvchi mashqlar, ritmik tuyg‘uni oshiruvchi va harakat mustaqilligini rivojlantiruvchi maxsus metodlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, maxsus mashqlar talabalar qo‘llaridagi zo‘riqishni kamaytiradi va tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Bu orqali dirijyorlik san’atini o‘zlashtirish jarayoni yengillashadi va ijodiy yondashuv kuchayadi.

XULOSA: dirijyorlik sinfi mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan maxsus mashqlar talabalarning texnik mahoratini oshiradi va ularni badiiy ijrochilikka tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: dirijyorlik, maxsus mashqlar, tafakkur, badiiy ijrochilik, texnika, yengillik, harakat mustaqilligi.

Iqtibos uchun: Umarov Sh.A. Dirijyorlik sinfida maxsus mashqlar orqali talabalar tafakkurini kengaytirish masalalari. // Inter education & global study. 2024. №. 10(1). B. 342–348.

ВОПРОСЫ РАСШИРЕНИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ДИРИЖИРОВАНИЯ

© Ш.А. Умаров[1]✉

[1] Национальный институт эстрадного искусства имени Батыра Закирова при государственной консерватории Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы расширения мышления студентов на занятиях по дирижированию с помощью специальных

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

упражнений. Особое внимание уделяется технике движений правой и левой руки, снятию мышечного напряжения и достижению легкости движений.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – развитие техники движений рук и художественной выразительности студентов через выполнение специальных упражнений на занятиях по дирижированию.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании анализировались методы расслабления мышц, развития ритмического чувства и независимости движений рук.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что специальные упражнения уменьшают мышечное напряжение у студентов и активизируют их мыслительную деятельность. Это облегчает процесс освоения дирижерского искусства и усиливает творческий подход.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: специальные упражнения на занятиях по дирижированию способствуют повышению технического мастерства студентов и их подготовке к художественной интерпретации музыкальных произведений.

Ключевые слова: дирижирование, специальные упражнения, мышление, художественная интерпретация, техника, легкость, независимость движений.

Для цитирования: Умаров Ш.А. Вопросы расширения мышления учащихся с помощью специальных упражнений на занятиях дирижирования. // Inter education & global study. 2024. №. 10(1). С. 342–348.

QUESTIONS OF EXPANDING STUDENTS' THINKING THROUGH SPECIAL EXERCISES IN CONDUCTING CLASSES

© Sherzod A. Umarov[1]✉
[1]Batyr Zakirov National Institute of Pop Art at the State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the expansion of students' thinking in conducting classes through special exercises. Particular attention is given to the techniques of right and left hand movements, muscle relaxation, and achieving ease in motions.

AIM: the main objective of the study is to develop hand movement techniques and artistic expressiveness of students through special exercises in conducting classes.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed methods for muscle relaxation, enhancing rhythmic awareness, and developing hand movement independence.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings show that special exercises reduce muscle tension in students and activate their cognitive abilities. This facilitates the process of mastering conducting techniques and strengthens their creative approach.

CONCLUSION: special exercises in conducting classes improve students' technical skills and prepare them for artistic interpretation of musical pieces.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Keywords: conducting, special exercises, thinking, artistic interpretation, technique, ease, movement independence.

For citation: Sherzod A. Umarov. (2024) 'Questions of expanding students' thinking through special exercises in conducting classes', // Inter education & global study. (10(1)). pp. 342–348. (In Uzbek).

Dirijyorlik sinfi mashg'ulotlari davomida, ba'zi talabalarning qo'llari zo'riqqan, og'ir va turli xarakterli musiqalarga moslashuvchanligi yo'qligiga guvoh bo'lamiz. Talabalarning bu kabi holatlariga odatda – "gavda holati qattiq" yoki "qo'llari qotgan" kabi iboralar ishlatiladi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha mashqlar tavsiya etilib, ularni bajarish orqali qo'l mushaklari bo'shatiladi, natijada, dirijyorlik harkatlarida yengillik paydo bo'ladi.

Dirijyorlikni o'rganishdagi ilk bosqichlarida – talaba o'zining fizik holatini sezishni o'zlashtirishni o'rganmog'i lozim. Shuningdek, mushaklar holatini nazoratga olish va ularni keraksiz zo'riqishlardan halos etish muhimdir. Gavda va mushaklardagi zo'riqishlarni tez bartaraf etish uchun quyidagicha mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

Yelkalarni oldinga va orqaga aylantirish. Bu mashq orqali elka mushaklari bo'shaydi va qo'lning qolgan qismlari (bilak, tirsak) erkinligiga yordam beradi;

Qo'llarni ko'tarib tashlash. Unda qo'l pastga tushganida bir joyda qotib qolmaslikga e'tibor berish kerak. Ya'ni, qo'l hech qanday yordamsiz, inersiya orqali o'z harakatini davom ettirishi lozim;

Qo'llarni yon tomonga keng yoygan holatda, katta harakatlar bilan aylantirish. Aylantirish jarayonida qo'llarni zo'riqmasligiga e'tibor qaratish lozim;

Yengil sakrash. Unda tananing erkinligiga erishish asosiy maqsad qilib olinadi. Shuningdek, qo'llar harakatida bo'sh holatni kuzatish zarur va b. [5].

Musiqaning badiiy ijrosiga erishish uchun qo'llarda plastik (lirik, silliq) harakatlar bo'lishi muhimdir. Qo'llardagi siltanish yoki qirrador harakatlar musiqada nafislik, yumshoqlik va lirik ko'rinishdagi ijrolarini etkazib berish uchun halaqit beradi. Qo'llardagi silliq harakatlar ko'p holatlarda tug'ma bo'lmaydi va bu harakatlarga erishish uchun bir nechta mashqlarni bajarish zarurdir. Qo'llarda plastik ijroga erishish uchun yuqorida aytib o'tganimizdek, elka mushaklarini yumshatish, turli aylana harakatlar: sakkiz raqamini chizish, ellips (yon tomonlama uzatirilgan aylana) kabi mashqlar kiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ba'zi mashqlar talabalardan iroda va faollikni talab etadi.

Dirijyorlik fanining ilk mashg'ulotlarida, talabalarda malaka yetishmaganligi sabab jo'rnavozlar (yoki orkestr) ijrosini kuzatib borish deyarli uchramaydi. Bu kabi dirijyorlik faoliyati bilan uzoq vaqt shug'ullanish esa, ko'plab yosh dirijyorlarda – "dirijyorlik kasbining asl mohiyati shunday" degan fikrni paydo qiladi. [2. 25-b.] Shu sababli, darslarning ilk kunidayoq – har bir auftakt va harakatlarni tushungan holda, ong bilan boshqarishga ahamiyat berish kerak. Shuningdek – "jarang kuchi", "tembrlar rangi" kabi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tushunchalarni anglab olishi, talabaning orkestr va cholg‘u guruhlarni ko‘proq sezishida yengillik tug‘diradi va bu orqali qo‘l harakatlarida badiiy ijrochilikga xos ko‘rsatishlar paydo bo‘ladi.

Obraz va musiqiy g‘oyalarning ijro harakatlarini amalga oshirish uchun yosh dirijyorning tafakkurini oshirishga yordam berish zarur. Buning uchun avvalo, uning ongini faollashtirish lozim. Buning uchun talabalarni ma’lum obrazlar dunyosi, shuningdek, adabiyot va she’riyat namunalari bilan tanishtirish tasavvurlarini kengaytirishda katta yordam beradi. O‘zlashtirilgan tasavvurlarni esa, qo‘l harakatlari vositasida tinglovchiga aniq yetkazib berish kerakligini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, qo‘l harakatlaridagi yengillikni – “quvnoq”, “nafis”, “shodon”, sekin (p) – “sirli”, “hurkaklik”, “bir oz qo‘rqinchli”, “yorug‘lik”, shuningdek, dinamik ijrolarga nisbatan ham – piano (p) bu albatta “sekin” yoki forte (f) – “qattiq” chalish degani emas, balki yuqorida sanab o‘tganimiz kabi obrazli so‘zlar bilan tushuntirish maqsadga muvofiqdir. [3. 67-b.]

Jumlalarda turli obrazlarni izlash va ifoda etish talabalar uchun juda foydalidir. Ular bu orqali, uyda vazifani bajarish chog‘ida turli obrazlarni o‘ylab topish va ularning holatlariga tushish kabi ijodiy jarayonlarga tushishga harakat qiladilar. Sinf mashg‘ulotlari davomida esa, bir jumla qanday obraz va voqealarni ochib bermoqda va ularga dirijyorlik harakatlari qanday bo‘lishi kerak kabi talablar qo‘yilishi kerak. Bu orqali talabada tasavvur va tafakkur bilan birga qo‘l hakatlarida ifodalilik faollashadi hamda amaliyotga tadbiq etish yengillashadi.


Yuqoridagi mashq va ko‘rsatmalar manual texnikani yengillashtirish hamda obrazli ijrolarni yaratishga bag‘ishlangan bo‘lsa, dirijyorda kuchli va kuchsiz hissalar, o‘zgargan ritm, metr va o‘lchamlarni sezish uchun ham alohida ko‘rsatma hamda mashqlar mavjuddir. Bunda talabadan choraktalik, sakkiztalik, punktir (siniq) ritmli, triol va boshqa ko‘rinishlarni o‘z ichiga olgan taktlarga ritmik kuylab (masalan: ta-ta-ta-ta) dirijyorlik qilishni so‘rash lozim. Unda asosiy e’tibor kuchli va kuchsiz hissalarni sezish, ularga auftakt olish harakatlariga e’tibor qaratiladi. Talabani duol, triol, kvintol kabi sanoqlar qiynashi mumkin. Shu sababli, avvalo ushbu ijro ko‘rinishlarini to‘g‘ri his etib, to‘g‘ri kuylashni o‘zlashtirishni talab etish lozim. Mashqlardan: har bir ritmik ko‘rinishni kuylab, har xil ko‘rinishdagi oddiy o‘lchamlarga dirijyorlik qilish, auftaktlarni turli hissalarga berish va h.k.

“Qo‘llarda manual tenikani o‘stirishning yana bir muhim tomoni – qo‘l harakatlarining mustaqilligidir. Ilk saboqlar jarayonida har bir qo‘l uchun alohida mashqlar bajarish o‘rinlidir.” [4. 87-b.] Masalan: kichik asarlarni faqat o‘ng qo‘l bilan dirijyorlik qilish va chap qo‘lni ba’zi bir epizodlar (ko‘rinishlar) uchun ishlatish (birdan paydo bo‘lgan dinamik ijrolar, avj va b.q.). Chap qo‘l odatda dirijyorlik harakatlari uchun o‘ng qo‘lga nisbatan kam rivojlangandir. Shu sababli, ushbu qo‘lning mustaqil harakatlarini rivojlantirish uchun ham alohida mashqlar mavjuddir. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, qo‘llardagi parallel holat (bir xil harakatlar, sinxron) – ifodali harakatlar uchun katta to‘sqinlik qiladi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Mashqlardan qanday foydalanish va ularni qanday o‘zlashtirish kerak? Ushbu savollarga bir misol tahlili asosida tushuntirish beramiz. Quyida berilgan mashqda parallel harakatlarni yo‘q qilish va o‘ng hamda chap qo‘llardagi mustaqillikni rivojlantirish borasida maslahatlar berilgan (mashqlar big-bend orkestri uchun mo‘ljallangan). [1. 107-b.]




Avvalo, misolda berilgan musiqiy surat (temp) va dinamik belgiga e’tibor bering (1-takt): Andante (shoshilmay, ohista), dinamika f va orkestr ijrosi bilan boshlanmoqda. Demak, ikkita qo‘l bilan katta auftakt olish kerak. Aynan, shu taktning 2,3 va 4-hissalarida diminuendo belgisi qo‘yilgan. Bu degani, 2,3 va 4-hissalardagi dirijyorlik harakatlarinng masofasi asta-sekin qisqarib boradi va keyingi taktdagi p dinamikasiga tayyorlanib boradi. Bunda chap qo‘l harakati yordamga keladi, ya’ni chap qo‘l dirijyorlik harakatlarisiz yuqoridan pastga tomon tushib keladi va sinhron (parallel) holatdan saqlaydi. Lekin, o‘ng qo‘l sanoqni davom ettiradi. 4-hissaning ikkinchi yarmi (4 ni “i” si) p ga auftakt vazifasini bajaragani uchun, kichik masofada olinadi.




2-taktda p, dirijyorlikda bilak harakatlari ishlatiladi (kichik harakatlar, birinchi – pastki holat). Ikkinchi hissaning ikkinchi yarmida (2 ni “i” si) o‘ng qo‘l balandroq ko‘tarilib nay ijrosiga auftakt vazifasini bajaradi. Nima uchun o‘ng qo‘l? Chunki, keyingi taktda chap qo‘l uchun ko‘rsatadigan cholg‘ular bor. SHuning uchun, chap qo‘lni imkon boricha bo‘sh qo‘yish kerak. Chap qo‘l yuqori tomon ko‘tarilib boradi va o‘ng qo‘lda dirijyorlik harakati masofalari kengayib boradi. 4-hissaning ikkinchi yarmi, keyingi - 3-taktdagi f ga (4 ni “i” si) auftakt vazifasini bajaragani uchun, katta masofalarda olinadi. Chap qo‘l birinchi hissada to‘xtab, asta sekin pastga tomon harakatlanadi (chunki, 3 va 4-hissalar diminuendo). 2-hissaning ikkinchi yarmidan (2 ni “i” si) chap qo‘lning bilak qismi bilan qisqa harakatlar olinadi (chunki stakkato ijrosi boshlanmoqda) va rubob primaga ko‘rsatiladi.

CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)



3-takt mf da stakkato tugadi. Ikkinchi hissani ushlab turasiz ya'ni, dirijyorlik qilinmaydi. Uchinchi hissaning ikkinchi yarmini (3 ni "i" si) bir oz faollik bilan va tezroq olinadi va o'ng qo'lda g'ijjaklarga ko'rsatiladi. Ushbu hissadan Più mosso (harakat bilan) ijrosi boshlanadi (4-takt). Legato shtrihi berilganligi uchun qo'ldagi o'tkirlikni olib tashlang, haraktlarda yumshoqlik paydo bo'lsin. 3-hissadan esa yana stakkato paydo bo'ldi. Demak, ikkinchi hissaning ikkinchi yarmi (2 ni "i" si) o'tkir bilak harkati, qisqa masofalar bilan olinadi. Bu harakat ushbu shtrix ijrosini ta'minlaydi. 4-hissaning ikkinchi yarmi (4 ni "i" si) ikkala qo'l bilan olinadi va butun orkestrga ko'rsatiladi.




4 - taktda fermata belgisi borligi uchun birinchi hissa ushlab turiladi. Dirijyorlik qilinmaydi. Fermata ijrosida tempning qaysi tezlikda kelayotgani va musiqaning harakteri qanday ekanligiga qarab, notaning cho'zib turish vaqtini ichki hissyot bilan sezish kerak bo'ladi. Zero, fermataning ko'p yoki kam ijrosi asar xarakteriga ta'sir etadi. 4-hissaning ikkinchi yarmi (4 ni "i" si) qisqa va shiddat bilan olinadi. Bu harakat keyingi taktdagi sf va aktsent ijrolarini belgilab beradi.




7-taktda ikkita yarimta notalar sf va aktsent belgilari bilan berilgan. Birinchi hissaga berilgan auftakt kuchi va harakati, uchinchi hissa uchun ham saqlanib qoladi. Endi bu harakatlar, ikkinchi hissaning ikkinchi yarmiga (2 ni "i" si) to'g'ri keladi. Chap qo'l harkatlari faqat 1 va 3-hissalarni ushlab tursa, dirijyorlik harakatida sinxron (parallel) haraktlar bo'lmaydi. O'ng qo'l dirijyorlikni davom ettiradi. 4-hissaning ikkinchi yarmi (4 ni "i" si) keyingi taktda berilgan f uchun auftak vazifasini bajaradi. Buning uchun aynan shu hissaning yarmini katta va shiddatli olish talab etiladi.

8-taktda rit. belgisi qo'yilgan. Demak, bu erda temp bir oz tortiladi va dirijyorlik harakatlari kengayib boradi. Bu taktda sinkopa berilgan. Ushbu ijroga erishish uchun 1 va 2-hissalarga bir oz urg'u bering. Urg'ularni berishga shoshilmang. Auftaktlar katta va shiddatli, nuqtalar esa kuchli chunki dinamika f. Uchinchi hissani ushdab turing va asta sekin qo'lingizni patga tomon tushiring. Bu harakt bilan fermata va diminuendo ijrolarini bajargan bo'lasiz. So'ngi notani kichik auftakt bilan uzing va mashqni tugating. Qo'llarni tushirishga shoshilmang va 3 daqiqa ushlab turing. So'ngra asta-sekinlik bilan tushiring.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)



Yana shuni aytib o‘tish lozimki: dirijyorlik jarayonida uchraydigan barcha ijro ko‘rinishlari uchun alohida mashqlar mavjud. Masalan: dinamika, fermata, sekinlashish, tezlashish va hokazolar. Bu kabi mashq turlari Sh.Umarovning 2024 yil “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi” nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Dirijyorlik” darsligida keng yoritilib berilgan. Masalan:



va hokazo. [5]

Dirijyorlik harakatlari tashqaridan qaraganda yengil va oson tuyulishiga qaramay, uning o‘ziga xos murakkabliklari mavjud. Bunda talabalarda tafakkur va dunyoqarashni kengaytirish, bilim va ko‘nikmalarni chuqur singdirish muhimdir. Shu sababli, ushbu fanni o‘zlashtirishning ilk kunlaridayoq talabalar qo‘l harakatlarida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun turli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu orqali qo‘llar, holatlar hamda gavdada yengillik paydo bo‘ladi va dirijyorlikni ilk o‘rganuvchilar uchun ushbu fanga, kasbga nisbatan mehr oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Umarov Sh.A. “Dirijyorlik”, darslik, “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi” nashr.,2024 y.
2. Тимофеев Ю.М. “Руководство для начинающего дирижёра”. М. “Музгиз”, 1935 г.
3. Диев Б.А. “Дирижёрская ритмика”, учебное пособие, М. “Композитор”, 2011 г.
4. Малько Н. “Основы техники дирижирование”, СПб. “Композитор”, 2015 г.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umarov Sherzod Akbarovich**, dotsent [**Умаров Шерзод Акбарович**, доцент], [**Sherzod A. Umarov**, associate professor]; manzil: Botir Zokirov ko'chasi 1, 100027, Toshkent, Toshkent, [адрес: Botir Zokirov ko'chasi 1, 100027, Toshkent, Toshkent], [address: Batir Zakirov Street 1, 100027, Tashkent, Tashkent].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

ONA TILI FANINI INTEGRATIV YONDASHUV O‘QUV TOPSHIRIQLARI ASOSIDA O‘QITISHDA MILLIY G‘URURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© Sh.M. Umarova[1]✉
[1]Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirishga oid uslubiy masalalar yoritilgan. Integrativ yondashuv doirasida 1-5-sinf o‘quvchilarida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — ona tili ta’limida milliy g‘ururni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida ona tili ta’limi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan, 1-5-sinf o‘quvchilari bilan tajriba-sinov ishlari olib borilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: olingan natijalar muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Shu bilan birga, pragmatik yondashuv asosida ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlari ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA: ona tili ta’limida milliy g‘ururni shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: ona tili, milliy g‘urur, integrativ yondashuv, o‘quv topshiriqlari, muloqot ko‘nikmalari.

Iqtibos uchun: Umarova Sh.M. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasi // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 349–359.

МЕТОДИКА ВОСПИТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА УЧЕБНЫЕ ЗАДАНИЯ

© Ш.М. Умарова[1]✉
[1]Ташкентский Университет Прикладных Наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются методологические вопросы развития национальной гордости у учащихся на уроках родного языка на основе

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

интегративного подхода. Особое внимание уделяется разработке и модернизации учебных заданий и задач на уроках для 1-5 классов.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — создать и применить методику формирования национальной гордости у учащихся при обучении родному языку.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы научные работы в области педагогики и филологии, проведены эксперименты с учащимися 1-5 классов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты подтверждают эффективность интегративного подхода в формировании навыков коммуникации у учащихся, особенно на уроках родного языка.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: методика формирования национальной гордости значительно улучшает качество обучения и развивает творческие способности учащихся.

Ключевые слова: родной язык, национальная гордость, интегративный подход, учебные задания, навыки коммуникации.

Для цитирования: Умарова Ш.М. Методика воспитания национальной гордости в обучении родному языку на основе комплексного подхода учебные задания // Inter education & global study 2024. №10(1). С. 349–359.

METHODS OF FOSTERING NATIONAL PRIDE IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE BASED ON AN INTEGRATED APPROACH EDUCATIONAL TASKS

© Shaxnoza M. Umarova[1]✉
[1]Tashkent State Technical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines methodological issues of fostering national pride among students in native language lessons based on an integrative approach. Special attention is paid to the development and modernization of learning tasks for grades 1-5.

AIM: the primary goal of the article is to develop and implement methodologies for fostering national pride in students through native language education.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific works in pedagogy and philology, as well as conducted experiments with students in grades 1-5.

DISCUSSION AND RESULTS: the results confirm the effectiveness of the integrative approach in developing communication skills in students, especially in native language classes.

CONCLUSION: the methodology for fostering national pride significantly improves the quality of education and develops students' creative abilities.

Keywords: native language, national pride, integrative approach, learning tasks, communication skills.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

For citation: Shaxnoza M. Umarova. (2014) 'Methods of fostering national pride in teaching the native language based on an integrated approach educational tasks'. // Inter education & global study. № 10(1). pp. 349–359. (In Uzbek).

Jahonda til o'qitish metodikasi pedagogika va tilshunoslikda integrativ yondashuv asosida o'qitishda erishgan yutuqlardan foydalanadi. Til inson uchun borliqni anglash vositasi hisoblanadi, o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi ona tili orqaligina shakllanadi. Shu ma'noda, ona tili o'qitishning yangi usullarini kashf qilish, amaliyotga uzluksiz joriy qilib borish muhim masalalardan hisoblanadi. Xalqaro til o'qitish metodikasida andoza sifatida qabul qilinayotgan ingliz tili ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro til o'qitish metodikasida nutqiy muloqot ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchini turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish, asosan, o'quv topshiriqlarining sifatiga, mazmuniga bog'liqdir. Barcha xalqlar milliylikni asrashning bosh mezoni sifatida ona tilini anglaydi va buni ta'lim orqali amalga oshirayotganda ona tilini faol muloqot vositasiga aylantirish, qadriyat sifatida ulug'lash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Dunyoda rivojlangan tillarni ona tili sifatida o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda ona tili ta'limi, asosan, matn ustida ishlash, turli uslubda taqdim qilingan ma'lumotni o'qib tushunish va munosabat bildirishga tayyorlashga yo'naltiriladi.

Ta'lim mazmuni umumta'lim maktab 1-5 sinf o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida metodik rivojlantirish mexanizmi orqali yuzaga chiqariladi. Har bir mashg'ulotda taqdim qilingan ma'lumotning o'quvchi uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida muloqot ko'nikmalaridan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribalarda innovatsion texnologiyalar asosida ona tili ta'lim mazmunini metodik rivojlantirish o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Umumta'lim maktab o'quvchilarini muloqot ko'nikmalarini belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ona tili boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. O'zbekistonda ham o'zbek tilinining ona tili va davlat sifatida nufuzini oshirish, yangi zamonaviy o'qitish metodikalarni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta'limiga ham zarur talablarini qo'ymoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak" ligi ona tili ta'limi oldiga, xususan, o'quv topshiriqlari ishlab chiqishning ilmiymetodik asoslarini takomillashtirish oldiga ham dolzarb vazifalar qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish..." muhim vazifa etib

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

belgilangan. Bu qonuniy asos umumta'lim maktab 1-5 sinf o'quvchilarini ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda milliy g'ururni rivojlantirish metodikasiga oid ko'nikmalarini didaktik rivojlantirish orqali turli nutq vaziyatiga tayyor, o'z fikrini turli shakllarda ravon va mantiqan izchil ifodalab bera olish kompetensiyasini rivojlantirish orqali ona tili ta'limini yangi bosqichga ko'tarish va nutqiy muloqot ko'nikmalarini ta'minlash tizimini rivojlantirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonidagi ta'lim sohasiga oid bandlar ijrosini ta'minlashda, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712son Farmonida ta'kidlangan "...o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individullashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" bilan bog'liq ko'rsatmasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda, shuningdek, mamlakat rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus"dagi to'rtinchi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan" tashabbusni hayotga joriy qilishda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabr kuni nihoyatda muhim bo'lgan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ona tili metodikasini tubdan yangilash to'g'risida fikrlari keltirilgan 2020 yilning 20 oktyabr kungi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni hamda mazkur masalaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Safarova va D. Yo'ldoshevalar ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Shuningdek, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, uzluksiz ta'limda ona tilidan til sathlarini o'qitish metodikasi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ta'kidlash joizki, Ona tili o'qitish metodikasiga turli davrlarda filolog-olimlar ham dastur, darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissasilarini qo'shdilar. H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.K.Mirzayev kabilar shular jumlasidandir. B.Mengliyev ona tili o'qitishda ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo‘nalishidan bormoqda. Ayniqsa, pedagogika fanlari doktori, professorlar R.Safarov, Sh.Yusupova, X.Muhiddinova, Sh.Yuldasheva, D.Kabulova Q.Husanboyevlar ta’limda komunikativ yondashuv, ilg‘or pedagogik texnologiya, uzviylik va uzluksizlik bo‘yicha nihoyatda to‘g‘ri yondashuvlarni ilgari surgan.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotchi A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G‘aniyev, M.Saidov A.Hamroyev, G‘.Hamroyev, M.E.Axmedova, K.Mavlonovalar ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlari, o‘zining ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchining bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchi faolligi oshirish muammolari ham o‘rganilgan.

Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn, avstraliyalik olim Jak Richards ingliz tilining ona tili va ikkinchi til sifatida o‘qitilishida o‘quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid bilimlarni tanlashning o‘quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Ona tili o‘qitishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o‘rganish va pragmatik mazmundagi o‘quv topshiriqlarining ona tili ta’limidagi o‘rnini belgilash; darsliklardagi o‘quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ularni o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish; 1-5 sinf o‘quvchilarida tinglab tushunish (anglash), gapirish (nutq so‘zlash), o‘qib tushunish (fahmlash) va yozish (savodli va mazmunli matn tuzish – insho) ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid tizimini ishlab chiqish orqali fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish; savol, mashq va topshirilar bilan ishlashda qulay va amaliy ahamiyatga ega yondashuvni tanlash, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba orqali darsliklar mazmunida, ona tili darslarida sinab ko‘rish va olingan xulosalarni mumlashtirish.

Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid yondashuv asosida takomillashtirildi, ya’ni mashq, savol va milliy g‘ururga oid topshiriq tushunchalarga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta’rif berildi, qo‘llanilish o‘rinlari, bajaradigan vazifalari aniqlab berildi; ona tili ta’limida mashqlardan, asosan, ko‘nikma va malaka hosil qilishda, savol va topshiriqlardan – biror amalni bajarishga yo‘naltirish, fikrlashga undash hamda, eng muhimi, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash maqsadlarida har biridan o‘z o‘rnida foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishi isbotlandi; matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning darajalari aniqlandi, lingvodidaktikada savol

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tuzishga pragmatik usulda yondashishning afzalliklari dalillandi; tinglab tushunish ko‘nikmasi bilan birga o‘quvchida muloqot vaziyatiga ko‘ra murojaat qilish, nutq so‘zlash malakasi ham baravar rivojlanishi lozimligini nazarda tutib, o‘quvchini to‘g‘ri va mantiqli savol berishga o‘rgatish metodlari ishlab chiqildi; ona tilidan baholash tizimi uchun matn ustida ishlash orqali – eshitganlarini to‘g‘ri tushuna olish – (anglash), adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish – (nutq so‘zlash), matnni o‘qib tushuna olish – (fahmlash) hamda to‘g‘ri va mazmunli yoza olish – (insho) ko‘nikmalari taklif qilindi Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid yondashuv asosida takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlar ona tili o‘qitish jarayonida sinab ko‘rilganda matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalar rivojlanib, o‘qish savodxonligi oshgani aniqlandi; tajriba-sinov yakunlariga ko‘ra nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi, baholovchi pragmatik o‘quv topshiriqlar tizimining ta’limiy korpus uchun elektron metodik ta’minoti yaratildi.

Tahlil va natijalar. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid takomillashtirish, avvalo, ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari, umuman, mazmuniga bevosita bog‘liq, zero o‘quv topshirig‘i o‘quvchini fikrlashga, o‘quv materiali ustida mustaqil ishlay olishga, zarur nutqiy ko‘nikma va malakalarni (matnni anglash, fahmlash, nutq so‘zlash, yozish) rivojlantirish uchun mashq qildira olishga, hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni qulay va aniq baholashga xizmat qilishi kerak. Bugun ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlariga o‘qitish metodikasining asosi, ta’lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida qaralmaydi. Ona tilidan ta’lim mazmuni sifatida grammatik qoidalar tushunib kelindi va o‘quv topshiriqlari ham shunga xizmat qildi. Ona tili – bu bola uchun o‘ylab topilgan qoidalar emas, nafas olayotgan havo kabi xalqining ruhi bilan teng. 1-5 sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatish quyidagi vazifalarni hal qiladi: birinchidan, uning tug‘ma aqliy qobiliyatni rivojlantirish, bu so‘zning in’omi deb ataladi; ikkinchidan, o‘quvchilarni ona tili xazinalarini ongli egallash bilan tanishtirish; uchinchidan, bolalar bu tilning mantig‘ini o‘rganishlari kerak. Bu maqsad va vazifalarga birin-ketin emas, balki baravar erishish borish lozim. Bunda o‘quv topshiriqlari asosiy vazifani bajaradi. Bugun ona tili ta’limida matn bilan ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Bunday sharoitda o‘quv topshirig‘i tuzishga asos bo‘luvchi o‘quv materiallarini tanlashda foydalilik, amalda qo‘llay olish asosiy tamoyil bo‘lishi lozim. “Asrlar davomida insoniyat tomonidan to‘plangan barcha til ilmini o‘rta maktab o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji va zarurati yo‘q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz. O‘quv topshiriqlarini tuzishga asos bo‘luvchi o‘quv materiallarini tanlash, ta’kidlash kerakki, ona

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tili ta'limi maqsadini, mazmunini belgilash borasida mustaqillikning dastlabki yillarida tizimli tadqiqotlar olib borildi.

Sh.Yusupova o'zining doktorlik dissertatsiyasida hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiymetodik asoslari mavzusida tadqiqot olib boradi, ona tili ta'limida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-metodik asosini ishlab chiqish bilan birga tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlariga ham alohida e'tibor qaratadi. X.Muhiddinova o'zbek tilining davlat tili sifatidagi ta'limini tizimlashtirish, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, o'quv topshiriqlarni ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirib kelmoqda.

Q.Husanboyevaning ta'lim mazmuniga o'qituvchini ham kiritishi nihoyatda to'g'ri yondashuv. Chunki ona tili ta'limida, ayniqsa, sinfda bajariladigan mashqlarni nazorat qilishda, zarur o'rinlarda o'quvchilar adabiy talaffuz ko'nikmasini rivojlantirishda bevosita o'qituvchi dastlab namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, olimning adabiy ta'lim uchun ishlab chiqqan mustaqil fikrlash va va muammoli ta'lim bo'yicha yondashuvlari ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Bu borada metodist K.Mavlonov ona tili ta'limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yarata olish ko'nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqdi. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, bunda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda milliy g'ururni rivojlantirish metodikasiga oid topshiriqlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham o'rganilgan.

Keyingi 2000-2020 yillarda N.Mahmudov muallifligida yaratilgan darsliklar mazmunida ham grammatik qoidalar hajmi kamaymadi, biroz ilmiylashdi va o'quv topshiriqlari orqali o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirildi. Ma'lumotlarni lingvistik tahlil qilishni o'rgatishga xizmat qilib keldi, biroq – bu nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari yo'q, degani emas. Ta'kidlash kerakki, N.Mahmudov bosh muallifligida yaratilgan darslikda birinchi marta topshiriqdan foydalanildi. Unga qadar "Ona tili" darsliklarida, asosan, mashqlardan foydalanib kelingan. Shunday bo'lsa-da, ona tili o'qitish metodikasida shu kunga qadar o'quvchilar mashg'ulotlar orqali nimani o'rganishi kerakligi, ya'ni qaysi o'quv materialini yoddan bilishi, qaysi o'quv materialini yod olishga zarurat yo'q, uni o'qib tushunsa, yetarli bo'lishini, qaysi bo'limlarni o'qitishda, asosan, mashqlardan, qaysilarida topshiriqlar ustida ko'proq ishlash kerakligi; mashq, topshiriq va savolning bir-biridan funksional farqlanishi; tahlil materiali uchun qanday misollar, matnlar olish lozimligi, matnlarni tanlash va qo'llash mezonlari aniqlanmagan. Shu o'rinda "mashq", "topshiriq" va "savol" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqida to'xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala"

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topshini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi. Bizningcha, topshiriq mashqni ham savolni ham o'z ichiga oladigan, o'quvchini bilim olishga yo'naltiradigan, baholashda ishtirok etadigan; takrorga asoslangan mashqlar orqali malaka hosil qilishni tashkil qiladigan asosiy o'quv topshirig'idir. Uzoq muddatli kuzatishlar, tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, "Ona tili" darsliklaridagi mashq deb nomlangan o'quv topshiriqlari ham mashq emas, ya'ni mashqning talablariga javob bermaydi. Aslida mashq bilim berish vositasi emas, u ko'nikma va malaka hosil qilish uchun qo'llanilishi kerak. Topshiriq esa, bilim olish, mashg'ulotni tashkil etish va o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni baholashi, savol esa, o'quvchini fikrlashga undashi, sinab ko'rish uchun qo'llanilishi lozim. Amalda esa, ular aralash holda qo'llaniladi. Shu sababli metodlar, darsliklar mazmuni yangilansa ham dars samaradorligi sezilarli oshmay, nutqiy ko'nikmalar to'laqonli rivojlanmay kelmoqda. Shu ma'noda, o'quv topshiriqlari ona tili ta'limi mazmunini yuzaga chiqarishda, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatiga ega, ta'lim jarayonida o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor berish kerak.

Ta'lim sohasining oldida "...maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilim va tajribasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy o'quv yurtlarining xalqaro reytinglarga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish" asosiy va yetakchi vazifalar qilib belgilangan. Shuningdek, "boshlang'ich sinflarda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, o'qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida deb bo'lmaydi. 2023- yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh etilishi, bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yilganligi, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etilishi, milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi" Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich sinflarida Ona tili va Tarbiya" fanini o'qitish asosida milliy g'ururini rivojlantirish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy iftixor kompetensiyalarni, xususan, yurt ravnaqini yuksaltirish hamda mantiqiy fikrlash va tarbiyaviy tuchunchalarni rivojlantirish zarurati mavjud. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda milliy g'ururni rivojlantirish metodikasiga oid ona tili va tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar esa o'quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi, shuningdek xotirani rivojlabtiradi. Didaktik o'yin jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "milliy" so'zi (arabcha) biror millatning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi, biror mamlakat va uning aholisi bilan bog'liqligi ta'riflanadi. Demak, o'zbek millatiga oid, O'zbekistonni davlat, mamlakat sifatidagi tarixiga oid barcha

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

moddiy va ma’naviy qadriyatlar milliy qadriyat sanaladi. Shu ma’noda me’moriy obidalar har ikki maqomdagi qadriyat sifatida ham ijtimoiy, ham pedagogik (tarbiyaviy) ahamiyat va mohiyat kasb etadi. “G‘urur” so‘zi ham arabcha so‘z bo‘lib, insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi, faxrlanish tuyg‘usi, faxr, iftixor, faxrlanishga asos bo‘ladigan narsa tariqasida talqin etilgan. Bolalarda faxrlanish tuyg‘usi, avvalo, o‘zi yashab turgan hudud, u yerda mavjud qadriyatlar asosida shakllanadi. Me’moriy obidadalar esa ham bevosita, ham bilvosita ta’sir etuvchi omil sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositadir.

Xulosa sifatuida shuni aytish lozimki ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda milliy g‘ururni rivojlantirish metodikasiga oid bilimlarni tanlashning Milliy g‘urur tushunchasi “Mustaqillik: ilmiy-ommapob lug‘at”da “Milliy g‘urur – millatning o‘z-o‘zini anglashi natijasida sodir bo‘ladigan doimiy ichki ruhiy ko‘tarinkilik. U o‘z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma‟naviy merosdan, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulushlaridan, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissiyotidan iborat. Milliy g‘urur o‘z millatining chinakam fidoyisi bo‘lgan har bir insonga xos ichki ruhiy tuyg‘udir... milliy g‘urur har bir kishida o‘z millatining moddiy, ma’naviy meroslarini o‘zlashtirish, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini va tarixini mukammal bilish hamda uni o‘zga millatlarniki bilan qiyoslash natijasida shakllanadi. Har bir inson o‘z qobiliyati va kuchiga ishongan va bundan faxrlanganda biror narsaga erishadi. “Vatan tuyg‘usi” kitobi mualliflari “o‘z-o‘zligicha qolgan insonning g‘ururi bus-butundir ... Kishi shunday yashashi joizki, uning yutuqlaridan o‘zi ham g‘ururlansin, lekin undan ko‘ra ko‘proq oila a’zolari, xesh-aqrabolari, mahalla-ko‘yi, qolaversa, butun mamlakati faxrlansin, faxrim deb e’zozlasin” muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil 21 oktyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. – T.: 2017 yil 7 fevral. Elektron manba: www.lex.uz/doks/
3. Mirziyoev Sh. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. 29 aprel, 2019 yil. Elektron manba: lex.uz/docs/3412785.
4. Mirziyoyev Sh. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus. Elektron manba: https://www.gazeta.uz./oz/2019/04/03/5-tashabbus/
5. Yusupova Sh. Ona tili ta’limi samaradorligini oshirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish: ped. fan. nom-di diss. TDPI. –T., 1998. – 137 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

6. Yuldasheva N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida lug‘aviy sinonimlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi: ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilan diss.– T., 2002. –123b.
7. Gulyamov A. Metodika razvitiya uchebno - poznovatelnoy aktivnosti uchashixsya v protsesse prepodovaniya rodnogo (uzbekskogo) yazыka: Dis. dok. ped. nauk. –T.: TGPI, 1991. – 37 b.
8. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. – Toshkent, 2000. – 25 b.
9. Alavuddinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. TDPU. – T., 2008.– 24 b.
10. Yusupova T. Uzluksiz ta’lim tizimi asosida maktabda o‘quvchilarga bosh bo‘laklarni o‘rgatish: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPI. –T.,1998.– 22 b.
11. Safarova R. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablarida ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 1995. –242 b.
12. Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan.doktori... diss. – Toshkent: TDPI, 2005. – 270 b.
13. Muhiddinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish ped. fan. nom-di diss. TDPI –Toshkent, 2011. 270 b
14. Hamroev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilm. Darajasini olish uchun yozilgan diss. –Toshkent, 2020. – 242 b. 20.
15. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish Ped. fanl. bo‘yicha fal. dok. (PhD) ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2019. - 22 b.
16. Hamroev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2020. – 242 b.
17. Ibragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fanl. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 2002. – 265 b.;
18. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun
19. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. TDPU. – Toshkent, 2000. – 25 b.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

20. Djon Dyui. Obщestvo i yego problemы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Obщestvo i yego problemы. — Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. — M., 2002.
21. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlar//Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 5-jild. – T.: O‘zME, 2020, – 150 b.
23. Xasanova Sh. Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirish// International scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
24. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. –T.: O‘zbekiston, 1996. 29-b.
25. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayeva., F. Abdullaeva., G. Abdurazzoqova va boshqa; A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda. – T.: “Sharq”, 2000.- 124 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umarova Shaxnoza Maxmudjanovna**, katta o‘qituvchi [**Умарова Шахноза Махмуджановна**, старший преподаватель], [**Shaxnoza M. Umarova,** senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: г.Ташкент, Чиланзар, улица Гавхар, дом 1], [address: Tashkent city, Chilanzar, Gavkhar street, house 1].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

SUN'IY INTELEKT VA TA'LIM YUTUQLARINI BAHOLASH: PEDAGOGIKA YO'NALISHIDAGI TALABALAR MISOLIDA

© V.V. Abduazizova[1]✉, M.A. Muxtoraliyeva[2]✉
[1]Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim yutuqlarini baholashdagi roli pedagogika yo'nalishidagi talabalar misolida tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi, ayniqsa, talabalarning yutuqlarini baholash, individual yondashuvlarni ishlab chiqish va o'qish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari o'rganiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganish va uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqola davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, empirik kuzatishlar, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga oid tajriba materiallaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim yutuqlarini baholashdagi samaradorligini ko'rsatdi. Avtomatik baholash va individual yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omillar hisoblanadi.

XULOSA: sun'iy intellekt ta'lim jarayonida samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. U o'quvchilar bilimini mustahkamlash va o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim yutuqlarini baholash, individual o'qish, ta'lim samaradorligi, pedagogika.

Iqtibos uchun: Abduazizova V.V., Muxtoraliyeva M.M. Sun'iy intellekt va ta'lim yutuqlarini baholash: pedagogika yo'nalishidagi talabalar misolida //. Inter education & global study. 2024. №10(1). B.360–364.

ОЦЕНКА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ: НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ПЕДАГОГИКИ

© В.В. Абдуазизова[1]✉, М.А. Мухторалиева[2]✉
[1]Наманганский инженерно-строительный институт, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в оценке образовательных достижений на примере студентов

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

педагогического направления. Будет рассмотрена важность применения ИИ в образовательном процессе, особенно в оценке успеваемости учащихся, разработке индивидуальных подходов и повышении эффективности обучения. Также в статье будут рассмотрены возможности совершенствования образовательного процесса с помощью искусственного интеллекта.

ЦЕЛЬ: изучить возможности искусственного интеллекта в оценке успеваемости студентов и повышении эффективности обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использовались научные источники, также эмпирические исследования и тестирование методов искусственного интеллекта в педагогике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследование подтвердило, что искусственный интеллект обеспечивает индивидуальные подходы в обучении и повышает качество образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: искусственный интеллект является эффективным инструментом в образовании, способствуя модернизации учебного процесса и созданию новых возможностей для студентов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, оценка успеваемости, индивидуальное обучение, эффективность образования.

Для цитирования: Абдуазизова В.В., Мухторалиева М.М. Оценка искусственного интеллекта и образовательных достижений: на примере студентов в области педагогики // Inter education & global study. 2024. №10(1). В. 360–364.

ASSESSMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND EDUCATIONAL ACHIEVEMENTS: AS AN EXAMPLE OF STUDENTS IN THE FIELD OF PEDAGOGY

© Veronika A. Vadimovna[1]✉, Mukhtasar A. Mukhtoraliyeva[2]✉
[1,2] Namangan Institute of Civil Engineering, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the role of artificial intelligence technologies in assessing educational achievements on the example of students in the pedagogical direction. The use of artificial intelligence in the educational process is considered, especially its importance in assessing student achievement, developing individual approaches, and improving reading performance. The article will also study the possibilities of improving the educational process using artificial intelligence.

AIM: the main aim of this article is to explore the potential of artificial intelligence in evaluating student performance and enhancing learning efficiency.

MATERIALS AND METHODS: the study utilizes scientific literature, empirical research, and experimental applications of artificial intelligence methods in pedagogy.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the research confirmed that artificial intelligence ensures individualized approaches to education and improves the quality of learning.

CONCLUSION: artificial intelligence serves as an effective tool in education, modernizing the learning process and creating new opportunities for students.

Keywords: artificial intelligence, student performance evaluation, individualized learning, learning efficiency, pedagogy.

For citation: Veronika A. Vadimovna, Mukhtasar A. Mukhtoraliyeva (2024). 'Assessment of Artificial Intelligence and Educational Achievements: as an Example of Students in the Field of Pedagogy' // Inter education & global study. №(10(1)). pp. 360–364. (In Uzbek).

Bugungi kunda sun'iy intellekt zamonaviy ta'lim tizimining muhim bir qismi bo'lib, talabalarning yutuqlarini baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun ta'lim yutuqlarini aniqlash va baholash jarayonlari ancha murakkablashgan.

Pedagogika fanlari o'qituvchilari uchun, masalan, talabalar bilimini aniq baholash, ularning individual ehtiyojlarini inobatga olish va ta'lim samaradorligini oshirish katta ahamiyatga ega. Shu bois, sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi bu jarayonni ancha osonlashtirishi va samarali qilishi mumkin. Sun'iy intellektning ta'limdagi roli. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qish va o'rganish jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun sun'iy intellekt tizimlari avtomatik baholash va real vaqt rejimida fikr-mulohaza berish kabi imkoniyatlar yaratadi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yaxshilash va o'qituvchilarga talabalar bilan samarali ishlash imkonini beradi.Sun'iy intellektning ta'lim yutuqlarini baholashdagi eng katta afzalligi – bu tizimlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashishidir. Masalan, sun'iy intellekt yordamida talabalar tomonidan bajarayotgan testlar va vazifalar talabaning o'rganish tempi va bilim darajasiga qarab avtomatik tarzda sozlanadi. Bu esa har bir talabaga o'ziga xos yondoshuvni taqdim etadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda ham yordam beradi. Agar bir talabada aniq bir mavzu bo'yicha bilim yetishmovchiligi bo'lsa, sun'iy intellekt tizimi ushbu zaif tomonlarni tezda aniqlab, unga mos keladigan o'quv materiallarini va mashqlarni tavsiya etadi.

Ta'lim jarayonida interaktiv fikr-mulohaza tizimlari sun'iy intellekt asosida talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar, masalan, onlayn testlar va simulyatsiyalar orqali talabalarga o'z xatolarini tezda ko'rsatib, ularni tuzatish uchun aniq maslahatlar beradi. Bu jarayon talabaga o'z-o'zini tahlil qilish va o'rganishdagi kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi. Interaktiv fikr-mulohaza talabaning xatolarini tezda tuzatishga yordam berib, uning yanada chuqurroq o'rganishiga va tushunmovchiliklarni bartaraf etishiga imkon yaratadi. Fikr-mulohaza va o'z-o'zini tahlil qilish. Real vaqtda fikr-mulohaza berish tizimi, talabaga noto'g'ri

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tushunilgan yoki o‘rganilmagan mavzularni aniqlab, ularni qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Masalan, onlayn test yoki interaktiv mashqni bajarayotganda, tizim talaba tomonidan berilgan noto‘g‘ri javoblarni darhol ko‘rsatadi va ushbu xatolarni tuzatish uchun kerakli tavsiyalar beradi. Bu o‘z navbatida, talabalarning o‘z-o‘zini tahlil qilish va bilimlarining kuchli va zaif tomonlarini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar xatolarni tushunib, ularni to‘g‘rilashga harakat qiladi, bu esa uning o‘rganish jarayonini chuqurlashtiradi. Shu tarzda, talaba nafaqat o‘z bilimini tahlil qiladi, balki undan qanday qilib samarali foydalanishni o‘rganadi. Bu jarayon uning o‘rganish yondoshuvini optimallashtirishga yordam beradi va talabaning muvaffaqiyatga erishishiga turtki bo‘ladi. Adaptiv o‘qitish tizimlari yordamida talabalarning ta’lim jarayonini yanada individual tarzda tashkil qilish mumkin. Sun’iy intellekt talabaning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va tezligini tahlil qilib, unga moslashtirilgan o‘quv rejalari va mashqlarni taqdim etadi. Masalan, ba’zi talabalar tezda yangi materialni o‘zlashtirishi mumkin, boshqalari esa ko‘proq vaqt va yordamga ehtiyoj sezadilar. Adaptiv tizimlar bu farqlarni hisobga olib, talabalarni o‘zlariga mos materiallar bilan ta’minlaydi, bu esa har bir talabaga o‘zining o‘rganish tezligini saqlash imkonini yaratadi. Adaptiv tizimlar yordamida o‘qituvchi talabalar bilimini yanada yaxshiroq baholash va ular bilan samarali ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Talabalarga ularning bilim darajasiga moslashtirilgan materiallar, qo‘shimcha mashqlar va interaktiv testlar[3] taqdim etiladi. Bu talabalarga o‘zlarini erkin his qilishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga imkon beradi. Natijada, talabalar o‘rganish jarayonini o‘z ehtiyojlari va shaxsiy uslublariga moslashtirgan holda o‘z muvaffaqiyatini oshiradilar. Pedagogika fanlarini o‘rganish jarayonida talabalar turli xil didaktik va metodik masalalarni hal qilishadi. Sun'iy intellekt tizimlari esa talabalarga aniq metodologik yondoshuvlar, pedagogik texnikalar va bilimni o‘rgatish usullarini taklif qilish orqali o‘rganish jarayonini ancha osonlashtiradi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan interaktiv platformalar talabalar uchun didaktik materiallarni individual tarzda moslashtirishi mumkin, bu esa har bir talabaga o‘ziga mos o‘rganish uslubini yaratishga yordam beradi.

Talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, ma’lum bir pedagogik texnikani qaysi vaziyatda qo‘llashini bilib oladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlari talabalarga turli pedagogik modellar va usullarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, mashq qilish va simulatsiya orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Simulyatsiyalar yordamida talabalar o‘zlarini talaba yoki o‘qituvchi sifatida sinab ko‘rishlari mumkin, bu esa ularga real pedagogik vaziyatlarda qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerakligini tushunishga yordam beradi.

Ta’lim tizimida sun’iy intelekt haqida so’z borar ekan individual o‘qish haqida ham atroflicha to’xtalib o’tish zarur. Keling avvalo individual o’qish haqida bilib olsak. Individual o‘qish — bu ta’lim metodikasi hisoblanadi, uning asosida har bir talabaning o‘ziga xos o‘rganish uslubi, o‘rganish tezligi, qiziqishlari va bilim darajasi hisobga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

olinadi[4]. Bu yondoshuv, ta’limni shaxsiylashtirishga asoslanadi va har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta’lim jarayonini taqdim etishga intiladi. Bilamizki, an’anaviy ta’lim tizimida, odatda, barcha talabalar bir xil dars rejalari va o‘quv materiallari bilan ta’minlanadi, bu esa har bir talabani alohida e’tiborga olishni qiyinlashtiradi. Natijada, ba’zi talabalar ta’limni samarali olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, boshqalari esa ma’lum mavzularni juda tez o‘zlashtiradi va ular uchun qo‘shimcha materiallar yoki chora-tadbirlar yetishmaydi. Sun’iy intellekt asosidagi individual o‘qish tizimlari esa yuqorida keltirilgan muammoni hal qilishga yordam beradi.

Xulosa. Sun’iy intellekt ta’lim yutuqlarini baholashda samarali vosita sifatida o‘zining afzalliklarini ko‘rsatmoqda. Pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan o‘rganish jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Avtomatik baholash, real vaqt rejimida fikr-mulohaza va adaptiv tizimlar orqali o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi interaktiv aloqalar kuchayadi. Bu esa ta’lim jarayonini samarali va muvaffaqiyatli tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kiritilishi pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun yangi imkoniyatlar va ta’limning sifatini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-4884-son Farmoni Sh. Mirziyoyev O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim va fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. Mamatov, Alisher. "Boshqaruv kadrlarining kompetensiyalarini uzluksiz oshirish jarayonida sun’iy intelektdan foydalanish. " Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2.5 (2024): 157-165.
3. Sherzod, Yo‘ldoshev. "Oliy ta’lim tizimida sun’iy intelektdan foydalanish " Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal 2.1 (2024): 239-242.
4. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta’lim yo ‘nalishi talabalari uchun darslik:– Toshkent. – 2020. – T. 118.
5. Yulchiyeva, Gullola. " Sun’iy intellekt va uning pedagogik faoliyatda tutgan o’rni." Universal xalqaro ilmiy jurnal 1.4 (2024): 149-151

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Vadimovna Veronika Abduazizova**, dotsent, **Muxtoraliyeva Muxtasar Akramjon qizi,** doktorant [**Вадимовна Вероника Абдуазизова**, доцент, **Мухторалиева Мухтасар Акрамжон кизи**, докторант], [**Veronika A. Vadimovna,** associate professor, **Mukhtasar A. Mukhtoraliyeva**, doctoral student]; manzil: Namangan Islom Karimov ko`chasi 12-uy, [адрес: Наманган улица Ислама Каримова дом 12], [address: 12 Islam Karimov Street, Namangan].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TA’LIMINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

© N.R. Xo‘jamqulova[1]✉, G. N. Eshqobilova[2]✉, M.Sh. Hayitova[3]✉
[1,2,3]O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jarayoniga moslashtirishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Jumladan, differensiallashtirilgan o‘qitish, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, hamda sinfni boshqarishning samarali usullarining ta’limdagi roli yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish va ularning ta’lim jarayoniga moslashishini qo‘llab-quvvatlash uchun pedagogik yondashuvlar va o‘qitish uslublarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda differensiallashtirilgan o‘qitish, hissiy va ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liq pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, sinfni boshqarish texnikasi va o‘quvchilarni o‘qish materiallariga jalb etish metodlari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar differensiallashtirilgan o‘qitish yondashuvi yordamida o‘quvchilarning bilim darajasining oshishini va o‘qish savodxonligini rivojlantirishga erishilganini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, madaniy jihatdan xabardor pedagogika va ijobiy o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari o‘quvchilarni o‘qish materiallariga qiziqishini oshirishda muhim ekanligi aniqlandi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, differensiallashtirilgan o‘qitish, ijtimoiy va hissiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. bunday yondashuvlar o‘quvchilarning kelgusi ta’limdagi faolligini oshirish va umrbod o‘qishga qiziqishni rivojlantirish uchun zarur muhit yaratadi.

Kalit so‘zlar: differensiallashtirilgan o‘qitish, hissiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, sinfni boshqarish texnikasi, o‘qitish metodlari, ta’lim samaradorligi, madaniy jihatdan xabardor pedagogika.

Iqtibos uchun: Xo‘jamqulova N.R., Eshqobilova G.N., Hayitova M.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limini samarali tashkil qilishning pedagogik omillari. // Inter Education & Global Study. 2024. №10(1). B.365–370.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© Н.Р. Ходжамкулова[1]✉, Г. Н. Эшкобилова[2]✉, М.Ш. Хайитова[3]✉
[1,2,3]Узбекско-Финский педагогический институт, Самарканд, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется значение педагогических подходов в адаптации учащихся начальных классов к учебному процессу. В частности, рассматриваются дифференцированное обучение, поддержка эмоционального и социального развития, а также роль эффективных методов управления классом в процессе обучения.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является повышение уровня грамотности учащихся начальных классов и поддержка их адаптации к образовательному процессу с помощью педагогических подходов и методов обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы педагогическая и психологическая литература, связанные с дифференцированным обучением, эмоциональным и социальным развитием. Также изучались методы управления классом и вовлечения учащихся в учебные материалы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование подхода дифференцированного обучения способствует повышению уровня знаний учащихся и развитию их грамотности. кроме того, культурно-чувствительная педагогика и положительные отношения между учителем и учеником играют важную роль в повышении интереса учащихся к учебным материалам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что дифференцированное обучение и педагогические подходы, поддерживающие социальное и эмоциональное развитие, способствуют успеху учащихся в образовательном процессе. Такие подходы создают необходимую среду для повышения активности учащихся в дальнейшем образовании и развития интереса к обучению на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, эмоциональное развитие, социальное развитие, техника управления классом, методы обучения, эффективность образования, культурно-чувствительная педагогика.

Для цитирования: Хужамкулова Н.Р., Эшкобилова Г.Н., Хаитова М.Ш. Педагогические факторы эффективной организации обучения учащихся начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 365–370.

PEDAGOGICAL FACTORS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL EDUCATION

© Nafisa R. Xo'jamqulova[1]✉, Guldona N. Eshqobilova[2]✉, Muhabbat Sh. Hayitova[3]✉
[1] Uzbekistan-Finland pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the significance of pedagogical approaches in adapting primary school students to the learning process. In particular, differentiated

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

teaching, support for emotional and social development, and the role of effective classroom management methods in the educational process are considered.

AIM: the main aim of the study is to improve the literacy levels of primary school students and support their adaptation to the educational process through pedagogical approaches and teaching methods.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed pedagogical and psychological literature related to differentiated teaching, emotional and social development. Additionally, methods for classroom management and engaging students with educational materials were examined.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that the use of a differentiated teaching approach contributes to improving students' knowledge levels and literacy development. Furthermore, culturally sensitive pedagogy and positive teacher-student relationships play a crucial role in enhancing students' interest in educational materials.

CONCLUSION: the study results indicate that differentiated teaching and pedagogical approaches supporting social and emotional development ensure students' success in the educational process. Such approaches create a necessary environment for increasing students' engagement in further education and fostering a lifelong interest in learning.

Keywords: Differentiated teaching, emotional development, social development, classroom management techniques, teaching methods, educational effectiveness, culturally sensitive pedagogy.

For citation: Nafisa R. Xo‘jamqulova, Guldona N. Eshqobilova, Muhabbat Sh. Hayitova. (2024) ‘Pedagogical factors of effective organization of primary school education’. // Inter education & global study №10(1). pp. 365–370. (In Uzbek).

Differensiallashtirilgan o‘qitish sinfdagi turli xil o‘quv profillarini tan oladi. Vizual, eshitish va kinestetik usullar kabi o‘rganish uchun bir nechta yo‘llarni taqdim etish o‘rganishning turli xil afzalliklari va kuchli tomonlarini qamrab oladi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi va o‘qish savodxonligi rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lish xavfini kamaytiradi.

Samarali moslashishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlar. boshlang‘ich maktab o‘quvchilari ularning kognitiv, hissiy va ijtimoiy o‘lchamlarini hisobga olgan holda yaxlit yondashuvlardan foydalanadilar. O‘qituvchi va o‘quvchining ijobiy munosabatini rivojlantirish bu yondashuvning markaziy o‘rni hisoblanadi. Muhitning iliqligi, qulaylik va faol tinglash o‘quvchilarning qadrli va qo‘llab-quvvatlanayotganini his qiladigan xavfsiz joy yaratadi. Bunday ijobiy munosabat o‘quvchilarning o‘qish faoliyati bilan shug‘ullanishga va kerak bo‘lganda yordam so‘rashga tayyor bo‘lishiga imkon beradi.

O‘quv dasturiga madaniy aloqadorlik va turli istiqbollarni kiritish o‘quvchilarning kelib chiqishini e’tirof etadi va inklyuzivlikni rivojlantiradi. Madaniy jihatdan xabardor

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

pedagogika o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi qadrlashi va o‘rganishga bo‘lgan rag‘batini oshiradi va shu bilan ularning o‘qish materiallari bilan shug‘ullanishiga ta’sir qiladi. O‘quvchilarning shaxsiyatini aks ettiruvchi hikoyalar va matnlarni birlashtirish o‘qish bilan mazmunli aloqalarni rag‘batlantiradi va o‘qish savodxonligi natijalarini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

O‘qish savodxonligini oshirish bilan bog‘liqlik. Ko‘rib chiqilgan pedagogik jihatlar o‘qish savodxonligini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Sinfni boshqarish usullari o‘quvchilarning o‘qish faoliyati davomida diqqatli va qabul qiluvchi bo‘lishini ta’minlab, yo‘naltirilgan o‘rganish tajribasi uchun zamin yaratadi . Aniq taxminlar va tartiblar chalg‘itadigan narsalarni kamaytiradi va doimiy o‘qish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Faol izlanish va tanqidiy fikrlashga yordam beradigan o‘qitish metodlari o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita yordam beradi. Amaliy tajribalar, munozaralar va hamkorlikda o‘rganish o‘quvchilarni bir qator matnlarni talqin qilishga imkon beradi va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, tabaqalashtirilgan ta’lim turli xil o‘qish darajalarini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarga tegishli yordamni olgan holda o‘z sur’atlarida rivojlanish imkonini beradi.

XULOSA: interaktiv usullarning ingliz tili darslarida qo‘llanishi o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, jamoaviy ruhni shakllantirishga va chet tili o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi. Loyihaviy ta’lim esa o‘quvchilarni tadqiqotchilik qobiliyatlarini oshirish va mustaqil o‘rganishga yo‘naltiradi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, loyiha metodi, interaktiv usullar, chet tili o‘qitish, innovatsion texnologiyalar, jamoaviy ruh, mustaqil o‘rganish.

Iqtibos uchun: Xoshimova D.R. Ingliz tili darslarida interaktiv usullardan foydalanish mohiyati. // Inter Education & Global Study. 2024. №10(1). B. 385–390.

Many job notices for positions in English language teaching and applied linguistics specify knowledge of technology as an essential or desirable qualification. Warschauer (2000) predicts even more sweeping changes in job requirements for teachers in the future, whereas Cribb (2000) speculates a diminished need for English teachers in a world where language users can employ convenient translation technologies rather than engaging in time-intensive language study! Critical perspectives warn applied linguists not to accept the technologizing of the profession as inevitable.

Many people also find the tackling of translation problems intellectually stimulating and aesthetically satisfying. In addition, it helps create and maintain good relations between teacher and student, facilitates classroom management and control, and allows students to maintain their own sense of first language identity, while also building a new bilingual identity. It does not seem to impede efficient language use – many students who began their studies through translation go on to become fluent and accurate users of the new language.

A main factor that has some practitioners advocate translation is that it lends itself to “easy” teaching. How simple is it to get students to translate or to explain in the first language. Think for a moment, when we learnt our first language, we mastered it without the need for translation. Those capacities we had then, we still have now, and I would suggest even more. So why not use them and have learners come to understandings of the new language by using their awareness, wits, their intelligence, their perception. All of this usage making them better language learners. The trick for the language teacher is to teach in ways that encourage these practices but to not to replace translation with copious explanations and practices that dull the mind, or at the very least don’t stimulate it to grow.

Today, the goals and tasks facing the modern education are changing — the emphasis is shifted from the assimilation of knowledge to the formation of competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

There is a reorientation of a personal-oriented approach, the opposite of knowledge-oriented impersonal pedagogy. Schools are provided with modern computers, electronic resources, Internet access. This contributes to the introduction of new pedagogical technologies in the teaching and educational process. It is the use of innovative technologies in English language lessons is the main sign of positive results of creative activity, which entails increased motivation of students.

According to scientific calculations of national and foreign scientists, the term “method” has two basic meanings: a certain path to the goal, means to achieve the result; complete methodological system and the fundamental direction of the learning process, which prevail in the various periods of the science development.

With the development of high-tech usual methods of teaching through books, similar grammar exercises, reading and translation of texts go on the back burner.[2] The humanistic approach eventually led to the formation of the communicative approach, on which is based the whole procedure. Traditional grammar-translation methods do not form language skills. The student is capable to read and translate various texts at high-level, but he is not able to apply the knowledge of a foreign language in real life situations. The communicative approach allows the use of grammatical knowledge in a form of speaking and writing skills. One of the key tasks is the enriching of vocabulary. However, new words must be stored not only in a passive, but also in active form. In other words, the student must not only know the translation of a word, but should be able to use it in speech or in writing of own texts. As a simple exercise to develop skills can be noted spontaneous group dialogues. Students are divided into pairs and try to communicate on various topics. Usually the teacher oversees the conversation or helping with leading questions. During learning of new words used exercises with cards. On them written new words, and then they are turned and mixed. One student draws a card and tries to explain the meaning of a foreign word so the others can guess it. This exercise allows you to “feel” new words and remember situations in which they are used correctly. At a certain stage of development can be implemented into the learning process different movies in a foreign language. Students are asked questions, the answers to which should be identified directly from watched videos.

In recent years, increasingly it raises the question of the application of innovative technology in the classroom. It is not only new facilities but also new forms and methods of teaching, new approach to learning. Introduction of innovative technologies in the educational process is interconnected with the improvement of the content and methods of education in the process of teaching foreign languages in relation to the needs of modern life.

The main objective of foreign language teaching is the formation and development of the communicative culture of pupils, learning practical mastery of a foreign language. The task of the teacher is to create the conditions of practical language learning for each student to choose such training methods that would allow each student to show their activity, their creativity. Modern teaching techniques such as cooperative learning, project

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

methodology, the use of new information technologies, Internet resources help to realize the learner centered approach to learning, providing personalization and differentiation of learning abilities of children, taking into account their level of training.[3] The communicative approach is a strategy that simulates the communication, aimed at creating a psychological and linguistic readiness to communicate, on a conscious understanding of the material and methods of action with him. For the user, the implementation of the communicative approach in the Internet is not particularly difficult. Communicative job must offer students a problem or question for discussion, and students do not just share information, but also evaluate it. But the main criterion to distinguish this approach from other types of learning activities is that students choose their own linguistic units to process their thoughts. Using the Internet in the communicative approach could not be better motivated: its aim is to interest students in learning a foreign language through the accumulation and expansion of their knowledge and experience. One of the basic requirements for teaching foreign languages using the Internet resources, is to create interaction in the classroom, what is called in interactive methods. Interactivity is a «unification, coordination and complementarity of efforts communicative purpose and outcome of speech means». Teaching genuine language, the Internet helps in shaping the conversation, as well as in teaching vocabulary and grammar, providing a genuine interest and, hence, efficiency. Interactivity is not just creating real situations of life, but also makes the students to adequately respond to them through a foreign language

Project method is one of the most pressing contemporary technologies in teaching foreign languages. It combines the elements of problem-based learning and collaborative learning that allows achieving the highest level of mastery of any subject, and foreign language in particular. Project method forms students' communication skills, culture, communication, the ability concisely and audibly formulate thoughts, be tolerant to the opinion of partners in communication and develops the ability to extract information from a variety of sources, to process it with the help of modern technologies. All these factors create language environment that - results in the appearance of the natural need to interact in a foreign language.

Project-based learning does not contradict the traditional ways of learning. It helps to activate students since most of them have an interest for new knowledge. Such kind of motivation - the desire to successfully develop theme of the project - is often stronger than the demands of parents and teachers to study hard in order to get excellent and good marks.

The main purpose of the use of this innovative approach is the ability to effectively master students' foreign communicative competence. It includes the following concepts: verbal competence is creating an opportunity of manifestation of communicative skills in all forms: listening, speaking, writing, reading, translation within a specific topic; socio-cultural competence is the formation of ideas about the social and cultural specificity of the target language; LINGUISTIC competence is students' acquisition of lexical units

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

relating to the topic as a necessary basis for registration of speaking abilities; educational and cognitive competence is the improvement of educational activity on mastering of foreign languages; compensatory competence is formation of skills of overcoming difficult situations in a shortage of linguistic resources.

Also, this approach forms informational competence which manifests the ability to work independently with reference books, find necessary information in various sources, and see links with other branches of knowledge.[4] Moreover, project-based learning contributes to enhancing students' personal confidence, developing a "team spirit" and communication skills; providing a mechanism for critical thinking, the ability to find ways to solve problems and developing students' research skills.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Innovative technologies of teaching foreign languages // Молодой ученый. — 2018. — №5. — С. 182-184. — URL https://moluch.ru/archive/191/48195/ (дата обращения: 14.02.2020).
2. Akzhan M. Abdyhalykova* Indian Journal of Science and Technology, Vol 9(22), DOI: 10.17485/ijst/2016/v9i22/95561, June 2016
3. Akimov, V.B. (2010). Orhanizatsiia informatsionno-tekhnicheskoho prostranstva uchebnoho zavedeniia. Media-biblioteka, interaktivnye doski [Organization of information and technical space of the educational institution. Media library, interactive whiteboards]. Volgograd: Uchitel [in Russian].
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учеб.пос. – М.: Народное образование, 1998.
5. https://www.tdx.cat/bitstream/handle/10803/461885/TESI.pdf?sequence=1&isAllowed=y
6. https://oupeltglobalblog.com/2011/10/20/translation-in-language-teaching-and-learning

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Xoshimova Dilnoza Rixsiboyevna**, head of the inter faculties department of foreign languages, PhD [**Хошимова Дильноза Рихсибоевна**, заведующий межфакультетской кафедрой иностранных языков, PhD], [**Dilnoza R. Xoshimova**, xorijiy tillar fakultetlararo kafedrasi mudiri, PhD]; address: 2a Verkhny Karakamysh Street, Yunusabad district, Tashkent, 100190, [адрес: 100190, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Верхний Каракамыш, д. 2а], [manzil: 100190, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi 2a-uy].

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI LISONIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR

© X. Rahimov[1]✉

[1]Farg‘ona davlat universiteti,Farg‘ona,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qo‘yiladigan didaktik talablarni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini zamonaviy ta’lim talablari va interaktiv metodlarga mos ravishda tayyorlash, shuningdek, chet tilini o‘qitishda samaradorlikni oshirish uchun lisoniy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yordam beruvchi didaktik talablarga aniqlik kiritishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida xorijiy til o‘qitishda qo‘llaniladigan didaktik talablar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va cefr talablari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik talablar bo‘lajak o‘qituvchilarda chet tilini amaliy vaziyatlarda samarali qo‘llash, ijodkorlikni rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari xorijiy til o‘qitishda didaktik talablarning muhimligini tasdiqladi. Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish lisoniy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning samarali usuli ekanligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: lisoniy-kommunikativ kompetentlik, xorijiy til, didaktik talablar, pedagogik yondashuv, interaktiv metodlar.

Iqtibos uchun: Rahimov X. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilari lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qo‘yiladigan didaktik talablar.// Inter education & global study. 2024. №10(1). B.391–395.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ ЛИНГВИСТИКО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

© Х. Рахимов[1]✉

[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются дидактические требования, направленные на развитие лингвистико-коммуникативной компетентности будущих преподавателей иностранных языков.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — подготовка будущих преподавателей иностранных языков в соответствии с современными требованиями образования, а также уточнение дидактических требований, способствующих развитию их лингвистико-коммуникативной компетентности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы дидактические требования, современные образовательные технологии и общеевропейские компетенции (cefr), используемые в обучении иностранным языкам.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что дидактические требования, направленные на развитие лингвистико-коммуникативной компетентности, формируют у будущих преподавателей навыки практического применения языка, творческое мышление и самостоятельность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило важность дидактических требований в обучении иностранным языкам. Использование современных технологий и интерактивных методов признано эффективным инструментом развития лингвистико-коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: лингвистико-коммуникативная компетентность, иностранный язык, дидактические требования, педагогический подход, интерактивные методы.

Для цитирования: Рахимов Х. Дидактические требования к развитию лингвистико-коммуникативной компетентности будущих преподавателей иностранных языков. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 391–395.

DIDACTIC REQUIREMENTS FOR DEVELOPING LINGUISTIC-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PROSPECTIVE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

© Khurshid Rahimov[1]✉
[1]Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the didactic requirements for developing linguistic-communicative competence among future foreign language teachers.

AIM: the main aim of the study is to prepare future foreign language teachers in line with modern educational standards and clarify didactic requirements that promote the development of linguistic-communicative competence.

MATERIALS AND METHODS: the study examines didactic requirements, modern educational technologies, and cefr standards applied in foreign language teaching.

DISCUSSION AND RESULTS: the results indicate that didactic requirements focused on developing linguistic-communicative competence foster practical language use, creativity, and independent thinking skills among future teachers.

CONCLUSION: the study confirms the importance of didactic requirements in foreign language education. Utilizing modern technologies and interactive methods is recognized as an effective approach to enhancing linguistic-communicative competence.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Keywords: linguistic-communicative competence, foreign language, didactic requirements, pedagogical approach, interactive methods.

For citation: Khurshid Rahimov. (2024) 'Didactic Requirements for Developing Linguistic-Communicative Competence of Prospective Foreign Language Teachers.' // Inter education & global study. 2024. № (10(1)). pp. 391–395. (In Uzbek).

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chet tillarini o'qitish jarayonining bugungi kun talablari ta'lim samarasini faqat tilni rasmiy o'rganish bilan cheklab bo'lmasligini, balki ma'naviy, madaniy hamda texnologik rivojlanish omillarini ham hisobga olishni talab qiladi. Xorijiy til o'qituvchisi o'zi ishlab chiqqan metodik konsepsiyaga tayangan holda nafaqat fonetika, leksika yoki grammatika bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularni amaliy ko'nikmalarga jalb qilish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish mahoratiga ham ega bo'lishi zarur. Shu jihatdan qaraganda, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish da'vosi ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun bebaho asos vazifasini o'taydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda chet tilini o'qitish tizimida interaktiv usullar va amaliy muloqotga yo'naltirilgan yondashuvlar tobora keng ommalashib bormoqda. Talabalarga chet tilini yo'l-yo'riqlar asosida emas, balki bevosita muloqot bilan bog'liq holda, turli sotsial va madaniy kontekstlarda qo'llash zarurligi vujudga kelgan. Shunday sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning lisoniy-kommunikativ kompetentligi ularni oddiy nazariy bilimlarni bilish bilan cheklanishdan chiqarib, chet tilini amaliy maqsadlarda, turli ijtimoiy vaziyatlarda erkin ravishda qo'llashga o'rgatadi. Bunda tilning grammatika va lug'aviy boyligi muhim ahamiyat kasb etsa-da, asosiy e'tibor kommunikatsion vazifalarga va muloqotdagi pragmatik omillarga qaratilishi lozim. Zero, chet tilini puxta bilgan shaxs ham uni bevosita ishlatish tajribasi yetishmasa, bilimini ijtimoiy munosabatlarda to'liq namoyon etolmasligi mumkin.

Lisoniy-kommunikativ kompetentlik, umumiy ma'noda, nafaqat til tizimini egallash balki, bu tilni muloqot jarayonida to'g'ri va samarali qo'llay bilish qobiliyatidir. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisiga bu kompetentlik o'quvchilarni xorijiy tilga jalb qilish, ularga muloqot asnosida amaliy ko'nikma berish, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda katta yordam beradi. Xususan, o'quv mashg'ulotlarida chet tilidagi nutqni tushunish, uni to'g'ri talaffuz qilish, turli til registrlaridan foydalana olish, mos ravishda yozma va og'zaki muloqotni tashkil etish mas'uliyati ham shu kompetentlik doirasida shakllanadi. Shuning uchun xorijiy til o'qituvchisi har bir o'quvchining individual til o'rganish xususiyatlarini inobatga olib, ularga mos ta'lim usullarini tanlashga intilishi lozim bo'ladi.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar, avvalo, aniq maqsadni belgilab olish bilan boshlanadi. O'qituvchilarning amaliy nutq kompetentligi, madaniy va ijtimoiy muhitda chet tilidan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanish ko'nikmalari kabi barcha jihatlar ta'lim jarayoni rejasiga kiritilishi zarur. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillar bo'yicha tayyorlanayotgan talabalarning o'quv rejalariga rejalashtirilgan mustaqil ishlar,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

interaktiv seminarlar, ijodiy loyihalar va muloqotga yo‘naltirilgan yakuniy topshiriqlarni kiritishni taqozo etadi. Shu tarzda, talabalarning turli nutqiy vaziyatlarda izchil ravishda ishtirok etishi, nazariy va amaliy ko‘nikmalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Didaktik talablarning yana bir muhim jihati – bu reflektiv yondashuvni keng joriy qilishdir. Reflektiv yondashuv deganda, talabaning o‘zi o‘qish jarayonida nimalarni o‘rgandi, nimani bilmaydi, uning kuchli va zaif tomonlari nimada, kelajak faoliyati uchun qanday mahoratlar zarur, kabi savollarga o‘zi javob topa olishi tushuniladi. Bunda xorijiy til o‘qituvchisiga tayyorlanayotgan talaba dars jarayonida o‘z harakatini nazorat qilish, tahlil qilish va zarur bo‘lsa, moslashtirishi mumkin. Bu shakllangan didaktik talablar tizimida, avvalo, mustaqil tahlil va xulosa chiqarishga o‘rgatuvchi mashg‘ulot turlarini aniqlash lozim. Shuningdek, talabalarga doimiy ravishda o‘z-o‘zini baholash va o‘ziga baho berish vazifalarini berish orqali, ularning xorijiy tilni amaliy nutq va ijodiy jarayonda qo‘llashlari rag‘batlantiriladi.

Shuni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining lisoniy-kommunikativ kompetentligi faqat dars jarayonida emas, balki darsdan tashqari tadbirlarda ham mustahkamlanib boradi. Masalan, turli xalqaro konferensiyalar, akademik muloqotlar, onlayn platformalardagi muhokamalar, fan olimpiadalari yoki yozgi amaliy loyihalarda qatnashish, xorijiy til prostdasida madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda talabalarning xorijiy tilni to‘laqonli muloqot quroli sifatida qabul qilishi kuchayadi, natijada chet tilni nazariy o‘rganishdan amaliy kompetentlikka erishish bosqichi sifat jixatdan yuksaladi. Lisoniy-kommunikativ kompetentlikning rivoji, shuningdek, ilmiy-pedagogik adabiyotlar bilan tanishish hamda doimiy ravishda xorijiy adabiyotlarni o‘qib borish orqali ham qo‘llab-quvvatlanadi. Bunda ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bo‘yicha izlanishlar bilan muntazam tanishib borish va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish, talabalarda ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy til bo‘yicha oraliq yoki yakuniy testlarning tuzilishi va ularning natijalariga baho berish usullari ham diqqat markazida bo‘lishi lozim. Bunda test topshiriqlarining axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi, o‘qituvchi hamda talabaning natijalarni birgalikda tahlil qilishi, xatolardan xulosa chiqarishi didaktik talablarning yuqori sifatini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, lisoniy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirish ham muhimdir. Pedagogik mahorat, asosan, mashg‘ulotni to‘g‘ri rejalashtirish, didaktik prinsiplardan unumli foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim uslublarini qo‘llash, turli yosh guruhlar bilan ishlash metodikasini bilish va interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kelajak o‘qituvchisining dars davomida psixologik muhitni to‘g‘ri boshlab, ishtirokchilarning faoliyatini nazorat qilish, rag‘bat berish va zarur bo‘lsa, muloqot strategiyasini o‘zgartirish qobiliyati ham xuddi shu kompetentlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday bilim va ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchiga odatda til o‘rganish jarayonidagi “turg‘unlik” va stereotiplarni yengishda, hamda talabalarga individual yondashuv orqali, ularning ijodkorligini rag‘batlantirish orqali yordam beradi. Chet tilini o‘qitishda texnologik jarayonlarni kiritish bugungi davr didaktik talablarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Raqamli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

platformalar, masofaviy ta’lim shakllari, audio va video manbalar, mobil ilovalar, virtual sinflar – bularning barchasi xorijiy til o‘qitish jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilari bu vositalar bilan amaliy tanish bo‘lish, ulardan oqilona foydalana bilish va ayni paytda didaktik mezonlar doirasida talabalarning ma’naviy hamda interaktiv o‘sishini ta’minlovchi sharoit yaratishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni bilishlari kerak. Texnologik uslublar orqali o‘qitish nafaqat dars jarayonini rang-barang qiladi, balki individual ta’lim trajectoryalarini shakllantirishga ham imkon beradi. Shu bilan birga, ilg‘or texnologik vositalardan foydalanish xorijiy tilni mustahkam o‘zlashtirish hamda muloqotda qo‘llash jarayonini jadallashtirish imkonini yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining lisoniy-kommunikativ kompetentligi yuqori darajada shakllanishi chet tilini o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash bilan bir qatorda, butun ta’lim tizimining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshiradi. Zero, zamonaviy talim jarayonida til vositasida nafaqat axborotni uzatish yoki eshitish-hazm qilish jarayoni, balki butun madaniy aloqani o‘rnatish, globallashuv sharoitida xorijlik hamkorlar bilan surunkali aloqada bo‘lish, jahon ilm-fan va innovatsiyalariga integratsiya qilish uchun ham muhim dastakdir. Didaktik talablar esa ana shu maqsadga erishish yo‘lida nazariy va amaliy choralarni izchil ravishda uyg‘unlashtiradi. Lisoniy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik talablar ta’lim jarayoniga interaktiv metodlarni keng joriy etish, talabalarning ijodkorligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradigan topshiriqlar berish, hamkorlikda o‘qitish uslublarini amaliyotda tatbiq etish hamda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish kabi qator omillarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham chet tilini o‘qitish bo‘yicha kelgusida yaratiladigan har qanday metodik ish yoki ta’lim konsepsiyasi, eng avvalo, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining lisoniy-kommunikativ kompetentligini yuksaltirishni maqsad qilib olishga intilishi muhimdir. Ana shunda biz chet tilini bilish nafaqat nazariy darajada qolib ketadigan, balki amaliy hayotga tatbiq qilinadigan, xalqaro hamkorlik va fan-texnik taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadigan chuqur va mustahkam poydevorga ega bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–1875-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Chet tillarini o‘qitish bo‘yicha Yevropa kengashining Umumiy Yevropa talablari (CEFR).
4. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. (5-nashr). White Plains, NY: Pearson Education.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rahimov Xurshid**, tadqiqotchi [**Рахимов Хуршид**, исследователь], [**Khurshid Rahimov** researcher]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy, [адрес: 150100, г. Фергана, улица Мурабийлар, д. 19], [address: Murabiylar Street, 19, Fergana, 150100].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

MATEMATIKA FANIDAN AYRIM XALQARO OLIMPIADA MASALALARINI YECHISH METODIKASI

© M.I. Yakubjonova[1]✉, H.Mo‘minjonova[2]✉
[1,2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada matematika fanidan xalqaro olimpiada masalalarini yechish metodikasi, shuningdek, bu jarayonning o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan usullari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – xalqaro olimpiadalarga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish va o‘quvchilarni matematika faniga qiziqishini oshirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xalqaro matematika olimpiadalarida qo‘llaniladigan masalalar tahlil qilindi, shuningdek, ular yechimlarining metodik asoslari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, matematik masalalarni yechishning tizimli yondashuvi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va ularni xalqaro darajada tayyorlashga xizmat qiladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari xalqaro olimpiada masalalarini yechish metodikasini rivojlantirish va bu borada innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: matematika, xalqaro olimpiada, tengsizlik, masala, metodika, uslubiy tavsiya.

Iqtibos uchun: Yakubjonova M.I., Mo‘minjonova H. Matematika fanidan ayrim xalqaro olimpiada masalalarini yechish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.396–400.

МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ НЕКОТОРЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЛИМПИАД ПО МАТЕМАТИКЕ

© М.И. Якубджонова[1]✉, Х. Муминджонова[2]✉
[1,2]Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются методики решения задач международных олимпиад по математике, а также подходы к выявлению и развитию способностей учащихся.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработка методик подготовки к международным олимпиадам и повышения интереса учащихся к математике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы задачи международных математических олимпиад и их методические решения.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что системный подход к решению математических задач способствует развитию логического мышления учащихся и их подготовке на международном уровне.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило необходимость развития методик решения задач международных олимпиад и внедрения инновационных подходов в этом направлении.

Ключевые слова: математика, международная олимпиада, неравенство, задача, методика, методические рекомендации.

Для цитирования: Якубджонова М.И., Муминджонова Х. Методика решения некоторых задач международных олимпиад по математике. // inter education & global study. 2024. №10(1). С. 396–400.

METHODS OF SOLVING PROBLEMS IN SOME INTERNATIONAL MATHEMATICS OLYMPIADS

© Maftunakhon I. Yakubjonova[1]✉, Hokimakhon Muminjonova[2]✉
[1,2]Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines methodologies for solving international mathematics Olympiad problems and approaches to identifying and developing students' talents.

AIM: the main objective of the study is to develop methodologies for preparing for international Olympiads and increasing students' interest in mathematics.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed international mathematics Olympiad problems and their methodological solutions.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings demonstrated that a systematic approach to solving mathematical problems enhances students' logical thinking skills and prepares them for international competitions.

CONCLUSION: the study highlights the necessity of advancing methodologies for solving international Olympiad problems and adopting innovative approaches in this field.

Keywords: mathematics, international Olympiad, inequality, problem, methodology, methodological recommendation.

For citation: Maftunakhon I. Yakubjonova, Hokimakhon Mo‘minjonova. (2024) ‘Methods of solving problems in some international mathematics olympiads.’ // Inter education & global study. №(10(1)). pp. 396–400. (In Uzbek).

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o`zlashtirishga bo`lgan rag`batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug`ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida 03.05.2019 y. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7 maydagi «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4708-sonli Qaroriga muvofiq mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Iqtidorli o`quvchi yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlab borish, sohada ilg`or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida tahlim muassasalari uchun tavsiya va qo`llanmalar ishlab chiqish; umumiy o`rta tahlim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilari o`rtasida mahalliy va xalqaro, shu jumladan nodavlat fan olimpiadalarini tashkil etish, ularning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini tahminlash; yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiadalar uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar yildanyilga rivojlanib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo‘lmoqda.

Xalqaro Matematika Olimpiadasi dunyoning yosh matematiklari uchun eng katta va eng muhim forum hisoblanadi. U sport Olimpiadasi kabi nufuzli bo‘lib, unda ishtirok etish har bir mamlakat uchun katta sharafdir. Har yili iyul oyida, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatidan kelgan 500-600 nafar iqtidorli yoshlar o‘zaro bellashadilar, muloqotda bo‘lishadi va tajriba almashishadi. Birinchi xalqaro Matematika Olimpiadasi Brashovda 1959 yilda bo‘lib o‘tgan va unda Bolgariya, Vengriya, Sharqiy Germaniya, Polsha, Rumыniya, SSSR, Chexoslovakiya terma jamoalari ishtirok etgan.

O‘zbekiston jamoasi birinchi bor 1997 yili Argentinada bo‘lib o‘tgan Xalqaro Matematika Olimpiadasida 3 nafar ishtirokchi va 1 nafar rahbar bilan qatnashgan, ammo sovrinli o‘rinlar bo‘lmagan. Ushbu omadsiz ishtirok natijasida hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalar, Olimpiadaga bir jamoa sifatida ishtirok etish, ishtirokchilarni tayyorlashdagi yo‘l qo‘yilgan ko‘plab muammolar aniqlangan. Biz quyida shunday olimpiada masalalarini tahlil qilib chiqamiz.

1-malasa: (Xitoy -2004) Musbat sonlar uchun

$$\sqrt{\frac{a}{a+b}}+\sqrt{\frac{b}{b+c}}+\sqrt{\frac{c}{c+a}}\le\frac{3\sqrt{2}}{2}$$

tengsizlikni isbotlang.

Yechish: Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo‘llab,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

$$\sqrt{\frac{a}{a+b}}+\sqrt{\frac{b}{b+c}}+\sqrt{\frac{c}{c+a}}\le\sqrt{\left(\frac{2a(a+b+c)}{(a+b)(a+c)}+\frac{2b(a+b+c)}{(b+c)(b+a)}+\frac{2c(a+b+c)}{(c+a)(c+b)}\right)}\times$$

$$\times\sqrt{\left(\frac{a+c}{2(a+b+c)}+\frac{b+a}{2(a+b+c)}+\frac{c+b}{2(a+b+c)}\right)}=$$

$$=\sqrt{2\cdot(a+b+c)\left(\frac{a}{(a+b)(a+c)}+\frac{b}{(b+c)(b+a)}+\frac{c}{(c+a)(c+b)}\right)}$$

munosabatni hosil qilamiz. Endi

$$(a+b+c)\left(\frac{a}{(a+b)(a+c)}+\frac{b}{(b+c)(b+a)}+\frac{c}{(c+a)(c+b)}\right)=$$

$$=\frac{2(a+b+c)(ab+ac+bc)}{(a+b)(b+c)(c+a)}\le\frac{9}{4}$$

yoki

$$8\left(a+b+c\right)(ab+bc+ca)\le 9(a+b)(b+c)(c+a)\Leftrightarrow$$

$$6abc\le ab(a+b)+bc(b+c)+ac(a+c)$$

tengsizlikni isbotlash yetarli. Bu tengsizlik esa o‘rta arifmetik va o‘rta geometrik miqdorlar o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra o‘rinli. Bulardan yuqoridagi isboti talab etilgan tengsizlik isbotlandi.

2-masala: (Turkiya -1998) Agar shart bajarilsa,

$$(a+3b)(b+4c)(c+2a)\ge 60abc$$

tengsizlikni isbotlang.

Yechish: O‘rta arifmetik va o‘rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan quyidagicha foydalanamiz:

$$(a+3b)(b+4c)(c+2a)=(a+b+b+b)(b+c+c+c+c)(c+a+a)\ge$$

$$\ge 4\sqrt[4]{ab^3}\cdot 5\sqrt[5]{b\cdot c^4}\cdot 3\sqrt[3]{a^2c}=60\ a^{\frac{11}{12}}\cdot b^{\frac{19}{20}}\cdot c^{\frac{17}{15}}=$$

$$=60abc\frac{c^{\frac{2}{15}}}{a^{\frac{1}{12}}\cdot b^{\frac{1}{20}}}=60\ abc\frac{c^{\frac{1}{12}}\cdot c^{\frac{1}{20}}}{a^{\frac{1}{12}}b^{\frac{1}{20}}}=60abc\left(\frac{c}{a}\right)^{\frac{1}{12}}\cdot\left(\frac{c}{b}\right)^{\frac{1}{20}}\ge 60abc$$

3-masala: (Kolmogorov kubogi, Rossiya -2004) Musbat sonlarning yig‘indisi birga teng bo‘lsa,

$$(ab+bc+ca)\left(\frac{a}{b(b+1)}+\frac{b}{c(c+1)}+\frac{c}{a(a+1)}\right)\ge\frac{3}{4}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lishini isbotlang.

Yechish: Bu tengsizlikni chap tomonini T bilan belgilab, umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagicha qo‘llaymiz:

$$T\cdot\left(a(b+1)+b(c+1)+c(a+1)\right)\ge(a+b+c)^3=1$$

yoki $T\ge\dfrac{1}{ab+bc+ca+1}$ tengsizlikni va undan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

$$T \geq \frac{1}{ab+bc+ca+1} \geq \frac{1}{\frac{(a+b+c)^2}{3}+1} = \frac{3}{4}$$

munosabatni hosil qilamiz.

4-masala: (Yaponiya -2005) Musbat sonlar yig‘indisi birga teng bo‘lsa,

$$a\sqrt[3]{1+b-c} + b\sqrt[3]{1+c-a} + \sqrt[3]{1+a-b} \leq 1$$

tengsizlikni isbotlang.

Yechish: Bu tengsizlikning chap tomonini S deb belgilab, quyidagi usulda o‘rta arifmetik va o‘rta geometrik miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni qo‘llaymiz:

$$S \leq a\left(\frac{1+1+(1+b-c)}{3}\right) + b\left(\frac{1+1+(1+c-a)}{3}\right) + c\left(\frac{1+1+(1+a-b)}{3}\right) =$$

$$\frac{3a+3b+3c+ab+ac+bc-ba-ca-cb}{3} = 1$$

Yuqoridagi tayyorlangan olimpiada masalalari va ularni yechish usullariga tayangan holda ishonch bilan aytish mumkinki, matematika fanidan olimpiada masalalari tizimini ishlab chiqish, sohaga doir o‘quv-uslubiy ishlarning ishlab chiqilishi o‘quvchilarni matematika fanidan o‘zlashtirish darajasini ortiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Носырева С.В. Составление геометрических словариков как один из видов творческих заданий при формировании геометрических понятий у школьников“ Проблемы математического образования в вузах и толах России в условиях его модернизации: Материалы межрегиональной научно-методической конференции. — Сыктывкар: Изд-во кгпщ 2005.- с. 50-52
2. Носырева С.В. Формирование и развитие логического н математического мышления у учащихся// Новые технологии в образовании (по итогам X Международной электронной научной конференции).- Воронеж: Изд-во ООО «Научная книга», 2005.с.108-109.
3. Yakubjonova, Maftunaxon, and Nigoraxon Rasulova. "TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI." Interpretation and researches 1.1 (2023).
4. Yakubjonova, Maftunaxon, and Dilzoda Ochilova. "MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL QILISH: MUAMMO VA YECHIMLAR." Interpretation and researches 1.1 (2023).

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi**, dotsent, **Mo‘minjonova Hakimaxon** talaba [**Якубджонова Мафтунахон Исломжон кизи**, доцент, **Моминджонова Хакимахон** студент], [**Maftunakhon I. Yakubjonova** associate professor, **Hokimakhon Muminjonova** student]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, улица Турана, д. 23], [address: Kokand, Turana street, 23].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIMNI XALQARO REYTING VA INDEKSLARDA O‘RNINI MUSTAHKAMLASHDA INNOVATSION BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SAMADORLIGI

© G.V. Yo‘ldosheva[1]✉
[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini xalqaro reyting va indekslarda mustahkamlashda innovatsion boshqaruvning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Xalqaro reyting talablari, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv strategiyalarining roli o‘rganilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – innovatsion boshqaruv yondashuvlarini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga joriy etish orqali xalqaro reyting va indekslarda yuqori o‘rinlarga erishish usullarini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xalqaro reyting va indeks talablari, mahalliy va xorijiy tajribalar asosida tahlil metodi, empirik tadqiqotlar va statistik tahlil usullari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion boshqaruv va pedagogik yondashuvlar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini xalqaro miqyosda tan olishga yordam beradi. Bu orqali ta’lim sifatini oshirish va milliy iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shish mumkin.

XULOSA: oliy ta’lim tizimini xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarga olib chiqish uchun zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va pedagogik samaradorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: xalqaro reyting va indekslar, innovatsion boshqaruv, ta’lim texnologiyalari, pedagogik samaradorlik, zamonaviy boshqaruv.

Iqtibos uchun: Yo‘ldosheva G.V. O‘zbekistonda oliy ta’limni xalqaro reyting va indekslarda mustahkamlashda innovatsion boshqarishning pedagogik samadorligi. // Inter education & global study. 2024. №. 10(1). B.401–405.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УКРЕПЛЕНИИ ПОЗИЦИЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНЫХ РЕЙТИНГАХ И ИНДЕКСАХ

© Г.В. Юлдошева[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется педагогическая эффективность инновационного управления в укреплении позиций системы высшего образования

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Узбекистана в международных рейтингах и индексах. Рассматриваются требования международных рейтингов, роль современных технологий и управленческих стратегий.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – изучение методов внедрения инновационного управления для достижения высоких позиций в международных рейтингах и индексах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование основывалось на анализе требований международных рейтингов, изучении местного и зарубежного опыта, а также использовании эмпирических и статистических методов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что инновационные подходы в управлении и педагогике способствуют повышению качества образования и конкурентоспособности высшего образования Узбекистана на международной арене.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: внедрение инновационного управления и повышение педагогической эффективности являются ключевыми факторами для укрепления позиций высшего образования Узбекистана в мировом образовательном сообществе.

Ключевые слова: международные рейтинги и индексы, инновационное управление, образовательные технологии, педагогическая эффективность, современные подходы.

Для цитирования: Юлдошева Г.В. Педагогическая эффективность инновационного менеджмента в укреплении позиций высшего образования Узбекистана в международных рейтингах и индексах. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 401–405.

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE MANAGEMENT IN STRENGTHENING THE POSITION OF HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS AND INDEXES

© Yo'ldosheva V. Gulhayyo[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the pedagogical effectiveness of innovative management in strengthening the position of Uzbekistan's higher education system in international rankings and indexes. It examines the role of international ranking requirements, modern technologies, and management strategies.

AIM: the primary aim of the study is to explore methods for implementing innovative management approaches to achieve high positions in international rankings and indexes.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized an analysis of international ranking requirements, local and foreign practices, as well as empirical and statistical methods.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that innovative approaches in management and pedagogy contribute to improving the quality of education and enhancing the competitiveness of Uzbekistan's higher education on the global stage.

CONCLUSION: implementing innovative management and enhancing pedagogical efficiency are crucial factors for strengthening Uzbekistan's higher education position in the global academic community.

Keywords: international ratings and indexes, innovative management, educational technologies, pedagogical efficiency, modern approaches.

For citation: Yo'ldosheva V. Gulhayyo. (2024) 'Pedagogical effectiveness of innovative management in strengthening the position of higher education in Uzbekistan in international ratings and indexes', // Inter education & global study. №(10(1)). pp. 401–405. (In Uzbek).

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi keyingi yillarda katta islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu islohotlar mamlakat oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga, talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi global raqobatbardoshlikni ta'minlash, ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Universitetlarning xalqaro reyting va indekslarda yuqori o'rinlarni egallashi, ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish va pedagogik samaradorlikni oshirish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi mamlakatning ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va global tan olinishi darajasini belgilaydi. Ushbu jarayonning muhim jihatlari:


1. Talabalar va o'qituvchilarning global mobilligini oshirish.
2. Universitet diplomlarining xalqaro mehnat bozorida tan olinishi.
3. Xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston universitetlarining QS, THE (Times Higher Education), va ARWU (Academic Ranking of World Universities) kabi xalqaro reytinglarga kiritilishi uchun innovatsion boshqaruv va pedagogik islohotlar muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik samaradorlikka e'tibor qaratish orqali O'zbekiston universitetlari o'zlarining akademik standartlarini oshirishlari va jahon miqyosida raqobatlasha olishlari mumkin. Ayni paytda O'zbekistonda oliy ta'limning holati innovatsion boshqaruv strategiyalari va amaliyotlarini tatbiq etish bilan izchil yaxshilanmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim bo'yicha xalqaro reytinglarda o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida akademik mukammallik va talabalarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik usullarga e'tibor qaratmoqda. Jahon miqyosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati va obro'sini baholashda xalqaro reyting va indekslar muhim o'rin tutadi. Ular akademik sifat, tadqiqot natijalari va umumiy raqobatbardoshlikni o'lchash uchun muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari xalqaro reyting va indekslarning ahamiyatiga e'tibor qaratish orqali takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashi va ularning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

global miqyosdagi ko‘rinishini oshirishi mumkin. Bu yuqori darajadagi iste'dodlarni jalb qilishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va pirovardida ularning global akademik hamjamiyatdagi obro'sini oshirishga olib kelishi mumkin. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun universitetlar o‘z o‘quv dasturlarini takomillashtirishga, texnologiyaga asoslangan ta’lim usullarini qo‘llashga, tadqiqot va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga e’tibor qaratishlari mumkin. Global standartlarga moslashish orqali ular butun dunyodan ko'proq talabalar va o'qituvchilarni jalb qilishlari mumkin. Xalqaro hamkorlar bilan hamkorlik qilish, global akademik tashabbuslarda ishtirok etish va professor-o‘qituvchilarni rivojlantirishga sarmoya kiritish O‘zbekistondagi universitetlarning xalqaro ta’lim sohasida o‘z obro‘sini oshirish uchun asosiy strategiyasidir.



Bu jadval oliy ta’lim tizimining xalqaro reytingdagi muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni ko‘rsatadi.

Bugungi kunda kredit-modul tizimida boshqarilayotgan oliy talim tashkilotlarida talabalarning mustaqil talimini tashkil etish va nazorat qilish O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy talim muassasalarida talim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus talim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy talimning davlat talim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida olib boriladi. Talabalarning mustaqil talimini tashkil etishdan asosiy maqsad fanlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

hamkorlikda ishlash kompetentsiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Talabalarning mustaqil talimini tashkil etish esa quyidagi vazifalarni ijobiy hal etishni taqazo etadi: talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish; bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash; talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish; talabalarda bilim olishga doir masuliyatni oshirish; talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish; talabalarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida V.I.Andriyanova, P.T. Magzumov, U.N. Nishonaliyev, N. Sayidahmedov, A.R. Xodjaboyev, Q.P. Husanboyeva, R.K. Choriyev E.I. Zakinov, S. Matchanov, Z. Nishonova, T. Niyazmetova, J. Tolipova, O'.Q. Tolipov, B.M. Turdibayeva, N. Xalilov, SH. Sharipov, SH. Yunusova va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilganlar.

O'.Q. Tolipovning kasbiy ta'lim tizimida yoshlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, Sh.Sharipovning talabada ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik asoslari, Sh.Yunusovaning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish, Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlarning mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiy muammo sifatida qaraydilar. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish ko'zga tashlanadi. Bunda u faol, ta'limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta'lim talabaning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan talaba erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir».

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan talimning faol metodi. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

O`zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida XXI asrning ikkinchi o`n yilligida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan bo`lajak mutaxassisning ongi shuurida:

- istalgan masala, mohiyat yuzasidan mustaqil, erkin mulohaza yurita olish;
- ijodiy tafakkur sohibi bo`lish, tadbirkor;
- faollikni odatiga aylantirish, ezgu xislatlarni tarkib toptirish zarur.

Oliy ta'lim tizimiga oid muhim hujjatlarda ta'kidlanganidek: — "…o`qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o`zlashtirish"[1], kundalik yumushlarimiz sirasiga kirishi kerak. Zero, mustaqil ta'lim natijalari bo`lajak mutaxassisda zaruriy bilim, malaka, ko`nikmalar bilan bir qatorda quyidagi jihatlarni ham tarbiyalaydi:

1) g`oyaviy (dunyoqarashi) yo`nalish:

- g`oyaviy sobitlik;
- axloqiy va ma'naviy poklik;
- ijtimoiy majburiyat va fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-siyosiy faollik;

2) kasbiy yo`nalish:

- kasbiy madaniyat- etika;
- ijodiy tafakkur;
- noan'anaviy, yangilikni qabul qilishga tayyorlik;
- fikrda qat'iylik.

3) bilish (faoliyati) yo`nalishi:

- ilmiy bilishga tashnalik va qiziqish;
- shaxsiy faollik;
- yangilikni oldindan sezish;
- mustaqil ta'lim olish faoliyatiga hamisha ehtiyojmandlik, mustaqil tafakkur. Demak, "…uzluksiz mustaqil ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zaruriy shart-sharoit yaratadi"[2]

Mustaqil bilim olish ehtiyojlarining rivojlanishi subektni faolikka undaydi va shu bilan birga uning oldiga bilim va malakalarni egallash vazifasini qo'yadi. Mustaqil bilim olish qanday bo'lishi kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: o'qituvchi va talaba hamkorligidagi faoliyatning yakuni oldindan aniq bo'lgan o'qitish jarayonidan farqli ravishda, mustaqil bilim olishda subekt aniq bo'lmagan va oldindan rejalashtirilmagan

[1] Oliy ta'lim tizimida Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) bo`yicha malaka talablari. Toshkent, 2017

[2] Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. –С.88

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

natijani qayd etishi kerak, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalarning aniq hajmini o'zlashtirishi kerak.

Talabalarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda mustaqil ta'lim olish, ya'ni avtodidaktika (avtodidaktika – o'z-o'zini o'qitish va avtonomlik) tamoyili hamda inson ehtiyojlari piramidasidagi o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyoji o'zaro aloqadorligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizov U. Kredit - modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. - http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php.ECTIONID=161&ELEMENT
2. Кениг, Кэтрин; WJ McKeachie (июнь 1959 г.). «Личность и самостоятельное обучение». Журнал педагогической психологии. 50 (3). DOI: 10.1037 / h0041286.
3. Мур, Майкл Грэм (1973). «К теории самостоятельного обучения и преподавания». Журнал высшего образования: 661–679.
4. Хендерсон, Юан. С. (1984). «Введение: теоретические взгляды на образование взрослых».Энглвуд Клиффс, Нью-Джерси: Публикации по образовательным технологиям. С. 3– 56. ISBN 978-0-87778-188-2. Проверено 25 мая 2013 года.
5. Филатова Л.М. Тенденции изменения спроса на высшее образование: предпосылки, возможности, риски // Вопросы образования. 2014. № 5 (84). С. 32–48.
6. Khasanova, G. K. (2022). THE NEED FOR TECHNOLOGY IN THE DESIGN OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 95-100.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ziroat Anvarovna Xolmatova**, dotsent [**Зироат Анваровна Холматова** ,доцент], [**Ziroat A. Xolmatova** associate professor]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, улица Туран, д. 23], [address: Kokand, Turan street, 23].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK TOMONLARI

© A. I. Zoirova[1]✉

[1]Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim jarayonida raqamli platformalar, mobil ilovalar va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanishning afzallik tomonlari o'rganilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o'rgatishda ta’lim samaradorligini oshirish va talabalarning o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishni tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda raqamli texnologiyalar va ular ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish uchun nazariy va amaliy tahlil metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, xorijiy tajribalar va mahalliy ta’lim tizimi amaliyoti tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda o‘quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, ular o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA: raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o'rgatishda muhim vosita bo'lib, ular ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga moslashtirishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, xorijiy tillar, ta’lim samaradorligi, mobil ilovalar, virtual reallik, interaktiv o‘qitish, talaba faoliyati, pedagogika innovatsiyalari.

Iqtibos uchun: Zoirova A.I. Xorijiy tillarni o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzallik tomonlari // inter education & global study. 2024. №.10(1). B.426-430

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

© А.И. Зоирова[1]✉

[1] Каршинский государственный университет, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются преимущества использования цифровых технологий в обучении иностранным языкам. Особое внимание уделено роли цифровых платформ, мобильных приложений и технологий виртуальной реальности в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – анализ эффективности использования цифровых технологий для повышения качества обучения иностранным языкам и развития учебных навыков студентов.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применялись теоретический и практический анализ цифровых технологий и их влияния на образовательный процесс, а также изучение зарубежного опыта и локальной образовательной практики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показывают, что цифровые технологии помогают сделать образовательный процесс интерактивным и эффективным, а также расширяют возможности студентов для самостоятельного обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: цифровые технологии являются важным инструментом в обучении иностранным языкам, способствуя адаптации образовательного процесса к современным требованиям.

Ключевые слова: цифровые технологии, иностранные языки, эффективность образования, мобильные приложения, виртуальная реальность, интерактивное обучение, студенческая активность, педагогические инновации.

Для цитирования: Зоирова А.И. Преимущества использования цифровых технологий в обучении иностранным языкам. // inter education & global study. 2024. №.10(1). С.426-430.

ADVANTAGES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

© Aziza I. Zoirova[1]✉
[1]Karshi State University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the advantages of using digital technologies in foreign language learning. Special attention is given to the role of digital platforms, mobile applications, and virtual reality technologies in the educational process.

AIM: the main objective of the study is to analyze the effectiveness of digital technologies in enhancing foreign language education and developing students' learning skills.

MATERIALS AND METHODS: the study employed theoretical and practical analysis of digital technologies and their impact on the educational process, along with the examination of international and local educational practices.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that digital technologies help make the educational process interactive and effective while expanding opportunities for independent learning among students.

CONCLUSION: digital technologies are a crucial tool in foreign language education, aiding the adaptation of the educational process to modern requirements.

Keywords: digital technologies, foreign languages, educational efficiency, mobile applications, virtual reality, interactive learning, student activity, pedagogical innovations.

For citation: Aziza I. Zoirova (2024). 'Advantages of using digital technologies in foreign language learning'. // inter education & global study. №.(10(1)). pp.426-430. (In Uzbek).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim jarayonlarida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Xususan, xorijiy tillarni o‘qitishda ushbu texnologiyalar ta’limning sifatini oshirish, talabalarning qiziqishini kuchaytirish va ularning o‘quv faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratmoqda. Bugungi kun talablariga mos ravishda ta’lim metodlari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qulay shaklga keltirish zarur. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarning afzallik tomonlari chuqur tahlil qilinib, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri keng yoritiladi.

Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda foydalanilayotgan raqamli vositalar va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Metod sifatida o‘quv jarayonida raqamli platformalar va dasturlardan foydalanish tajribasi o‘rganilib, nazariy va amaliy tahlil o‘tkazilgan. Raqamli texnologiyalarning samaradorligini aniqlash uchun ilg‘or xorijiy tajribalar bilan bir qatorda mahalliy ta’lim tizimidagi amaliyotlardan foydalanilgan. Shuningdek, mualliflar o‘quvchilarning fikrlash, eshitish, so‘zlash va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi texnologiyalarning rolini aniqlashga qaratilgan eksperimentlarni tahlil qildilar.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, xorijiy tillarni o‘qitishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, bu texnologiyalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash, bilim olish jarayonini tezlashtirish va bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan o‘quv shakllarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu texnologiyalarning xorijiy tillarni o‘qitishdagi afzalliklari batafsil bayon etiladi.

Birinchidan, xorijiy tillarni o‘qitishda foydalaniladigan asosiy raqamli vositalardan biri onlayn ta’lim platformalaridir. Ushbu platformalar, masalan, Moodle, Google Classroom va Blackboard, nafaqat talabalarga mustaqil ta’lim olish imkoniyatini beradi, balki ularni tartibli o‘qishga ham undaydi. Bunday platformalarda o‘qituvchi o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etishi mumkin: matn, video, audio yoki interaktiv mashqlar. Bu esa o‘quvchilar turli o‘quv uslublariga moslashishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, xorijiy tillarni o‘rganishda til o‘rgatishga mo‘ljallangan maxsus mobil ilovalardan foydalanish tobora ommalashmoqda. Duolingo, Rosetta Stone va Babbel kabi ilovalar foydalanuvchilarga har kuni tilni o‘rganish bo‘yicha qisqa mashqlarni taklif etadi. Bu esa talabalarni o‘qituvchi nazoratisiz ham bilim olishga rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, ushbu ilovalarda til grammatikasini o‘rganish, talaffuzni yaxshilash va yangi so‘zlarni tez eslab qolishga yordam beruvchi funksiyalar mavjud.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida virtual muhitda til o‘rganish imkoniyatlari yaratilmoqda. Masalan, virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali talabalar chet el muhitiga tushib, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Virtual safarlar orqali o‘quvchilar turli madaniy kontekstlarni o‘rganadi, bu esa ular uchun tilni o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, qo‘shimcha reallik (AR)

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

texnologiyalari kitoblar va ta’lim materiallarini vizual tarzda boyitadi. Bu esa talabalarni interaktiv o‘quv jarayoniga jalb etadi.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarda foydalaniladigan dasturlarni qo‘llash imkonini beradi. Masalan, talabalarning talaffuzini baholash yoki grammatik tahlil qilishda avtomatlashtirilgan tizimlar yordam beradi. Ushbu tizimlar til o‘rganish jarayonini yanada tahliliy va samarali qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rganishda madaniy jihatlarni chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Xorijiy madaniyatga oid filmlar, seriallar va videolar yordamida talabalar tilni nafaqat grammatik va leksik jihatdan, balki uning madaniy o‘ziga xosliklari bilan birga o‘rganadilar. Shu tariqa, ular nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki madaniy qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar orasida hamkorlik va guruhli o‘rganish imkoniyatlari kengayadi. Onlayn forumlar, guruhli chatlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar bir-birlari bilan doimiy aloqada bo‘lishadi va o‘z bilimlarini birgalikda rivojlantiradilar. Bu esa ular o‘rtasida jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida til o‘rgatishda sun’iy intellekt (AI) tizimlari ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Masalan, ChatGPT kabi texnologiyalar talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, grammatikani tushuntirish va til o‘rganishga oid mashqlarni taklif etishda yordam beradi. AI texnologiyalari orqali o‘quv jarayonini talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda interaktiv o‘yinlar ham raqamli texnologiyalarning muhim qismi hisoblanadi. Gamifikatsiya uslublari talabalarni faol ishtirok etishga jalb qiladi. Masalan, raqamli o‘yinlar yordamida talabalar yangi so‘zlarni o‘rganadi, grammatik qoidalarni mustahkamlaydi va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni zerikarli vazifalardan xalos qilib, o‘qitish jarayonini qiziqarli qiladi. Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o‘qitishda ovozli texnologiyalarning ahamiyati ortmoqda. Masalan, talabalar Google Translate yoki boshqa tarjima ilovalari yordamida so‘zlarning talaffuzini eshitishlari, dialoglarni o‘qishlari va tinglashlari mumkin. Ovozli yordamchilar, masalan, Alexa yoki Siri, talabalar bilan muloqot qilib, ularga tilni yanada chuqurroq o‘rganishga ko‘maklashadi.

Raqamli texnologiyalar cheksiz o‘quv materiallari va resurslarga kirish imkonini beradi. Talabalar internet orqali bepul kurslar, video darslar va boshqa ta’lim materiallaridan foydalanishadi. Ushbu resurslar ta’lim jarayonini yanada boyitib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda yangi imkoniyatlar ochib, o‘qituvchilar va talabalar uchun ta’lim jarayonini soddalashtiradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni global standartlarga moslashuvchan qilib tayyorlash mumkin. Mazkur yondashuv nafaqat xorijiy tillarni o‘qitishda, balki boshqa fanlarni o‘rganishda ham qo‘llaniladigan samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli raqamli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

texnologiyalarni o‘qituvchilar va talabalar tomonidan yanada kengroq qo‘llanilishi ta’limning yangi darajasini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalarni xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llashning afzalliklari qatorida o‘quv jarayonini qiziqarli va jozibador qilish, talabalarning diqqatini jalb qilish va ularning faoliyatini monitoring qilish imkoniyati mavjud. Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchilar uchun ham o‘quv dasturlarini moslashtirish va ularni yanada qulay formatda taqdim etish imkonini yaratadi. Ammo, ba’zi muammolar ham mavjud bo‘lib, ulardan biri talabalarni haddan tashqari texnologiyaga bog‘lab qo‘yish ehtimolidir. Shuning uchun texnologiyalarni qo‘llashda me’yorni bilish va ularni ta’lim maqsadlariga moslashuvchan tarzda qo‘llash zarur.

Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, bilim darajasini oshiradi va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Kelajakda raqamli texnologiyalarni xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga kengroq joriy qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish va zamonaviy talabalarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni doimiy rivojlantirish va ulardan oqilona foydalanish o‘quv jarayonining muhim qismi bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G‘aniyev, S. (2020). Raqamli texnologiyalar va ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Tursunov, O. (2021). Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi roli. Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Larsen-Freeman, D. (2000). Til o‘qitishning texnikalari va prinsiplari. Toshkent: O‘zbekistonda tarjima qilingan.
4. Warschauer, M., & Kern, R. (2000). Tarmoq asosida til o‘rgatish. Cambridge University Press.
5. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). Texnologiyalar yordamida ingliz tili o‘qitish. Pearson Education Limited.
6. Qodirov, A. (2019). Chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi.
7. Reinders, H. (2012). Til o‘rgatishda raqamli o‘yinlar. Palgrave Macmillan.
8. Chapelle, C. A. (2003). Til o‘rganishda texnologiyalar. John Benjamins Publishing Company.
9. Beatty, K. (2010). Kompyuter yordamida til o‘rgatish. Routledge.
10. Bax, S. (2003). CALL – O‘tgan, bugun va kelajak. System Journal, Elsevier.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zoirova Aziza Ibragimovna**, dotsent (PhD) [**Зоирова Азиза Ибрагимовна** , доцент (PhD)], [**Aziza I. Zoirova** associate professor (PhD)]; manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy, [адрес: 180119, г. Карши, улица Кучабог, д. 17], [address: 17 Kuchabog Street, Karshi, 180119].

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

© M.T. Zoxidova[1]✉
[1]Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti,Farg‘ona,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada pedagogik mahoratning funksional yondashuv asosida shakllanishi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Funksional yondashuvning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlari ko‘rib chiqilib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni asoslanadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak pedagoglarda pedagogik mahoratni funksional yondashuv yordamida shakllantirish usullarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda funksional yondashuv tushunchasi va uning pedagogik mahoratni shakllantirishdagi o‘rni bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, funksional yondashuvning nazariy asoslari, amaliyotdagi tatbiqi va talabalarning o‘quv jarayonida bilish faoliyatiga ta’siri o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar funksional yondashuv asosida talabalarning nazariy va amaliy bilim darajasining oshganini, ko‘nikmalarining shakllanganini va ijtimoiy faolligining ortganini ko‘rsatdi. Pedagogik mahoratni rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlandi.

XULOSA: tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim jarayonida funksional yondashuvni qo‘llash pedagogik mahoratni shakllantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Bu yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: funksional yondashuv, pedagogik mahorat, nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalar, ta’lim samaradorligi, innovatsion o‘qitish texnologiyalari, pedagogik metodika.

Iqtibos uchun: M.T. Zoxidova. Funksional yondashuv asosida pedagogik mahoratni shakllantirish zarurati. // inter education & global study. 2024. №.10(1). pp.431-437. (In Uzbek).

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА

© М.Т. Захидова[1]✉
[1]Корейский Международный университет в Фергане, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется значение функционального подхода в формировании педагогического мастерства и его роль в образовательном процессе. Рассматриваются социально-философские и педагогические аспекты функционального подхода.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработать методы формирования педагогического мастерства у будущих педагогов с использованием функционального подхода и повысить эффективность образовательного процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научной литературы по концепции функционального подхода, его философских и педагогических основ, а также его влияния на образовательный процесс и профессиональные компетенции студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что использование функционального подхода способствует повышению уровня теоретических и практических знаний студентов, формированию их профессиональных навыков и активной социальной позиции. Особое внимание уделено взаимосвязи теории и практики в процессе обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили, что функциональный подход является эффективным инструментом формирования педагогического мастерства, способствуя интеграции теоретических знаний и практических навыков, а также развитию профессионального потенциала будущих педагогов.

Ключевые слова: функциональный подход, педагогическое мастерство, теоретические знания, практические навыки, эффективность обучения, инновационные технологии, педагогическая методология.

Для цитирования: Захидова М.Т. Необходимость формирования педагогических навыков на основе функционального подхода. // inter education & global study. 2024. №.10(1). С.431-437.

THE SIGNIFICANCE OF THE FUNCTIONAL APPROACH IN SHAPING PEDAGOGICAL MASTERY

© Zoxidova T. Madinaxon[1]✉
[1]The Korean International University in Fergana, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the importance of the functional approach in shaping pedagogical mastery and its role in the educational process. The socio-philosophical and pedagogical aspects of the functional approach are analyzed.

AIM: the main objective of the study is to develop methods for shaping pedagogical mastery in future educators using the functional approach and to enhance the effectiveness of the educational process.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing scientific literature on the concept of the functional approach, its philosophical and pedagogical foundations, and its impact on the educational process and students' professional competencies.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that applying the functional approach improves students' theoretical and practical knowledge, fosters their professional skills, and enhances their active social engagement. Particular attention is given to integrating theory and practice in the learning process.

CONCLUSION: the study results confirmed that the functional approach is an effective tool for developing pedagogical mastery by integrating theoretical knowledge and practical skills, contributing to the professional potential of future educators.

Keywords: functional approach, pedagogical mastery, theoretical knowledge, practical skills, educational effectiveness, innovative technologies, pedagogical methodology.

For citation: Zoxidova T. Madinaxon. (2024) 'The significance of the functional approach in shaping pedagogical mastery'. // inter education & global study. №.(10(1)). pp.431-437. (In Uzbek).

Pedagogik mahoratning shakllanishida funksionallikning o'rni ahamiyatli.

Bilish xususiyatining tizimli bir-biriga bog'liq holda umumiy o'rganilishi intellektual yuqori saviyaning garovi hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarda pedagogik mahoratni shakllantirishda optimal xususiyatga ega bo'lgan funksional yondashuvning zaruratini asoslash uchun funksional yondashuv tushunchasining mazmun-mohiyati, lug'atlarda ifodalanishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, funksional yondashuvning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlarini ham ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1,15].

Falsafa qomusiy lug'atida "Funksiya – (lot. functio – amalga oshirish, bajarish) – faoliyat, ba'zi tizimlar doirasidagi obyektning unga mansub roli; obyektlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishi bo'lib, birining o'zgarishi ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi obyekt birinchisining funksiyasi deyiladi" [2]. Funksiya tushunchasi fanga birinchi bor germaniyalik faylasuf Gotfrid Vilgelm Leybnits tomonidan kiritilgan. "Funksiya deganda biron bir o'ziga xos aloqa orqali o'zaro bog'langan o'zgaruvchilarning birini boshqasidan kelib chiqishi tushuniladi", deya ta'riflaydi Leybnits. Demak, funksiya tushunchasiga nisbatan olim o'zaro aloqada bo'lgan ikki o'zgaruvchi va hossa bir-biriga nisbatan ta'sir doirasiga qarab uning o'zgarish xususiyatini namoyon qilinishiga urg'u bermoqda.

Fanda funksiya tushunchasiga nisbatan ijobiy qulay yoki salbiy holat yuzasidan ham qarash mumkin. "Funksiya bu bizning borlig'imiz, tafakkurimizni harakatga keltiradi", degan Iogann Volfgang Gyotening fikrlari ham bejiz emas. Funksiya keng ko'lamda Kassirer tomonidan bilish nazariyasiga tatbiq etildi. Uning fikricha, "…olamni bilishga bo'lgan intilish obyektdan ajralgan substansiyani o'rganishgagina yo'naltirilmagan, balki obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish, qator

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

obyektlarning biridan ikkinchisiga o‘tish qonuniyatlarini amalda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgandir”.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Funksiya – biror ijtimoiy tashkilot, kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi; vazifasi” deb ta’riflangan [3]. Pedagogikada funksional yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil qilishda funksiyalarni, ya’ni har bir jarayonning amaliy vazifalarini aniqlashga asoslanadi. Ta’limda funksional yondashuv bilimlarning inson hayotiy faoliyati davomida zarurligi hamda uni bilishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, mustaqil faoliyati davomida tajribalar hamda amaliy topshiriqlar asosida funksional vazifalari nuqtai nazaridan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma hamda malakalarni tarkib toptirishga qaratilgan jarayondir.

Bo‘lajak pedagoglarning funksional yondashuv asosida pedagogik mahoratini oshirishda biz, birinchidan, metodlarni aniq maqsad asosida birlashtirishni, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni asosiy vazifa qilib olamiz.

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasasi talabalarining hozirgi rivojlangan shaxsiy fikr erkinligi zamonida, ijtimoiy talablar va talabalardagi shaxsiy ehtiyojlarni inobatga olib, jamoaviy va shaxsiy rivojlanishni uyg‘unlashtirishni ta’minlaymiz.

Uchinchidan, pedagogik ta’lim muhitining samaradorligini aniq mezonlar asosida, talabalarning bilim darajasi, ko‘nikmalarining rivojlanishi va ijtimoiy faolliklarining o‘zgarish dinamikasi hamda ta’sir sezgirligining monitoringini olib boramiz.

To‘rtinchidan, pedagogik mahoratni rivojlantirishda asosiy e’tiborni faqat nazariy bilimlarga emas, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llashga qaratamiz.

Beshinchidan, professor-o‘qituvchining faolligini asosiy o‘ringa olib chiqish, talabalarning fikrlari va ehtiyojlariga javob berishini ta’minlash, ijodiy fikrlash va tahlil qilishni yo‘lga qo‘yib, uning yordamida talabalarining yangi fikrlarini aniqlash va ularning muammolarini hal qilishga qaratilgan yangi va ijodiy yondashuvlarga tayanish bo‘lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi [4].

Funksional yondashuvning asosi talabalarda fanning mazmun-mohiyati va xususiyatiga qarab to‘g‘ri hamda optimal bo‘lgan o‘quv amaliyotini tashkil qilish, to‘g‘ri vazifalarni berish, maqsadga muvofiq topshiriqlarni yuklashga tayanadi. Amerikalik faylasuf-pedagog olim Djon Dyui ta’lim jarayonining amaliy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. Olimning “Demokratiya va ta’lim” asarida ta’lim hayotiy bo‘lishi, o‘quvchilarga berilgan vazifalar ularning ijtimoiy hayoti va real tajribalari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim ekanligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv ta’limni faoliyat orqali o‘rganish prinsipiga asoslanganligini quyidagi fikrdan ham bilib olish mumkin: “Ta’limning maqsadi nafaqat bilim berish, balki jamiyatda samarali ishtirok etish uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Shuning uchun vazifalar hayotiy vaziyatlar bilan bog‘langan va ijtimoiy foydali bo‘lishi kerak.”

Ta’limda talabalarning kundalik hayotda qo‘llay oladigan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga nisbatan metodik turtki vazifasini bajaradi. Bu ularni bilimdan faqat test va imtihonlarda emas, balki kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal qilishda ham foydalanishga o‘rgatadi. Qolaversa, bo‘lajak

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

pedagoglarning mustaqil fikrlash va ijodkorligi ham yuqoridagi fikrimizning mantiqiy davomi sifatida qaralishi mumkin. Talabalarda yangicha yechimlar izlashni talab qilgan holda tabiiy texnologiyani ishga tushirgan holda, ular vaziyatni to‘g‘ri tahlil qilish, taqqoslash va ularning ijobiy hamda salbiy jihatlarini baholash kabi kasbiy amaliy funksional ko‘nikmalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Rossiyalik olim Lev Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish hududi” nazariyasida “Mustaqil fikrlashga erishish uchun o‘quvchi o‘z bilimlarini ijtimoiy muloqot jarayonida shakllantirishi lozim” deya, ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlashni rivojlantirishda yordamchi shaxslar (o‘qituvchi, guruhdoshlar)ning roli muhimligini, ammo ta’lim oluvchilar vazifalarni bajarish jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilishi kerakligini ta’kidlaydi [5].

Hayotiy vaziyat va jarayonlarga modifikatsiyalashgan ta’lim muhiti talabalar uchun qiziqarli va ahamiyatli bo‘ladi, chunki ular o‘rganganlarining foydali ekanligini hamda ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini bir yo‘la o‘zlashtiradilar. Bunda ularga ta’limga bo‘lgan qiziqish va faollik katalizator vazifasini bajaradi. Amerikalik pedagog-psixolog Jon Keller o‘zining ARCS (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) modelida “Talabalar o‘quv mazmunining shaxsiy maqsadlariga muvofiqligini ko‘rganda, o‘qishga qiziqishlari oshadi” deb ta’kidlagan g‘oyalari yuqorida ilgari surilgan fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Funksional yondashuv asosida o‘qitish jarayonida talabalarda dars davomida umumiy o‘quv amaliyotida mustaqil ishlashlarini yo‘lga qo‘yish va ularni qo‘llab-quvvatlash talabalarda ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga olib keladi. Jamiyatdagi umumiy jihatlarning o‘zlashuvida shaxs sifatida rivojlanib kelayotgan talabalarda ijtimoiy mas’uliyatning nechog‘lik muhimligini anglatuvchi va ularga bu mas’uliyatni olishdan qo‘rqmaslikni o‘rgatish kelajakdagi kasbiy-pedagogik faoliyatidagi sifat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kanadalik psixolog olim Albert Banduraning ta’limdagi ijtimoiylashuv nazariyasida ta’limda sotsiallik shaxs tarbiyasidagi umumbashariy hislatlarga urg‘u berish kerakligi ta’kidlanadi. “Ijtimoiy ta’lim jarayonida ijobiy modellarni ko‘rsatish va odamlarga ijtimoiy mas’uliyatni tushuntirish muhimdir” kabi fikrlari shular jumlasidan [6].

Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik mahoratni oshirishda funksional yondashuvga asoslangan metodika bu muammoning oqilona yechimi bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz. Chunki talabalarning pedagogik mahorati kelgusidagi kasbiy pedagogik faoliyatdagi asosiy arsenal vazifasini bajaradi. Pedagogik mahoratli o‘qituvchi ta’lim jarayonidagi fan jihatidan asl mazmun va mohiyatini katta potensial bilan o‘quvchilariga yetkaza oladi. Bunda bo‘lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirishdagi funksional yondashuvni yo‘lga qo‘yishning shart-sharoitlari muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirishdagi funksional yondashuvni yo‘lga qo‘yishning birinchi sharti pedagogik ta’limning amaliyotga yo‘naltirilganligidir. Funksional yondashuvni yo‘lga qo‘yishning asosiy shart-sharoiti pedagogik ta’limni amaliyot bilan birlashtirishdadir. Bo‘lajak pedagoglarda nazariy bilimlarning fundamental asosiga tayangan holda, o‘z ko‘nikmalarini amalda sinab ko‘rishlarini ta’minlash lozim. Amaliy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

mashg‘ulotlarda bunday ta’lim jarayonini tashkil etilishi va bo‘lajak o‘qituvchilarga real dars berish imkoniyatini yaratish ushbu shartning asl mazmun-mohiyatidir [7].

Ikkinchi shart – bu bo‘lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan fan dasturlari va sillabuslarni integratsiyalashdir. Bu dasturlar va sillabuslar bo‘lajak o‘qituvchilarga fan doirasidagi bilimlarni o‘zlashtirish va maqsadga muvofiq qo‘llashga yordam beradi. O‘qitish jarayonida aynan shu jihatni e’tibordan chetda qoldirmaslik, yangi avlod adabiyotlarini tavsiya qilish, an’anaviy o‘qitish metodlarini modernizatsiyalash zarur.

Uchinchi shart – bu ta’lim jarayonida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladigan baholash (refleksiya). Pedagogik mahoratni rivojlantirishda o‘quv faoliyatini tahlil qilish va uni baholashda talabalarning imkoniyatlari va iqtidoridan kelib chiqish lozim. O‘quv faoliyatida bo‘lajak pedagoglarning kamchiliklarini aniqlash va ularni tuzatishga ularning o‘zlaridagi tabiiy xohish va motivatsiyani uyg‘otish kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zlarini tahlil qilish va ularni tuzatishga undash ta’limdagi asosiy insonparvar yondashuvning muhim omili hisoblanadi.

To‘rtinchi shart – bu bo‘lajak pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishda individual yondashuvni qo‘llash ham juda ahamiyatli, chunki talabalarning har birida o‘ziga xos iqtidor bor. Yaponiya ta’limida shunday tushuncha bor: “...iqtidorsiz o‘quvchi bo‘lmaydi.” Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim jabhasida har bir ta’lim oluvchi o‘ziga xos iqtidor va iste’dodga ega. Ularni yuzaga chiqarib, to‘g‘ri yo‘naltirish bo‘lajak o‘qituvchi kasbiga ega bo‘layotgan jamiyat kishisining oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Beshinchi shart – bu ta’lim jarayonida pedagogik etikaning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilishi. Yurtimizda uzoq yillar va asrlar davomida shakllangan mentalitet nuqtai nazaridan olib qaraganda, ta’lim tashkil etishda ustoz-shogird an’analariga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yish, bunda “...ustoz otangdek ulug‘” qabilidagi tarbiyaviy g‘oyalar asosida ta’lim jarayonini yo‘lga qo‘yish milliy qadriyatlarimizga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratning shakllanishidagi funksional yondashuv asosidagi ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bo‘lajak pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlariga e’tibor qaratish, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy muhitdagi pedagogik kadrlarni mehnat bozorida talabga javob beradigan shaklda tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o‘quv-tarbiya jarayoniga sifatli o‘zgarishlar kiritish, o‘quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish va yangi ko‘rinishdagi o‘quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo‘ladi. Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi nafaqat bolalarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, balki ilg‘or o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish va tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishini va fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishini taqozo etadi. Bu axloqiy e’tiqod

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

o‘qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o‘quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, kundalik turmushda shaxsiy namunasi orqali axloqiy ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. M.Axmedova. Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo llanma) Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
2. Фалсафа (қомусий луғат). – Тошкент: “ШАРҚ” нашриёти . “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”. 2004. –Б. 436.
3. 3. Leibniz, G. W. (1684). "Nova Methodus pro Maximis et Minimis, itemque Tangentibus, quae nec fractas nec irrationales quantitates moratur, et singulare pro illis calculi genus." Acta Eruditorum, Vol. 3, pp. 467–473.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. 2009. –B. 367.
5. Ушакова, В. В. Концепция языка в работе Эрнста Кассирера «Философия символических форм» / В. В. Ушакова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 10 (90). — С. 1532-1534. — URL: https://moluch.ru/archive/90/18546/
6. Keller, John M. "Development and use of the ARCS model of instructional design." Journal of instructional development 10.3 (1987): 2-10.
7. Bandura, A. (1974). Behavior theory and the models of man. American Psychologist, 29(12), 859–869. doi:10.1037/h0037514

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zoxidova Madinaxon Turg‘unboyevna**, maktabgacha ta’lim fakulteti dekani [**Зохидова Мадинахон Тургунбоевна**, декан факультета дошкольного образования], [**Madinaxon T. Zoxidova**, dean of the faculty of preschool education]; manzil: Farg'ona shahri, A. Navoiy ko'chasi 55-b uy, [адрес: Город Фергана, улица А. Навои, дом 55-Б], [address: Fergana city, A. Navoi street 55-B house].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

МЕТОДИКА ОТБОРА ДЕТЕЙ К ВИДУ СПОРТИВНОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПОЯСНОЙ БОРЬБЕ «КУРАШ» СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

© Х.И. Абдикамалов[1]✉

[1]Каракалпакский государственный университет, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются методики отбора детей в национальный вид спорта "Кураш" среди молодежи. Рассматриваются научные и методологические подходы к совершенствованию системы отбора с использованием анкетирования.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – совершенствование системы отбора детей для занятий поясной борьбой и повышение их спортивных результатов через внедрение инновационных методик.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались анкеты для изучения мнений тренеров и учеников, а также анализировались передовые научно-методические источники по поясной борьбе. Обработаны статистические данные для выявления основных проблем системы отбора**.**

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что ключевыми критериями отбора в поясную борьбу являются возрастные ограничения, физические способности и психологическая готовность. Включение национальных подвижных игр в процесс подготовки существенно улучшает технические и тактические навыки спортсменов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили необходимость совершенствования системы отбора детей в поясную борьбу. Предложенные методики позволяют приблизить процесс обучения к практике и способствуют популяризации национальных видов спорта.

Ключевые слова: поясная борьба, анкета, отбор, система, национальные игры, спортивные результаты, инновационные технологии.

Для цитирования: Абдикамалов Х.И. Методика отбора детей к виду спортивной национальной поясной борьбе «Кураш» среди молодёжи. // Inter education & global study. 2024. №.10(1). С.438-445.

YOSHLAR O‘RTASIDA "KURASH" MILLIY KURASH SPORTI TURIGA BOLALARNI TANLASH METODIKASI

© X.I. Abdikamalov[1]✉

[1] Qoraqalpoq davlat universiteti, Нукус, O‘zbekiston

Annotatsiya

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

KIRISH: maqolada yoshlar o'rtasida "Kurash" milliy kurash sporti turiga bolalarni tanlash metodikasi tahlil qilinadi. Ushbu sport turiga saralash tizimini takomillashtirish uchun anketalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy va metodologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalarni belbog'li kurash bilan shug'ullanish uchun tanlash tizimini takomillashtirish va ularning sport natijalarini oshirishga qaratilgan innovatsion metodikani ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda anketalar yordamida murabbiylar va o'quvchilar fikrlari o'rganildi, shuningdek, kurash sporti bo'yicha ilg'or ilmiy-uslubiy manbalar tahlil qilindi. Statistika ma'lumotlari qayta ishlanib, tanlash tizimidagi asosiy muammolar aniqlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatdiki, kurash sporti uchun bolalarni tanlashda yosh chegarasi, jismoniy imkoniyatlar va psixologik tayyorgarlik asosiy mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy harakatli o'yinlarni o'quv jarayoniga kiritish sportchilarning texnik va taktik ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA: tadqiqot natijalari yoshlar o'rtasida "kurash" milliy sport turi uchun saralash tizimini takomillashtirish zarurligini tasdiqladi. Taklif etilgan metodikalar yordamida o'quv jarayonini amaliyotga yaqinlashtirish va milliy sport turlarining ommaviyligini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: belbog'li kurash, anketa, saralash, tizim, milliy o‘yinlar, sport natijalari, innovatsion texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Abdikamalov X.I. Yoshlar o‘rtasida "Kurash" milliy kurash sporti turiga bolalarni tanlash metodikasi. // inter education & global study. 2024. №.9. B.438-445.

THE METHOD OF SELECTING CHILDREN FOR THE SPORT OF NATIONAL BELT WRESTLING "KURASH" AMONG YOUNG PEOPLE

© Xo'jaboy I. Abdikamalov[1]✉
[1]Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the methodology for selecting children for the national belt wrestling sport "Kurash" among youth. It examines scientific and methodological approaches to improving the selection system using questionnaires.

AIM: the main objective of the study is to improve the system for selecting children to engage in belt wrestling and enhance their athletic performance through the implementation of innovative methods.

MATERIALS AND METHODS: the study involved using questionnaires to gather opinions from coaches and students, as well as analyzing advanced scientific and methodological sources on belt wrestling. Statistical data were processed to identify major issues in the selection system.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

DISCUSSION AND RESULTS: the results revealed that key criteria for selecting children for belt wrestling include age restrictions, physical abilities, and psychological readiness. The inclusion of national traditional games in the training process significantly enhances athletes' technical and tactical skills.

CONCLUSION: the study results confirmed the need to improve the system for selecting children for belt wrestling. The proposed methodologies help bring the training process closer to practical applications and promote the popularization of national sports.

Innovatsion metodlarning imkoniyatlari tobora kengayib, raqobatbardosh muhitda har bir yosh avlod chuqur bilim va mustahkam ko‘nikmaga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun esa uzviylikni ta’minlash, ya’ni boshlang‘ich sinflardagi boshlang‘ich matematik tushunchalardan boshlab yuqori bosqichlardagi murakkab mavzularga qadar ketma-ketlikda, tizimli hamda mazmunan bog‘liq darslar tashkil etish o‘ta muhimdir. Innovatsion dars ishlanmalari, ilg‘or pedagogik hamda didaktik texnologiyalardan oqilona foydalanish boshlang‘ich sinf matematika ta’limida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga mos raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazishda keng imkoniyatlar yaratadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, № 10(1)

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda innovatsion metodlardan unumli foydalanish orqali uzviylikni ta’minlash ta’lim jarayonining pishiq asosini shakllantiradi. Bu jarayon mazmunan boyitilgan dasturlar, interfaol va axborot-kommunikatsion vositalar bilan integratsiyalash, individual yondashuvni hisobga olish hamda baholash va nazoratning zamonaviy shakllaridan foydalangan holda amalga oshirilgandagina kutilgan natija beradi. Natijada yosh avlodda matematik tafakkurning izchil rivojlanishi, ijobiy o‘qish motivatsiyasi va ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi ta’minlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Tursunov X.T., Qayumova Sh.Z. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.2019.
2. Ko‘chimov M.S., Xudoynazarova R.X. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar: izohli lug‘at. Toshkent: Fan nashriyoti.2020.
3. M.V. Klarin. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan nashriyoti.2002.
4. Navoiy Davlat Pedagogika Instituti. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha dastur. Navoiy: NDPI.2018.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Eshqobilova Guldona**, o‘qituvchi [**Эшкобилова Гулдона**, преподаватель], [**Eshqobilova Guldona**, teacher]; manzil: Samarqand sh, Spitamen shoh ko‘chasi, 166-uy, [адрес: Самарканд ш, пр. Спитамен, 166], [address: Samarkand sh., 166 Spitamen ave.].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

NOTO‘LIQ OILALARDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHUVIGA TIZIMLI YONDASHUV

© M.H. Sultonxonova[1]✉, M. Xushnazarova[2]✉
[1,2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada noto‘liq oilalarda o‘sayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi va bu jarayonda tizimli yondashuvning o‘rni tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi- noto‘liq oilalarda o‘sayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun tizimli yondashuvni ishlab chiqish va uning ta'sirini baholash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda noto‘liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga moslashuvga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, shuningdek, bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan samarali metodlar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar noto‘liq oilalarda o‘sayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-ona aloqalarini mustahkamlash va jismoniy faoliyatlarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari noto‘liq oilalarda bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun tizimli yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Oila, jamiyat va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: noto‘liq oila, maktabgacha yosh, ijtimoiy moslashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-ona aloqalari, jismoniy faoliyat, tizimli yondashuv.

Iqtibos uchun: Sultonxonova M.H., Xushnazarova M. Noto‘liq oilalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuviga tizimli yondashuv. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B.497-505.

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К АДАПТАЦИИ ДОШКОЛЬНИКОВ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ

© М.Х. Султонхонова[1]✉, М. Хушназарова[2]✉
[1,2]Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется проблема адаптации к социальной жизни детей дошкольного возраста, растущих в неполных семьях, и роль системного подхода в этом процессе.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработать системный подход для улучшения социальной адаптации детей дошкольного возраста из неполных семей и оценить его влияние.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проведен анализ научной литературы по социальной адаптации детей из неполных семей, а также изучены эффективные методы, направленные на психологическое и социальное развитие детей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что психологическая поддержка, укрепление связей между родителями и физическая активность играют важную роль в социальной адаптации детей из неполных семей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили эффективность системного подхода в улучшении социальной адаптации детей из неполных семей. Сотрудничество семьи, общества и образовательных учреждений имеет ключевое значение в этом процессе.

Ключевые слова: неполная семья, дошкольный возраст, социальная адаптация, психологическая поддержка, родительские отношения, физическая активность, системный подход.

Для цитирования: Султонхонова М.Х. Хушназарова М. Системный подход к адаптации дошкольников в неполных семьях к социальной жизни. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С. 497-505.

A SYSTEMATIC APPROACH TO THE ADAPTATION OF PRESCHOOLERS IN SINGLE-PARENT FAMILIES TO SOCIAL LIFE

© Munisa H. Sultonxonova[1]✉, Ma'muraxon Xushnazarova[2]✉
[1,2] Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the issue of social adaptation of preschool children growing up in dysfunctional families and the role of a systematic approach in this process.

AIM: the main objective of the study is to develop a systematic approach to improve the social adaptation of preschool children from dysfunctional families and to assess its impact.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific literature on the social adaptation of children from dysfunctional families and explored effective methods aimed at the psychological and social development of children.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that psychological support, strengthening parental relationships, and physical activity play a significant role in improving the social adaptation of children from dysfunctional families.

CONCLUSION: the study confirmed the effectiveness of a systematic approach in improving the social adaptation of children from dysfunctional families. Collaboration

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

between families, society, and educational institutions is crucial for the success of this process.

Keywords: dysfunctional family, preschool age, social adaptation, psychological support, parental relationships, physical activity, systematic approach.

For citation: Munisa H. Sultonxonova, Ma'muraxon Xushnazarova. (2024) 'Systematic approach to the adaptation of preschoolers in single-parent families to social life', // Inter education & global study. №(10(1)). pp.497-505.(In Uzbek).

Noto'liq oila tushunchasi, odatda, oilaning normativ yoki ideal shakliga nisbatan mavjud bo'lgan holatni ifodalaydi. Noto'liq oila — bu bola yoki bolalar bilan birga yashovchi, lekin ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolari (masalan, ota yoki ona) o'rtasida biror sababga ko'ra ajralish yoki aloqaning buzilishi tufayli to'liq bo'lmagan oiladir.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda xalq hayotida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Shu bilan birga so'nggi o'n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarblashdi. Shulardan biri – oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto'liq oilalar sonining keskin o'sishidir. Noto'liq oila masalasini ilmiy tadqiq etgan ishlar (Shoumarov Z.A., Yadgorova G., Marion M., Ricciuti H., Zelenchukova S.V., Nedelina Ye.V.) tahlillari va bizning shaxsiy ilmiy kuzatuvlarimizga ko'ra, muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi [2]:

Birinchidan, jamiyatda noto'liq oilalar sonining ortib borishi oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning mustahkamligini zaiflashtirib boradi.

Ikkinchidan, noto'liq oilalar sonining ortishi yoshlarda oila haqidagi tasavvurlarining to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Qizlarning ma'lum qismi noto'liq oilani o'zlari uchun andoza sifatida oladilar. Bu esa noto'liq oilalar sonining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlardan komil shaxs shakllantirishda qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

To'rtinchidan, yosh oilalar, aksariyat holda ayollar va bolalarni iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushiradi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan yoshlarda jinoyatchilik, shu jumladan, ularning og'ir turlarining o'sishiga shart-sharoit yaratadi.

Oltinchidan, ota-onalarga eng muhim vazifalari – tarbiya funksiyalarini to'laqonli ado etishlariga yetarli imkon bermaydi.

Yettinchidan, ayollarning ma'lum qismida jinsiy-tanosil kasalliklarining ko'payishi, reproduktiv organlarida onkologik xastaliklar sonining oshishiga olib kelishi mumkin.

Sakkizinchidan, jamiyatda poliandriya va poligeniya, ya'ni ko'p erlik hamda ko'p xotinlik holatlarining o'sishiga olib keladi.

Noto'liq oilalardagi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishi, ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Noto'liq oilalarda o'sayotgan bolalar, ota-ona o'rtasidagi ajralish yoki aloqaning buzilishi sababli ba'zi psixologik va emotsional qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Shuningdek, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari va ijtimoiy me'yorlarga moslashishlari uchun qo‘llab-quvvatlash zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotga moslashuvini tizimli yondashuv orqali ko‘rib chiqish, ularning o‘zaro aloqalari, me'yoriy qadriyatlar va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beruvchi omillarga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olishni talab etadi. Bu yondashuv bolaning rivojlanishini faqat alohida bir hodisa sifatida emas, balki tizimli va o‘zaro bog‘langan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi.

Tizimli yondashuv, bolani rivojlantirishni bir nechta omillarning o‘zaro bog‘langan va bir-biriga ta'sir qiluvchi tizimi sifatida tushunishga asoslanadi. Bu omillar orasida ota-onalar, o‘qituvchilar, tengdoshlar, ijtimoiy muhit, madaniyat va boshqa omillar kiradi. Har bir omil bolaga ta'sir etib, uni jamiyatga moslashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-7 yoshgacha) ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim bosqichlarni o‘taydilar. Bu davrda bola o‘zini va boshqalarni tushunishni, o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishni, shaxsiy va guruh qoidalarini hurmat qilishni o‘rganadi. Bu jarayonni shartli guruhlarga ajratish mumkin: o‘z-o‘zini anglash; ijtimoiy ko‘nikmalar; jamiyatning qoidalari va normativlariga rioya qilish.

Bolalar o‘zlarini jamiyatda qanday o‘ringa ega ekanliklarini, qaysi normativlarga amal qilish kerakligini o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘zlikni anglash, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish juda muhimdir. O‘z-o‘zini anglash (yoki o‘zlikni anglash) — bu shaxsning o‘zining ichki dunyosi, qadriyatlari, his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari, xulq-atvori, qobiliyatlari va jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchaga ega bo‘lish jarayonidir. O‘z-o‘zini anglash, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim, chunki bu jarayon ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantirish, ijtimoiy muhitda o‘zini tutish va boshqalar bilan munosabat o‘rnatishda asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘z-o‘zini anglash jarayoni ham bir necha bosqichda amalga oshadi.

1. Birinchi bosqich (3-4 yosh): Shaxsni anglashning boshlang‘ich davri. Bola o‘zining asosiy xususiyatlarini va uning atrofdagi dunyo bilan o‘zaro aloqalarini tushunishni boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar o‘zini ko‘proq tashqi ko‘rinishlari, masalan, "Men qiz yoki o‘g‘ilman", "Men baland yoki past bo‘laman" kabi soddalashtirilgan tushunchalar orqali anglaydilar.

2. Ikkinchi bosqich (4-5 yosh): O‘zining qobiliyatlari va chegaralarini anglash

Bu davrda bola o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rishni boshlaydi va qandaydir jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy faoliyatlarda o‘zining imkoniyatlarini tushunadi. Bola o‘zining xatti-harakatlari, qobiliyatlari va muammolarni hal qilishdagi yondashuvlarini anglaydi.

3. Uchinchi bosqich (5-6 yosh): O‘zini guruhdagi o‘rni va rollarini anglash. Bu davrda bolalar o‘zlarining jamiyatdagi o‘rni, guruhdagi roli va unga mos keluvchi xulq-atvorlarni anglay boshlaydilar. Ular o‘zlarini oilada, bolalar bog‘chasida yoki do‘stlari orasida qanday shaxs sifatida tasavvur qilishadi. Bu yoshdagi bolalar o‘zining ijtimoiy roli (do‘st, o‘yinchi, o‘rgatuvchi va hokazo)ni bilishadi va bu rolni bajarishga harakat qilishadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

4. To‘rtinchi bosqich (6-7 yosh): Shaxsiy xulq-atvor va ijtimoiy me'yorlar. Bu davrda bolalar o‘zlarining ijtimoiy xulq-atvorlarini va ijtimoiy qoidalarni yanada aniqroq tushunadilar. Bola o‘zini nafaqat oilada, balki jamiyatda va tengdoshlar orasida qanday tutishi kerakligini o‘rganadi. Ular o‘z xulq-atvorining boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini, o‘zining ijtimoiy mas'uliyatlarini anglay boshlaydilar.

O‘z-o‘zini anglash bolalar uchun shaxsiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy, emotsional va psixologik rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishda ota-onalar, tarbiyachilar va boshqa ta'lim muassasalarining roli juda muhimdir, chunki ular bolalarga o‘zlarini anglashga yordam beradigan sharoitlarni yaratib beradilar. Bolalar o‘z tengdoshlarining his-tuyg‘ularini tushunishni, o‘zaro aloqalar va jamoaviy ishni o‘rganishni boshlaydilar. Bu ko‘nikmalar ijtimoiy moslashuvda asosiy ahamiyatga ega.

Ijtimoiy ko‘nikmalar (yoki ijtimoiy qobiliyatlar) — bu shaxsning boshqalar bilan samarali va o‘zaro hurmatga asoslangan aloqalar o‘rnatish, turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri xatti-harakatlar qilish va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunib, ularga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiya va ijtimoiy moslashuvning asosiy omili hisoblanadi. Ijtimoiy ko‘nikmalar, asosan, bolaning boshqalar bilan muloqot qilish va jamiyatda o‘zini tutish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar yig‘indisidir. Bu ko‘nikmalar turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri va samarali muomala qilish, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etish, va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar qilishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularning o‘zini erkin his qilishini, boshqalar bilan samarali muloqot qilishini, va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Bu ko‘nikmalar bolalarga o‘zlarining ehtiyojlarini va his-tuyg‘ularini boshqarishni, o‘zaro hurmat va hamjihatlikda yashashni o‘rgatadi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarga kiruvchi asosiy jihatlar: muloqot qobiliyatlari; empatiya (boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish); o‘zini boshqarish va emotsional intellect; boshqalar bilan hamkorlik; ijtimoiy qoidalar va normativlarga rioya qilish.

Bola, oilada va bolalar bog‘chasida ijtimoiy me'yorlarni o‘rganadi. Bu qoidalar bolaga to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchasini beradi va jamiyatga moslashishning dastlabki bosqichini tashkil etadi. Bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim, chunki ular ijtimoiy dunyo bilan tanishishni va o‘z o‘rnini topishni shu bosqichda boshlaydilar. Ijtimoiy me'yorlar, jamiyatdagi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri xulq-atvor, axloq-qoidalar, turli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini belgilovchi umumiy qoidalar to‘plamidir. Bola ushbu me'yorlarni o‘rganishi orqali jamiyatda qanday xatti-harakatlar kutilishini va boshqalar bilan qanday aloqada bo‘lishi kerakligini anglaydi.

Bola uchun ijtimoiy me'yorlarni o‘rganish — bu jamiyatga moslashishning birinchi qadami. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon ikki asosiy muhitda yuzaga keladi: oila va bolalar bog‘chasi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Oilada bola ilk bor to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchalarini o‘rganadi. Ota-onalar bolaga o‘z xulq-atvorining boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini ko‘rsatadilar. Ota-onalar va yaqin qarindoshlar bolaga o‘zining ijtimoiy roli va jamiyatdagi o‘rni haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Masalan, bolaning o‘zini hurmat qilish, kattalar bilan muomala qilish, o‘z xulq-atvorini boshqarish kabi ko‘nikmalar oilaviy aloqalar orqali o‘rganiladi. Oilada bola to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon xulq-atvorni ajratishni o‘rganadi. Bu o‘rganish jarayonida bolaga ba'zi xatti-harakatlar ("hurmat qilish", "yordam berish", "yolg‘on gapirmaslik") mukofotlanadi, boshqalari esa jazolanadi yoki muhokama qilinadi.

Bolalar bog‘chasida bola o‘zining ilk ijtimoiy tajribalarini boshdan kechiradi. Bu joyda bola nafaqat o‘zini, balki guruhdagi o‘rni va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishini o‘rganadi. Bolalar bog‘chasida, kattalardan tashqari, tengdoshlar bilan ham muloqot qilish muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog‘chasida bolaning o‘rganishi kerak bo‘lgan bir qator qoidalar mavjud: navbatda turish, boshqalarni eshitish, guruhda ishlash va boshqa o‘yinchilarga adolatli munosabatda bo‘lish kabi ko‘nikmalar. Bu qoidalar bola jamiyatda qanday tutish kerakligi haqida tushuncha hosil qiladi. Tengdoshlar bilan muloqotda bo‘lish orqali bola o‘zining xulq-atvorini va boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabatlarida ijtimoiy me'yorlarni o‘rganadi. Masalan, do‘stlik, o‘yin vaqtida navbat kutish, to‘g‘ri bahslashish kabi.

Bola ijtimoiy me'yorlarni o‘rganishi orqali jamiyatga moslashishning dastlabki bosqichini o‘tadi. Ijtimoiy me'yorlar bolaga to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchasini beradi. U o‘z xatti-harakatlari natijasida boshqalar bilan qanday munosabat o‘rnatishi va jamiyatda qabul qilingan axloqiy qadriyatlar bilan mos kelishini tushunadi. Masalan, bolaning o‘zi yoki boshqalar bilan bo‘ladigan salbiy munosabatlar (xarxashlik, agressivlik) ijtimoiy jihatdan qabul qilinmasligini o‘rganishi mumkin. Bola ijtimoiy me'yorlarni o‘rganish orqali jamiyatda o‘zini erkin va qulay his qilishni boshlaydi. Bu unga boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish va ijtimoiy guruhlarga oson kirish imkonini beradi. Ijtimoiy me'yorlar bolaga o‘zini jamiyatdagi roli va joyiga moslashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy me'yorlarni o‘rganish bolaning boshqa ko‘nikmalarini, masalan, empatiya (boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish), o‘zini boshqarish (emotsiyalarni nazorat qilish) va konfliktlarni hal qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko‘nikmalar bolaga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash uchun zarur bo‘lgan asoslardir.

Bola oilada va bolalar bog‘chasida ijtimoiy me'yorlarni o‘rganadi, lekin bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun ota-onalar, tarbiyachilarning o’rni muhimdir. Ota-onalar va tarbiyachilar bolaning ijtimoiy me'yorlarni o‘rganishiga yordam berish uchun doimiy ravishda mulohazali va ijobiy fikrlar bildirishlari kerak. Ular bolaning xatti-harakatlarini kuzatib, uni to‘g‘ri yo‘naltirib, me'yorlarga mos xulq-atvorni namoyish etishlari zarur. Bolalar bog‘chasida va uyda bolaning tengdoshlar bilan o‘ynashi, jamoaviy faoliyatlarda ishtirok etishi, turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni o‘rganishi muhimdir. Bu o‘yinlar bolaning jamiyatdagi qoidalarni tushunishga yordam beradi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolaga jamiyatdagi xatti-harakatlarining natijalarini tushuntirishlari kerak. Masalan, bola

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

boshqalar bilan ijobiy munosabatda bo‘lganda, bu uning o‘zi va atrofidagilar uchun qanday ijobiy natijalar keltirishi mumkinligini tushuntirish kerak.

Noto‘liq oiladagi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishi uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin. Bular bolaning ijtimoiy-psixologik, emotsional holatini yaxshilashga, ota-ona munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi.

Bola uchun psixologik yordam: Noto‘liq oilada o‘sayotgan bolalar ko‘pincha ajralish yoki oiladagi muammolar tufayli stress, tashvish va depressiya kabi psixologik muammolarga duch kelishlari mumkin. Psixologlar va psixiatrlar bolalarga o‘z hissiyotlarini to‘g‘ri ifoda etish va boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatishlari kerak. Psixologik maslahatlar va terapiya bolaning o‘zini hurmat qilishini tiklashga yordam beradi.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash: Bola o‘zining emotsional ehtiyojlariga e'tibor qaratishi va ularni tushunishi kerak. Ota yoki ona ajralgan taqdirda, boshqa yaqin qarindoshlar yoki do‘stlar bola bilan emotsional muloqotda bo‘lishlari zarur. Bu bolaning o‘zini yanada xavfsizroq va ishonchliroq his qilishiga yordam beradi.

Ajralgan ota-ona o‘rtasidagi hamkorlik: Agar ajralgan ota-ona bolani birgalikda tarbiyalashga intilishsa, bolalar ko‘proq barqaror muhitda o‘sishlari mumkin. Ota va onaning bir-biri bilan hamkorlik qilishi, bolaga hamma vaqtda sevgi, e'tibor va xavfsizlikni ta'minlashda yordam beradi. Ota-ona o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bolaga ta'sir etishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir.

Bolalar uchun ikkala ota-onaning mavjudligi: Ota-ona ajrashgan taqdirda ham, bola uchun ikkala ota-onaning mavjudligi va ular bilan aloqaning davom ettirilishi kerak. Bola o‘zini to‘liq his qilish uchun, ota yoki ona o‘rtasidagi aloqaning yaxshi bo‘lishi muhimdir.

Tengdoshlar bilan muloqot: Bola tengdoshlar bilan muntazam ravishda muloqotda bo‘lishi, do‘stlar orttirishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak. O‘quv mashg‘ulotlari, guruh ishlari, sport yoki san'at kabi ijtimoiy faoliyatlar bolaning o‘zini jamiyatda yanada qulayroq his qilishi va boshqalar bilan samarali aloqalar o‘rnatishiga yordam beradi.

Jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: Ota-ona ajralgan yoki noto‘liq oilada o‘sayotgan bolaga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi kerak. Bunga psixologik yordam, maktabdagi o‘qituvchilar, o‘quvchilarning ota-onalari va ijtimoiy xizmatlar kiradi. Jamiyatning faolligi va bolaning ijtimoiy muhitga kirishiga ko‘mak berish muhimdir.

Ta'lim tizimi yordam berishi kerak: Bolalarga, ayniqsa, noto‘liq oilalarda o‘sayotganlarga, ta'lim muassasalarida (maktab, bolalar bog‘chasi) qo‘shimcha yordam ko‘rsatilishi lozim. Maktab o‘qituvchilari bolaning psixologik holatini tushunishi va unga individual yondashuvni taklif qilishi kerak. O‘quv jarayonida bolaga o‘zini ko‘rsata olish imkoniyatini berish, qo‘shimcha o‘quv yordamini taqdim etish bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Tarbiya va ijtimoiy me'yorlarni o‘rgatish: Bolalarga ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Bu ko‘nikmalar bolaga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

boshqalar bilan o‘zaro hurmatli munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Oilada va jamiyatda bolaning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak.

Ota yoki onaning oilada faol ishtiroki: Ajralgan yoki noto‘liq oilalarda bola o‘z ota yoki onasidan emosional qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Buning uchun ota-ona birgalikda bolaning ehtiyojlarini qondirishda faol ishtirok etishlari kerak. Ota yoki ona o‘zining bolaga bo‘lgan e'tiborini va sevgisini ifoda etish orqali bolaga psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Yaqin qarindoshlar bilan aloqani saqlash: Noto‘liq oilada bolaning alohida qarindoshlar (bobo, buvi, amaki, xolalar va boshqalar) bilan ijtimoiy aloqalarini saqlash ham muhimdir. Yaqin qarindoshlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydilar va bola uchun barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish: Bola o‘zining va boshqalarning hissiyotlarini tushunishni o‘rganishi kerak. Empatiya, boshqalarning dardini tushunish va ularga yordam berish bolaning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va tarbiyachilar bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda empatiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llashlari kerak.

Jismoniy salomatlikni ta'minlash: Ijtimoiy hayotga moslashishda bola jismoniy salomatligi ham muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy faoliyatlar (sport, yurar oyinlar va boshqa faoliyatlar) bolalar uchun stressni kamaytirishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga va sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy xavfsizlik: Bola uchun xavfsiz muhit yaratish, uning o‘zi va boshqalar bilan aloqalari xavfsiz bo‘lishi zarur. Bu jamiyatda bolaning o‘zini erkin va xavfsiz his qilishiga yordam beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy qismi hisoblanadi. Bola o‘zining hissiyotlarini boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va ijtimoiy qoidalarni anglashni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvini va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlaydi. Bola, oilada va bolalar bog‘chasida o‘rganadigan ijtimoiy me'yorlar jamiyatga moslashishning boshlang‘ich bosqichini tashkil etadi. Bu me'yorlar bolaga to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchasini, ijtimoiy aloqalar va xulq-atvorlarning qanday bo‘lishi kerakligini o‘rgatadi. Oilada va bolalar bog‘chasida o‘ziga xos ijtimoiy me'yorlarni o‘rganish bolaga muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish, jamiyatda o‘zini erkin va ijobiy his qilish imkoniyatini beradi. Noto‘liq oilalarda o‘sayotgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishi uchun qo‘llab-quvvatlash va yordam zarur. Ota-ona o‘rtasidagi hamkorlik, psixologik yordam, ijtimoiy integratsiya, ta'lim tizimi va emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Shuningdek, jamiyatning har bir a'zosi — ota-ona, maktab, qarindoshlar, psixologlar — bolaning ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki uni boshqarish tartiblari. - T.: M a'naviyat, 2000.
2. Abduvosiyeva M. Noto'liq oilalarda rivojlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashuvini ta'minlashda oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz January 2024 / Volume 5 Issue 1. 227-232
3. Xushboqov Q. Kichik yoshdagi o`quvchilar nutqini o`stirish yo`llari.
4. Galaguzova M.A. Istoriya sotsialnoy pedagogiki. O 'quv qo'llanm a. - M.: Vlados. 2006.
5. Ilk qadam. Davlat dasturi. - T.: 2018.
6. Muxsiyeva A.Sh. Oila pedagogikasi. O 'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2017
7. Safarov O. va Maxkamov M. Oila m a'naviyati. Uslubiy qoMlanma. - T.: Ma'naviyat. 2009.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sultonxonova Munisa Hayotjon qizi**, magistr [**Султонхонова Муниса Хаётжон кизи**, магистр], [**Munisa H. Sultonxonova,** master's degree]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, улица Турана, д. 23], [address: Kokand, Turan street, 23].

✉**Ma'muraxon Xushnazarova** dotsent (PhD) [**Мамурахон Хушназарова**, доцент (PhD)], [**Ma'muraxon Xushnazarova**, associate professor (PhD)]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, улица Турана, д. 23], [address: Kokand, Turan street, 23].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

O'SMIRLARDA TAMAKI MAHSULOTLARIGA BO'LGAN MOYILLIKNING PSIXOLOGIK OMILLARI

© A.I. Turgunov[1]✉
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o'smirlarda tamaki mahsulotlariga bo'lgan moyillikning psixologik omillari, uning salbiy oqibatlari va bu omillarning turli vaziyatlardagi ta'siri tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – o'smirlar orasida tamaki mahsulotlariga moyillikning psixologik omillarini aniqlash va ularning ijtimoiy va psixologik xatti-harakatlarga ta'sirini baholashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o'smirlar tamaki mahsulotlariga bo'lgan moyillikning psixologik va ijtimoiy omillari tahlil qilindi, shuningdek, xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar asosida ularning tarqalishi o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko'rsatdiki, o'smirlar orasida tamaki iste'molining tarqalishi ko'pincha past o'z-o'zini samaradorlik, stress, depressiya va tengdoshlarning ta'siri bilan bog'liq. Bunday omillar tamaki mahsulotlariga qaramlikka olib keluvchi asosiy sabablar sifatida ajratib ko'rsatildi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o'smirlar orasida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga qarshi samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish zaruratini tasdiqlaydi. Bu choralar ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlar ishtirokida tamaki mahsulotlarining salbiy oqibatlari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilishi kerak.

Kalit so'zlar: o'smir, tamaki mahsulotlari, psixologik omillar, stress, depressiya, ijtimoiy ta'sir, profilaktika.

Iqtibos uchun: Turgunov A.I. O'smirlarda tamaki mahsulotlariga bo'lgan moyillikning psixologik omillari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 506-512.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ТАБАЧНЫХ ИЗДЕЛИЙ У ПОДРОСТКОВ

© А.И. Тургунов[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются психологические факторы склонности подростков к табачным изделиям, их негативные последствия, а также влияние этих факторов в различных социальных и психологических ситуациях.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить психологические факторы склонности подростков к табачным изделиям, оценить их влияние на поведение подростков и определить пути профилактики.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведен анализ международных и национальных статистических данных, а также изучены психосоциальные и поведенческие аспекты, связанные с употреблением табачных изделий подростками.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что склонность подростков к табачным изделиям связана с низкой самооценкой, стрессом, депрессией и влиянием сверстников. Эти факторы являются основными предикторами употребления табака.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили необходимость внедрения эффективных профилактических программ с участием родителей, учителей и сверстников, направленных на повышение осведомленности о вреде табачных изделий и снижение их употребления среди подростков.

Ключевые слова: подростки, табачные изделия, психологические факторы, стресс, депрессия, социальное влияние, профилактика.

Для цитирования: Тургунов А.И. Психологические факторы табачных изделий у подростков. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.506–512.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ADOLESCENCE TO TOBACCO PRODUCTS IN ADOLESCENTS

© Abdumannop I. Turgunov[1]✉
[1]Tashkent State Technical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the psychological factors of adolescents' inclination towards tobacco products, their negative consequences, and the influence of these factors in various social and psychological situations.

AIM: the main objective of the study is to identify the psychological factors of adolescents' inclination towards tobacco products, evaluate their impact on adolescent behavior, and propose preventive measures.

MATERIALS AND METHODS: the study involved analyzing international and national statistical data, along with psychosocial and behavioral aspects associated with adolescents' use of tobacco products.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that adolescents' inclination towards tobacco products is linked to low self-efficacy, stress, depression, and peer influence. These factors are major predictors of tobacco use.

CONCLUSION: the study results confirmed the necessity of implementing effective preventive programs involving parents, teachers, and peers, aimed at raising

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

awareness about the harmful effects of tobacco products and reducing their use among adolescents.

Keywords: adolescents, tobacco products, psychological factors, stress, depression, social influence, prevention.

For citation: Abdumannop I. Turgunov. (2024) 'Psychological factors of adolescence to tobacco products in adolescents', // Inter education & global study, №(10(1)), pp.506–512. (In Uzbek).

Tamaki iste'moli dunyoda erta o'lim va kasallikning oldini olish mumkin bo'lgan asosiy sabablardan biridir [1]. Global tamaki yukining nomutanosib ulushi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi, ularda hozirgi 1,3 milliard chekuvchilarning 84 foizi istiqomat qiladi. Dunyodagi chekuvchilarning qariyb 70 foizi past va o'rtacha daromadli mamlakatlarda yashaydi [2]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tamaki tufayli yiliga 5 millionga yaqin o'limga olib keladi. 2020 yilga borib o'lim soni 10 milliondan oshishi kutilmoqda, bu o'limlarning qariyb 70 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi [3]. O'zbekistonda GYTS 2021 yilda Vazirlik tomonidan o'tkazildi. Salomatlik. Umumiy javob darajasi 92,8% ni tashkil etdi. Jami 5663 7-9-sinf o'quvchilari so'rovnomani to'ldirishdi 4536 nafari 13-15 yoshlilar edi. Ma'lumotlar talabalar uchun taqdim etiladi 13-15 yoshda.

Bolalik va o'smirlik davrida sigaret chekish yoshlar o'rtasida jiddiy sog'liq muammolarini keltirib chiqaradi, jumladan nafas olish kasalliklari soni va og'irligi, jismoniy tayyorgarlikning pasayishi va o'pkaning o'sishi va faoliyatiga potentsial ta'sir.

Eng muhimi shundaki, chekishga qaramlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi, ko'pincha balog'at yoshiga qadar va ba'zida davom etadi. Har kuni chekadigan kattalar orasida 87% birinchi sigaretini 18 yoshida va 95% 21 yoshida sinab ko'rgan.

Bolalar va o'smirlar orasida tamaki iste'moli haqida asosiy faktlar

Har kuni 18 yoshgacha bo'lgan deyarli 2500 nafar bola birinchi sigaretani sinab ko'radi va ularning 400 dan ortig'i yangi, muntazam kundalik chekuvchilarga aylanadi. 3 Ularning yarmi oxir-oqibat odatidan o'ladi [4].

Erta yoshda chekishni boshlagan odamlarda nikotinga qattiq qaramlik rivojlanish ehtimoli kechroq yoshda boshlaganlarga qaraganda ko'proq. Umri davomida kamida 100 ta sigaret chekgan o'smirlarning aksariyati chekishni xohlashlarini aytishadi, lekin bunga qodir emaslar [5].

Agar hozirgi tamaki iste'moli davom etsa, 18 yoshgacha bo'lgan hozirgi yoshlarning taxminan 5,6 millioni chekish bilan bog'liq kasallikdan bevaqt vafot etadi.[6]

O'smirlar orasida tamaki iste'molining tarqalishi

2015 yilda o'rta maktab o'quvchilarining 9,3 foizi so'nggi 30 kun ichida sigaret chekish haqida xabar berishdi, bu 1990-yillarning birinchi yarmida ko'tarilganidan keyin 1997 yildagi 36,4 foizdan 74 foizga kam [7].

2015 yilda o'rta maktab o'quvchilarining 2,3 foizi oxirgi 30 kun ichida sigaret chekishgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Biroq, umumiy tamaki iste'mol qilish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. 2015 yilda o'rta maktab o'quvchilarining 25,3 foizi va o'rta maktab o'quvchilarining 7,4 foizi tamaki mahsulotidan foydalangan.

2015-yilda o‘rta maktab o‘quvchilari orasida tamaki chekishning eng ko‘p tarqalgan turlari elektron sigaretalar (16%), sigaretalar (9,3%), sigaretalar (8,6%) va kalyan (7,2%) bo‘ldi. [7]

2015 yilda o'rta va o'rta maktab o'quvchilarining qariyb yarmi so'nggi 30 kun ichida ikki yoki undan ortiq tamaki mahsulotlarini iste'mol qilganliklarini bildirishgan.

1990 yildan beri o'smirlar va yoshlar homiladorlik davrida onaning chekish darajasi eng yuqori bo'lgan. 2014-yilda 15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan o‘smir qizlarning 10,2 foizi va 20 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan ayollarning 13 foizi homiladorlik davrida chekishgan.[8]

2014 yilda o'rta va o'rta maktabdagi hozirgi chekuvchilarning taxminan 62 foizi chekishni tashlash haqida jiddiy o'ylashgan. O'rta maktab o'quvchilarining 70 foizi va o'rta maktabda chekuvchilarning 59 foizi bir kun yoki undan ko'proq vaqt davomida chekishni tashlashga harakat qilishgan.

O'smirlar orasida tamaki iste'moli haqida qo'shimcha faktlar.

Menthol sigaretidan foydalanish yosh va yangi o'smirlar orasida ko'proq uchraydi. 10 Bu yosh chekuvchilar mentolli sigaretlarni kamroq qattiqroq va chekish osonroq deb bilishlari bilan bog'liq [11].

Bir tadqiqot shuni ko'rsatdiki, filmlarda chekishni eng ko'p iste'mol qiladigan o'smirlar filmlarda eng kam chekishni ko'rgan o'smirlarga nisbatan 2,6 baravar ko'proq chekishni boshlashadi [12].

Yaxshi xabar shundaki, chekishni tashlamoqchi bo'lgan o'smirlar uchun yordam mavjud. Amerika O'pka Assotsiatsiyasining Non-On-Tabacco (N-O-T) dasturi 14 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan chekuvchilarni tashlamoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan. Sizning hududingizda N-O-T mavjudligini bilish uchun mahalliy Amerika o'pka assotsiatsiyasi ofisiga murojaat qiling.

TAMAKI MAHSULOTINI O’ZBEKISTONDA ISHLATILISHI

Hozirgi vaqtda talabalarning 1,7%, o'g'il bolalarning 2,3% va qizlarning 0,9% har qanday tamaki mahsulotlarini ishlatgan.

Hozirgi vaqtda talabalarning 1,1%, o'g'il bolalarning 1,5% va qizlarning 0,6% dudlangan tamaki.

Hozirgi vaqtda talabalarning 0,5%, o'g'il bolalarning 0,7% va qizlarning 0,2% chekilgan sigaretalar.

Hozirgi vaqtda talabalarning 0,7%, o'g'il bolalarning 1,0% va qizlarning 0,4% tutunsiz tamaki ishlatilgan.

ELEKTRON SIGARETLAR

Hozirgi vaqtda talabalarning 0,7%, o'g'il bolalarning 1,1% va qizlarning 0,3% ishlatilgan elektron sigaretalar.

IKKINCHI TUTUK

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Talabalarning 6,9 foizi uyda tamaki tutuniga duchor bo'lgan.
16,0% o‘quvchilar ichida tamaki tutuniga duchor bo‘lgan
yopiq jamoat joylari.
REKLAMA VA AKSIYA
Deyarli har 10 o'quvchidan 6 nafari (59,6%) tamaki chekishni payqagan
ommaviy axborot vositalaridagi xabarlar.
Deyarli har 10 o'quvchidan 1 nafari (8,1%) tamaki chekishni payqagan
savdo nuqtalariga tashrif buyurganingizda reklama yoki aktsiyalar.
100 dan 3 nafardan ortig'i (3,2%) o'quvchida biror narsa bor edi
unda tamaki brendi logotipi.
BILIM VA MUNOSABAT
Talabalarning 74,2 foizi, albatta, boshqalarnikini o'ylagan
tamaki chekish ular uchun zararli.
Talabalarning 83,6 foizi ichkarida chekishni taqiqlashni ma'qullagan
yopiq jamoat joylari.
Xulq-atvor salomatligi va tamaki iste'mol qilish stavkalari

Taxminlarga ko'ra, sigaret chekuvchilarning 35 foizida xulq-atvorda sog'liq muammolari mavjud va ular AQShdagi kattalar sigaret iste'molining 38 foizini tashkil qiladi [1].

Milliy sigaret chekish darajasi kattalar orasida umumiy 14% bo'lishiga qaramay, xulq-atvori buzilgan shaxslar uchun 23% ni tashkil qiladi.1

Xulq-atvori sog'lig'i buzilgan shaxslar uchun nikotinga qaramlik darajasi umumiy aholiga qaraganda 2-3 baravar yuqori.

Ruhiy salomatlik uchun chekishni to'xtatishning muhimligi shundaki, Chekishni tashlash jismoniy salomatlikni yaxshilashini hammamiz bilamiz.

Ammo bu sizning ruhiy salomatligingiz va farovonligingizni ham oshirishi mumkin: u kayfiyatni yaxshilaydi va stress, tashvish va depressiyadan xalos bo'lishga yordam beradi. Ko'pchilik chekuvchilar chekishni xohlashlarini aytishadi, lekin ba'zilari chekishni davom ettirishadi, chunki chekish stress va tashvishlarni engillashtiradi. Chekish dam olishga yordam beradi, degan keng tarqalgan e'tiqod. Ammo chekish aslida tashvish va kuchlanishni oshiradi. Depressiyaga uchragan kattalar depressiyasiz kattalarga qaraganda chekish ehtimoli ko'proq.

Nima uchun chekish bizga dam olishga yordam beradi; chekish sigaretalar miyadagi ba'zi kimyoviy moddalarga xalaqit beradi; sigaret chekuvchilar bir muddat sigaret chekmagan bo'lsa, boshqasiga bo'lgan ishtiyoq ularda asabiylashadi va xavotirga tushadi.

Bu his-tuyg'ular sigareta yoqqanda vaqtinchalik engillashishi mumkin. Shunday qilib, chekuvchilar yaxshi kayfiyatni chekish bilan bog'lashadi. Darhaqiqat, birinchi navbatda, chekishning ta'siri, ehtimol, tashvishga sabab bo'lgan. Chekishni tashlash kayfiyatni yaxshilaydi va tashvishlarni kamaytiradi. Chekishni tashlashning ruhiy salomatlik foydalari.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Odamlar chekishni to'xtatganda, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: tashvish, depressiya va stress darajasi pastroq; hayot sifati va ijobiy kayfiyat yaxshilanadi; ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarni davolash uchun ishlatiladigan ba'zi dorilarning dozasini kamaytirish mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'smir talabalar orasida tamaki iste'moli keng tarqalgan. Tamaki iste'mol qilish xavfi erkaklarda va cho'ntak pulini ko'p oladigan talabalarda yuqori ekanligi aniqlandi. Psixo-ijtimoiy omillar, masalan, umumiy o'z-o'zini samaradorligining pastligi, tengdoshlar, o'qituvchilar va maktablar bilan moslashishlar ham tamaki iste'molini bashorat qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi. Natijalar o'smirlar o'rtasida ushbu muammoni bartaraf etishda zudlik bilan samarali choralar ko'rish zarurligini ta'kidladi. Bu ular uy, maktab va jamoat joylari kabi duch keladigan bir nechta psixologik-ijtimoiy muhitda xatti-harakatlarga aralashuvni talab qiladi.

Ogohlantirish dasturlari yo'lga qo'yilishi va ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlar guruhlari ularni tamaki oqibatlari to'g'risida o'rgatish va muammoni bartaraf etishda ularning samaradorligini baholash uchun jalb qilinishi mumkin.

Tamaki kompaniyalari rivojlanayotgan mamlakatlarda agressiv ravishda yangi bozorlarni qidirmoqdalar, chunki ular rivojlangan mamlakatlarda ko'proq tartibga solinmoqda [12]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'smirlar o'rtasida tamaki iste'moli epidemiyasining kuchayishiga olib keladigan boshqa omillar tamaki mahsulotlarining ko'pligi, tamakiga qarshi kurash choralarining kuchsizligi, ushbu mahsulotlarga oson kirish va arzonligi bilan birga keladi [13].

Xulosa, Tadqiqotlarimizning asosiy natijalari shundan iboratki, psixologik omillar o'smirlarning chekishni o'tish davrining asosiy bashoratchilari bo'lib, 22-27% ehtimollik bilan bu psixologik xavf omillarining har birida yuqori ball olish o'smirning umumiy ehtimoliga hissa qo'shgan.

Chekishni sinab ko'rishni bashorat qilish uchun ushbu psixologik omillarning ehtimoli har bir ota-ona va yaqin do'stning chekish ehtimolidan kattaroq edi; (3) Ota-onalarning rioya qilishlari o'smirning ota-onasi sigaret chekganda chekishni sinab ko'rish ehtimoliga yuqori hissa qo'shgan, do'stning muvofiqligi esa o'spirinning do'sti chekayotganda chekishni sinab ko'rish ehtimoliga yuqori hissa qo'shgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. U.S. Department of Health and Human Services. Preventing Tobacco Use Among Young People: A Report of the Surgeon General, 1994
2. Substance Abuse and Mental Health Services Administration. National Survey on Drug Use and Health, 2014. Analysis by the American Lung Association Epidemiology and Statistics Unit Using SPSS Software.
3. Substance Abuse and Mental Health Services Administration. 2015 National Survey on Drug Use and Health: Detailed Tables. 2016.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

4. Centers for Disease Control and Prevention. Office on Smoking and Health. Sustaining State Programs for Tobacco Control: State Data Highlights, 2006. Accessed on June 9, 2008.
5. American Legacy Foundation. 2000. National Youth Tobacco Survey. 2001.
6. U.S. Department of Health and Human Services. The Health Consequences of Smoking—50 Years of Progress: A Report of the Surgeon General, 2014.
7. Centers for Disease Control and Prevention. Tobacco Use Among Middle and High School Students — United States, 2011–2015. Morbidity and Mortality Weekly Report. April 15, 2016; 65(14):361-7.
8. Centers for Disease Control and Prevention. National Center for Health Statistics. CDC WONDER On-line Database, Natality public-use data 2007-2014, 2016.
9. Centers for Disease Control and Prevention. National Youth Tobacco Survey, 2014. Analysis by the American Lung Association Epidemiology and Statistics Unit using SPSS software.
10. Hersey JC, Nonnemaker JM, Homsi G. Menthol Cigarettes Contribute to the Appeal and Addiction Potential of Smoking for Youth. Nicotine & Tobacco Research. 2010; 12(Suppl 2):S136–S146.
11. Klausner K. Menthol Cigarettes and Smoking Initiation: A Tobacco Industry Perspective. Tobacco Control. 2011; 20(Supp 2):ii12–ii19.
12. Lee YO, Glantz SA. Putting the Pieces Together. Tobacco Control. 2011; 20(Suppl 2):ii1–ii7.
13. Sargent JD et al. Exposure to Movie Smoking: Its Relations to Smoking Initiation Among US Adolescents. Pediatrics. November 5, 2005; 116(5):1183-91.
14. P. Fagan, M. Eisenberg, L. Frazier, A. M. Stoddard, J. S. Avrunin,and G. Sorensen, “Employed adolescents and beliefs about self-efficacy to avoid smoking,” Addictive Behaviors, vol. 28, no. 4,pp. 613–626, 2003.[12] C. T.
15. Sreeramareddy, P. V. Kishore, J. Paudel, and R. G. Menezes,“Prevalence and correlates of tobacco use amongst juniorcollegiates in twin cities of western Nepal: a cross-sectional,questionnaire-based survey,” BMC Public Health, vol. 8, article97, 2008.
16. Nurmatov, A. (2024). O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg’on axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik omillari. Inter education & global study, (4(2)), 439-444.
17. Nuralievich, N. A. (2023). Psychological impact of professional identification medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Turgunov Abdumannop Inomjonovich**, katta o‘qituvchi [**Тургунов Абдуманноп Иномжонович,** старший преподаватель], [**Abdumannop I. Turgunov**, senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: г.Ташкент, Чиланзар, улица Гавхар, дом 1], [address: Tashkent city, Chilanzar, Gavkhar street, house 1].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS' INDEPENDENT THINKING

© D.Z. Tursunova[1]✉

[1]Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the psychological aspects of the formation of independent thinking among students, as well as the role of national values and the contribution of encyclopedic scientists in the educational process. The relevance of using approaches that promote the development of thinking in the context of modern reforms is considered.

Итак, мыслительная деятельность слепых подчиняется в своем развитии тем же закономерностям, что и мышление нормально видящих. И хотя сокращение чувственного опыта вносит определенную специфику в этот психический процесс, замедляя интеллектуальное развитие и изменяя содержание мышления, оно не может принципиально изменить его сущность. Отмеченные выше отклонения в развитии мышления от нормы могут быть в значительной степени преодолены в результате обучения, направленного на формирование полноценных знаний, в которых чувственное и понятийное представлены в единстве.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Выготский, Л.С. (1983). Мышление и речь. Москва: Издательство РАН.
2. Сухарева, Н.В. (2010). Психология и педагогика детей с нарушением зрения. Санкт-Петербург: Питер.
3. Григорьева, О.В. (2015). Особенности развития познавательных процессов у детей с нарушением зрения. Москва: Просвещение.
4. Волкова, Е.И. (2012). Формирование понятийного мышления у детей с ограниченными возможностями здоровья. СПб: Алетейя.
5. Соловьева, Т.В. (2007). Психологическая коррекция и развитие детей с нарушением зрения. Москва: Наука.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

6. Шмидт, В.В. (2010). Методы исследования психического развития детей с нарушениями зрения. Москва: Издательство МГУ.
7. Костючек, Н.С. (2011). Экспериментальные исследования в области тифлопедагогики. Санкт-Петербург: Речь.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Юсупова Н.Ю.**, доцент [**Yusupova N.Y.**, dotsent], [**Yusupova N.Y.**, associate professor]; адрес: 100190, город Ташкент, Юнусабадский район, улица Юкори Каракамыш дом 2а, [manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, yukori Korakamish ko'chasi 2a-uy], [address: 100190, Tashkent city, Yunusabad district, 2a Yukori Korakamish Street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

O‘ZBEK VA TOJIK DUTORLARI GENEZISI

© N.Sh. Abdullayeva[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o‘zbek va tojik dutorlarining genezisi va ularning rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Dutorlar nafaqat o‘zbek, balki tojik, uyg‘ur va boshqa markaziy osiyo xalqlari madaniyatida ham muhim o‘ringa ega. Ushbu maqolada duto‘rning san’atdagi o‘rni, ijrochilik uslublari va madaniy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek va tojik dutorlarining tarixiy rivojlanishini o‘rganish, ularning madaniyat va musiqa san’atidagi o‘rnini tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy musiqadagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda o‘zbek va tojik dutorlarining tarixiy rivojlanishi, manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ma’lumotlar tarixiy va madaniy kontekstda ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar, o‘zbek va tojik dutorlarining rivojlanishi, tarixiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, ularning zamonaviy musiqada o‘rni to‘g‘risida muhim ma’lumotlar taqdim etdi.

XULOSA: tadqiqot natijalari o‘zbek va tojik dutorlarining tarixiy va madaniy ahamiyatini tasdiqladi. Ularning musiqiy merosi xalqning ma’naviy boyligi sifatida saqlanmoqda va rivojlanmoqda.

Kalit so‘zlar:genesis, dutor, cholg‘u asbobi, zamonaviy musiqa, doston, madaniyat, san’atkor.

Iqtibos uchun: Abdullayeva N.Sh. O‘zbek va tojik dutorlari genezisi. San’atshunoslik va madaniyat, // Inter education & global study, 2024. №10(1), B.551–557.

ГЕНЕЗИС УЗБЕКСКИХ И ТАДЖИКСКИХ ДУТАР

© Н.Ш. Абдуллаева[1]✉
[1]Узбекская государственная консерватория, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются генезис и развитие узбекского и таджикского дутара, их влияние на музыкальную культуру и современное искусство. Описаны также функции дутара как музыкального инструмента и его роль в эпическом творчестве.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить историческое развитие узбекского и таджикского дутара, их культурно-историческое значение, а также роль в современной музыке и эпических произведениях.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для исследования использованы исторические и музыкальные источники, а также данные о развитии дутара в различных культурах. Анализ проводился с точки зрения музыкальной и культурной эволюции.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали важность дутара в музыкальной культуре Центральной Азии, его культурное значение и роль в развитии эпических произведений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование подтвердило важность узбекского и таджикского дутара как неотъемлемой части музыкального наследия, которое сохраняется и развивается до сих пор.

Ключевые слова: генезис, дутор, музыкальный инструмент, современная музыка, эпос, культура, артист.

Для цитирования: Абдуллаева Н. Ш. Генезис узбекских и таджикских дутары. Искусствоведение и культура, // Inter education & global study, 2024. №10(1), С. 551–557.

THE GENESIS OF UZBEK AND TAJIK DUTARS

© Nilufar Sh. Abdullayeva[1]✉
[1]Uzbek State Conservatory, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the genesis and development of the uzbek and tajik dutars, their influence on musical culture and contemporary art. The functions of the dutar as a musical instrument and its role in epic creativity are also discussed.

AIM: the main objective of the study is to examine the historical development of uzbek and tajik dutars, their cultural and historical significance, and their role in modern music and epic works.

MATERIALS AND METHODS: the study involves an analysis of historical and musical sources as well as data on the development of the dutar in various cultures. The analysis is conducted from the perspective of musical and cultural evolution.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show the importance of the dutar in the musical culture of central asia, its cultural significance, and its role in the development of epic works.

CONCLUSION: the research confirms the importance of uzbek and tajik dutars as an integral part of musical heritage, which continues to be preserved and developed to this day.

Keywords: genesis, dutar, musical instrument, modern music, epic, culture, artist.

For citation: Nilufar Sh. Abdullayeva. (2024) 'The Genesis of Uzbek and Tajik Dutars', // Inter education & global study, (10), pp.551–557. (In Uzbek).

O'zbek xalqi musiqa san'atining tarixi juda qadimiy bo'lib, ulkan madaniy merosga va boy musiqa cholg'ulariga egadir. Arxeologik topilmalar hamda turli yozma manbalarga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

tayanib aytishimiz mumkinki yurtimiz hududlarida eramizdan bir necha asrlar oldin qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘d ellarida nihoyatda boy va rang-barang musiqa san’ati mavjud bo‘lgan. Ushbu davlat shaharlari (masalan, Ayritom, Afrosiyob hududlaridan, xususan Tuproq qal’adan topilgan ikki torli cholg‘u – mil.avv. IV-III asrlar)ning qoldiqlari o‘rnida olib borilgan qazilma ishlari jarayonlarida topilgan mayda tosh haykalchalar, tasviriy san’at namunalari hamda frizlarda sozandalar qo‘llarida chang (arfa), udsimon, naysimon va doirasimon cholg‘ular bilan tasvirlanganligi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. O‘sha davrlardagi musiqiy ohanglar qanday bo‘lganini bilmasakda mazkur tasvirlardagi cholg‘ular tuzilishiga qarab ularni taxminan tasavvur qilishimiz mumkin.

Bizning zamonamizda mavjud bo‘lgan tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, rubob, qonun kabi musiqiy cholg‘ular asrlar davomida takomillashib, rivoj topib kelgani shubhasiz. Bular orasida o‘z ohang doirasi va o‘ziga xos ijro uslubi bilan ajralib turadigan dutor o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan cholg‘ulardan bo‘lib, uzoq zamonlardan buyon kishilarga ma’naviy va ruhiy ozuqa berish bilan xizmat qilib kelmoqda. Dutor cholg‘usi hozirgi kunda ham yosh sozandalar orasida keng o‘rin olgan.

Dutor juda qadimiy cholg‘ulardan biri bo‘lib, ijro etishimkoniyatlari tanburga nisbatan engilligi sababli oddiy xalq orasida ommaviy bo‘lgan. O‘ziga xos shirador va past ovozga egaligi sababli ayniqsa ayollar orasida keng tarqalgan. Uning paydo bo‘lish tarixi xaqida xalq orasida hatto ayrim rivoyatlar ham uchraydi. Jumladan:

“Tunda hammadan berkitib musiqa asbobi yasayotgan sozgarning shogirdi ustozi qanday cholg‘u tayyorlayotganini bilib olish uchun xona darchasidan mo‘ralabdi. Biroq unga sham yorug‘ida devorga tushib turgan cholg‘uning soyasi ko‘rinibdi xalos. Shunda u ham o‘z xonasiga borib ko‘rgani bo‘yicha musiqa asbobini yasashga kirishibdi. Tongda ishini tugatgan ustaga shogird ham o‘z cholg‘usini keltirib ko‘rsatibdi, biroq ustoz yasagan soz dastasi ingichga kosaxonasi katta ekan. Devordagi soyada dastasi yo‘g‘on kosaxonasi kichik bo‘lib ko‘ringani uchun shogirdning cholg‘usi boshqacha chiqibdi. Shunday qilib o‘shanda ustoz sozgar dutorni, shogirdi esa tanburni ixtiro qilgan emish”.

Dutor forsiycha “ikki tor” degan ma’noni bildiradi. Bizga ma’lum bo‘lgan u xaqidagi dastlabki ma’lumotlar Zaynullobiddin Husayniyning “Qonun” (boshqa nomi “Qonuni ilm va amali musiqiy”) musiqiy risolasida keltirilgan. XV asrning yozma yodgorliklaridan biri bo‘lgan ushbu risola Hazrat Navoiyning maxsus topshiriqlari asosida vujudga kelgan bo‘lib, fors tilida, arab imlosida bitilgan. Alisher Navoiyga bag‘ishlangan ushbu kitobida muallif o‘sha davrda mavjud bo‘lgan o‘n bir pardali, kvartaga sozlanuvchi dutor haqida qimmatli ma’lumotlarni bayon qiladi. Risolada dutor cholg‘usi dasta qismining chizmasi berilib, undagi pardalar arab alifbosi harflari asosida belgilab chiqilgan. Ushbu risola taniqli musiqa tadqiqodchisi A.Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Bugungi kunda uning qo‘lyozma varianti San’atshunoslik ilmiy-tadqiqod instituti fondida saqlanmoqda. Tojikistonlik musiqashunos Asqarali Rajabov Husaynining risolasini bugungi kundagi kril alifbosiga solib, taxrir qilgan hamda A.Semyonov tarjimasidan nusxa

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

olib ularni bir kitobga birlashtiradi va Dushanbeda nashr qilishga muvofaq bo‘ladi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi musiqashunoslik bo‘limi bitiruvchisi (2014-2015 o‘quv yilida) A.Rahimova mavjud ikki variantlardan foydalanib ushbu risolani o‘zbek tilida taxrir qildi va bakalavrlik BMI sifatida himoya qildi.

Bizga ma’lumki, dutor o‘zining o‘tmishdoshi hisoblangan, Qashqadaryo-Surxandaryo vohalarida istiqomat qiluvchi xalq baxshilari keng foydalanadigan do‘mbira cholg‘usibilan yaqin o‘xshashlik kasb etadi. Ushbu o‘xshashlik ular o‘rtasidagi tashqi ko‘rinish, ijro uslubi va ohang tarovati bilan namoyon bo‘lib, dutorni do‘mbira cholg‘usining takomillashgan turi deyishimiz ham mumkin. O‘zbek mumtoz musiqasini birinchilardan bo‘lib ilmiy asoslab bergan atoqli olim Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida do‘mbira cholg‘usini o‘zbeklarning yana bir etuk cholg‘ularidan biri “tanbur” bilan nomdosh deb hisoblaydi. Unga ko‘ra “tanbur” baxshilar do‘mbirasining o‘zgargan shaklidir. Taniqli musiqashunos Otanazar Matyoqubov esa “Maqomot” risolasida, Forobiyning musiqashunoslikka oid risolalarida qayd etilgan ma’lumotlarga tayanib, quyidagi fikrlarini bayon qilgan: “Forobiy tanburning bir-biridan farqlanuvchi ikki xiliga batafsil tavsif beradi. Ular Xuroson va Bag‘dod tanburlari deb nomlanadi hamda musiqa madaniyatining taraqqiyot bosqichi sifatida qaraladi. ...Xuroson tanburi o‘zining ko‘plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi. Birinchidan, Xuroson va Bag‘dod tanburlari Forobiyda ikki torli cholg‘u sifatida ko‘rsatilgan. Ikkinchidan, Xuroson tanburining tovushqatori parda tuzilmasi va ko‘lami (ambitusi) o‘zbek dutorlariga juda yaqin”. Forobiy zamonasida arab tili ilmiy til bo‘lganini inobatga olsak, fors tili hukmronlik qilgan davrlardan boshlab Forobiy zikr etgan Xuroson tanburi – “Dutor”, ya’ni ikki torli cholg‘u, deya atala boshlangan deyish mumkin. Ushbu fikrni Fitratning o‘z risolasida, Darvesh Ali Changiy ma’lumotlariga tayanib, Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy ismli musiqachi ikki torli tanburga uchinchi torni qo‘shgani va u “setor” deb atalgani xaqida yozgan ma’lumotlari ham tasdiqlamoqda. Bulardan tashqari Husayniydan keyin XV-XVI asrlar musiqasi va cholg‘ulari xaqida ma’lumot beruvchi Darvesh Ali Changiyning (XVI-XVII asr) “Risolai musiqiy” sida dutor cholg‘usi va unda ijro etadigan mashxur sozandalar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Darvesh Ali ham o‘z navbatidamusiqa cholg‘ularidan tanbur haqida ma’lumot berar ekan, uning torlari XVI asrlargacha ipakdan bo‘lganini, mohir ijrochilar tanbur tovushining tembri yanada jozibador bo‘lishi uchun kumush va mis simlaridan foydalanishgani haqida yozadi. Shu o‘rinda mohir sozanda, o‘zbek xalqining iftixori bo‘lgan ustoz san’atkor Turg‘un Alimatovning bu borada bildirgan fikrlari qimmatli ahamiyatga ega: “...Turg‘un Alimatov ta’rifiga ko‘ra dutor va tanbur (ustoz bu so‘zlarni doim qo‘shib dutor-tanbur deydilar), aslida bir narsa, ya’ni yagona muazzam cholg‘uning dutor – pinxoniy, mayn (“ayol”) tanbur esa oshkoriy, qattiq (“erkak”) ko‘rinishi. Tanburga sim tortilib, temir noxun bilan ijro etiladi. Bag‘ri yumshoq puka tut yog‘ochidan yasalgan dutorning ipak torlari barmoqlarning uchi, ya’ni eng yumshoq joylari bilan silab chalinadi.”

Oradan ikki asr o‘tgach (ya’ni XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida) Turkistonga kelgan qator sayyoxlar va diplomat (elchi)larning xotiralari va yozishmalarida dutor

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

to‘g‘risida bildirilgan ayrim fikrlarni uchratamiz. Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur ma’lumotlar yo‘l-yo‘lakay taassurotlardan iborat bo‘lib, ularda masalaga maxsus va atroflicha yondashuv tamoyili sezilmaydi.

V.M.Belyayevning “O‘zbekiston musiqa cholg‘ular” (“Muzыkalnыe instrumentы Uzbekistana”) asarida bayon qilingan fikrlar dutorni cholg‘u sifatida o‘rganishga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bu asarida muallif boshqa musiqiy asboblar qatorida dutorning ham o‘zbek cholg‘ushunosligida egallagan o‘rni, ta’sir doirasi va ijrochilik masalalarigacha yoritib beradi.

Shu bilan birga o‘zbek musiqashunosligi sohasida birinchilardan bo‘lib milliy cholg‘ularning tuzilishini ilmiy asoslab bergan Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927y, qayta nashr-T.,1993) risolasida hamda Mulla Bekjon Raxmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi” (1925y, qayta nashr-T.,1998)da dutor cholg‘usining imkoniyatlari, unda ijro etiladigan cholg‘u kuylari va sozandalik sohasi haqida muxtasar ma’lumotlar keltiriladi. A.Fitrat o‘z risolasida “Dutor chalish tanbur chalishg‘a qarag‘anda engil bo‘lg‘ani uchun bu cholg‘u xalq orasida tanburga ko‘ra ko‘prak chalinadir..” deya ma’lumot bersa, Xorazm musiqiy tarixchasida “...chertilishida dutor tanburga qaraganda qiyinroq chertiladi”, - kabi qimmatli fikrlar bildiriladi.

Zamonaviy musiqashunoslikda dutor va dutor cholg‘u musiqasiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Bu borada qator mualliflarning ushbu cholg‘uga bag‘ishlangan tadqiqotlarida, xususan F.Karomatli, J.Rasultoyev, R.Boltayev, R.Abdullayev, O.Matyoqubov, S.Begmatov va boshqa musiqashunoslarning ilmiy ishlari va maqolalarida, dutorning o‘zbek xalqi hayoti va cholg‘u musiqasidagi o‘rni, ijrochilikning uslub va usullari haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbek dutor ijrochiligining o‘ziga xos ijro uslublari, ustoz-shogird munosabatlari hamda dutor cholg‘usining yasalish jarayonini yoritib bergan J.K.Rasultoyevning “O‘zbek dutor ijrochiligi” o‘quv ko‘llanmasi ham bu sohadagi muhim manbalardan hisoblanadi.

Tojik epik ijodi ham o‘z ildizlari bilan qadim davrlarga borib taqaladi. Tojik xalqining ajdodlari tomonidan yaratilgan qahramonona mifologik xarakterdagi epos, ya’ni dostonlar turkumi Firdavsiyning (934-1020) “Shohnoma” asaridan o‘rin olgan. Tojik xalqi ajdodlarining yorqin madaniy ijod mahsuli, ular tomonidan yaratilgan qahramonlik dostonlari va ertaklaridir, - deb yozadi B.G.Gafurov. Yorug‘likning zulmatga qarshi abadiy kurashi, yaxshilik va yomonlik iblislarining o‘zaro jangi, olov hamda ajdahoga qarshi kurashlar xususidagi doston va ertaklar shu jumlaga kiradi. Bu dostonlar orasida “Rustam haqida doston” kabi turkumli asar juda mashhurdir. Yaqin vaqtlargacha tantanalarda uning siymosi aks ettirilgan ulkan qo‘g‘irchoqlar o‘ynatilgan. Tojikistonda hozirgi kunga qadar shu dostonga o‘xshash ertak ommalashib, uni zarkokil Zarina haqidagi doston deyishadi. Bu asar Zarina ismli sak qahramon ayoli haqida.

Tog‘li Tojikiston hududida hanuzgacha ommalashib kelayotgan doston – bu “Dostoni Go‘ro‘g‘li sulton”dir. Mazkur asar mazmunining yoritilishida xalq qahramoni – Go‘ro‘g‘lining yaqin donishmand maslahatchisi hofiz Soqiy muhim roly o‘ynaydi. Tojik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

xalqida qahramonlik, jasurlik, vatanparvarlik mavzuidagi dostonlardan tashqari ishqiy-lirik mavzudagi dostonlar ham keng tarqalgan. Bular “Layli va Majnun”, “Toxir va Zuhra”, tog‘li hududlarda “Toshbek va Gulqurbon” kabi asarlardir.

Pomir - O‘rta Osiyodagi eng baland tog‘ bo‘lib, u Tojikistonning avtonom o‘lkasi hisoblanadi. Va Tog‘li Badaxshon deb ataladi. Pomir Xitoy va Afg‘oniston bilan chegaradosh. Sharqiy Pomir vodiysi – Murg‘ob tumanida chorvador-qirg‘izlar istiqomat qilsa, Panj daryosi qirg‘oqlari, g‘arbiy Pomirda tojiklar yashaydi. Ular “pomiroldi xalqlar” guruhini tashkil etadi.

Pomirliklarning xalq musiqa va teatr san’ati ko‘p yillar davomida o‘rganilmay qolib ketgan. Pomir folklori xususidagi ilk qaydlarni rus sayohatchilari, geograflari, biologlari, etnograflari, lingvistlarining XIX asr mobaynida chop etilgan asarlarida ko‘rish mumkin.

Xalq musiqa, raqs va teatr san’atining deyarli barcha sohalari erkaklar faoliyati bilan bog‘liq. Ayollar esa yuzlarini berkitmasdan barcha tomoshalarni ko‘rsalar-da, raqs tushish va qo‘shiq aytishga ruxsat berilmagan. Beva ayollar bundan istisno edi, ularga ba’zan qo‘shiq aytib, raqsga tushish man etilmagan. Ayollar dam olishi nihoyatda chegaralangan bo‘lib, faqat ayrim chekka qishloqlardagina nikoh to‘yida kuyovning onasi va opasigina mehmonlar oldida raqsga tusha olgan. Ba’zan esa to‘y marosimlarida ayollarning o‘zlarigina ichkarida bazmu-jamshid uyushtirishgan.

Xalq qo‘shiqchilik ijodining qadimiy turlarini kechroq yaratilganlari bilan taqqoslaganda, ular o‘rtasidagi uzviy aloqani, murakkab turlarning oddiylardan kelib chiqqanini kuzatish mumkin. Asrlar mobaynida rivojlanib, takomillashib kelgan tojik xalq cholg‘uchiligi nihoyatda boydir. Uni ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga yasalishi jihatdan oddiy va turlari kam sonli bo‘lgan tog‘li Tojikiston cholg‘ulari kiradi. Ularga damli cholg‘ulardan tutik va qo‘shnay, torli sozlardan g‘ijjak, do‘mbirak va pomir rubobi, zarbli cholg‘ulardan doira va tavlak mansubdir.

Do‘mbirak – ikki torli chertma cholg‘u bo‘lib, yakkaxon soz sifatida ham, doston ijrosiga jo‘rnavoz sifatida ham qo‘llaniladi.

Tojik xalq musiqa cholg‘ularining ikkinchi guruhi asosan Tojikiston vodiysi, xususan shahar aholisi orasida keng tarqalgan. U o‘z toifasiga ko‘ra ko‘p sonlidir. Cholg‘ular o‘zining tashqi go‘zalligi bilan ham e’tiborni tortadi. Bu guruhga qo‘shnaydan tashqari, nay, surnay, karnay kabi damli cholg‘ular; torlilardan g‘ijjakdan tashqari, dutor, tanbur, rubob va chang, zarbli sozlardan doiradan bo‘lak qayroq va nog‘oralar kiradi.

Dutor-qadimiy ikki torli cholg‘u bo'lib, korpusi noksimon, yupqa yog‘och plastinkalardan (kavurga dutor) yelimlangan yoki tut yog‘ochidan ichi bo‘sh qilingan. Dutorning yog‘och tovush taxtasi yupqa, cholg‘uning uzun bo‘ynida 13-17 ta bog‘langan parda bor. Dutorning uzunligi 1150-1200 mm. Dutor ikki ipak tor bilan jihozlangan bo‘lib, uning o‘lchovi pastda xromatik, tepada esa diatonik. Dutorning ovozi baland emas, xarakterli tovush bilan (ijrochining mixlarining ovoz paneliga ta'siridan). Dutor chalishning ijro texnikasi o‘ziga xosdir. Asbob nafaqat torlarda barcha barmoqlarni, balki uchta barmoqni ham qo'llaydi , ko'rsatkich va bosh barmog'i bilan almashinadigan zarbalar,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

shuningdek, bitta barmoq bilan urish yoki shitirlash bilan individual urishlar. Ovoz paneli o'rtasida o'ng qo'l bilan tremolo ko'rinishidagi odatiy usullardan tashqari, ba'zi dutorchilar ko'prik yaqinida, ba'zan esa deyarli barmog'ining o'zida ham turli usullardan foydalanadilar. Dutor xalq va professional ijrochilar tomonidan yakkaxon va ansambl cholg‘usi sifatida qo‘llaniladi. Dutorning vokal va raqs san’ati bilan yaqin aloqasi bor. Qo‘shiq va raqsga turli dutor kuylari jo‘r bo‘ladi. Shashmakning mumtoz musiqasining kichik qismlari va cholg‘u bo‘limlari dutorda ijro eetiladi 20-asrning 30-yillarida tojik xalq cholg‘u asboblari orkestri tarkibiga takomillashtirilgan dutorlar oilasi (prima, viola, bas, kontrabas) kirdi.

Milliy cholg‘ular, ularning ijrochilik an’analari, uslub va usullari musiqashunoslik va ijrochilik sohasida juda ko‘p o‘rganiladigan tarmoq bo‘lib, ularda ijro etiladigan kuy-qo‘shiqlar insonlar turmush tarzida muhim o‘rin tutish bilan birga uning ma’naviyati, musiqiy tafakkuri haqida ma’lumot beruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bunday asarlar nomoddiy madaniy meros namunalaridan bo‘lib, xalqimizning ma’naviy boyligi, tuganmas xazinasidir. Cholg‘u musiqasi, xususan dutor kuylari ana shunday nodir durdonalardan biridir. Dutorning o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlangan ijrochilik uslublari, dillarni qitiqlovchi mayin ovozi hamda ma’lum ma’nodagi ikki ovozli cholg‘u musiqasi unga umrboqiylik baxsh etilishiga, qardosh xalqlarning barcha yoshdagi a’zolari orasida suyub tinglanishiga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda mavjud ko‘hna asarlar bilan birga zamonaviy bastakor va sozandalarning ijod mahsullari ham qardosh xalqlar musiqiy xazinasining oltin fondidan joy olmoqda. Mana shunday durdona asarlarni xalqimizgi mukammal va professional tarzda yetib borishiga asosiy sababchilaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ражабов А. Зайнуллобиддин Х. Қонуни илм ва амали мусиқа. Душанбе. 1987.
2. Дарвеш Али Чангий.Мусиқий рисола (А.Семёнов тахрири остида). Т:.,1978.
3. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи.Тошкент.,1993.
4. Расултоев Ж. Ўзбек дутор ижрочилиги. Т.,1997.
5. Зияева М. Дутор (Ф.Содиқов ижро услуби) тулдирилган ИИнашр. Тошкент., 2011.
6. Тошпўлатова И. Анъанавий дутор ижрочилиги. Тошкент., 2004.
7. Дутор наволари. Ўзбекистон халқ артисти Ориф Қосимов репертуаридан. И китоб, Т.,1980. ИИ китоб Т:.,1983. Тўпловчи ва нотага олувчи Б.Рахимжонов
8. Таджикская музыка. Сборник. Душанбе. 2003

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Nilufar Shamshiddinovna** ,mustaqil izlanuvchi doktoranti [**Абдуллаева Нилуфар Шамсиддиновна** ,независимый исследователь докторант], [**Nilufar Sh. Abdullayeva**, independent researcher doctoral student]; manzil: O‘zbekiston, Botir Zokirov ko'chasi 1, Toshkent, Toshkent, [адрес: Узбекистан, улица Батыра Закирова 1, Ташкент, Ташкент], [address: Uzbekistan, 1 Batyr Zakirov Street, Tashkent, Tashkent].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

TERMIN VA REALIYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

© X.A. Abduqahhorova[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada termin va realiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli jihatlari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari realiya birliklari, realiya birliklarining xalqning turmush-tarzi, milliy urf-odat va an’analari hamda madaniy munosabatlari bilan aloqadorligi kabi masalalar o‘rin olgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – termin va realiyalarning o‘ziga xosliklarini aniqlash, ularning milliy, madaniy va tarixiy ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, realiya birliklarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish va tarjima jarayonidagi xususiyatlarini o‘rganish usullari qo‘llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, termin va realiyalarning farqli jihatlari ularning lingvistik va madaniy vazifalarida namoyon bo‘ladi. Realiya birliklari xalqning turmush-tarzi, urf-odatlari va tarixiy koloritini ifodalovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA: tadqiqot natijalari termin va realiya birliklarining til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani yoritishda muhim o‘rin tutishini tasdiqladi. Bunday birliklarning chuqur tadqiqi ularning tarjima jarayonidagi rolini va xalqning madaniy boyligini tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: termin, atamalar, realiya birliklari, emotsional-ekspressiv bo‘yoqlar, til va madaniyat, o‘zlashgan so‘zlar, leksema, tarixiy kolorit.

Iqtibos uchun: Abduqahhorova X.A. Termin va realiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №10(1). C.558–563.

ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНА И РЕАЛИЙ

© Х.А. Абдукаххорова[1]✉
[1]Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются особенности терминов и реалий, их сходства и различия. Кроме того, включены такие вопросы, как единицы реалии, взаимосвязь единиц реалии с образом жизни народа, национальными обычаями и традициями, а также культурными отношениями.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ЦЕЛЬ: основная цель исследования – выявить особенности терминов и реалий, исследовать их национальное, культурное и историческое значение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применялся анализ научной литературы, изучение реалий с лингвокультурологической точки зрения и их особенности в процессе перевода.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что различия терминов и реалий проявляются в их лингвистических и культурных функциях. Единицы реалий выступают основным средством выражения образа жизни, обычаев и исторического колорита народа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтвердили важность терминов и реалий в освещении тесной связи языка и культуры. Их глубокое изучение позволяет понять их роль в процессе перевода и оценить культурное наследие народа.

Ключевые слова: термин, термины, единицы реалии, эмоционально-экспрессивные краски, язык и культура, заимствованные слова, лексема, исторический колорит.

Для цитирования: Абдукаххорова Х.А. Особенности терминов и реалий. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.558–563.

CHARACTERISTICS OF TERMS AND REALITIES

© Xosiyat A. Abduqahhorova[1]✉
[1]Uzbekistan state world languages university, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the characteristics of terms and realities, their similarities and differences. In addition, issues such as the connection of realia units with the way of life of the people, national customs and traditions, and cultural relations are included.

AIM: the main objective of the study is to identify the distinctive features of terms and realities and to explore their national, cultural, and historical significance.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the analysis of scientific literature, an examination of realia units from a linguistic-cultural perspective, and their peculiarities in translation.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings showed that the differences between terms and realities are manifested in their linguistic and cultural functions. Realia units act as a primary means of expressing the way of life, customs, and historical color of a nation.

CONCLUSION: the study results confirmed the importance of terms and realities in highlighting the intrinsic connection between language and culture. Their in-depth

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

study allows for a better understanding of their role in translation processes and an appreciation of the cultural heritage of a nation.

Keywords: term, terms, units of reality, emotional-expressive colors, language and culture, borrowed words, lexeme, historical color.

For citation: Xosiyat A. Abduqahhorova. (2024) 'Characteristics of terms and realities' // Inter education & global study, (10), pp.558–563. (In Uzbek).

Bugungi kunda dunyo tillarida bo'lganidek, o'zbek tilida ham terminlarni turli atamalar va realiyalar bilan aralash holda, ya'ni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash kuzatiladi. Ba'zan, terminlarni realiya deb talqin qilish yoki atamalar bilan realiyalarning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchrab turadi.

Atamalarning realiyalardan farq qiluvchi jihatlari bolgar olimlari S.Vlaxov, S.Florinlarning ilmiy tadqiqotlarida yetarlicha asoslab berilgan. Fanda realiyalarni, avvalo terminlardan, qolaversa atamalardan farqlab olish zarur, – degan qarashlar ham mavjud. Atamalar haqida G.O. Vinokur quyidagicha fikr bildiradi. "Atamalar maxsus so'zlar emas, balki maxsus vazifadagi so'zlardir".

Termin biror fan yoki texnikaga doir aniq bir tushunchani, voqea-hodisani ifodalaydi, bir ma'noli, sinonim va emotsional-ekspressiv bo'yoqlardan xoli bo'ladi (biroq dubletlarga ega bo'lishi mumkin), ko'pincha o'zlashgan so'zlardan iborat bo'ladi.

Terminlarning umumiste'moldagi so'zlardan farqli jihati shundaki, ularning qo'llanilish doirasi chegaralangan bo'ladi. Tilda terminlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, aksincha zaruratga qarab yuzaga keladi yoki yaratiladi. Shuningdek, oddiy so'zdan farqli ravishda, terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi. Muayyan leksema terminologik maydonda termin sifatida qo'llanar ekan, uning ayni ma'nosi saqlanib qolaveradi. Biroq, ko'p komponentli terminlarning aniq ma'nosini belgilab olish uchun matn zarur.

Terminning tuzilishi masalasi, ya'ni uning necha qismdan iborat bo'lishi, ixcham-noixchamligi ham bahstalab masalalardan biri bo'lib, bu hodisaning ijobiy yoki salbiy ekanligi haqida aniq bir fikr bildirilmagan . Terminga nisbatan qo'yiladigan, lekin amalda har doim ham erishib bo'lmaydigan talablardan biri – uning ixcham bo'lishidir.

Ayni paytda, shunday xususiyatlar realiyalarda ham mavjud. A.D.Shveyserning fikricha, shunday realiyalar mavjudki, ularni bir paytning o'zida ham realiya, ham termin, deb atash mumkin, hatto "termin-realiya" degan atama ham bor. Biroq, ular o'rtasida ma'lum ma'noda farqlar ham mavjud. Masalan, realiya ham ekvivalentsiz leksika hisoblansa-da, termin kabi tarjima tilida har qanday kontekst ichida izohlanavermaydi. Masalan, uikend, grin-xoll terminlari o'zlashgan so'zlar sifatida "dam olish", "hordiq", "tomoshaxona", "o'yinxona" so'zlari bilan izohlanishi mumkin . Darhaqiqat bu terminlar kundalik hayotimizda tez-tez uchrab turuvchi neologizmlar qatoriga kirib kelayotganligi hech kimga sir emas.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Termin – milliy, tarixiy, mahalliy bo‘yoqlarga ega emas va odatda nominativ vazifani bajaradi. Realiyalar esa o‘zida mahalliy, milliy koloritni aks ettirib, badiiy ifoda vositasi sifatida ham foydalaniladigan, ma’lum bir xalq tiliga xos so‘zdir . Termindan esa muayyan bir millatga mansublikni talab qilish mumkin emas. U ifodalagan predmet yoki tushuncha turli aloqalar vositasida boshqa tillarga osongina o‘tishi mumkin.

G.V.Chernov realiyalarning terminlardan farqi haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Realiya o‘zi vujudga kelgan til qobig‘ida keng ishlatilishi, aksincha boshqa tillarga o‘tganda, begona so‘z sifatida qabul qilinishi bilan xarakterlanadi”. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ba’zi mintaqalarda uchrovchi hayvonlarni boshqasida uchratmaslik mumkin. Bunday hodisalar til leksikasida ham o‘z aksini topadi. Masalan, Afrikada uchraydigan leopard; Janubiy Amerikada uchraydigan koyot, lama; Avstraliya kengurusi singari hayvon nomlari (realiyalar)ni o‘zbek tiliga xuddi shunday o‘tgan, – deyish mumkin.

Mazkur realiyalar, ayni paytda, boshqa tillarda neologizm yaratishga ehtiyoj tug‘dirmaydi. Bunday hodisalarni boshqa sohalarda ham uchratish mumkin va ularni tarjima qilish tarjimondan lug‘atlar va ensiklopediyalarga qarash, ushbu so‘zning tarjima tilida keng yoki tor doirada tarqalganligini hisobga olish, so‘z ifodalovchi kolorit, kontekstni chuqur va atroflicha o‘rganishni talab qiladi. Masalan:

Oziq-ovqat, ichimlik va ovqatlanish joylariga oid realiyalar: palov, lag‘mon, go‘ja, ayron, qimiz, bo‘za, choyxona va b.

kiyim-kechak nomlari: chakmon, paranji, jinsi, kimono, sari, chopon;

san’at va madaniyatga oid: mustazod, lazgi, tanovar;

milliy musiqa asboblari: g‘ijjak, dutor, baraban, balalayka, gitara;

mifologiyaga oid: dev, pari, yalmog‘iz kampir, uchar gilam;

diniy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar: haj, machit, xo‘ja, eshon, darvesh va boshqalar.

Hattoki, o‘lchov va pul bilan bog‘liq realiyalar ham uchraydi.

Buning isboti sifatida R.Fayzullayevaning “Yo‘llar yiroq, ko‘ngillar yaqin” nomli maqolalar to‘plamida realiya haqida quyidagicha fikrlar ifodalangan. “Realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me’morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simliklarning nomlari, daraja, unvon, va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so‘z va iboralar kiradi” .

De’mak realiyalar terminlardan ba’zi jihatlari bilan farq qilar ekan. Realiyalar har bir tilning o‘z urf-odati, an’analari va milliy koloritini o‘zida aks ettiruvchi tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ikki tushunchani farqlash va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash borasida yana bir qancha tadqiqot ishlari diqqatimizni jalb qildi.

Tilshunos Z.Xolmonovaning “Realiyalar semantikasining tarjima matnlardagi ifodasi” nomli maqolasida atama va realiyani quyidagicha farqlaydi.

1. Atamalar ilmiy adabiyotlarda uchraydi, realiya badiiy adabiyotda va ommaviy axborot vositalarida kuzatiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

2. Atamalar milliy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmaydi, neytral ifoda ustunlik qiladi. Realiya milliy, mahalliy va tarixiy kolorit ifodasi uchun xizmat qiladi.

3. Atamalar u yoki bu tushunchani nomlash uchun sun’iy ravishda yunoncha va lotincha morfemalar asosida tanlanadi. Realiyalar esa tabiiy tilda mavjud bo‘ladi,

xalq tomonidan yaratiladi.

4. Atamalar biror narsa-buyumlarning nomi sifatida shu predmet-narsalar bilan birga tarqaladi. Muayyan millatning boyligi sifatida e’tirof etiladi. Realiyalar ma’lum bir xalq madaniyati bilan chambarchas bog‘langan, aynan shu xalq tilida umumiste’mol qilinadigan va boshqa xalqda mavjud bo‘lmagan narsa-buyum nomlaridir.

5. Atamalar tarjima muqobillariga ega birliklar hisoblanadi. Realiyalar aksariyat hollarda tarjima qilinmaydi .

Bu kabi farqlanishi haqiqatga juda ham yaqin. Masalan, Olima realiyalarni tarixiy kolorit ifodasi sifatida qaragan. Buning isboti sifatida “paranji” realiyasini olsak, bu so‘z tarixiy termin sifatida bugungi kunda umumiste’moldan chiqqan, lekin u bilan bog‘liq o‘zbek xalqining bir qancha milliy urf-odat va qadriyatlari mavjud. Tarixdan bizga ma’lumki, oldin hamma ayollar paranji ostida yurgan. Bugungi kunda “paranji” faqatgina qizni uzatib ketish chog‘ida boshga kiyiladigan kiyim sifatida ma’nosida biroz farqlanish bilan ishlatilmoqda. Hozirgi kunda ilm-fan, texnika rivojlangan bir paytda bunday realiyalar o‘z o‘rnini boshqa realiya birliklariga bo‘shatib berishiga hech shubhamiz qolmadi. Chunki, “paranji” o‘rniga “sari” leksemasining ishlatilishining guvoh bo‘lmoqdamiz. Bunday misollarni juda ko‘p keltirishimiz mumkin.

De’mak, realiya til va madaniyat bilan bog‘liq birliklar qatoriga kiradi. Terminlar esa ilm-fan sohasiga tegishli narsalarni o‘zida aks ettiradi. Shu boisdan, realiyalarni lingvokulturologiya sohasi bilan bog‘lasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Realiyalar ko‘proq badiiy matnlarda aks etadi. Masalan, “palov” realiyasi o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari va an’analarini o‘zida aks ettirgan. U taom sifatida o‘zbeklarning mehmondo‘stligi va bag‘rikengligini namoyon etadi. Milliy taom sifatida to‘y va turli marosimlarda tayyorlanadi va bu realiya birdan ortiq ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Xotinlar palovni damlagan vaqtda, boy kelib qoldi. (Oybek, Tanlangan asarlar). O‘zbek tilining izohli lug‘atida uning bir qancha turlari keltirilgan: ivitma palov, qovurma palov, samovar palov, xalta palov, choyxona palov. Ba’zi o‘rinlarda uning sinonimi sifatida osh leksemasi ishlatiladi. Osh leksemasi metonimiya asosida ma’no ko‘chishini hosil qiladi. Oshga ko‘rinmadingiz?. Oshga o‘tiring. Oshga qarang tarzida (oddiy so‘zlashuvda) ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, realiya birliklarining xalqning turmush-tarzi, madaniyati, dunyoqarashi, milliy o‘zligini va ularning so‘z boyligini oshiruvchi xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tilimizda bu birliklarni chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? – Toshkent: Fan, 1972.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

2. Baxronova D. Xorijiy so‘z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. // – Toshkent: 2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.:Международные отношения, 1986.
4. Файзуллаева Р. Йўллар йирок, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Маколалар тўплами). - Т.: 1973.
5. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. Toshkent: “Fan”, 2010.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya, darslik. – Toshkent 2019.
7. Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре. М.: Иностр. язык в школе, 1997.
8. Xolmonova Z. “Realiyalar semantikasining tarjima matnlardagi ifodasi”. Academic Research in Educational Sciences journal. 2021, 749-b.
9. Чернов Г.В. В вопросу о передаче безэквивалентной лексики при переводе публицистики на английский язык. - Москва: 1958.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi**, o‘qituvchi [**Абдукаххорова Хосият Абдурасул кизи**, преподователь], [**Xosiyat A. Abduqahhorova**, teacher]; manzil: Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi G-9a mavzesi, 21-uy Toshkent, Kichik xalqa yo'li O‘zbekiston, [адрес: Учтепинский район, улица Кичик Халка Йоли, квартал Г-9а, дом 21, Ташкент, Кичик Халка Йоли, Узбекистан], [address: Uchtepa District, Kichik Khalka Yoli Street, District G-9a, House 21, Tashkent, Kichik Khalka Yoli].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

Original paper

GLYUTTONIK DISKURSDA JOY NOMLARINI MILLIY-MADANIY ATAMALARINI QIYOSIY TAHLILI

© G. A. Kalibaeva[1]✉
[1]O‘zbekiston Milliy universiteti,Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada glyuttonik diskursda joy nomlari va ularning milliy-madaniy atamalar bilan o‘zaro bog‘liqligi, ushbu atamalarning lingvokulturologik ahamiyati yoritiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi – glyuttonik diskursda milliy-madaniy atamalarning lingvistik va semiotik tahlilini o‘tkazishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda lingvosemiotik yondashuv asosida glyuttonik pragmatonimlar va arxetiplarning tarjima jarayonidagi adekvatligi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: glyuttonik pragmatonimlar tarjimasida lingvistik muvofiqlik va adekvatlikni saqlash uchun tavsiya etilgan usullar samaradorligi ko‘rsatildi.

XULOSA: tadqiqot natijalari glyuttonik diskursning milliy-madaniy xususiyatlarini saqlash orqali tarjima sifatini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: glyuttonik diskurs, pragmatonim, lingvosemiotik, arxetip, tarjima, adekvatlik.

Iqtibos uchun: Kalibaeva G.A. Glyuttonik diskursda joy nomlari va milliy-madaniy atamalarni qiyosiy tahlil qilish. // Inter education & global study. 2024. №10(1). B. 564–568.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТОПОНИМОВ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ТЕРМИНОВ В ОБЖОРОДНОМ ДИСКУРСЕ

© Г.А. Калибаева[1]✉
[1]Национальный университет Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется взаимосвязь топонимов и национально-культурных терминов в обжорном дискурсе, а также их культурная и семиотическая значимость.

ЦЕЛЬ: цель исследования – провести лингвосемиотический анализ эквивалентов национально-культурных терминов в обжорном дискурсе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовался лингвосемиотический подход для анализа прагматонимов и архетипов в переводе.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: предложены методы, позволяющие сохранить лингвистическую эквивалентность и адекватность при переводе обжорного дискурса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исследование выявило возможности повышения качества перевода через учет национально-культурных особенностей обжорного дискурса.

Ключевые слова: обжорный дискурс, прагматоним, лингвосемиотика, архетип, перевод, адекватность.

Для цитирования: Калибаева Г.А. Сравнительный анализ топонимов и национально-культурных терминов в обжорном дискурсе. // Inter education & global study. 2024. №10(1). С.564–568.

COMPARATIVE ANALYSIS OF NATIONAL-CULTURAL TERMS OF PLACE NAMES IN GLUTTONIC DISCOURSE

© Gulnoza A. Kalibaeva[1]✉
[1] National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the relationship between place names and national-cultural terms in gluttonic discourse, highlighting their cultural and semiotic significance.

AIM: the aim of this study is to conduct a linguosemiotic analysis of national-cultural terms in gluttonic discourse.

MATERIALS AND METHODS: the research applied a linguosemiotic approach to analyze pragmatonyms and archetypes in translation processes.

DISCUSSION AND RESULTS: methods to maintain linguistic equivalence and adequacy in translating gluttonic discourse were proposed and evaluated.

CONCLUSION: the study demonstrated the importance of preserving national-cultural characteristics in gluttonic discourse for improving translation quality.

Keywords: gluttonic discourse, pragmatonym, linguosemiotic, archetype, translation, adequacy.

For citation: Gulnoza A. Kalibaeva. (2024) ‘Comparative analysis of national-cultural terms of place names in gluttonic discourse’, // Inter education & global study. 2024. (10(1)), pp.564–568. (In Uzbek).

Tilshunoslik sohasida har bir millatni tasvirlash jarayonida diskurs tushunchalari ilgari suriladi. Glyuttonik diskursda milliy madaniy tushunchalar har bir millat madaniyati va milliy qadriyatlari tasvirlab berilgan bo‘lib, leksikasida shunday glyuttonik nominantlar uchraydi. Ular shunchaki taom yoki ozuqa nominanti emas, balki, shu xalqning milliy glyuttonik arxetiplari hamdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №10(1)

